



UDK:415.61

*Xulkaroy ABDUVALIYEVA,*  
*Andijon davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi*  
*E-mail:abduvaliyevahulkaroy@gmail.com*

*ADTI ffn, professor M.A. Abduvaliyev taqrizi asosida*

### SEMANTIC CHARACTERISTICS OF TERMS RELATED TO CRAFTS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article provides information that in the process of semantic changes, the transfer of a name to a word has a special meaning based on the similarity of objects, states, actions, qualities with some features. In addition, by analyzing the original meaning of some words and dividing them into semantic groups, mainly the name / noun, adjective / adjective, verb / verb, adverb / adverb, was studied and confirmed by examples. This, in turn, indicates that a new word has been formed, that is, the sign of homonymy has been realized.

**Key words:** Lexeme, dictionary, term, metaphor, English, Uzbek, linguistic culture, lexicology.

### СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕРМИНОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К РЕМЕСЛУ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье приводится информация о том, что в процессе семантических изменений перенос имени на слово имеет особое значение, основанное на сходстве предметов, состояний, действий, качеств с некоторыми признаками. По его словам, анализируя исходное значение некоторых слов и разделяя их на смысловые группы, в основном имя/существительное, прилагательное/прилагательное, глагол/глагол, наречие/наречие, изучалось и подтверждалось примерами. Это, в свою очередь, свидетельствует о том, что образовалось новое слово, то есть реализован признак омонимии.

**Ключевые слова:** Лексема, словарь, термин, метафора, английский язык, узбекский язык, лингвокультура, лексикология.

### INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA HUNARMANDCHILIKKA OID ATAMALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada semantik o‘zgarishlar jarayonida narsa-buyum, holat, harakat, sifatlarning qandaydir belgilari bilan o‘xshashligi asosida nomning biror so‘zga o‘tishi o‘ziga xos ahamiyatga ega ekanligi haqida ma’lumotlar berilgan. Unga ko‘ra, ba’zi so‘zlarning asl ma’nosini tahlil qilib, ularni semantik guruhlariga ajratish, asosan, noun/ot, adjective/sifat, verb/fe‘l, adverb/ravish o‘rganilgan va misollar bilan dalillangan. Bu esa o‘z navbatida, yangi so‘z hosil bo‘lganidan dalolat beradi, ya’ni omonimlik xususiyati voqelanadi.

**Kalit so‘zlar:** Leksema, lug‘at, atama, metafora, ingliz tili, o‘zbek tili, lingvokulturologiya, leksikologiya.

**Kirish.** Leksemalarni tizim sifatida o‘rganish nuqtayi nazaridan leksik-semantik guruhlar muhim ahamiyatga ega. Leksemalarni semantik guruhlariga ajratish asosan noun/ot, adjective/sifat, verb/fe‘l, adverb/ravish turkumlariga xos. Har bir turkum leksemalari semantik guruhlariga turlicha ajratiladi. Leksemalarni ma’noviy guruhlash va ichki tasniflash semalar asosida amalga oshiriladi, ularni semantik guruhlariga ajratish orqali tilning lug‘at boyligini tizim sifatida chuqur anglash va tavsiflashga erishiladi.

Noun/ot leksemalar lug‘aviy ma’no tabiatiga ko‘ra turli-tuman guruhlariga ajratiladi. Masalan, dastlab kishi otlari va narsa otlariga ajratilib, kishi otlari o‘z navbatida qarindosh-urug‘chilik nomlari, amal-mansab nomlari kabi semantik guruhlariga birlashtiriladi.

Turkiy tillar bo‘yicha, jumladan, o‘zbek tili bo‘yicha ot leksemalar doirasida qanday ma’noviy guruhlar mavjudligi hali to‘liq aniqlanmagan, faqat qavm-qarindoshlik nomlari, tana a‘zolari nomlari, hayvon nomlari kabi bir necha semantik guruhlar o‘rganilgan [1].

Noun/ot leksemalar ichida narsa nomlari guruhi alohida o‘rin egallaydi. O‘zbek tilida bu guruhga mansub bo‘lgan o‘n mingdan ortiq leksema mavjud. Ana shu

leksemalarni sistema sifatida o‘rganish o‘zbek tilshunosligida faqat nazariy ahamiyatgagina emas, balki o‘zbek tilining izohli lug‘atini tuzishda katta amaliy ahamiyatga ham egadir[2].

Semantik o‘zgarishlar jarayonida narsa-buyum, holat, harakat, sifatlarning qandaydir belgilari bilan o‘xshashligi asosida nomning biror so‘zga o‘tishi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ba’zan so‘zning yangi ma’nosi asos, boshlang‘ich ma’noga o‘xshamaydi. Bu esa o‘z navbatida, yangi so‘z hosil bo‘lganidan dalolat beradi, ya’ni omonimlik xususiyati voqelanadi. Masalan: inglizcha “bellow” termini zamonaviy talqinda “qizdirilib buyum yasagan temirni sovutuvchi idish”ni anglatadi. Ushbu holatda bu kabi talqinning inglizcha qo‘llanilishi maxsus tashviqotga o‘xshaydi, ya’ni egiluvchan va qizdirib shakl yasasa bo‘ladigan narasalarini o‘z o‘rnida qotirib (yaxshi narsaga olib keladigan) “moslama” bo‘lib qolganiga ishora qilinadi.

Temirchilik atamalariga ba’zan nomlarning ko‘chishi hunarmand ishning boshqa sohalari yoki ijtimoiy-siyosiy faoliyat, fan va texnika sohalaridan o‘zlashish orqali sodir bo‘ladi. Masalan: yuridik termin hisoblangan to brief “mijozning ishini advokati bilan olib borilishiga ishora

qilishdir. Biroq ushbu termin temirchilik terminida "temirdan buyum yasashdan oldin ko'rsatma berish" ma'nosida qo'llaniladi. Shuningdek, duradgorchilikda "vazifa qo'yimoq, ko'rsatma bermoq" ma'nolarini anglatadi.

Shuningdek, zargarlik hunarmandchiligidagi inglizcha ring leksemasi o'zbek tiliga uzuk kabi tarjima qilinadi. Shu bilan birga uning quyidagi ma'nolari mavjud:

1. Ring – a piece of jewelry that you wear on your finger, consisting of a round band of gold, silver, etc sometimes decorated with precious stone: a gold ring, signet ring, wedding ring (Uzuk – barmoqqa taqiladigan, ba'zan qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan tilla, kumush va hokazolardan yasaladigan zargarlik buyumi: tilla uzuk, muhr uzuk, nikoh uzugi).

2. Ring – an object in the shape of a circle with a large hole in the middle: a key ring, onion ring, curtain ring (halqa – o'rtasida katta teshikli aylana shaklidagi metal buyum: kalit halqa, piyoz halqasi, parda halqasi).

3. Ring – a round mark or shape: She had dark rings around her eyes from lack of sleep. The children sat on the floor in a ring (halqa – yumaloq belgi yoki shaklli metal buyum: U uyqu yo'qligidan ko'zlari atrofida qora halqalar paydo bo'ldi. Bolalar gulzorga halqadek o'tirishdi).

4. Ring – a group of people who are working together especially in secret: a spy ring, a drugs ring (rishta – maxfiy holatda birga ishlaydigan bir guruh odamlar: ayg'oqchi rishtasi, giyohvandlar rishtasi).

5. Ring – to be uncomfortable and be unable to hear clearly, usually because you have heard a loud noise, the music was loud it made me ears ring (shovqindan shang'illash – noqulay bo'lish va aniq eshita olmaslik, musiqaning balandligi tufayli quloqning shang'illab qolishi).

6. Ring – as a verb to put a metal ring a round of bird's leg so that it can be used easily identified in the future (uzuk-halqa taqmoq – qush oyog'iga kelajakda osongina aniqlanishi uchun halqasimon metall uzuk taqish).

Chog'ishtirilayotgan tillar hunarmandchilik leksikasi tarkibiga kiruvchi fe'l so'z turkumiga oid umum iste'moldagi leksemalar muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida shuni ham ta'kidlash joizki, aksariyat hollarda harbiy kontekstlarda qo'llaniladigan fe'llarning tor iste'moldagi ma'nosidan foydalanish ustuvorlik kasb etmoqda. Masalan: to clear (a point)- "o'tmoq (qismga)"; to deliver fire-“(o't) yoqdirmoq (o'qqa tutmoq)”; to detail (for duty)- “tayinlamoq (naryad)”; to develop (a position)-“fosh qilmoq, razvedka qilmoq (mudofaani)”; to dress- “tekislanmoq”; to find a guard-“ajratmoq (qoravul)”; to furnish (a patrol)-“ajratmoq (qism)”; to hold out (a reserve)-“ajratmoq (zaxira)”; to mount (an attack)-“hujumga o'tmoq”; to negotiate (an obstacle)-“yengmoq (to'siqni)”. Tarjima jarayonida harbiy terminlarning o'ziga xos ma'no nozikliklarini ilg'ashda aynan bu kabi ma'nolaridan boxabar bo'lish juda muhim sanaladi.

Terminlar yasalishining sof semantik usulida bir soha terminologiyasining «mulki» bo'lgan lug'aviy birlik uning ma'nosini metaforik ko'chirish asosida ikkinchi bir sohaga o'tadi. Masalan, qovoq leksemasi botanika sohasida termin sifatida ishlatiladi. Bu lug'aviy birlik duradgorlikda «eshik, deraza, tokcha hamda mehrobning ustki qismiga o'rnatilgan yog'och kiyem» ma'nosini ham ifodalaydi: Masalan, "Poydevorning ustiga yotqiziladigan yog'och... Archa poydevor ustiga ikki qator qo'yilsa, qo'sh archa, qo'sh chorcho'p nomini oladi".

Go'sha so'zi duradgorlik atamaları semantikasida "uy burchaklaridagi yog'och ustunlar" ma'nosini ifodalab keladi. Uning umumiy tildagi mazmuni esa boshqacha: "odamlar nazaridan uzoq yer, ovloq, joy, burchak, puchmoq; faqiroq turar joy, boshpana, kulba" kabi ma'nolarini anglatib keladi.

Duradgorlikda tayyorlanadigan konstruksiyalarning qismlari ko'pincha bo'lakchalardan tashkil topadi. Masalan,

stol, taburetka, eshik, rom, etajerka, kreslo va hokazolarning hismlari deyarli brusoklardan tashkil topgan. Misollardagi ramka, korobka, shit, stol, taburetka, rom, kreslo singarilar O'TILga kiritilgan. Lekin brusok (brus kiritilgan), dila, filyonka, shtapik so'zlari ma'lum sabablarga ko'ra lug'atda o'z ifodasini topmagan.

Zamonaviy duradgorlik sanoatining vujudga kelishi munosabati bilan unga aloqador ko'pgina tushunchalarni ruscha-baynalmilal lug'aviy birliklar bilan ifodalashga to'g'ri keldi. Shu boisdan, ularni o'zbek tili talaffuz me'yorlariga to'g'ri keladigan holatda va yarim kalkalashtirish usulidan foydalanib o'zlashtirish lozim ko'rildi. Yog'ochsozlik terminologiyasida yiqiq va yoyiq tarzidagi yarim kalkalashtirilgan terminlardan ko'proq foydalanilmokda: a) yiqiq tarzidagi (300 dan ortiq): yog'och konstruksiya, taxta material, chiqindi reyka, eshik bloki, yog'och material, plyonkali eshik, deraza romi; b) yoyiq tarzidagi: ko'p qavatli shit, eshik qanoti, ichi qovonli shit, qo'sh blokli deraza va b[3].

Duradgorlik atamalarida bir tushunchani ifodalash uchun ishlatilayotgan stanok//dastgoh leksemalarining qaysi biri termin sifatida qo'llanilishi mumkin? Bu savolga javob berishdan oldin, mazkur tushuncha o'zbek tilida XX asrning ikkinchi yarmidan hozirgacha qay tarzda qo'llab kelinganligi tekshirib ko'rildi. XX asrning 50-yillarida matbuotda «yog'ochga ishlov berib, ulardan turli buyumlar tayyorlash uchun ishlatiladigan mashina» ma'nosini ifodalash maqsadida dastgoh ishlatilgan: Avtomat dastgohlardan mavjlanib oqayotgan rang-barang shoyi gazlamalar, shu to'liq bilan to'xtovsiz ko'payib bormoqda [4]. Biroq XX asrning 60-70, hatto 90-yillarida ham uning o'rnida ruscha-baynalmilal stanok so'zi ishlatilgan: Zogotovkalarda toza baza yuzalarini hosil qilish uchun asosan randalash stanoklaridan foydalaniladi [5,6].

Duradgorlik oid manbalarda «Dastasi va uriladigan qismi ko'pincha yog'ochdan qilinadigan, bosqonga o'xshash asbob» ma'nosida gurzi va to'qmoq lug'aviy birliklari ishlatib kelinmoqda. Duradgorlik asboblaridan birining gurzi deb atalishini to'g'ri deyish qiyin. Chunki og'ir gurzi bilan yog'ochga ishlov berish – kerakli buyum tayyorlash jarayonida foydalanish qanday oqibatlariga olib kelishini tasavvur qilish kiyin emas. Shunday ekan, mazkur leksema {gurzi} o'rnida O'TILda ham berilgan to'qmoq lug'aviy birligi ma'noni to'g'ri ifodalay olganligi uchun qo'llanavergani ma'qul.

Duradgorchilikda elak unni, g'alvir esa donni elash uchun ishlatiladigan uy-ro'zg'or buyumidir. G'ardishi yog'ochdan yasaladigan ikkala buyumning bir-biridan farqi faqat bir narsada – to'ri ko'zlarining zichrokligi (elakda) yoki siyrakligi (g'alvirda) yoki ularning katta-kichikligidadir. Shunday buyumlarni tayyorlovchi shaxslarning biri elakchi, ikkinchisi esa g'alvirchi deb ataladi. Lug'atda ikkala bajaruvchi shaxs nomi ham bir xil duradgor deb izohlangan.

Tadqiqot ishimizda zargarlikka oid ayrim atamalarining ham semantikasiga e'tiborimizni qaratdik. Zargarlikka oid atamalarda:

Panja – zargarlik buyumi, bezak uchun barmoqqa taqiladigan uzuk turi, ushbu taqinchoq qizlarga yoshligidayoq taqilib, turli xil ko'z, suq tegishidan, yomon kishilar nazaridan saqlovchi o'ziga xos himoya vazifasini o'tagan.

Gulband – zargarlik buyumi; ayollarning bo'yin taqinchoqi. Bo'yinni o'rab turadigan tasma hamda marjon va turli shakldagi noziklardan terib yaratiladigan to'rsimon shokilali tuzilishga ega turlari bor. Ko'krakkacha tushib turadigan shokilalar trapetsiya va boshqa shakllarda bo'lib, gullari ramziy ma'nodagi shox, uchburchak, romb va handasiy naqshlardan iborat.

“Uzuk – uchinchi barmoqdan tashqari (bu barmoqqa faqat g'assollar taqishadi) barcha barmoqlarga taqsa

bo'ladigan ziynat belgisi bo'lib, o'rtasidagi ko'ziga nodir toshlar o'rnatilgan, o'zi oltin, kumush, misdan yasalgan"[6].

Tahlillar natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, ikki tildagi taqinchoq nomlarini chog'ishtirma tahlil qilinganimizda semantik jihatdan tafovut borligi aniqlandi. Bunga misol sifatida uzuk taqinchoq'i tahlilida ham ko'rish mumkin. "Rings - uzuk, worn on all fingers, except third (special ring gassal was worn on third finger – symbol of person, washing dead people)".

Yuqorida keltirilgan uzuk so'zi aynan ko'zli uzuklar haqidaligi bizga ma'lum, shuning uchun ingliz tilida ham lolita ring, tranzante ring, garnet ring leksik birliklari borligi uchun ushbu terminlar aynan bir-biriga mos keladi.

O'zbek tilidagi ba'zi qo'l taqinchoqlari nomlari ingliz tiliga tarjima qilinganda birgina harfning o'zgarishi bilan tarjima qilinadi, bu taqinchoqlar leksemasining milliylikka xosligini anglatadi. Bu holat ingliz tilidagi taqinchoqlar leksik birliklariga ham xosdir. Masalan, dastpona – dastpona, yapaloq bilaguzuk – yapalak braselet, baqaboshi bilaguzuk – bakabashi braselet, so'qma bilaguzuk – suqma braselet kabilar o'zbek tilidan ingliz tiliga va ingliz tilidan o'zbek tiliga esa

line bracelet – layn bilaguzugi, charm bracelet – cham bilaguzugi, cuff bracelet – kuf bilaguzugi kabi tarjima qilinadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, lingvokulturologiya, leksikologiya kabilarga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo'lgan va, asosan, funksiyani bajaradigan birliklar leksemalar hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, umumadabiy tilda funktsional-genetik jihatdan ikki nominatsiya tushunchasi mavjud bo'lib, birinchi nominatsiyada voqelikdan predmetga biror leksik birlik orqali nom beriladi. Lekin tilda aksariyat hollarda nom berish extiyoji tug'ilgan yangi predmetga ham, avvaldan, biror narsa-predmetning nomi bo'lgan leksik birlikdan foydalaniladi. Natijada, bu nom boshqa bir narsa-predmet nomi vazifasini ham bajaraveradi. Ikkinchi nominatsiya esa umumiste'moldagi so'zlardan leksik-semantik usul bilan termin yasalishiga bevosita aloqadordir.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, o'zbek tili hunarmandchilikka oid atamalarda semantik usul bilan hosil bo'lgan terminlarning mavjudligi ushbu tizimni boyitishga xizmat qilmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. I qism. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B.92.
2. Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik nomlari. – Toshkent: Fan, 1965. – B.61;
3. Iskandarova Sh.M. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni). Filol.fanl.dokt.diss.avtoref. – Toshkent, 1999. – 62 b.
4. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Т.:, 1977.
5. Маҳкамов С. Ўқув устахоналарнда ўтказиладиган амалий машгулотлар. - Тошкент, 1991. - 6-бс
6. Хатамов Н. Развитие узбекской литературоведческой терминологии: Автореф. дисс. ...канд.фил.наук. – Т.:, 1971.



**Kamola ABDULLOYEVA,**  
*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*  
E-mail: kamolaabdullayeva438@gmail.com

*TDO‘TAU dotsenti f.f.d N.Z. Normurodova taqrizi asosida*

## COGNITIVE PRINCIPLES OF EXPRESSING THOUGHTS IN A LITERARY TEX

Annotation

In the system of general linguistic and linguocognitive researches, along with the study of language categories, categorization and conceptualization of knowledge, the processes of identifying and studying cognitive principles that determine the specific characteristics of expressing and distributing information are of particular interest. The cognitive essence of the text is that any text includes aspects aimed at understanding and interpreting, cognitive processes, that is, expressing the semantic content of the text.

**Key words:** Cognitive principles, principle of linguistic economy, principle of old-new information, cognitive, the principle of foregrounding.

## КОГНИТИВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ВЫРАЖЕНИЯ МЫСЛИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация

В системе общелингвистических и лингвокогнитивных исследований, наряду с изучением языковых категорий, категоризацией и концептуализацией знаний, особый интерес представляют процессы выявления и изучения когнитивных принципов, определяющих специфические особенности выражения и распространения информации. Когнитивная сущность текста заключается в том, что любой текст включает в себя аспекты, направленные на понимание и интерпретацию, познавательные процессы, то есть на выражение смыслового содержания текста.

**Ключевые слова:** Когнитивные принципы, принцип лингвистической экономии, принцип старой-новой информации, когнитивность, принцип выдвигания.

## BADIY MATNDA FIKR IFODALASHNING KOGNITIV TAMOYILLARI

Annotatsiya

Umumiy lingvistik va lingvokognitiv tadqiqotlar tizimida til kategoriyalarini o‘rganish, bilimlarni turkumlashtirish va kontseptuallashtirish bilan bir qatorda axborot ifodalash va tarqatishning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi kognitiv tamoyillarni aniqlash va o‘rganish jarayonlari alohida qiziqish uyg‘otadi. Matnning kognitiv mohiyati shundaki, har qanday matn tushunish va izohlash, kognitiv jarayonlar, ya‘ni matnning semantik mazmunini ifodalashga qaratilgan jihatlarni o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar:** Kognitiv tamoyillar, lingvistik tejamkorlik/yaxlitlik prinsipi, eski-yangi ma‘lumotlar tamoyili, kognitivlik, ilgari surish tamoyili.

**Kirish.** Badiiy matn shakllantirish ma‘lum me‘yorlarga amal qilishni talab qilib, ulardan kommunikativ va kognitiv yondashuvlar eng muhimlari sanaladi. Matnga bir tomonlama, ya‘ni kommunikativ yoki faqat kognitiv yondashuvning o‘zi ham yetarlicha emas. Buni shartli ravishda shunday izohlash mumkinki, tilshunoslikda tildan foydalanishni insonning kognitiv faoliyati bilan bog‘lashga asoslovchi antroposentrik paradigmasiga o‘tkazish demakdir. E.S. Kubryakovaning fikricha, har qanday til hodisasini tavsiflashda uning ikki funksiyasi – kognitiv va kommunikativ-e‘tiborga olinishi kerak. Biz tadqiqot ishimizni aynan shu yondashuvni yoqlagan holda amalga oshiramiz. Zero, ushbu yondashuvlarsiz mukammal badiiy matnni shakllantirish imkonsiz va bunga faqatgina bilim (cognition) va mulqot (communication) vositasida erishish mumkin. Bu jarayon bevosita kognitiv tilshunoslik hamda uning tarmog‘i bo‘lgan kognitiv stilistikaga murojaat etishni taqozo etishini aytib o‘tish joiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kognitiv stilistika kognitiv tilshunoslikning hozirgi vaqtda faol rivojlanayotgan yangi sohalaridan biridir. Kognitiv tilshunoslikda stilistik yo‘nalishning shakllanishi umumiy nazariy qarashlar va ba‘zi tushunchalar, jumladan, yetkazib berish(interpretatsiya), kontseptual ma‘lumot va boshqalar, shuningdek, ko‘plab tushunchalar va kognitiv tilshunoslikda stilistik tadqiqotlar

bilan bog‘liq holda ishlab chiqilgan tahlil usullarini ijodiy qo‘llash imkonining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq hisoblanadi.

N. M. Djusupov ta‘kidlaganidek, stilistikaga kognitiv yondashgan holda “allaqachon stilistikaning ham umumiy nazariy, ham individual amaliy masalalarini kognitiv tushunish va xulosa chiqarishga imkon beruvchi bir qator nazariy qarashlar va tushunchalar vujudga keldi” [9].

Hozirgi vaqtda kognitiv stilistika bevosita kognitiv tilshunoslikka bog‘liq ravishda yechimini kutayotgan bir qator masalalarni qamrab oladi [5]:

- kognitiv uslub muammolari;
- stilistik vositalar va matnni kontseptuallashtirish muammolari;
- matnda axborot ifodalashning kognitiv tamoyillari;
- stilistik vositalarning kognitiv asoslari;
- badiiy matndagi kognitiv metafora nazariyasi;
- badiiy matn va nutqda kontseptual integratsiya nazariyasi;
- matnli aloqaning implikativ jihatlari;
- badiiy matnda bilim tuzilmalarining har xil turlarini aks ettirish.

Badiiy matnda fikr ifodalash yoki ma‘lumotni aks ettirishning kognitiv tamoyillari to‘g‘risida turli mutaxassis olimlar tomonidan turlicha qarashlar ilgari suriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma‘lumki, ma‘lumotlar tuzilishi uni aks ettirishda ham, nutqni idrok etish jarayonida

ham muhim rol o'ynaydi. E.S. Kubryakova ta'kidlaganidek, til bilimlarini qayta ishlashda nafaqat qayta ishlash jarayonida yuzaga keladigan yoki uzoq muddatli xotiradan o'chib ketuvchi aqliy bilimlarni o'rganish, shu bilan birga unda sodir bo'ladigan jarayon yoki operatsiyalarni ham o'rganish zarur hisoblanadi [10]. Boshqacha qilib aytganda, matni kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishda matndagi ma'lumotlarni ifodalashning kognitiv tamoyillariga katta e'tibor qaratish lozim. Bunday tamoyillarga shakl va ma'no o'xshashligi tamoyili (iconicity), eski va yangi ma'lumotlarni ifodalash tamoyili, ilgari surish tamoyili (foregrounding), seroblik tamoyili (redundancy) va lingvistik tejamkorlik/yaxlitlik (economy) tamoyilini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy tilshunoslik sohasida kognitiv tamoyillar eng murakkab va bahsli masalalardan biri sanaladi. "Kognitiv atamalarning qisqacha lug'ati" da (1996) kognitiv tamoyillar Luzina tomonidan "nutq/matndagi ma'lumotlarni ifodalashdagi kognitiv munosabatlar va kognitiv cheklovlar; matn / nutqni yaratish va matnda ma'lumotlarni ifodalash bilan bog'liq pragmatik tamoyillarining kognitiv asoslari yoki cheklovlari, uni taqdim etish ketma-ketligi va boshqalar" sifatida izohlanadi. [12].

Nutqni tashkil qilishda ishtirok etuvchi murakkab kognitiv tuzilma sifatida ikkita asosiy kognitiv tamoyil ajralib turadi – shakl va ma'no o'xshashligi tamoyili (the principle of iconicity) va "berilgan" ma'lumot va "yangi" ma'lumotni ajratish prinsipi (the principle of "old" and "new" information). Shu bilan bir qatorda yana bir muhim kognitiv tamoyil – matni yo'naltirish prinsipi (the principle of orientation) ham odatdagi matn quruluşi to'g'risidagi so'zlovchining bilimlarini ifodalash uchun prototip vazifasini bajaradi [12].

G.G. Molchanova matn yaratishda hamda nutq ifodalashda muhim o'rin egallovchi uchta asosiy kognitiv tamoyilni batafsil tavsiflaydi:

lingvistik tejamkorlik/yaxlitlik prinsipi (принцип лингвистической экономии);

shakl va ma'no o'xshashligi prinsipi (принцип иконичности);

voqelikni variativ talqin qilish prinsipi (принцип вариативной интерпретации действительности) [14].

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, yuqorida keltirilgan tamoyillar kognitiv stilistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda stilistik vositalarning (metafora, metonimiya, antonimiya, ironiya, gradatsiya, epitet, zeugma va boshqalar) tahlil prizmasi orqali ko'rib chiqiladi. Bunda asosiy urg'u muayyan kognitiv tamoyillar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, lingvistik va ekstralingvistik omillarning aloqasiga qaratiladi.

Shuningdek, T.V. Vasilyeva badiiy asarni kognitiv-funksional tahlil qilishda quyidagi beshta asosiy tamoyilga e'tibor qaratishni ta'kidlab o'tadi [6]:

bilish prinsipi (принцип ориентации на фоновое знание);

prototiplik prinsipi (прототипический принцип);

shakl va ma'no o'xshashligi prinsipi (принцип иконичности);

lingvistik tejamkorlik/yaxlitlik prinsipi (принцип языковой экономии);

urg'u prinsipi (принцип выделенности).

**Tahlil va natijalar.** Badiiy matni turli matnlar va badiiy faoliyatning kombinatsiyasi natijasida shakllantiriladigan va badiiy diskursni tashkil etuvchi bir qator badiiy obrazlarning jamlanmasidan tuzilgan birikma sifatida tavsiflash mumkin. Bu tasvirlar badiiy muloqot ishtirokchilari hisoblangan muallif va kitobxon ongida shakllanadi hamda estetik-badiiy mavjudlikning o'ziga xos lingvistik shakllarini o'zida mujassamlashtiradi. Badiiy matnga kognitiv yondashuvning muhim xususiyatlaridan biri kognitiv birliklar

– tushunchalardan (concepts) foydalanish hisoblanadi. Chunonchi, madaniy ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan komponentlarni o'zlashtirmasdan turib uning ekvivalent versiyasini aks ettirish juda qiyin. Darhaqiqat, sifatli badiiy tarjima shu tildan foydalanuvchi mamlakatning an'analari, urf-odatlari, adabiyoti, madaniyati, stereotiplari va tarixi to'g'risida ilgari shakllangan bilimlarga asoslanadi. Muallif va kitobxon o'rtasida amalga oshiriluvchi hamda asar qahramonlari tasvirlangan muloqot badiiy tushunchalar yordamida amalga oshiriladi.

Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning paydo bo'lishi hamda tilning inson aqliy faoliyatiga bog'liqligi o'rtasida aloqadorlik mavjud sanaladi. Shu sababli nutqni tahlil qilishda uning ikki funksiyasi, xususan, muloqot va kognitiv, ya'ni aqliy xususiyatlariga diqqat qaratish talab etiladi. Bu haqida E. S. Kubryakova tomonidan quyidagicha fikr bildiriladi; "har qanday til hodisasi kognitiv hamda kommunikativ tamoyillarga ega bo'lgandagina yetarlicha asoslangan hisoblanadi" [11].

Zamonaviy tilshunoslikda axborot hamda uni turlarga ajratishga katta ahamiyat beriladi. I. R. Galperin axborotni uch turga ajratadi:

faktga asoslangan;

yashirin;

konseptual [8].

Axborotning bunday farqlanishidagi asosiy omil badiiy matn va uning talqiniga e'tibor qaratishni anglatadi. Ushbu jarajonda adabiy matn/nutq talqinida asosiy maqsad muallifga xos bo'lgan individual dunyo manzarasini aks ettiruvchi konseptual ma'lumotni ochib berish sanaladi.

Ma'lumotning yuqorida sanab o'tilgan turlaridan tashqari "Kognitiv atamalarning qisqacha lug'ati" da stilistik va pragmatik ma'lumotlar ham ta'kidlanadi. Stilistik ma'lumotlar ham o'z navbatida bir qancha turlarga ajratiladi:

hissiy ma'lumotlar;

baholovchi ma'lumotlar;

obrazli ma'lumotlar.

Shu bilan bir qatorda bazi mutaxassislar axborotni ikki turga, ya'ni kognitiv va matn mazmuniga xos turlarga ajratishadi (Kubryakova, van Deyk). Ushbu nazariyaga ko'ra, kognitiv ma'lumotlar bilim, e'tiqod, munosabatlar, fikrlar, g'oyalari kabilarni o'z ichiga oladi. Matn mazmuniga xos axborot esa nutqiy harakatlar, vaziyatlar, muloqot kabilarda namoyon bo'ladi. Shuni unutmash lozimki, nutqni kognitiv tahlil qilishda ma'lumotni eski (berilgan, ma'lum) va yangi (noma'lum) ga ajratish alohida ahamiyatga egadir [13].

Yozma matndagi ma'lumotlar yangi va eski elementlar nuqtayi nazaridan tartibga solinadi. Tilni o'rganishdagi axborot tuzilishini funksional nazariy asosda tahlil qilish til foydalanuvchilari uchun ma'lum va mavjud hamda yangi tushunchalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida qaraladi [3,4]. Shu nuqtayi nazardan, eski va yangi tushunchalar, mos ravishda kontekstdan qayta tiklasa bo'ladigan (og'zaki yoki og'zaki bo'lmagan), va qayta tiklanmaydigan ma'lumotlarga tegishli sanaladi. Ushbu tahlil doirasida matndagi axborot tuzilishi mavzulashtirilgan (tematik) tuzilish bilan bog'liqdir.

Matn ravon va tushunarli bo'lishi uchun u ma'lumot tarqatish tamoyillariga rioya qilgan holda tuzilgan bo'lishi kerak, ya'ni aloqadorlik yuzaga keltirish uchun eski va yangi ma'lumot o'rtasida muqobillik bo'lishi kerak. Aynan ma'lumot guruh uchun alohida belgilanmagan bu tamoyil matnning kommunikativlik xususiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Zero, nutq yoki matn ravon hamda tushunishga oson bo'lishi uchun eski va yangi ma'lumotlar nutqda bir maromda aks etgan bo'lishi lozim.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ifodalangan ma'lumotning kognitiv/funksional tamoyilga asoslangan bo'lishi – undagi eski va yangi ma'lumotlar ketma-ketligini

hamda ular o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettirishni anglatadi. Matndagi eski va yangi ma'lumot o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka erishish so'zlovchidan tema hamda remani tanlay bilish hamda gaplarni sintaktik jihatdan xilma-xillik ko'nikmasiga ega bo'lishni talab qiladi.

Prince hamda Hallidayning fikricha, axborotning ushbu "eski-yangi" tamoyiliga rioya qilish matnning kommunikativlik xususiyatiga ta'sir qiladi, chunki ushbu tamoyil matni yanada ravon hamda tushishga osonroq bo'lishini ta'minlovchi omil hisoblanadi [3,4].

Axborotning aks ettirilishi, tematik tuzilmasi va sintaktik tartibi bizning qayta ishlash qobiliyatlarimiz nuqtayi nazaridan kognitiv tuzilma hamda idrok doiramizga bog'liq xususiyatidir [1].

Shu nuqtayi nazardan, Klifton va Fraizer [2] tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, eski-yangi ma'lumotlar tamoyili umumiy bo'lmasdan, ma'lum bir konstruktiviyalarga tadbiiq etish mumkin. Chunonchi, u fikrni tushunish hamda til normalariga har doim ham mos tushavermaydi. Xuddi shunday, Arnold va boshqalar (2000) grammatik murakkablik ham, nutq tarkibi ham uni tashkil etuvchi elementlarga ta'sir qiladi, chunki ular ikkalasi ham rejalashtirish va gap tuzishdagi tamoyillarga tayanadi, degan fikrni ilgari surishadi.

Kognitiv tilshunoslar tomonidan e'tiborni aks ettirish xususiyatlari nutq elementlarining aniqligi va ravshanligi darajasiga bog'liq tarzda izohlanadi. Zero, idrok hamda fikrning teranligi mulohaza hamda tushunchaning asosiy belgilari sanaladi. Qanday gap tuzilgan bo'lishidan qat'iy nazar, e'tiborni jalb etish maqsadida maxsus elementlardan foydalanamiz. Shu nuqtayi nazardan e'tibor hamda izchillik so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan tanlanadigan mazmuniy tuzilishga bog'liq hisoblanadi.

Badiiy matnning kognitiv tuzilishida fikr ifodalash hamda axborot tarqatish muhim ahamiyatga ega sanaladi. Badiiy matnda fikr ifodalashning bir qancha muhim kognitiv tamoyillari mavjud:

- shakl va ma'no o'xshashligi tamoyili;
- eski va yangi ma'lumot nisbati;
- ahamiyatlilik va "ilgari surish" tamoyili
- lingvistik tejamkorlik/yaxlitlik tamoyili.

Shunday qilib, ilgari surish (foregrounding) matnning kommunikativ tuzilishi nuqtayi nazaridan kognitiv tamoyillarning eng muhimlaridan sanaladi. "Ilgari surish" tamoyili kitobxonning e'tiborini matnning alohida ajratib ko'rsatilgan yoki ta'kidlangan muayyan qismiga jalb etgan holda zarur ma'lumotni topishni osonlashtiradi, shuningdek ma'lumotni kognitiv qayta ishlash jarayonidagi eng muhim omillardan hisonlanadi. Darvoqe, "ilgari surish" (foregrounding) zamonaviy tilshunoslik va stilistikada keng qo'llaniluvchi tushunchalardan hisoblanib, dastlab rus formal maktabida B. A. Larin, R. Yakobsonlar, Praga lingvistik

markazida B. Gavranek, Y. Mukarjovskiy, stilistikada I.V. Arnold tomonidan o'rganilgan. Shunindek, o'zbek tilshunosligida ham D.U. Ashurova, M.R. Galiyeva, N.M. Djusupov, N.Z. Normurodovlar badiiy matnga xos kognitiv tamoyillar ustida muayyan ishlarni amalga oshirishgan.

Badiiy matni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilishda quyida keltirilgan jihatlariga e'tibor berish zarur hisoblanadi, xususan bizning tadqiqot ishimizda ham ushbu xususiyatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

a) til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq;

b) madaniyatni o'rganishda badiiy matn o'rganishning muhim vositasi hamda madaniy bilim va axborotning asosiy manbaidir [8,13].

**Xulosa va takliflar.** Madaniy ma'lumotlarni tahlil qilish nuqtayi nazaridan badiiy matn yoki nutq madaniyat shakllaridan birini ifodalagan bo'is uning alohida ahamiyatini qayd etish joizdir. Chunonchi, aynan badiiy nutq ijtimoiy-madaniy, estetik va hissiy ma'lumotlarning tashuvchisi sanaladi. Shuni ta'kidlash kerakki, badiiy matnda mavjud bo'lgan madaniy ma'lumotlar o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, har xil turdagi matnlarda turlicha aks etishi mumkin. Xususan, muallif fikrlari, mulohazalari va xulosalari orqali ifodalanuvchi ob'ektiv xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan inson faoliyatining intellektual va ruhiy holatlarini aks ettiruvchi matnlar alohida ahamiyatga egadir. Chunki bunday matni idrok etish uchun kitobxonidan milliy madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlar hamda madaniy malakaga ega bo'lish talab etiladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- badiiy matn antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan o'rganish matn lingvistikasi, kommunikativ lingvistik, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya kabi fan tarmoqlari o'rtasidagi yaqin munosabatlarni taqozo etadi;
- badiiy matnga xos tavsifining kommunikativ modeli matni aloqaning asosiy birligi, adresat va adresant omillarini aloqador ikki tomonlama kommunikativ faoliyat, keng ijtimoiy-madaniy kontekst sifatida yondashiladi;
- badiiy matni kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish ushbu hodisaning murakkab kognitiv tuzilishini tarkibiy xususiyatlari va axborot ifodalashning kognitiv tamoyillari, konseptualashtirish va turkumlashtirishga bevosita aloqador bo'lgan talqin (interpretation) jihatlariga tayangan holda ochib beradi.
- badiiy matni lingvokulturologiyadagi tahlili esa matnning lingvomadaniy mazmunini tashkil etuvchi lingvomadaniy birliklar tizimini ochib berish, madaniy tushunchalarni mazmun-tematik jihatdan dominant sifatida o'rganishni, matni umuminsoniy, milliy-xususiy, individual-shaxsiy g'oyalarni aks ettiruvchi muallifga xos lingvistik dunyo manzarasi tasviri sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. CHAFE, W. Some things that narrative tells us about the mind. B. K. Britton; A. D. Pellegrini(Eds.) Narrative thought and narrative language. New Jersey: Lawrence Erlbaum, p.79-98,1990.
2. CLIFTON, C. J. R.; FRAIZER, L. Should new information come before new? Yes and NO. Memory and Cognition, 32, p. 886-895, sept. 2004.
3. HALLIDAY, M. A. K. An introduction to functional grammar. London: Arnold, 1985. 387 p.\_\_\_\_\_. An introduction to functional grammar. London: Hodder Arnold Publication, Revised Edition, 2004. p. 689.
4. PRINCE, E. F. Towards a taxonomy of given-new information. P. Cole (Ed.) Radical pragmatics. New York: Academic Press, p. 222-255, 1981.
5. Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане//Хорижий филология: тил, адабиёт, та'лим. – С., 2016 -№3,54- 58 с.
6. Васильева Т.В. Заголовок в когнитивно-функциональном аспекте (на материале современного американского рассказа): Дис. ... канд. филол. наук. – М.,2005. – 231 с.
7. Воробьев В. В. Лингвокультурология : (Теория и методы) / В. В. Воробьев. – М. : Изд-во Рос. ун-та дружбы народов, 1997. – С. 45-48.
8. Гальперин И. П. Текст как объект лингвистического исследования / И. П. Гальперин. – М. :Наука, 1981.–139 с.

9. Джусупов Н.М. Когнитивная стилистика: теория и практика стратегии выдвижения в художественном тексте. – Ташкент, 2019 – 464 с.
10. Краткий словарь когнитивных терминов // Е. С. Кубрякова [и др.] ; под общ. ред. Е. С. Кубряковой. – М. : Филол. ф-т МГУ им. М. В. Ломоносова, 1996. – 245 с.
11. Кубрякова Е. С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики /Е. С. Кубрякова // Вопросы когнитивной лингвистики. – Тамбов, 2004. – № 1. – С. 6–17.
12. Лузина Л.Г. Выдвижение // Краткий словарь когнитивных терминов / Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. – М.: Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 1996а. – С. 21–22.
13. Маслова В. А. Лингвокультурология / В. А. Маслова. – М. : Академия, 2007. – 208 с.
14. Молчанова Г.Г. Английский как неродной: текст, стиль, культура, коммуникация. – М.: ОЛМА Медиа Групп, 2007. – 384 с.



*Normurod AVAZOV,*

*Geologiya fanlari universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

*E-mail: normurod.avazov.63@mail.ru*

*TDYUU professori, f.f.d., Sh.Ko'chimov taqrizi asosida*

### BEHBUDIY IJODIDA SHE'RIYAT TALQINI

Annotatsiya

Maqolada Turkiston o'lkasida jadidlarning otasi – Mahmudxo'ja Behbudiyning asarlarida shoirlarning she'rlaridan foydalanish mahorati yoritib beriladi. Shuningdek, tadqiqotda ayni davrda yashagan shoirlarning she'rlari tahlilga tortiladi. Jumladan, A.Qodiriyning dastlabki ijodi bo'lgan uning she'rlari misol sifatida tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** Jadid, millat, mahorat, tahlil, Turkiston, tadqiqot, milliy, ilm, shoir, uyg'onish.

### INTERPRETATION OF POETRY IN BEHBUDI'S WORKS

Annotation

In the article, the skill of using poems of poets in the works of Mahmudhoja Behbudi, the father of Jadids in the Turkestan region, is highlighted. Poems of poets who lived in the same period are also analyzed in the research. Among them, A. Qadiri's early work, his poems are studied as an example.

**Key words:** Modernity, nation, skill, analysis, Turkestan, research, national, science, poet, awakening.

### ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОЭЗИИ В ТВОРЧЕСТВЕ БЕХБУДИ

Аннотация

В статье освещается мастерство использования стихов поэтов в творчестве Махмудходжи Бехбуди, отца джадидов Туркестанского края. В исследовании также анализируются стихи поэтов, живших в тот же период. Среди них на примере раннего творчества А. Кадири исследуются его стихи.

**Ключевые слова:** Современность, нация, мастерство, анализ, Туркестан, исследование, национальное, наука, поэт, пробуждение.

**Kirish.** Turkiston o'lkasida XX asrning boshida jadid uyg'onish javri adabiyotining asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudi'dir. Hoji Muin ta'kidlaganiday: "Bizning Turkistonda uyg'onish davri 1901 - yildan boshlanadur. Biz hanuz uyg'onish davridamiz. Bizdagi uyg'onish va yangilik rahbarlarining biri va balki birinchisi shubhasiz Mahmudxo'ja Behbudi afandidir. Behbudi afandi uyg'onish davri va o'zbek adabiyoti tarixida birinchi o'rinni olurg'a muvofiq bir zotdir" [1].

Behbudi va she'riyat. Bu tushuncha yangi tadqiqotli yo'nalish bo'lib, Behbudiyning ijodida she'riyatga munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratishdan iborat. Buni ushbu ilmiy maqolada Behbudiyning ijodida she'riyatga e'tibor, Behbudiyning g'oyalari uning davomchilarida aks etishi va Behbudi zamondoshlarining unga she'riy asarlar yozishi bilan baholadik.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodida she'riyatdan foydalanishi mavzusi juda dolzarb masalalardan sanaladi. Ya'ni, uning asarlarida shoirlar she'riyatidan foydalanish masalasi hech qachon ob'ekt sifatida olinmagan va tadqiq etilmagan. Shuningdek, maqolada ayni davr ijodkorlarining ijodi, ularning she'rlari tahlilga tortilgan. Ya'ni, Abdulla Qodiriyning "Ahvolimiz" [2], "Millatimga bir qaror" [3], Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Mahmudxo'ja Behbudi xotirasi" [4], Hoji Muinning "Nima edik, nima bo'ldik, nima qilaylik?" [5], Samarqandiy Mullo Sayyid Ahmad Vasliyning "Behbudi ravonig'a armug'on" [6], Vadud Mahmudning "Ay dohiy", "Mahmudxo'ja" [7], Fahriddin Rojiyning "Yodovarlik" [8] kabi she'riy asarlar o'rganildi.

**Matnlar va muhokama.** Behbudi hayotiy faoliyatida ijodga publitsistika bilan kirib keldi. Uning ijtimoiy va siyosiy publitsistikasi badiiy ijodiga asos yaratdi.

Uning ijodida badiiy asarlar "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" [9] dramasi, "Oq elpog'ichli chinli xotun" [10], "Bir a'mo bolaning hasrati" [11], "Bir vafolik zaifani xususida hikoya"lari [12] kabilar ijodkorning o'ziga xos badiiy qimmatini belgilab beradi.

Behbudiyning "Padarkush" asarida muallifning xalq og'zaki ijodidan, xalq maqollaridan unumli foydalanilganligini ko'ramiz. Dramada Behbudi xalq iboralaridan, xalqona so'zlardan ham ustalik bilan foydalanadi. Piyessa qahramonlari tomonidan aytilgan ayrim so'z va iboralar donishmandona so'zlarga aylangan. Masalan:

Ilmi o'qimoqni beshikdan mozorgacha bizlarga farz qilgandur.

Boy bo'lmoq nari tursin, ro'zg'or o'tkarmak uchun ham ilm kerak.

Badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, tarbiyasizlikdir.

Bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqir va zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikni mevasi va natijasidir. Dunyog'a taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi.

Behbudi bir necha tilning bilimdoni edi. Dramada shuning uchun ham tabiiy ravishda arabcha, forsha, frantsuzcha, ruscha so'zlar uchraydi. Bu so'zlarni Behbudi iste'molga ataylab kiritgan emas, tabiiy ravishda nutqida qo'llanayotgan so'zlar bo'lib, ular dramada personajlar nutqini jonlantirishga hissa qo'shar edi.

Shuningdek, Behbudiyning ijodi she'riyatdan ham unumli foydalangan jihatlari bilan ham alohida ajralib turadi.

Behbudi asarlarida, badiiy publitsistikasida hadislardan, Qur'on oyatlaridan, shoirlarning she'rlaridan o'rni kelganida ustalik bilan foydalanadi. Muallif ilmning qadri to'g'risida ko'p yozgan. Jumladan, "Ilmning foydasi

haqida" [13] deb nomlangan maqolasida bildirilgan fikrlariga asoslar sifatida diniy manbalar va shoirlarning she'riy satrlari bilan dalillanadi. Behbudiy islomda ilmning qadrlanishi, uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritarkan qo'yidagi diniy baytni keltiradi:

"Menga tajribadan ishning oxiri ma'lumdur:

Dinning qadri ilmdadir, ilmning qadri foydasida" [14].

Muallif ilmsizlikdan g'afllatda qolayotganligimizni aytib, ilm orqali, mehnat orqali, xizmatlarimiz orqali istiqbollarga muvassar bo'lamiz deb niyat qiladi. Shuning uchun ulamolarning, shoirlarning va ziyoliylarimizning ko'rsatmalarini bajarishimiz zarurligi aytiladi. Shu o'rinda shoirning komil va oqil inson sifatidagi qo'yidagi baytlarini keltirib o'zining fikrlarini ta'kiqlaydi.

Behbudiy she'rning keyingi satrlarida ham ilmu amal dunyo va oxiratimizning tayanchi ekanligini ta'kidlab, saodat va rohat hamda najot ham ilm ekanligini satrlarda keltiradi [15].

Behbudiyning "Samarqand fuzalolari" nomli maqolasi ham nihoyatda e'tiborga molik. Chunki, unda Behbudiyning o'zi aytganiday: "Shahrimizni fuzalo va shuaro, udaboi moziyasi asorati matruka va tadvinot mutaddavolarila butun Sharq va hatto G'arb olaminda mashhur va musallamdurki, tarix va tarojimi ahvol o'qiydurganlarga ma'lumdur" deb ko'pgina asarlari nashrlardan chiqqan taraqqiyparvar shoirlar to'g'risida fikr yuritadi. Va ularning asarlaridan namunalar keltiriladi. Shuningdek, Xo'jandiy Qurbon Muhammad Olim, Samarqandiy Mullo Sayyid Ahmad Vasliy, Muhammad Salim, Mullo Xo'ja Yusuf, Mullo Niyoz Muhammad Mariz, Mirzo Sharof Hilmiy; Mullo Rahmat Rahimiy, Mullo Mu'in Nahif, Mirzo Akram kabi shoirlarning nomlari tilga olinadi, ularning she'rlaridan namunalar keltiriladi.

Behbudiy Samarqand fuzalolari to'g'risida so'z yuritarkan, ularning ilm bobida qilayotgan ishlari tahsinga loyiq ekanligini yozadi. Shuningdek, "bu muhtaramlar fununi jadida va kashfiyoti hodisa va ijoboti zamoniya voqif o'lsalar, hukamoi soniya va falosifai hozira va adabiyoti oxiraga ko'z va quloq solmoqqa tanzil etsalar, shaksiz, talabaga ko'p – ko'p foyda etkurar erdilar", deb ularga jadidchilik yunalishida harakat qilishlarini va adabiyot sohasida yaxshi kashfiyotlar yaratishlarini istaydi. Yangi zamonaviy yunalishlarda ijod qilib, o'quvchilarga ko'pdan – ko'p foyda keltirishlarini niyat qiladi. Aytadiki: "Milliy va ijtimoiy va asotirdan mubarro tarixiy she'rlar aytisalar va qudratlik kishilar tab' etsalar, ayni manfaati moddiy va ma'naviydir" [16].

Behbudiy ijodida Vatan, millat va ilm mavzusi birinchi o'rinda turadi. Yozilgan asarlarining asosiy qismida millatning ilm orqali shu vatanda taraqqiy etishi bilan bog'liqdir. Muallif badiiy publitsistikada va badiiy asarlarida ham xulosani nihoyatda ko'tarinki ruhda, insonga kelajakka bo'lgan umid va ishonch bilan yakunlaydi. Eng qiziqarli tomoni shundaki, asar yakunida falsafiy, diniy fikrlar yoki shoirning she'rlari bilan tugatadi. Jumladan, "Oh, banklar bizni barbod etdi" [17] maqolasida milliy iqtisodiyotimizning ilmsizlikdan orqada qolayotganligimizni aytib, zamonga mos bo'lgan kadrlarni tayyorlash kerakligini aytadi. Ya'ni: "Bizlar kommersant, ya'ni tojiri zamoniya emas, balki bizlarga dehqonlik lozim. Ammo maattaassuf unga ham ilmi basirat va hisob lozimki, bizga shu ilmi zamoniya yo'q, binobarin, kelarimiz nihoyat qorong'udur", deb Sa'diyning quyidagi satrlari bilan kafolatlaydi:

Baholi shumo kas biboyad girist,

Ki dahlash buvad hijdah harj bist.

Ablahiy ku ro'z ravshan sham'i kofuriy nihod,

Ro'zi binesh ba shabi ravgan namonand dar chirog'.

Ya'ni: Madoxili o'n sakkiz va maxoriji yigirmalik kishi holig'a yig'lamoq kerak. Kunduz chiroq yoqqan ablahning oqshom qorong'uda o'lturganini yaqinda ko'rarsan".

Behbudiyning ijodida adabiy – tanqidiy maqolalar ham keng o'rin egallagan. Ya'ni, "Eski fikrlardan", "Munozara" haqida", "Muhtaram muso afandi sharifina", "Tiyotr nadur", "Tanqid – saralamoqdur", "Tiyotru, musiqiy, she'r" kabi asarlari shular jumlasidandir. Bu tadqiqotlarida bevosita she'riyatga ham alohida o'zining fikrlarini bildirib o'tadi.

Behbudiy "Oyina" jurnalida doimiy ravishda shoirlarning she'rlarini berib bordi. Jumladan, Vasliy, Mahmud Akrom, Mahmud Tarziy, Abbosiy, Ismoil Safo, Nosriddin Turkiston, Mir Sarvar, Fitrat, Andijoniy, Abdulla Qodiriyning she'rlari shular jumlasidandir. Chop etilgan barcha she'rlar Behbudiyning ayni paytda millat va uning kelajagi uchun kurash g'oyasi ilgari suriladi. Masalan, 1915 - yil "Oyina" jurnalida Abdulla Qodiriyning "Ahvolimiz", "Millatimga bir qaror", "Fikr aylag'il" [18] she'rlari Behbudiy tomonidan chop ettirildi.

Abdulla Qodiriyning "Ahvolimiz" she'ri nihoyatda diqqatni tortadigan she'r hisoblanadi. She'r o'z nomi bilan ko'rinib turibdiki, ayni paytda Turkiston o'lkasidagi millatimizning ayni kundagi voqea – hodisalar aks ettiriladi. Xalqning g'ayrat bilan himmat qilib, o'zlarining ahvolini yaxshilash kerakligi tasvirlanadi. Ya'ni:

Ko'r bizning ahvolimiz, g'afllatda qanday yotamiz,

Joyi kelgan chog'da vijdoni pulg'a sotamiz.

O'g'limizga na adab, na fan, na yaxshi so'ylamak

Na xudoni buyrug'i bo'lgan ulum o'rgotamiz.

Muallif tomonidan o'lka farzandlari, millatning g'afllatda qolayotganligi oshkora aytiladi. Ushbu she'rda ko'tarilayotgan davr muammolari ayni paytda Behbudiyning ham "Ehtiyoji millat", "Duma va Turkiston", "Millat vazifasi", "Haq olinur, berilmas" kabi publitsistik maqolalarida ham o'z aksini topgan edi.

Ayniqsa, Abdulla Qodiriyning "Millatga bir nazar" she'ri ham Behbudiy g'oyalarini ilgari surishga qaratilgan she'riy asarning tipik namunasi. Bunda:

Kel ey millat, bu kun bir maslahat birlan qaror o'lsun,

Bu kundan o'tgan ishlarga pushaymon birla or o'lsun,

Qilayluk bul kuni g'ayrat hama birdan qilib himmat,

Bu nodonlik biza qilmish edi to'rt faslni qishdek,

Jahonni zimistoni do'nub fasli bahor o'lsun.

Muallifning millatga bo'lgan murojaati aks etadi. Ya'ni, bu kunda endi shunday qaror qilinsinki, g'ayrat bilan birlashib, himmat qo'rsatsak. Bu himmat shundan iborat bo'lmog'i loziki, ilmsizlikdan, nodonlikdan, ya'ni bu zimstondan qutulish kerak. Shoir millatni g'ayrat qilib o'yg'onishga chaqiradi. Bu Behbudiyning millatni ma'rifat qutqaradi g'oyasiga hamohong yangragan she'r edi. Behbudiy yozganiday: "musulmonlar har korda yakkavujud o'lub, umummillatimizning rohati uchun, har korda musulmonga bor, to mag'ribdan mashriqqa qadar hamma qarindoshlar o'ldig'igni bilub, birimiz oxiriga yordam va muovanat aylamak uchun soat hozir o'lsoq kerak" [19].

Mahmudxo'ja Behbudiy she'riyatning shaydosi edi. U shoirlarning she'rlarini zavq bilan o'qigan va uni o'z asarlarida mahorat bilan qo'llay olgan. Turkiston o'lkasida millat kelajagi uchun yozilgan barcha she'rlarni "Oyina" jurnalida chop ettirishga harakat qilgan. Uning badiiy asarlari va badiiy publitsistikasi she'r kabi o'qiladi. Uning bu boradagi harakatlari ham alohida tadqiqotlarni talab etadi degan umiddamiz. Behbudiy aytganiday: "Musulmonlikga ilm lozim, amal lozim. O'qumoq kerak. Nima uchun boshqa millatlarda yuz bir nafar besavod yo'q ekan, biza yuz bir nafar savodlik yo'q?" [20].

Behbudiy zolim hukumatga xalqning kelajagini yaxshilash uchun publitsistik chiqishlarida, badiiy asarlarida, amaliy ishlarida ziyoliylarga xos, aqillilik bilan murojaatlar qila oldi. Uning bu g'oyalarini shogirdlari ham turli usullarda davom ettirdi. Hoji Muin o'zining "Tayoq" nomli hajviy

chiqishlarida Behbudiyning g'oyalarini turli usullarda ochiqlashga erishdi. Uning o'zi aytganiday: "Ko'p vaqtdan beri millatimni taraqqiy etdirub, boshqa millatlarga o'xshash osmong'a uchurmoq niyati oliyasi ko'glimda o'runchashib, muning uchun turli yo'llar bilan tirishib ko'rdim" [21].

Shoir o'zining "Nima edik, nima bo'ldik, nima qilaylik" she'rida XX asr boshida o'lkamizda kechayotgan ijtimoiy hodisalarni hajviy she'r orqali yoritadi. O'lka bolalarining ko'chalarda ilmsizlikdan "hayron – sarson" bo'layotganligini ochib tashlaydi. Uning sabablarini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Behbudiy ko'p shoirlarni ustozlari edi. Jadid shoirlarining barchasi Behbudiyning ijodidan va amaliy ishlaridan ta'sirlandi. Behbudiy o'ldirilganida ular bu buyuk dahoga bag'ishlab she'rlar yozdi. Behbudiyning xotirasiga

bag'ishlangan she'rlarning barchasida mutafakkir xodumul millat sifatida qaraladi. Demak u orzu qilgan she'riyat, u orzu qilgan adabiyot uning orqasidan ergashdi. Abdulhamid Cho'lpon yozganiday:

Shuning uchun yulduz kabi yorqirab,

Elda qolg'on isming bilan turaman.

Shu ismni eslab, chizgan yo'lingdan

Yiroq ketmay, qimirlamay yuraman, deydi [22].

Shuningdek, Vadud Mahmud: "Biz, hammamiz, saning bolalaring erurmiz. Saning tuzgan plonlaring – bizim yo'limizdir..San o'lmading va o'lmazsan, yashamakka haqing bordir!"Unga bag'ishlangan she'rlar va badiiy asarlar to'g'risidagi fikrlar yana alohida tadqiqotni talab etadi. Ammo, biz Behbudiydan hali qarzdorligimizcha qolmoqdamiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Hoji Muin. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.:Ma'naviyat, 2010. – B. 22-23.
2. Qodiriy A., Ahvolimiz//Oyina jurnali, 1915. – №12.
3. Qodiriy A., Ahvolimiz//Oyina jurnali, 1915. – №12.
4. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon. Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasi// Tong gazetasi, 1920 yil. – №1.
5. Hoji Muin. Nima edik, nima bo'ldik, nima qilaylik?// Zarafshon gazetasi, 1922 yil 1 dekabr`.
6. Samarqandiy Mullo Sayyid Ahmad Vasliyning Behbudiy ravonig'a armug'on// Mehnatkashlar tovushi gazetasi. 1920 yil 8 aprel`. – №152.
7. Vadud Mahmudning Ay dohiy // Mehnatkashlar tovushi gazetasi. 1920 yil 8 aprel`. – №152.
8. Fahriddin Rojiiyning Yodovarlik//Mehnatkashlar tovushi gazetasi. 1920 yil 8 aprel`. – №153.
9. Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – T.: Akademnashr, 2018. –B. 95-106.
10. Mahmudxo'ja Behbudiy. Oq elpog'ichli chinli xotun//Turkiston viloyatining gazetasi, 1909 yil 5 fevral`. – №10.
11. Mahmudxo'ja Behbudiy. Bir a'mo bolaning hasrati// Oyina jurnali, 1914. –№27. – B. 505.
12. Mahmudxo'ja Behbudiy. Bir vafolik zaifani xususida hikoya//Turkiston viloyatining gazetasi, 1903 yil. – №40;41;44;45;46;47;48; 1904 yil. –3;4;5.
13. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 170- 174 b.
14. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 170- 174 b.
15. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 170- 185 b.
16. Samarqandiy mufti Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja xatib. Turkiston viloyatining gazetasi, 1908 yil 1 may. –№33.
17. Mahmudxo'ja Behbudiy.Oh, bonklar bizni barbod etdi. Turkiston viloyatining gazetasi, 1914 yil 13 mart. –№21.
18. Abdulla Qodiriy. Ahvolimiz. Millatimga bir qaror//Oyina: Samarqand, 1915. - №12.
19. M.Behbudiy. Millat vazifasi. Ulfat gazetasi, 1906 yil 20 aprel`. - №20.
20. M.Behbudiy. Millatlar qanday taraqqiy etarlar. Samarqand gazetasi, 1913 yil 30 iyun`. - №31
21. Hoji Muin. Nima edik, nima bo'ldik, nima qilaylik?// Zarafshon gazetasi, 1922 yil 1 dekabr`.
22. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon. Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasi// Tong gazetasi, 1920–№1 .



UDK: 8.1751

*Muhayyo AZIMOVA,*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi*  
*E-mail: muhayyoazimova22@gmail.com*

*O‘zDJTU dotsenti, f.f.d. X.Samigova taqrizi asosida*

## GENERAL DESCRIPTION OF THE SYSTEM OF VERBAL MEANS THAT IMPLEMENT THE "CONCEPTUAL SEMANTICS OF HYPERBOLE" AND THEIR STRUCTURAL TYPES

Annotation

In this article, verbal tools representing the conceptual semantics of hyperbole and descriptions of their types are given. The results of the typological analysis of the conceptual semantics of hyperbole in English and Uzbek languages are presented.

**Key words:** Hyperbole, concept, semantics, verbalizer, sphere, phrase, isomorphic, allomorphic.

## ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СИСТЕМЫ ГЛАГАЛЬНЫХ СРЕДСТВ, РЕАЛИЗУЮЩИХ «КОНЦЕПТУАЛЬНУЮ СЕМАНТИКУ ГИПЕРБОЛЬ», И ИХ СТРУКТУРНЫХ ТИПОВ

Аннотация

В данной статье даны словесные средства, представляющие понятийную семантику гиперболы и описания их видов. Представлены результаты типологического анализа понятийной семантики гиперболы в английском и узбекском языках.

**Ключевые слова:** Гипербола, концепт, семантика, вербализатор, концептосфера, словосочетание, изоморфный, алломорфный.

## “GIPERBOLA KONSEPTUAL SEMANTIKASI” NI VOQELANTIRUVCHI VERBAL VOSITALAR TIZIMI VA ULARNING STRUKTURAL TURLARI UMUMIY TAVSIFI

Аннотация

Ushbu maqolada giperbola konseptual semantikasini ifodalovchi verbal vositalar hamda ularning turlariga tavsiflar beriladi. Ingliz va o‘zbek tillarida giperbola konseptual semantikasi tipologik tahlili natijalari keltirib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Giperbola, konsept, semantika, verbalizator, konseptosfera, frazema, izomorfik, allomorfik.

**Kirish.** “Giperbola” konsepti (yoki “giperbola” konseptual semantikasi) universal tabiatga ega bo‘lib, uning bunday tabiati mazkur konseptning muloqot nuqtayi nazaridan olib qaralganda, muhim bir voqelik ekanligidan dalolat beradi, chunki u barcha tillarda so‘zlashuvchi kishilarning tafakkurida, konseptosferasida mavjud bo‘lgan idrokiiy (mental) tushunchalardan biri bo‘lib, tillarda o‘ziga xos va mos, maxsus voqelantiruvchi vositalar, ya‘ni verbalizatorlar tizimiga ega bo‘lgan umumlisoniy hodisadir. Buning sababi shundaki, tilda muloqot olib boruvchilarning kundalik hayotida ob‘ektiv dunyodagi predmetlar (insonlar, hayvonlar, narsalar va b.q.), voqealar, ish-harakatlar, jarayonlar, vaziyatlarga beriladigan tavsifning miqdori yoki darajasini ancha bo‘rttirib, ifodalashga tabiiy ehtiyoj tug‘iladi. Shunday holatlarda ular “giperbola”, ya‘ni “giperbolema” stilistik vositasiga bevosita murojat qiladilar. Masalan, ingliz tilida: I told you a hundred times not to go there alone (J.London. Short Stories, ‘85); o‘zbek tilida: Sizga ming rahmat, o‘g‘lim.(P.Qodirov. Yulduzli tunlar, (189 b.)

Shunday qilib, har qanday tilda olib boriladigan jonli muloqotda tinglovchi yoki kitobxoniga u yoki bu darajada ta‘sir qilish va muloqotdan ko‘zlangan muddao yoki maqsadga erishish uchun tilda so‘zlashuvchi yoki yozuvchilar tomonidan mubolag‘alashirilgan semantikasi til vositalari ataylab, maqsadli qo‘llanilishi tez -tez kuzatilishi umumlisoniy ehtiyoj va shu bois umumlisoniy qonuniyat hamdir. Unda so‘zlovchi/yozuvchilar o‘zining muloqotdan ko‘zlangan kommunikativ-pragmatik muddaoisi, maqsadi yoki niyatiga erishish uchun til vositalarining muloqat vaziyatiga juda mos keluvchi, eng qulay va to‘laqonli turlarini tanlaydi, vaholanki ular orasida giperbola bilan bir qatorda unga uyqash, yaqin bo‘lgan boshqa semantikasi stilistik vositalar (metafora,

metonimiya, epitet, sinekdoxa, meyozi, litota, klimaks (gradatsiya) grotesk va h.k.)ni ham tez-tez qo‘llab turadilar.

Qiyosiy-tipologik tahlillarimiz natijalari o‘laroq, tillarda “GKS”ni quyidagi maxsus, yaxlit invariant til birliklari (verbalizatorlari) tiplari tizimi orqali voqelantiradi: 1) fonomorfema; 2) morfema; 3) leksema;

4) sintaksema (frazema va sentencema); 5) frazeoma; 6) tekstema (disskursema); 7) paralingvema, to‘g‘rirog‘i, giperparalingvema.

Tadqiqotimiz uchun tayanch tillar hisoblangan ingliz va o‘zbek tillarida universal “GKS”ni voqelantiradigan invariant til birliklari tiplari tizimining qiyosiy tipologik tahlili natijalarini ekstrapolyatsiya metodi orqasi boshqa (30 dan ortiq) tillarga tadbiq etganimizda, shu narsa aniqlandiki, aynan shunday invariant til birliklari (ya‘ni fonomorfema, morfema, leksema, frazema, sentencema (sodda, qo‘shma), frazeoma va tekstema (disskursema)lar barcha tillarda ham “GKS”ni voqelantiruvchi verbal vositalar tiplari sifatida xizmat qilar ekan. Bu holat mazkur semantika verbalizatorlarining universal tabiati va maqomidan dalolat beradi. Shuni ta‘kidlash lozimki, mazkur “GKS” verbalizatorlari barchasi ikki muhim tipologik aspektga ega:

1) kvantitativ; 2) kvalitativ.

“GKS” verbalizatorlarining kvantitativ jihatlari deganda biz ularning struktural tiplari miqdor jihatdan qanday tavsiflanadi, mazkur semantikasi voqelantirishda u yoki bu verbalizatorning ishtiroki, hissasi, yahni shu semantikasi moddiyashirishda uning statistik ko‘rsatkichlari qanday, u yoki bu tildagi mavjud “giperbola lingvokognitiv maydoni”ning qanday a‘zosi, uning yadrosi, dominantasi yoki periferiyasini tashkil etishi bilan belgilanadi.

“Giperbola kontseptual semantikasi” verbalizatorlarining kvalitatif jihatlarini deganda esa ularning semantik, kommunikativ-pragmatik, lingvokulturologik va lingvostilistik jihatlarini tushunamiz. Bu borada qiyoslanayotgan tillarda tadqiq qilinayotgan verbalizatorlarning izomorfik (o'xshash) jihatlarini ko'proq bo'lishi kutiladi, chunki tillarda ichki strukturalar (deep structures – ichki, semantik strukturalar) dunyoning ob'ektiv manzarasi bir xilligini ifodalaydilar, yuzaki strukturalar (surface structures- formal (shakl) strukturalar) esa tipologik jihatdan qarindosh bo'lmagan tillarda ob'ektiv borliqni til manzarasi orqali u yoki bu tarzda farqlab ifodalashga xizmat qiladi.

Sinxron kesimda olingan turli tizimdagi tillarda “GKS”ni voqelantiruvchi verbalizatorlarning tipologiyasini tadqiq qilish uchun avvalambor mazkur tillarning tipologik xususiyatlarini tashkil etuvchi umumiy jihatlarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir vaqtda bunday tahlil bir til yoki bir necha tillardagi tadqiqot ob'ektining (til unsurining) miqdor va sifat o'zgarishlarini ochib berishga imkon yaratadi. Shu yo'sinda tillardagi u yoki bu verbal vositaning tipologiyasi yaratiladi.

Qiyoslanayotgan tillar tipologik jihatdan qurilishiga ko'ra turli tizimdagi tillar sirasiga kiradi. Ulardan ingliz tili asosan analitik qurilishga ega bo'lib, hind-yevropa tillarining german tillari oilasiga, rus tili flektiv qurilishga ega bo'lib, u hind-yevropa tillarining slavyan tillari oilasiga, o'zbek tili esa aggluyativ qurilishga ega bo'lgan oltoy tillari guruhining turk tillari oilasiga mansub bo'lgan tillardir. Xuddi odam anatomiyasi kabi, ularning “lingvistik anatomiyasi” ham deyarli bir xil bo'lib, ko'proq o'xshash jihatlar bilan tavsiflansalarda, tabiiyki, ularda ma'lum xususiy, bir qator o'ziga xos jihatlar ham ko'zga tashlanadi.

Turli tizimli tillardagi “GKS” verbalizatorlarining struktural tipologiyasi yaratish (ishlab chiqish) tillardagi mavjud fonologik, morfologik, morfemik, leksik, sintaktik/frazematik, sentensemik/, frazeomatik va tekstemik sathlarning birliklarining struktural tavsifini ochib berishni taqozo qiladi, chunki mazkur verbalizatorlar aynan shu sathlar birliklari orqali voqelantirilishi tabiiy.

“GKS” verbalizatorlari (GKSV)ning tipologiyasini ishlab chiqish uchun avvalo mazkur verbal birliklar deganda biz nimani tushunishimizni aniqlab olishimiz maqsadga muvofiq. Demak, “GKS” verbalizatori deganda zikr etilgan sematikani voqelantira oladigan har qanday til (verbal) yoki noverbal (noverbal, paralingvistik) vositani tushunish mumkin.

Har bir alohida olingan konkret, milliy tilda GKSVlar o'zlarining ham kvantitativ, ham kvalitatif tavsiflariga ko'ra bir qator farqli (allomorfik) jihatlariga ega bo'lsalarda, ularda o'ziga xos o'xshash (izomorfik) jihatlar ham yo'q emas. Shuning uchun har bir konkret tilda GKSVlar tipologiyasini yaratish uchun ushbu verbalizatorlarni tipologik qiyoslash asoslarini tashkil etuvchi muhim tipologik, relevant jihatlar, ya'ni me'zonlarni, parametrlarni obdon aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har bir qiyoslanayotgan birlik (ayni holatda mubolag'alashgan verbalizator), avvalam bor u yoki bu verbalizator tipi - turining tavsifiga bevosita dahldor va ayni holatda boshqa tiplar bilan bir xil bo'lgan umumiy jihatlar bilan bir qatorda uning xos bo'lgan xususiyatlarini ham o'zida mujassamlantirishi kuzatiladi. Bu ma'noda olinganda, har qanday tip singari verbalizatorlarning har bir tipi o'ziga xos xususiy jihatlar bilan bir qatorda umumiy jihatlarini ham o'zida doimo namoyon etadi.

Tipologik qiyoslov ob'ekti bo'lgan verbalizatorlarning to'g'ri va yagonalashtirilgan (ya'ni unifikatsiya qilingan) ta'rifini va tavsifini berish uchun avvalo ushbu tipologik birliklarning yetarli darajada ishonarli ilmiy asoslari deb tan

olinishi mumkin bo'lgan bir qator tipologik relevant jihatlarini va me'zonlarini ishlab chiqish zarur. Biz nimaningdir tipi (turi), masalan, ob'ektiv borliqdagi qandaydir hodisaning tipi deganda odatda undagi uchraydigan mavjud xususiy va konkret jihatlardan imkoniyati boricha barcha umumiy jihatlarini chiqarib olamiz. Ayni holatda biz ko'rsatilgan usullarda giperbolik verbalizatorlarning barchasi va shu bilan bir vaqtda ularning har biri uchun umumiy bo'lgan jihatlarini aniqlab topishimiz lozim. Shunday umumiy jihatlar sifatida alohida ahamiyatga molik verbal birlik bo'lib hisoblanadigan GKSV uchun xos bo'lgan quyidagi barcha belgilar va jihatlar olinadi:

GKSVlar orqali voqelantiriladigan u yoki bu “kontseptual semantika”ning tipi va tabiati;

Tarkibida eksplitsit va implitsit tarzda ifodalanadigan giperbolizatorlarni o'z ichiga olgan GKSVlar tavsifi va tasnifi;

Tillarning iyerarxik sathlari bilan bog'liq GKSV tiplari (fonema, to'g'rirrog'i, fonomorfema, leksema, sintaksema /frazema, sentensemik/, frazeoema, tekstemalar);

GKSVlarning fonologik, morfologik, morfematik, leksik, sintaktik /frazemik va sentensemik/, frazeoemik va tekstemik tiplarining belgilar sifatidagi:

a) Lingvokognitiv jihatlarini;

b) Struktural- cematik jihatlarini;

c) Kommunikativ-pragmatik, lingvokul'turologik va lingvostilistik jihatlarini va h.k.;

d) Frazemik GKSVlar komponentlari o'rtasidagi sintaktik (koordinativ, subordinativ) munosabatlar;

e) Sentensemik GKSVlarning (monotaksema va politaksema) turlari;

f) Tillarning morfologik va sintaktik tiplari (SVO, VOS, VSO, SOV, OVS, OSV) kesimida GKSVlar tarkibida mubolag'alovchi (giperbolizator)ning mubolag'alanishga nisbatan joylashishi tartibi (prepozitsiya yoki postpozitsiya) va h.k.

GKSV turlari tipologiyasini ishlab chiqishda yuqorida sanab o'tilgan parametrlar (mehzonlar) majmuasi bir yaxlit tizim sifatida va o'zaro bog'liklikda olinganda ifoda vositalari bo'lmish giperbolik verbalizatorlarning har biriga xos va mos bo'lgan, umumiy tipologik relevant mezonlari yig'indisini tashkil etadi.

Nutqda o'zining ko'p marotabalab voqelantirilish imkoniyatiga ega ekanligidan kelib chiqqan holda, har qanday alohida olingan tip konkret ma'lum bir umum tushunchani ifodalaganidek, biz endi GKSVlarining lingvokognitiv tashrifini shakllantirishimizga yetarli asos bor deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, GKSV bu shunday til birligiki, u fonomorfema, leksema, sintaksema/yahni frazema, va sentensemik/, frazeoema va tekstemalar orqali ifodalanib, nutqda muloqotdoshlarning mubolag'alashgan kommunikativ-pragmatik niyatini ro'yobga chiqarish maqsadida “salbiy/ijobiy”, “mutloq/nomutloq”, “mustasnoli/mustasnosiz”, “afsonaviy/ noafsonaviy” giperbola (lingvokognitiv) semantikasini voqelantirish uchun maxsus verbal vosita sifatida trop yoki nutq figurasi maqomida qo'llaniladigan stilistik vositadir.

Kuzatishlarimiz natijasida shuni aniqladikki, GKSVlarning har biri o'z tarkibida borliqdagi predmetlarning u yoki bu tavsifini mubolag'alashtiruvchi vosita, ya'ni giperbolizator mavjud bo'lib, u ikki tipga bo'linadi: 1) implitsit (ochiq,) tarzda ifodalangan giperbolizator; 2) eksplitsit (yopiq, yashirin, metaforik) tarzda ifodalangan giperbolizator.

Birinchi tipdagi verbalizatorlar predmetlarning tavsifini metaforik usulda ifodalaydilar, ularning tarkibida ochiq ifodalangan verbalizator yo'q, lekin ularning trop sifatida bir so'z bilan ifodalanishi va ulardagi talaffuzning cho'ziqligi, intonatsiyaning kuchayishi kabi qo'shimcha

nutqiy omillar ularda implitsit tarzda ifodalangan verbalizatorlar borligidan dalolat beradi (masalan, “kaaatta, biiig”, “fail, bust/ burnt down” va “kuydim, o'ldim, tugadim, yonib ketdim, erib ketdim, muzlab ketdim”, va h.k.).

Shuni ta'kidlash lozimki, qiyosiy tahlillarmiz natijalari yuqorida sanab o'tilgan verbalizatorlar har bir tilda o'zlarining umumlisoniy jihatlari bilan bir qatorda ma'lum xususiy tipologik jihatlarga ham ega ekanligini ko'rsatdi, vaholanki ularning izomorfik (o'xshash) va allomorfik (noo'xshash) jihatlari mazkur invariant til birliklarining ham tipologik kvalitatif (sifat) ko'rsatkichlariga, ham ularning tipologik kvantitativ (miqdor) ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'liqdir. Bunday jihatlarni tahlil qilish sanab o'tilgan verbal vositalarning qanday lisoniy maqomga ega ekanligini ko'rsatib beradi, ular asosida til tizimida muloqot to'laqonligini ta'minlash uchun nutqda ularning qanchalik ko'p yoki oz qo'llanilishi omillarini ochib berishga, ularning tipologik maqomini, unga asoslangan holda esa mazkur verbal vositalarning umumlisoniy maqomini ham aniqlashga imkon yaratadi.

Tilshunoslikda, vaholanki istagan tadqiqotda, tipologiya o'zining tahlil ob'ekti tiplarini, turlarini, xillarini aniqlashni, ularni tiplashtirishni, tiplashtirish orqali esa kategoriyalashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham, masalan, “O'zbek tilida sodda gaplar tipologiyasi” deganda biz mazkur tildagi mavjud gap tiplarini inventarlashtirib, tiplashtirib, ya'ni ularni tiplarga, turlarga ajratib tahlil qilishni, shuningdek ularning kvantitativ va kvalitatif tabiatini ochib berishga, ularning kognitiv, struktural-semantik, kommunikativ-pragmatik jihatlari ochib berishga, shu asnoda ularning psixolingvistik, sotsiolingvistik, lingvokulturologik va lingvostilistik va h.k. nuqtayi nazarlardan mavjud izomorfik va allomorfik jihatlari aniqlashga harakat qilamiz. Bunday tahlil gaplarning aynan o'xshash, noo'xshash jihatlari taqozo etuvchi lingvistik, ekstralingvistik omillarni ochib berishni va ularni tizimli asnoda ilmiy yoritishni taqozo etadi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, u yoki bu til birligining, ayni holatda gap turlari yoki har qanday til birligi tipologiyasi bir yoki birdan ortiq tillar

materiallari asosida amalga oshirilishi ham mumkin. Bu ma'noda olinganda tadqiqotga jalb qilinadigan tillar qancha ko'p bo'lsa, tipologik tahlil natijalarining shunchalik puxta, asosli va ishonarli bo'lishiga zamin yaratiladi.

Bu borada shuni ham unutmaslik kerakki, tadqiqot bir til yoki birdan ortiq til materialida olib borilishidan qat'iy nazar, izlanuvchi qiyoslanayotgan u yoki bu til(lar)ni tipologik izlanishlarda qabul qilingan va unga amal qilib kelinayotgan tillarning mavjud morfologik (amorf, analitik, agglyutinativ, flektiv va inkorporativ kabi) tiplari yoki sintaktik (SVO VSO VOS, SOV, OVS va OSV kabi) tiplari bilan uzviy bog'lashni zinxor e'tibordan qochirish kerak.

**Xulosa va takliflar.** Turli tizimdagi tillarda GKSVlarning tipologiyasi deganda esa tadqiqotchi oldida ingliz, o'zbek, ) tillarda aynan zikr etilgan semantika verbalizatorlarining inventarizatsiyasini amalga oshirish (ya'ni ularning tiplarini, turlarini ro'yhatga olish), ularning kvantitativ va kvalitatif jihatlari aniqlash hamda tavsiflash asosida “giperbola kontseptual semantikasi”ning turli tillarda voqelantirish texnikasi, vositalari va usullarini aniqlash hamda ularni tahlil qilishdek muhim va dolzarb vazifa nazarda tutiladi. Shuning bilan birga, bunday tipologiya, yuqorida ta'kidlaganimizdek, giperbolik verbalizatorlarning kognitiv, struktural-semantik, kommunikativ-pragmatik, sotsiolingvistik, lingvokulgturologik va lingvostilistik va h.k. nuqtayi nazardan mavjud izomorfik (umumiy) va allomorfik (xususiy) jihatlari aniqlashni, qolaversa aynan shunday o'xshash, noo'xshash jihatlari taqozo etuvchi lisoniy va nolisoniy omillarni ochib berishni, boz ustiga ularni tizimli asnoda ilmiy yoritishni ham talab qiladi. Bunday tipologik tahlil tillardagi, jumladan, zamonaviy ingliz, o'zbek va rus tillaridagi GKSVlarning lingvokognitiv tabiati bilan bog'liq bo'lgan konstant (doimiy) jihatlari va xususiyatlari, ya'ni ularning absolyut universal, frekvental, implikativ, retsessiv va unikal xususiyatlarini ochib berishga, shu yo'sinda ularning lingvokognitiv tipologiyasini yaratishga, bunday tipologiyaga asoslangan holda esa GKSVlarning tipologiyasini ham yaratishga imkon yaratadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Yusupov O.Q. Konsept va lingvokultúra atamallari xususida. //Qiyosiy-chog'ishtirma, tipologik va umumiy tilshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Andijon, 2010, 9-15 b.
2. Qoraboev J.B. Turli tizimli tillarda “giperbola kontseptual semantikasi” verbalizatorlarining relevant tipologik jihatlari va tarjima muammolari // Chet tilda madaniyatlararo muloqotni o'rgatishning dolzarb muammolari. Ilmiy-ta'limiy anjuman materiallari. – Toshkent, 2017 y. 150-153 b.
3. Qoraboev J.B. Giperbola kontseptual semantikasini voqelantiruvchi til birliklarining kommunikativ-pragmatik turlari tipologiyasi // Til birliklarini qiyosiy-tipologik va lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlarida tadqiqi va ularning chet tillarni o'qitishdagi o'rni. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Toshkent, 2017. 206-209 b.
4. Qoraboev J.B. O'zbek tilida giperbola kontseptual semantikasini voqelantiruvchi verbal vositalar maydoni. // Urganch Davlat universiteti. Ilm sarchashmalari. №1 son. - Urganch, 2017 y. 87-91 b.
5. Ярцева В.Н. Принципы типологического исследования родственных и неродственных языков. //Проблемы языкознания. - М.: Наука, 1967. 203-207.-c
6. Yusupov U. Contrastive Linguistics of the English and Uzbek Languages. T., Akademnashr, 2013. 101-103 – b.



*Jaxangirmirzo BAXADIROV,*

*Toshkent amaliy fanlar universiteti "Xorijiy til va adabiyoti" kafedrasini mudiri, PhD*

*O'zDJTU, f.f.d. J.A.Yakubov taqrizi asosida*

### INGLIZ TILIDAGI TASHQI IJTIMOYIY REKLAMALARNING LUG'AVIY VA STILISTIK (USLUBIY) XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada ingliz tilidagi tashqi ijtimoiy reklama matnlarida tilning eng ko'p ishlatilgan vositalari qiyoslash, mubolag'a, timsollash, sifatlash, antiteza, allyuziya, evfemizm, ritorik savol va kinoya usullaridan bugungi kunda keng foydalanib kelinayotganligi misollar yordamida yoritib berilgan. Shuningdek, ingliz tilidagi ijtimoiy reklamalar matnlarida ifodali sintaktik vositalar qatoridan ritorik savol, parsellyatsiya, apoziopezis, inversiya, anafora, epifora va xiazm kabi uslublar ham o'rin olganligi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Reklama, stilistik, til, matn, uslub, tashqi reklama, timsollash, sifatlash, antiteza, allyuziya, evfemizm, ritorik savol, kinoya.

### ЛЕКСИКО-СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НАРУЖНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ РЕКЛАМЫ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В статье широко используются наиболее используемые средства языка в текстах внешней социальной рекламы на английском языке, сравнение, преувеличение, уподобление, квалификация, антитеза, аллюзия, эвфемизм, риторический вопрос и приемы иронии, широко используемые сегодня с помощью примеры. Также показано, что к числу выразительных синтаксических средств в текстах социальной рекламы на английском языке относятся риторический вопрос, парцелляция, апозиопезис, инверсия, анафора, эпифора и хиазм.

**Ключевые слова:** Реклама, стилистика, язык, текст, стиль, наружная реклама, олицетворение, квалификация, антитеза, аллюзия, эвфемизм, риторический вопрос, ирония.

### LEXICAL AND STYLISTICAL FEATURES OF BILLBOARD SOCIAL ADVERTISING IN ENGLISH

Annotation

In the article, the most used tools of the language in the texts of external social advertising in the English language, comparison, exaggeration, simile, qualification, antithesis, allusion, euphemism, rhetorical question and irony methods are widely used today with the help of examples. Also, it is shown that the rhetorical question, parcellation, aposiopesis, inversion, anaphora, epiphora and chiasm are among expressive syntactic tools in the texts of social advertisements in English.

**Key words:** Advertising, stylistic, language, text, style, outdoor advertising, personification, qualification, antithesis, allusion, euphemism, rhetorical question, irony.

**Kirish.** Ingliz tilidagi tashqi ijtimoiy reklamalarning maqsad-vazifasi – adresatni ijtimoiy muammolar va ularni bartaraf etish usullaridan xabardor qilish bo'libgina qolmay, tilning tasvirlash va ifodalash vositalari tizimi orqali uning shuurida yorqin reklama obrazini shakllantirishdir. Inson diqqat-e'tiborini jalb etgan va unga intensiv ravishda ta'sir ko'rsatishni maqsad qilgan reklama doimiy ravishda o'zgarib turishni talab etadi, negaki, har qanday ta'sir ko'rsatuvchi vositalar vaqt o'tib, eskiradi va, g'ayriixtiyoriy ravishda qabul qilina boshlaydi. Natijada esa, undagi jonlilik yo'qolib boradi, demak, reklamaning ishonitirish qobiliyati susayadi.

Ingliz tilidagi ijtimoiy reklamalarda tilning barcha darajadagi jonli vositalari qo'llanganligini kuzatish mumkin. Ularda, aksariyat hollarda mubolag'a, istiora, timsollash, qiyoslash va sifatlash qo'llanilgan. Shu bilan birga reklamalarda tilning uslubiy iboralari, ya'ni anafora (turoqlar, jumlarlar boshida bir tovush, so'z yoki iborani qayta-qayta ishlatishdan iborat uslub), antiteza (zid tushuncha, obraz orqali tasvirni kuchaytirish usuli) bog'lovchisi yo'q gap tuzish, inversiya (jumlada so'zlarning odatdigidan boshqacha joylashishi, o'rin almashishi uslubi), paralelizm (biror jumlaning bevosita o'zidan keyin kelgan jumla bilan sintaktik va intonatsion jihatdan bir xilda tuzilishi), ritorik savol (javobi ichida bo'ladigan savol), epifora (qofiya) kabilar ham ishlatilgan.

Ijtimoiy reklama tili asosida shakl jihatdan jo'n jumlar ustuvor ekanini kuzatish mumkin. Oddiy ibora va jumlarining qo'llanishi esa, o'z navbatida reklama matnining o'quvchi tomonidan tez va ta'sirchan qabul qilinishi hamda og'zaki so'zlashuv tili ta'siri tufayli jo'shqin va ifodalilik xarakterda ekanidir. Ma'lum bir hatti-harakatga chaqiruvchi undov gaplarning ishlatilishi eng samarali va ta'sirchan reklama matnlaridan hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda o'quvchining ko'ngliga soladigan taklif, chaqiriq, ishonitirish kabi xarakteridagi iboralar ham ta'sirli konstruksiyalar qatoriga kiradi.

Ijtimoiy reklamada grafik vositalardan: bosma harflar shaklining turli tumanligi, rang, tinish belgilarni qo'yishdan unumli foydalanish keng tarqalgan. Mazkur reklamalarda undov va so'roq belgilarining o'z o'rnida ishlatilishi ham ahamiyatlidir.

Reklama orqali murojaat qilishning samarasi uning tarkibiy komponentlari hisoblangan: tasvir, ovoz, obraz, so'zning kompozitsion jihatdan uyg'unligi bilan bog'liqdir.

Ingliz tilidagi ijtimoiy reklamalar matnini tahlil qilish jarayonida tilning eng ko'p ishlatilgan vositalari qiyoslash, timsollash, sifatlash ekani aniqlandi. Ma'lumki, qiyoslash "faraz qilingan umumiy belgilar asosida gramatik jihatdan shakllantirilgan ifodali solishtirish" demakdir[2]. Qiyoslash boshqa badiiy solishtirish, o'xshatmalardan farqli o'laroq

doim o'zining aniq formal belgisi bilan, qiyoslash konstruksiyasi mavjudligi yoki qiyoslovchi bog'lovchi ishlatilganligi bilan ajralib turadi, ya'ni, masalan: like: "Smoking to me is like suicide... It is death in anticipation" – Chekish men uchun go'yo o'z joniga qasd qilish bilan barobar. Bu o'limni kutishga o'xshaydi; "Birds are like sponges... for oil" – Qushlar go'yo o'ziga shimib oladigan matoga o'xshaydi.. neft uchun.

Timsollash – bu jonsiz predmetni jonli predmet sifatida tasvirlash natijasidir[3], bu uslub u yoki bu muammoni imkon qadar yorqin aks ettirishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi ijtimoiy reklamada kashandalikning bahridan o'tishga undovchi reklama matnida bu zararli odatga o'rganib qolganlarning muammolarini ta'sirchan aks ettirish maqsadida "people" ega so'zi va to'ldiruvchi "cigarettes" so'zining joylari o'zgartirib berilgan: "Cigarettes smoke people" – Sigaretlar odamlarni chekadi. Keyingi matnlar fragmentlarida zararli odat bir kun kelib odamni o'ldirishi mumkinligiga urg'u berilib, sigaretlar qotil sifatida killers, kill: aks ettirilgan: "Cigarettes are killers that travel in packs" – Sigaretlar pachkalarda sayr qilib yurgan qotillardir; "Health food won't kill you. But junkfood will. Eat responsibly. Live longer" – Foydali ovfat seni o'ldirmaydi, zararlilari seni jahannamga tiqadi. Ovqat tanlashda mas'uliyatli bo'l va uzoq umr ko'r; "Drunk driving kills" – Avtomobilni mast holda haydash o'ldiradi.

Timsollash usuli imkon qadar ta'sirchan reklamani yaratishda faol qo'llaniladi va u o'z navbatida yorqin afsonaviy obrazlarni inson ongiga singdirishga yordam beradi. Timsollashda ham ratsional, ham emotsional sabab va vajlar hisobga olinadi, bu esa o'z navbatida reklamali murojaatning axboroti yuqori darajada mazmunli bo'lishiga xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi ijtimoiy reklamada bir ob'ektni ikkinchi ob'ekt bilan ularning umumiy belgilari/ belgisi asosida nomlashda istioradan keng foydalaniladi: "With cigarettes, your life goes to ashes" – Sigareta sizning hayotingizni kulga aylantiradi; "Unzip the truth stop abusing women" – Bor haqiqatni ayt, ayolni haqorat qilishni bas qil; "My secret cosmetics store: cover cream, sterilizing moisture, black & blue eye shadows" – Mening sirli kosmetik qurolim: qattiq krem, antiseptik emulsiya, qovoqlar uchun qora va moviy rangli buyoqlar. "Black & blue eye shadows" iborasi kosmetik vositalarni emas, mushat zarbidan ko'kargan ko'zlarni nazarda tutmoqda.

Antiteza – unda bir g'oya yoki nuqtayi nazar bir-biriga mantiqan zid qo'yiladi. Shunga ko'ra, tushuncha yoki obrazlar ma'no jihatdan kuchaytiriladi[4]. Tashqi muhitning turli aspektlarini, masalan, aholining turli ijtimoiy qatlamini solishtirib ko'rsatish, antitezani yanada ishonchliroq va yorqin uslubiy usulga aylantiradi. Misol uchun, quyidagi reklama fragmentida insonlarning mashhur kishining – dunyoda dong'i chiqqan kompaniya asoschisining o'limiga bo'lgan munosabati va Afrikadagi millionlab muhtoj odamlarning o'limiga bo'lgan befarqlik taqqoslangan: "One dies, millions cry. Millions die, no one cries" – Bir odam o'lsa, millionlab kishilar yig'laydi. Millionlar o'lsa, hech kim yig'lamaydi.

Allyuziya (shama, ishora) mazkur lingvomadaniyat sotsiumida hammaga yaxshi ma'lum bo'lgan faktlarga ba'zi iboralarni shama sifatida qo'llash nazarda tutiladi[5]. Allyuziya usuli ingliz tilidagi ijtimoiy reklamalarda ko'pincha ta'lim olishni ta'minlash, atrof-muhitni himoya qilish, kashandalikka qarshi kurash va yo'l harakati qoidalariga rioya qilishga qaratilgan reklamalarda qo'llaniladi. Ijtimoiy reklama matnlarida uchraydigan allyuziya usuli hammaga ma'lum bo'lgan shaxs yoki voqelikni to'g'ridan to'g'ri ko'rsatish yoki unga shama/ishora qilishda ishlatiladi. Masalan, kashandalikka qarshi kurashga yo'naltirilgan reklamada afsonaviy qahramonlar obrazidan foydalanilgan va ular ham sigaret cheksa nima bo'lishi mumkinligi tasvirlangan: "If Prince

Charming had been a Smoker, he'd still been searching. Smoking causes impotence. Don't shut the book on your happy ending" – Agar shahzoda kashanda bo'lganida, u hanuzgacha o'z malikasini qidirib yurgan bo'lardi. Kashandalik jinsiy quvvatsizlikka olib keladi. Ertak kitobni yopishga shoshmang, sizni baxtli onlar kutmoqda. Yoki: "If Rapunzel had been a Smoker, she'd still be in the tower. Smokers are 77 % more likely to experience hair loss. Don't shut the book on your happy ending"– Agar Rapunzel kashanda qiz bo'lganida u hanuzgacha minorada turgan bo'lardi. Kashandalarda soch to'kilishi ehtimoli 77% dan yuqori. Nihoyasi baxtli tugashi mumkin bo'lgan kitobni yopmang.

Kinoya – Kinoya - piching, kesatiq va istehzoli so'zlarni kulgili shakl va ma'nolarda ishlatilishidir.[6] Kinoya yo'l harakati qoidalariga rioya qilish va atrof muhitni himoya qilishga bag'ishlangan ijtimoiy reklama matnlarida uchraydi. Kinoya ahmoqlikning ustidan kulish va odamlarning fojiali oqibatlariga keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarini mashara qilishda ishlatiladi. Masalan: "Got the msg? Don't text and drive" – Xabarnomani oldingmi? Javob bermay, yo'lingda davom etaver; "Drivers angry over bikers need a relaxing hobby. May we suggest biking?" – Velosiped haydovchilaridan achchiqlangan avtomobil haydovchilari asablarini bo'shatadigan narsalar bilan ovunishi lozim. Balki ularga velosiped uchishni taklif etsaymikan?

Sifatlash (Epitet) – odatda sifat-istiora yoki otning birgalikdagi kelishigi bilan ifodalanadigan obrazli ta'rif hisoblanadi[7]. Masalan: "Verbal abuse can be just as horrific" – Og'zaki haqorat o'ta dahshatli bo'lishi mumkin; "Children who don't drink enough milk are more frail" – Yetarli darajada sut mahsulotlari iste'mol qilmagan bollar, anchayin nimjon bo'ladi;

Evfemizmlar – lingvomadaniyatning xususiyatlari va ijtimoiy jihatdan omma oldida oshkora aytish noqulay bo'lgan so'z o'rmda ishlatiladigan pardali so'z yoki iboralardir[8]. Aksariyat jamiyatda man etilgan asosiy mavzulardan biri o'lim mavzusi hisoblanadi. Shuning uchun o'limga olib boruvchi ijtimoiy muammolarning (kashandalik, alkogolizm, yo'l harakati qoidalariga rioya qilmaslik, atrof-muhitning ifloslanishi kabilar) reklamalarida evfemizmlar ishlatiladi. Masalan: "Up to 25 species are passing away every day" – Har kuni 25 tagacha turlar narigi dunyoga ketadi ("extinct", "die" o'rninga "passing" fe'li ishlatilgan); "Children of parents who smoke, get to heaven earlier" – Ota-onalari kashanda bo'lganlarning farzandi yorug' dunyoni boshqalardan avvalroq tark etadi ("die" o'rniga "get to heaven" ishlatilgan).

Ingliz tilidagi ijtimoiy reklamalar matnlarida ifodali sintaktik vositalar qatoridan qo'yidagi uslublar ham o'rin olgan: ritorik savol (emotsional fikrni kuchaytiradigan va adresat diqqatini o'ziga jalb etuvchi shakldagi savolni ta'sdiqlash yoki inkor etish); parsellyatsiya (yagona sintaktik birikmalardagi jummalarni kommunikativ jihatdan mustaqil bo'lgan bir necha iboralarga bo'lish yordamida nutq ta'sirchanligini kuchaytirishning sintaktik vositasi); apoziopezis (ikki maqsadni ilgari suruvchi: yoki retsiptiyentning o'zi mustaqil ravishda ma'lum bir xulosaga kelishi, yoki shu xulosani aytish uchun ma'lum muddat sukut saqlab turish uchun atayin tugallanmagan fikr); inversiya (jumlada so'zlarning odatdagidan boshqacha joylashishi, o'rin almashishi); anafora (ketma-ket yoki bir biriga yaqin satrlar, turoqlar, jumlar boshida kelgan bir tovush, so'z yoki iboraning qayta-qayta ishlatishi); epifora (badiiy matning oxirida keluvchi qofiyali so'zlarning, badiiy matn fragmentlarining – she'r va she'r bandining takrorlanib kelishi); xiazm (yonma-yon kelgan ikki so'z birikmasi yoki jummalarning qator oralab joylashuvi) kabi usullardan ham faol foydalanib kelinmoqda[9].

Ingliz tilidagi ijtimoiy reklamalarda matn tuzishining keng tarqalgan vositalari sifatida ritorik savol, anafora va savol-javobning o'xshashligi alohida o'rin tutadi. Shu o'rinda javobi qanday bo'lishi ma'lum bo'lmagan ritorik savol adresat aniq bir harakat sodir etishga undalmagan xabardan iborat bo'ladi. Ritorik savolning vazifasi – diqqat-e'tiborni tortish, taassurotni kuchaytirish, aytilgan fikrning emotsional ohangini kuchaytirishdan iborat. Bu holatda javob o'z-o'zidan aytilgan bo'lib, ritorik savol reklama murojaatining adresatini faqat fikrlash yoki kechinmalarga berilishga jalb etgan holda reklamali kommunikatsiyaning faol ishtirokchisiga aylantiradi: “Smoking kills...so why bother starting?” – Tamaki chekish o'ldiradi,... tamaki chekishni boshlashni nima keragi bor?; “If you don't help feed them, who will?”- Ularga sen yordam bermasang, kim beradi?

Ritorik savol mohiyatan savol emas, ko'proq javobi kutilmagan o'zini o'zi tasdiqlovchi fikrdir; tadqiq qilinayotgan matnlarda uning asosiy vazifasi – tamaki chekish, alkohol ichimliklarini haddan ziyod ko'p iste'mol qilish, atrof-muhitning ifloslanishi kabi ijtimoiy illatlar noto'g'ri qaror qabul qilishga sabab bo'lishini maqsadli auditoriyaga eslatishdan iborat. Shu tariqa, ijtimoiy reklama matnlarida ritorik savollarni qo'llash yordamida reklama mualliflari odamlarga mazkur muammolar haqida mulohaza yuritishni va imkon qadar, o'z qarorlarini qayta ko'rib chiqishni taklif etadi.

Tamaki chekishga qarshi kurashga bag'ishlangan quyidagi reklamada aks ettirilayotgan muammoga e'tiborni ko'proq jalb etish maqsadida parsellyatsiya uslubida tuzilgan jumladagi har bir iboraga alohida urg'u berilgan: “Smoking. Pleasure for you. Poison for your family. Quit smoking. Now” - Tamaki chekish. Sen uchun huzur baxsh etsa, oilang uchun og'udir. Chekishni tashla. Hozir. Yo'l harakati xavfsizligiga bag'ishlangan reklamaning boshqa parchasida undov so'zlar ikki jumlagi bo'lingan: “Concentrate on the road. Not your conversation” – Yo'ldan diqqat-e'tiboringni uzma. Gapga alahsima.

Atrof-muhit himoyasiga bag'ishlangan quyidagi reklamada adresatning o'zi mustaqil ravishda reklama beruvchi kutgan xulosaga kelishi maqsadida apoziopezis usuli qo'llanilgan: “Travelling fruits cause pollution. Think global for”... – Sayohatchi mevalar atrofni ifloslantiradi. ... Bu haqida global fikrla.

Tamaki chekishga qarshi reklamada: “With cigarettes, your life goes to ashes” – Sigareta bilan sening hayoting kulga aylanadi – inversiya qo'shimcha to'ldiruvchi “with cigarettes”ni bo'rirtirib ko'rsatmoqda va o'z navbatida retsipiyent tomonidan reklamani qabul qilish ta'sirini kuchaytirib, uning tamaki chekish muammosiga e'tiborini qaratmoqda.

Anafora ijtimoiy reklamada eng ko'p ishlatiladigan uslubiy vosita hisoblanadi: “Cut your portions, cut your risk”

#### ADABIYOTLAR

1. Лукьянова Н. Стилистика. Учебное пособие. – Новосибирск: Новосибирский государственный университет, 2000. Часть 2. – С. 50.
2. Лукьянова Н. Стилистика. Учебное пособие. – Новосибирск: Новосибирский государственный университет, 2000. Часть 2. – С. 50.
3. Камбаров Н. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Nodirabegim, 2012.
4. Лукьянова Н. Стилистика. Учебное пособие. – Новосибирск: Новосибирский государственный университет, 2000. Часть 2. – С. 8.
5. Холматов Ш. Бадий асар тили. – Самарканд: Афросиёб, 1992. – Б.34.
6. Зубкова М. Структурные и прагматические характеристики англоязычного рекламного социального плаката: Дисс... канд...фил...наук. – Волгоград, 2017. – С.130.
7. Ирискулов М. Тилшунослика кириш. – Тошкент: Фан, 2004; Юлдашев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.
8. Лукьянова Н. Стилистика. Учебное пособие. – Новосибирск: Новосибирский государственный университет, 2000. Часть 2. – С. 11-55.

– Ovqat porsiyasini kamaytirib, xavfni kamaytir; “I am Paul McCartney, and I am a vegetarian” – Men Pol Makkartni, va men vegetarianman; “Preserve your world. Preserve yourself” – O'z dunyoingni asra. O'zingni asra. Yoki, masalan: “Save paper. Save wildlife” – Qog'ozni asar. Yovvoyi tabiatni asra; “Whatever you do to the world you do to yourself” – Olam uchun nima qilsang, o'zing uchun qilasan; “Save water...save life” – Suvni asra, hayotni asra.

Quyidagi reklama murojaatlari epifora uslubiy vositasi yordamida yaratilgan: “When he controls your life, it's no longer your life” – U hayotingni nazorat qilsa, demak, u sening hayoting emas; “Some wounds never heal. We can't change their past. Together we can change their future” – Ba'zi bir jarohatlar hech qachon tuzalmaydi. Biz o'tmishni o'zgartira olmaymiz. Birgalikda ularning kelajagini o'zgartira olamiz.

“I meant what I said and I said what I meant” - Men nazarda tutganim aytdim va mening aytdim gapim – nazarda tutganim slogan xiazm uslubiy vositasi yordamida yaratilgan, ya'ni birinchi jumlaning oxirgi qismi, ikkinchi jumlaning bosh qismi bilan oralab joylashgan. Xuddi shu usul quyidagi parchada ham qo'llanilgan: “Livin' health. Healthy living. Perspectives in healthy living!” – Yaxshi yasha. Yashash yaxshi. Sog'lom turmush tarzining kelajagi bor!

Savol-javobning o'xshashligi uslubida yaratilgan reklamada javob unda aks ettirilgan fikrning persuaziv funksiyasini bajaradi: “Did I win? Attention. It's not about the game. It's about your life. Now would you give him the chance to beat you again?” – Men g'olibman? Diqqat. Gap o'yinda emas, sening hayotingda. Sen unga sening ustingdan g'alaba qilishga yana imkon bergan bo'larmiding?; “Did I take my pill today? I can't remember... Does this sound familiar? The implant could be a better choice...” – Men bugun dorimni ichdimmi? Eslay olmayapman. Tanish tuyuldimi? Implant eng yaxshi tanlov bo'lishi mumkin edi...; “What's your question? Ask yourself” – Savoling qanday? O'zingdan so'ra.

Ingliz tilidagi ijtimoiy reklamalarda fonetik-stilistik vositalardan ham faol qo'llaniladi. Ularga onomatopeya – undov so'zlar bilan qo'llab-quvvatlangan va eshilitilishi bo'yicha ma'lum bir harakat bilan jo'r bo'lgan tovushga taqlid qilingan so'zlar (ot va fe'llar) kiradi: “Smoke, smoke, smoke that cigarette! Puff, puff, puff. Smoke yourself to death!” – Bu sigaretni chek, chek, chek. Paf, paf, paf. O'lguningcha chek. Mazkur misolda “puff” so'zi to'pponchadan otilgan o'q ovozi eslatadi, negaki, sigaretlar kishi o'limiga sabab bo'luvchi muhim sabablardan biri hisoblanadi.

**Xulosa** o'rnida aytilish mumkinki, ingliz tilidagi tashqi ijtimoiy reklamalarda til vositalarining barchasidan maksimal darajada qo'llanilishiga moyilligi bilan alohida ajralib turadi.



*Sabina BERDIYEVA,*  
*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi*  
*E-mail: berdiyevsabina8@gmail.com*

*QarDU dotsenti, f.f.d., G.Imomova taqriza asosida*

### EPIGRAPH IN THE STORIES OF THE ULUGBEK HAMDAM

Annotation

This article analyzes the stories of writer Ulugbek Hamdam, one of the creators of the period of independence. The writer's stories "Thankfully, you are there", "Musulman", "Forgotten flute melody" are discussed, the epigraphs used in them are analyzed to a certain extent, the writer's skill in using epigraphs is studied, proverbs, he The significance of stanzas in the content of stories is revealed during the analysis.

**Key words:** Story, plot, composition, epigraph, author, title, proverb, stanza, poem.

### ЭПИГРАФ В РАССКАЗЫХ УЛУГБЕК ХАМДАМА

Аннотация

В данной статье анализируются рассказы писателя Улугбека Хамдама, одного из творцов периода независимости. Обсуждаются рассказы писателя «Хорошо, что ты здесь», «Мусульманин», «Забывтая мелодия ная», в определенной степени анализируются используемые в них эпиграфы, изучается мастерство писателя в использовании эпиграфов, пословиц, она. содержание рассказов раскрывается в ходе анализа.

**Ключевые слова:** Рассказ, сюжет, композиция, эпиграф, автор, название, пословица, строфа, стихотворение.

### ULUG'BEK HAMDAM HIKOYALARIDA EPIGRAF

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillik davri ijodkorlaridan biri yozuvchi Ulug'bek Hamdam hikoyalari tahlilga tortilgan. Adibning "Yaxshiyam sen borsan", "Musulmon", "Unutilgan nay navosi" hikoyalari haqida so'z yuritilgan bo'lib, ularda qo'llangan epigraflar muayyan darajada tahlil qilingan, yozuvchining epigraf qo'llash mahorati o'rganilgan, epigraflardagi maqol, she'r, baytlarning hikoyalarning mazmunidagi ahamiyati tahlil davomida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Hikoya, syujet, kompozitsiya, epigraf, muallif, sarlavha, maqol, bayt, she'r.

**Kirish.** Hikoya ulkan hayot voqeligidan kichik bir epizodni epik planda aks ettiruvchi, zamonaviy adabiyotning faol janrlaridan biri. Hikoyaning bosh fazilatlaridan biri uning hozirjavob janrligida. Hikoya aksari voqelikning adib tuyg'ulari-shuur ko'zgusida akslanishidir. Shu bois "Muallif istaydimi yo'qmi hikoya hamma vaqt ijtimoiydir"[4]. O'zgaryotgan voqelikdan mo'jaz badiiy umumlashma yasashda hikoyaning imkoniyati katta. Ammo badiiylik sharti shundaki, hikoya nechog'li bugunbop janr ekanligidan qat'iy nazar unda bugunning qadriyatlarini, bugunning muhim gapi abadiy va o'zgarimas qadriyatlar qiyosida ifoda topmog'i kerak. Hikoya dolzarb va mangu qadriyatlar orasida dunyoga keladi. Yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Yaxshiyam sen borsan", "Musulmon", "Unutilgan nay navosi" hikoyalari ham yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar mujassamdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ulug'bek Hamdam ko'plab asarlariga, jumladan hikoyalari epigraflar qo'yishi bilan ham boshqa hikoyanaviy ijodkorlardan ajralib turadi. Tahlilga tortilgan uchala hikoyasida qo'llangan epigraflar ham hikoyaning kompozitsiyasiga muvofiq tanlangan. Hikoyalardagi epigraflarga to'xtalishdan avval ularning kompozitsiyasiga ko'z tashlasak. Har qanday badiiy asar poetikasi haqida gapirilganda, eng birinchi bo'lib, uning kompozitsion xususiyatlari yoki, aytaylik, yozuvchining badiiy mahorati haqida gap boradigan bo'lsa, ijodkorning kompozitsiya yaratishdagi o'ziga xos mahoratiga e'tibor qaratamiz. Kompozitsiya tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, adabiyotshunos olim Dilmurod Qur'onovning "Badiiy asardagi shakl komponentlarini mazmuni shakllantirish va ifodalash uchun eng qulay tarzda uyushtirish kompozitsiyaning zimmasidagi vazifa sanaladi. Kompozitsiya (lot., tartibga

solish, tuzib chiqish) asardagi barcha unsurlarni shunday uyushtiradiki, natijada unda bironta ham ortiqcha unurning o'zi bo'lmaydi, zero, har bir unsur asar butunligida o'zining funksiyasiga ega, muayyan g'oyaviy-badiiy yuk tashiydi. Asarda ularning har biri o'z o'rnida, me'yorida ishlatilishi, butun bilan mustahkam aloqada bo'ladigan va bu aloqalar anglandigan tarzda joylashtirilishi muhim" [5] deb qayd etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ulug'bek Hamdamning "Yaxshiyam sen borsan" hikoyasi tasavvufiy yo'sinda yozilgan bo'lib, ramzlar misolida hikoya kompozitsiyasi ochib berilgan. Undagi ramzlarni to'g'ri ilg'ay olish hikoya mazmunini anglashimizga yordam beradi. Yozuvchi an'anaviy Yusuf va Zulayhoni emas, zamonaviy dunyodagi bozor munosabatlari ta'sirida yashayotgan juftlikni aks ettirishni maqsad qiladi. Hikoya Yusuf va Zulayhoning biroq ko'ngilsiz qo'ng'iroqlashuvlari va restoranga ovqatlanishga erinibgina borishlari tasviri bilan boshlanadi. Zulayho ovqat yeyishni emas, issiq choy ichishni, ichiga issiq kirishini istaydi. Demak, qish fasli. Kun sovuq. Atrof, jamiyat, tashqarida sovuq hukmronlik qiladi va bu iqlim qahramon botiniga ham yo'l topib kirmoqda. Zulayho dastlab issiq choy bilan eritmoqchi bo'lgan qalbidagi muz, hikoya so'ngida ishq ma'rifati bilan eritilib, yo'q qilinadi. Restoran epizodidan so'ng qahramonlar bozorga shunchaki aylanib chiqish uchun kiradilar. Kiradilar va adashib qoladilar. Chiqish yo'li ham topilavermaydi. Chiqish yo'li topilavermagach, yana choy ichgani kiradilar. Zamonaviy dunyoda insonning tinimsiz qorni atrofida aylanishi ma'naviy olamga yo'lni topa olmayotganiga ishoradir. Hikoyaga mo'ysafid choyxonachi obrazi kirib keladi. Sharq hikoyalari ko'pincha ko'pni ko'rgan, hayot

sirlarini anglagan mo'ysafidlar yo'lini yo'qotgan qahramonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib yuborishadi. Mazkur hikoyada esa mo'ysafid xuddi tushdagi kabi chiqish yo'lini dastlab aytmaydi. Bu Yusufning chiqish yo'lini topolmayotgandagi xavotirining ramzi. Uningcha, choyxonaga kirgan bu mijozlar kundalik mijozlardan, ommadan farq qilishmaydi. Chunki, "chiqishni izlaganlar ko'p emas!" Ammo Yusufning qat'iyati unga jiddiy razm solishga va boshqa hammadan ajralib turishini anglab yetishiga sabab bo'ladi hamda kutilmagan chiqish yo'lini – qabristonni ko'rsatib yuboradi. Chiqish yo'lini faqat Kunchiqardan izlashi, nazarimizda, Sharq ma'rifatiga, Sharq falsafasi tajribasiga tayanib dunyoni qalbdan quvish, xalos bo'lishga ishora, demakdir.

How goes it? How are tricks? yana ham erkinroq klishe hisoblanib, u, odatda, yaxshi do'stlar o'rtasida qo'llaniladi. Shu nuqtayi nazardan lug'aviy izohlarni ko'zdan kechiramiz: How goes it? /coll/ -Hello, how are you? What is happening? - /used to seek news, esp. when two friends meet. [LDEI, p.132]. Yana misollar:

How are you now, My lord Edward, my princet?

How are you, my dear son?

Why are you making sad the king, your father, who loves you so much? [M.Twain, p. 18].

How's yourself? klishe slenglar qatoriga kiritilib, odatda, yosh avlod vakillari va ehtimol, ma'lum darajada ilmiy kishilar tomonidan qo'llaniladi.

Shunday qilib, salomlashish minimal dialogik birlikdan iborat bo'lib, ikkita bir turli nutqiy aktlar ikki kommunikant tomonidan navbatma-navbat qaytarib turiladi. Masalan:

- "Excuse me," he said to Mr Wilkins.

- Oh, hallo, Parkinson, how are you?

- Wil you bring a strong team tomorrow?" [A. Buckeridge, p.49].

Salomga alik olish ham dastlabki shaklidan farqlanadi:

- How are you keeping, my old chap?

- Hello, Mr. Morgan.

So.....[http://www.planetpdf.com/].

Alohida holatlarda javob replikasida I'm fine; fine; Couldn't be better; so so? shaklida bo'lishi mumkin. Masalan: "How are you?" he asked, following her into the living room.

"Fine, absolutely wonderful. Can I get you a drink?"

"How's it going?"

"So-so," he said [I. Show, p. 52].

Nutqiy muloqotda muntazam qo'llanganligi sababli, salomlashish shakllari semantik jihatdan siyqalashadi va "nutqiy etiket doirasidagi eskitirib qolgan fikrlarga" aylanadilar [Akishina, Formanovskaya 2009: 26] va ularning qo'llanishida so'zlovchi suhbatdoshi ishlarining real holati to'g'risida axborot olishni ko'zda tutmaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash lozimki How are you? How's it going? How do you do? shakldagi so'roq gaplar salomlashish vazifasini bajarib, odatda, axborot olishga talab emas, balki, yuqori darajadagi ritual nutqiy aktlari bo'lib, ijtimoiy aloqani amalga oshirishga yordam beradi. Mabodo, ushbu nutqiy aktlar qandaydir darajada axborotni talab etsa ham, ular adresatning suhbatdosh bilan aloqaga kirishishiga xizmat qilishda davom etadi. Bunday so'roq gaplarda o'zaro muloqotga kirishishi fatik aloqa nutqiy akti sifatida qaraladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Акишина А.А., Формановская Н.И. Русский речевой этикет. Практикум вежливого речевого общения. Учебное пособие.—М.: 2009.—184 с.
2. Девкин В.Д. Метакоммуникация // Иностр. языки в школе.— 1987. —№ 5. — С. 31-36.
3. Матюхина Ю.В., Шевченко И.С. Прагматические особенности
4. фатической метакоммуникативной информатии в дискурсе // Матеріали міжнародної науково – методичної конференції Треті Каразінські читання: методика і лінгвістика – на шляху до {} Харків. нас. ун-т. ім. В.Н.Каразіна, 2003.– С.110-111. Почепцов Г.Г. Фатическая метакоммуникация // Семантика и
5. прагматика синтаксических единств. Межвуз. Тематич. Сб. – Калинин: Изд-во Калининского ун-та, 1981 а. – С. 52-59.
6. Самигова Х.Б. Нутк маданиятининг риторик аспекти. – Т.: Фан ва
7. технология, 2016. – 152 б.
8. Шомахмудова А.Ф. Бевосита нуткий акларни мулокот матнида
9. вокеалаштирувчи этнопрагматик омиллар. Филол. фан. буйича фалсафа доктори дисс. – Самарканд, 2019. – 164 б.
- Buckeridge A. Jennings and his friends. – М.: Prosveshcheniye, 1976.144 p.
10. LDEI – Longman Dictionary of English Idioms. – Harlow and
11. London: Longman Group Ltd, 1994. – 386 p.
12. MDCI – Manser M. H. A Dictionary of Contemporary Idioms.
13. London and Sudney: Pan Books, 1993. – 219 p.
14. SDAI – Speare R.A. Dictionary of American Idioms and phrasal



*Dilshoda IBRAXIMOVA,*  
*Qashqadaryo VPYaMO`MM dotsenti v.b*  
*E-mail: dilshodaxonibraximova69@mail.ru*

*Qarshi DU f.f.d.prof. X.Jabborov taqrizi ostida*

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ANTRONIMIK BIRLIKLARNING STRUKTUR-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada antroponimik birliklarning ingliz va o'zbek tillaridagi tarixiy-qiyosiy tipologik jihatlari, ularni rivojlanishining dastlabki bosqich fan sohalari olim-tadqiqotchilarining e'tiborini tortganligi, antroponimlarning rivojlanish tarixi va ularning struktur-grammatik, semantik va stilistik jihatlari tarixini o'rganganligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Antroponimik birlik, struktur-grammatik, semantik va stilistik, fonetik-orfoepik usul, leksik-semantik usul, affiksatsiya usuli, sintaktik usul.

## СТРУКТУРНО-ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОНИМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

В данной статье рассмотрены историко-сравнительные типологические аспекты антропонимических единиц в английском и узбекском языках, ранние этапы их развития, привлечение внимания ученых и исследователей, история развития антропонимов и история их структурно-грамматического и изучения семантические и стилистические аспекты.

**Ключевые слова:** Антропонимическая единица, структурно-грамматический, семантико-стилистический, фонетико-орфоэпический метод, лексико-семантический метод, аффиксационный метод, синтаксический метод.

## STRUCTURAL-GRAMMATICAL FEATURES OF ANTHROPONYMIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

In this article, it is highlighted the historical-comparative typological aspects of anthroponymic units in English and Uzbek languages, the early stages of their development that attracted the attention of scientists and researchers, the history of the development of anthroponyms and the history of their structural-grammatical, semantic and stylistic aspects.

**Key words:** Anthroponymic unit, structural-grammatical, semantic-stylistic, phonetic-orthoepic method, lexical-semantic method, the way of affixation, syntactic method.

**Kirish.** Ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimik birliklarning tarixiy-qiyosiy tipologik jihatlari, ular haqidagi tushunchalar ushbu tillar rivojlanishining dastlabki bosqichida ham, hozirgi bosqichida ham tilshunoslik va boshqa fan sohalari olim-tadqiqotchilarining e'tiborini tortdi. Tadqiqatlanayotgan tillarda antroponimlarning rivojlanish tarixi va ularning struktur-grammatik, semantik va stilistik jihatlari tarixini o'rgangan mualliflarning bir qator ilmiy izlanishlari shundan dalolat beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** V.V.Vinogradov "nutqning ayrim qismlari (olmosh) boshqalarga qaraganda barqarorroq; grammatik xususiyatlarni saqlab qolish uchun ularning tizimli mohiyati muhimdir (bitta ildizning holat shakllari bitta so'zning turli xil ildizlardan hosil bo'lgan shakllardan yaxshiroq saqlanadi: tovushlar diftonglar va turg'un iboralarda yaxshiroq saqlanadi, bir qator so'zlar uchun ularning ichki shakli va hosila sifatleri, passiv fonddagi so'zlar yaxshiroq saqlanib qoladi va hokazo".

Bugungi kunda qabul qilingan inglizcha shaxs nomlari juda xilma-xildir. Ular tarkibiga qadimgi va yangi nomlar guruhlari kiradi: an'anaviy ingliz tili nomlari (kelt, shotland), nemis va norman nomlari, boshqa tillardan olingan nomlar (yahudiy, arab), to'qima nomlar, erkin va qisqa ismlar. Zamonaviy inglizcha nomlar strukturaviy va semantik jihatga ko'ra bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Ismlardagi bunday xilma-xillikning sababi Buyuk Britaniya aholisining turli etnik guruhlardan tashkil topganligi hisoblanadi: qadimdan bu yerda istiqomat qilgan iberian aholisi, kelt

qabilalari, angllar, sakslar, skandinavlar, so'ngra esa frank-normanlar. Shunga ko'ra, masalan, 4000 yil oldin paydo bo'lgan va ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda tarqalgan erkaklar ismi Abraam (Ibrohim – qadimiy yahudiy tilida "xalqlar otasi" ma'nosini anglatadi va u ot so'z turkumiga mansub ikki leksemaga tayangan (Rivoyatlarga ko'ra, Ibrohimning Ishoq va Ismoil degan o'g'illari bo'lgan. Ishoqdan yahudiylar, Ismoildan esa arablar tarqalgan).

E. Begmatov hozirgi davr o'zbek tilidagi ismlarni lisoniy tuzilishiga ko'ra uch guruhga ajratib ko'rsatadi: Sodda tuzilmali antroponimlar, Yasama tuzilmali antroponimlar, Qo'shma tuzilmali antroponimlar.

Ingliz tili antroponimik birliklarini ham shu tartibda guruhlash mumkin va sodda tuzilmali antroponimlar o'zlari uchun asos bo'lgan leksemalar bilan mos keladi: Anvar, Go'zal, Lola, Adlar (burgut), Aiken (qattiq, mustahkam), Algar (mashhur). Yasama ismlar leksemalarning qisqartirilishi, antroponimik birlikka o'tgan apellyativlarning tayyor holda ismga ko'chishi, leksemalarga qo'shimchalar qo'shilishi orqali hosil bo'lish xususiyatiga ega.

Fonologik va morfologik belgilariga ko'ra ingliz tilidagi antroponimik birliklarni uch guruhga ajratish mumkin:

To'liq yoki asl ismlar: Alexander, Agnes, Catherine, Elizabeth va boshqalar;

Ularining shakllari: Alastair, Annis, Katherine, Elspeth;

Derivatlar (yasama ismlar): Alec, Aggie, Katie, Bet, Betty, Liz va boshqalar.

Derivatlar barcha yasama, ya'ni qisqartma, kichraytiruvchi, erkalovchi va sulolaviy ismlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ismlarning qisqartirilgan shakllari o'zbek tilida kichraytirish, erkalash, suyush tufayli hosil bo'ladi va asosan kundalik hayotdagi og'zaki nutqda qo'llanadi. Masalan: Gulli, Bobosh, Guli, Xol, Guchchi, Buvish, Alish, Anish, Dilush, Baxti, Shovvi, Maftun (a ning tushirib qoldirilishi erkalab chaqirishni anglatadi), Tosh va h.k.z. Bunday antroponimik birliklar rasmiy nom sifatida qabul qilinmaydi, biroq rasmiy nom sifatida qabul qilinuvchi qisqartma shakllar mavjud: Eshim – Eshmat – Eshmamat – Eshmahmat – Eshmuhammad; Mirim – Mamaraim – Mamarayim – Mahmarayim – Mamarahim – Muhammadrahim, Fayzi – Fayzullo.

Tovushlar o'rning almashishi bilan paydo bo'lgan ismlar ham bor: "nazr" leksemasiga asoslangan Nazrulla davrlar o'tishi bilan Narzullaga aylandi.

E. Begmatov o'zbek tilida apellyativ leksikaning antroponimik birlikka ko'chishining bir necha usullarini ko'rsatib o'tgan.

Fonetik-orfoepik usul, Leksik-semantik usul, Affiksatsiya usuli, Sintaktik usul.

Qayd etilgan usullar orqali apellyativning ismga ko'chishi ingliz tiliga ham xos jarayondir. Ismlarning qisqarishi, apellyativning ismga to'g'ridan-to'g'ri ko'chishi, qo'shimchalar qo'shilishi va turli so'z turkumiga mansub so'zlarning birikuvi va ularning qo'shma so'zga aylanish bosqichidan so'ng antroponimiga aylanish holatlari kuzatiladi.

Ingliz ismlarining o'ziga xos xususiyati qisqartirilgan shakllari, ya'ni fonetik-orfoepik usulning eng keng qo'llanishi hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalarida "Dima Medvedev Misha Saakashvili va Vitya Yushenko bilan uchrashdi" degan ibora ochiq-oydin bema'nilikka o'xshab qoladi. Biroq dunyoning har qanday gazetasi hech bir ikkilanishsiz Klintonning to'liq ismi Uilyam Jefferson va Blerning to'liq ism sharifi – Entoni Charlz Linton bo'lishiga qaramay, "Bill Klinton Toni Bler bilan muzokara olib bormoqda" nomli sarlavhadan foydalanaveradi. Ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda, hatto, bolaga rasmiy ravishda qisqartirilgan ismlarni ro'yxatdan o'tkazishingiz mumkin, ro'yxatga olish qonunchiligi juda liberal va unga deyarli hech qanday chegara qo'yilmaydi. Ingliz tilidagi qisqartma shaklga qo'shiluvchi kichraytirish, erkalash va suyush qo'shimchalarining qo'shilishi orqali yuzaga kelgan nominantlarning jamiyatda qabul qilinishi, qo'shimchalarning kichraytirish, suyush va erkalash mazmunining yo'qolib borishiga olib kelmoqda: Elizabeth (to'liq shakl) – Eliza, Elza, Liza, Liz, Lizzie, Bess, Betsy, Bet(t), Bessie, Betty, Elsa, Elsie. Struktur jihatdan qo'shma so'zlanga asoslangan ingliz antroponimik birliklarning komponentlari o'zaro birikuv jarayonida fonetik-orfografik o'zgarishlarga uchraydi. Elizabeth ismining tarkibiy komponentlari "el-xudo" "shava-qasam" so'zlari bo'lib, fonetik-orfografik o'zgarish yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tayyor, ya'ni hech bir o'zgarishga uchramagan holda tub, yasama, qo'shma so'zlarning antroponimik birlikka aylanishi leksik-semantik usulda antroponimik birlikning yasali xususiyati hisoblanadi. Bunday usulda antroponimik birlikka aylangan so'zlar qaysi so'z turkumiga mansub bo'lishidan qat'iy nazar o'z morfologik kategoriyasidan ajralib atoqli otga aylanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ingliz familiyalari oldida va ortida qo'shiluvchi qo'shimchalar, asosan, o'zbek tilidagi "o'g'li", "farzandi", "avlodi" kabi leksemalar bilan muvofiq keladi. Masalan "Mas" yoki "Ms", "O'" so'z oldi qo'shimchalari asosan irland udumiga asoslangan, "o'g'li" ma'nosini anglatgan. Masalan: MacWilliam - Villiamning o'g'li - McJordon – Jordonning o'g'li, O'Donnel – Donnelning o'g'li yoki nabirasi, O'Neal – Nilning o'g'li, nabirasi, avlodi. Uels xalqi esa "ar, mab, ab, vap"

qo'shimchalarini shaxs ismiga qo'shib aytish orqali otani qo'rsatganlar. Masalan: David Ap Howell - David the son of Howell; John Ap Hugh – John the son of Hugh. Bunday ismlar bugungi kunda talaffuz o'zgarishlariga uchragan holda Powell, Bevan, Pugh kabi ismlarga aylangan. Bizga ma'lum bo'lgan arab tiliga xos "ibn" so'zi ajdodni anglatgani kabi "ar" orqali ajdodni ko'rsatish imkonini mavjud edi: James-ap-William-ap-Thomas-ap-Richard-ap-Hugh. Qadimiy normanlar esa otani anglatishda "fitz" qo'shimchasidan foydalanishgan. Masalan, Fitz William – Vilyamning o'g'li. Keyinchalik bu qo'shimcha kishining ismiga singdirilib borgan: Fitzgerald, Fitzroy. Anglo-Sakslarda esa "ing" co'z orti qo'shimchasi orqali ota ismi ko'rsatilgan: Suthing – the son of Cuth, Browning – the son of Brown. Ota ismini ko'rsatishda "son" so'zidan ham foydalaniladi: Johnson, Williamson, Peterson.

Bundan tashqari "kin, kind, ling, let, et, ot, cic, cock" kabi kichraytirish va erkalash ma'nosini anglatuvchi qo'shimchalar mavjud. Masalan: Scarlet O'Hara. German tiliga xos "kind – tur, xil" leksemasidan kelib chiqqan "kin" – o'g'il ma'nosini anglatadi. Masalan: Wilkin – the son of Will, Watkin – the son of Walter. "Let" ёки "lyt" kichik ma'nosini anglatadi. Masalan: Willet, Willmot – kichik Vilyam yoki Vilyamning o'g'li, Wilcock – Vilyamning o'g'li, Babcock - Bobning yoki Robertning o'g'li.

Aynan shu xususiyat o'zbek ismlari strukturasi ham tegishlidir. Juda ko'plab ismlardan keyin familiya sifatida Akbar o'g'li, Anvar qizi kabi ismning birinchi komponenti otani anglatuvchi ko'rsatkich, ikkinchi komponent esa jinsini anglatuvchi ot yordamida ifodalanadi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng rasman farzandga "ovich, -yevich, -yevna, -ovna" qo'shimchalari qo'shilishi orqali ota ismini ko'rsatish tartibidan voz kechgan holda bola jinsiga ko'ra "o'g'li" yoki "qizi" so'zlari orqali otasining ismi yozilishi kuzatildi. So'nggi paytlarda -zoda qo'shimchasi qo'shish orqali bolaning ismini rasman ro'yxatga olish holatlari kuzatilmoqda: Xonto'rayeva Malika Alimzoda, Ne'matullayev Diyor Ahmadzoda kabi. Biroq bu majburiy etib belgilanmagan va ixtiyoriy hisoblanadi.

XV asrdan boshlab kichraytiruvchi va erkalovchi ismlar –ie; -y qo'shimchalari orqali yasala boshladi (masalan, Betty – Elizabet ismining erkalash ma'nosini anglatuvchi shakli). O'zbek tilida ham ismni qisqartirish orqali kichraytirish, erkalash, suyish ma'nosini anglatish bilan bir qatorda ismga -jon, -cha, -gul; qo'shimchalarini qo'shish, yoki ulg'aytirish, ulug'lash, hurmatlash ba'zan esa kesatq ma'nosida -boy; -bek; -xon; -boyvuchcha; qo'shimchalari ismga qo'shiladi. Masalan: Anvar+jon, Akbar+jon, Jahongir+jon, Shohrux+cha, Ra'no+cha, Madina+gul, Haydar+boy, Ergash+boy, Beknur+boy, Asliddin+bek, Mastura+xon, Hidoyat+xon, Go'zal+boyvuchcha va boshqalar.

Apellyativning tayyor holda antroponimik birlikka aylanishini tadqiq etish jarayonida ingliz va o'zbek tillaridagi quyidagi so'z turkumlariga mansub so'zlarning kishi ismiga ko'chish holatlari kuzatiladi:

Ot so'z turkumiga mansub so'zlar: Jayron, Po'lat, Yoqut, Arslon, Gulchiroy, Toshtemir, Gulruxsor, Malika, Ketmon, Bolta, Hurmat, Hayot, Momogul, Avaz, To'lqin, Quvonch, Sevinch va boshqalar. Ingliz tilida: Steel, Lion, Stone, Will, Alfred, Angel, Ann, Ariel, Brayn, Athur, Daisy, Jasmine, Jade, Jemima, Jesse and others. Ushbu qatorga mansub antroponimik birliklarni yana guruhlash, ya'ni konkret va mavhum, sanaluvchi va sanalmaydigan otlar kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Sifat so'z turkumiga mansub so'zlar: Aziz, Go'zal, Kenja, Muattar, Shahlo, Shirin, Botir, Bahodir, Oydin, Nozik, Oqila va h.k.z. Ingliz tilida: Agatha, Brave, White, Wild, Light, Broad, Black, Brown, Ernest, Linda (yumshoq,

muloyim), Lloyd, Isabella, Belle, Bonita, Bonnie (yoqimtoy), Carina (sevimli, aziz).

Fe'l so'z turkumiga mansub so'zlar: To'xtar, Unar, Suyar, Ko'char, Ochildi, Berdi. Ingliz tilida: Hunter (ovlamoq), Taylor (kesmoq), Baker (pishirmoq), Fall (to'karmoq), Hector (tezlikni saqlamoq), April (ochilmoq, paydo bo'lmoq), Isaac (kulmoq), Jason (davolamoq).

Sifatdoshning antroponimik birlikka ko'chishi: Sotilg'on (Sotilgan). Ingliz tilida: Amanda (sevilgan), Bridget (zavqlangan), Florence (gullab-yashnagan, rivojlangan).

**Tahlil va natijalar.** E. Begmatov o'zbek tilida olmosh, son, fe'l, fe'llarning ravishdosh, sifatdosh shakli, harakat nomi, ravish, ba'zi modal va undov so'zlarning otlashuvi yo'li bilan antroponimik birliklarga ko'chishi kuzatilishini ko'rsatib bergan. Ingliz tilida bu holat to'liq kuzatilmaydi.

Ingliz tilidagi qo'shma so'zga asoslangan antroponimik birliklarda ot+ot, sifat+ot, ot+sifat, ot+fe'l, fe'l+ot modeliga asoslangan antroponimik ismlar qatori kuzatiladi. Bunday yasalishlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ot+ot modelida, ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy tahlili antroponimlarning quyidagi modellari mavjudligini ko'rsatdi:

Gulchehra – gul + chehra (yuz, jamol) asoslaridan = “chehrasi (yuzi, jamoli) gul”; Baxtiyor – Baxt+ yor = “baxt bilan do'st, hamroh”; Shahrigul – shahar + gul= “shahar guli”; Oyjamol – oy+jamol = “jamoli oydek”; Dilorom – dil+orom = “dilning oromi”; Guldasta (Dastagul) – gul+dasta = “bir dasta (bog', siqim) gul”; Oysifat – oy+sifat = “oydek sifatli yoki sifati oydek” va boshqa ko'plab o'zbek ismlari shundan dalolat beradi, bunday qo'shma nomlarni shakllantirish sxemasi faoldir.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, ingliz antroponimiyasida ham ot + ot modeliga asoslangan ismlar kattagina guruhni tashkil etadi: Alfred – elf+red = “ruh (pari)lar kengashi”; Arnold – arn+wald = “burgut qudrati”; Arthur – artos+rigos = “ayiq qirol”; Dorothy – doron+theos = “olloh in'omi”; Edgar – ead+gar = “omad nayzasi”. O'zbek tilida ushbu modelga xos tarzda ism tanlash ancha faol bo'lib, qo'shma antroponimik birliklarning har ikki komponenti alohida kishi ismi sifatida namoyon bo'lishi ham mumkin. Masalan: Muhammad+ali, Muhammad+amin, Muhammad+xo'ja, Muhammad+islom, Ali+akbar, Ali+muhammad, Sulton+ali, Sulton+murod, Iso+muhammad va boshqalar. Biroq inglizcha ismlarga bu xususiyat xos emas va faqat qisqartirish orqaligina ism yasalishi mumkin. Masalan: Alfred – Alf, Arnold – Army.

Yuqorida keltirilgan qo'shma ismlarning yasalishida faol ishtirok etadigan so'zlardan biri – sulton leksemasidir. Sulton ham ayol, ham erkak kishilarga atab qo'yiladigan ismlarning tarkibiy komponenti bo'lishi mumkin. Masalan, Sulton+davlat, Sulton+zamon, Sulton+muhammad va boshqa erkaklar ismlari; Sulton+jamol, Sulton+sanam, Sulton+bibi kabilar. Shu o'rinda aytish mumkinki, “davlat”, “jamol” komponentlarining o'zi ham har ikki jinsga mansub ism bo'ladi. Ingliz ismlarining qisqarmagan yoki asl shaklining ikkinchi komponenti bo'lgan turdosh otning qaysi jinsga

mansubligi, asosan, shu antroponimik birlik egasining qaysi jinsga mansubligiga ishora qiladi. Masalan, henn (tovuq) komponentiga ega antroponimik birlik ayol jinsini anglatadi. Ikkinchi komponent sifatida ba'zan sifat so'z turkumiga mansub so'z qo'llangan. Erkak jinsiga mansub antroponimik birliklarning ikkinchi komponenti ism egasining jamiyatdagi mavqe'i, xarakter xususiyatini ko'rsatadi: heard – mustahkam, beorht – yorqin, beald –jasoratli, chidamli, heah – oliy, yuqori, baland. Masalan, Humbert, Albert, Leonard, Meredith, Richard, Robert. Ayni paytda ingliz tilida harflarning tushirib qoldirilishi, harflarning o'zgarishi, - a harfining qo'shilishi orqali turli jinsga xos ismlar yuzaga keladi: Adam – Ada, Oliver – Olivia, George – Georgia.

Har ikki tilga xos antroponimik birliklarning tadqiqi ulardagi jins kategoriyasiga nisbatan neytral munosabatni saqlab qoluvchi ismlar mavjudligini ko'rsatdi. Ikki tilda ham bir vaqtning o'zida ham erkak, ham ayol ismi sifatida qo'llanuvchi antroponimlar qatori aniqlandi. O'zbek tilida: Rayhon, Hurmat, Hikmat, Hayot, Yorqin, Munavvar, Barno, Qamar, Koshsho, Sulton, Xursand, Inoyat, Ochil, Tupli (Tubli), Ko'paysin, Tursin, To'xta, Xayri, Davlat, Salomat, Ulash, Yursin, Kenja, Toji, Zulmat, Hidoyat, Mahkam, Nurxon, Dilshod, Qurbon, Karomat, Qandil, Badal, Hamal, Munavvar, Tilla va boshqalar.

Ingliz tilida: Francis, Frances, Robin, Robyn, Leslie, Lesley, Abia, Adi, Anslie, Alex, Alehis, Ange, Angel, Arden, Arlie, Ash, Baylor, Bernie, Berny, Beverly, Blair, Blake, Bobbie, Bryn, Campbell, Carol, Carrol, Cat, Cleo, Summer, Jesse, Jessi(sa) va boshqalar.

Qo'shma ismlar asosini tashkil etuvchi qo'shma so'zlar hech qachon yakka so'zlarning o'zaro grammatik aloqaga kirishishidan hosil bo'lmagan, chunki bunday aloqaga kirishish faqat so'z birikmasiga xosdir. So'z birikmalarining fonetik, grammatik va semantik jihatdan bir butunlik birlikka aylanishi bilan qo'shma so'z hosil bo'lgan. Demak, qo'shma ismlar dastavval so'z birikmasi, so'ngra qo'shma so'zlik bosqichlarini bosib o'tgan holda yuzaga kelgan. Ingliz tilida mavjud qo'shma antroponimik birliklar komponentlari bir-biriga o'zaro chuqur singib ketgan va bu esa o'zbek tilidagi qo'shma so'zga asoslangan antroponimik birliklarning komponentlarini ajratish va ma'nolarini anglashga qaraganda murakkabliklarni yuzaga keltiradi.

**Xulosa va takliflar.** Ingliz-o'zbek antroponimik birliklarining leksik asosini tadqiq etish va ularning semantik xususiyatlarini o'rganishda bu tillarning lug'aviy qatlamlarini bilish talab etiladi yoki aksincha antroponimik birliklarning lug'aviy asosini o'rganish va semantik jihatdan tahlil etish antroponimik birliklar qamrovida mavjud bo'lgan iste'moldan butunlay chiqib ketgan so'zlarning kashf etilishida, ularning asl mohiyatini bilishda ahamiyatlidir. Antroponimlarga turli so'z turkumlariga mansub so'zlar asos bo'la oladi. Biroq, atoqli otlar davrlar o'tishi bilan o'z shakliy va lug'aviy negizidan yiroqlashib boradi. Ba'zan atoqli ot va apellyativ shaklan mos bo'lishiga qaramay, yakalab, donalab nomlash xususiyatini namoyon etayotgan hamda shaxs ismi sifatida o'ziga xos motiv, mohiyat, vazifa va xususiyat kasb etadi, natijada lug'aviy negizidan farq qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Виноградов В.В. Избранные труды: Исследования по русской грамматике. – М.: Наука, 1975.
2. Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
3. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
4. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Toshkent: Fan, 1985.
5. Hornby A.S. Oxford advanced learner's dictionary of current English. – Oxford: Oxford University Press, 1982.



*Хурлиман ИСМАИЛОВА,*  
Стажёр-преподаватель кафедры русского языка и литературы  
Каракалпакского государственного университета имени Бердаха  
E-mail: ismailova95khurliman@gmail.com

На основе рецензии доцента КГУ имени Бердаха М.А.Курбаниязова

### ЕДИНСТВО ХУДОЖЕСТВЕННОГО ХРОНОТОПА В ТВОРЧЕСТВЕ МИХАИЛА ШОЛОХОВА

Аннотация

В статье рассматривается единство художественного пространства и времени в творчестве известного русского писателя Михаила Шолохова, эти литературные единицы имеют большое значение в поэтике повести и романа.

**Ключевые слова:** Хронотоп, время, пространство, образ, стиль, писатель, художественность, мастерство, Михаил Шолохов.

### MIXAIL SHOLOXOV IJODIDA BADIY XRONOTOP BIRLIGI

Annotatsiya

Maqolada atoqli rus yozuvchisi Mixail Sholoxov ijodidagi badiiy makon va zamon birligi haqida so'z yuritiladi, bu adabiy birliklar qissa va roman poetikasida katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Xronotop, zamon, makon, obraz, uslub, yozuvchi, rassomlik, hunarmandchilik, Mixail Sholoxov.

### THE UNITY OF THE ARTISTIC CHRONOTOPE IN MIKHAIL SHOLOHOV'S WORKS

Annotation

The article discusses the unity of artistic space and time in the works of the famous Russian writer Mikhail Sholokhov, these literary units are of great importance in the poetics of the story and the novel.

**Key words:** Chronotope, time, space, image, style, writer, artistry, craftsmanship, Mikhail Sholokhov.

XX век навсегда отмечен в истории человечества жестокими последствиями двух мировых войн. В этом столетии мир стал более сложным. Расширился мир жизни и стремлений людей. Между религией и миром возникли непостижимые конфликты и споры. Человечество осталось в НЕГОДОВАНИИ, окруженное духовной-психической трагедией и физическими конфликтами. Чтобы ярко показать это в своих произведениях, писатели с высоким мастерством проявили реальность жизни и художественный сюжет. Как утверждал известный русский критик М.М. Бахтин: «Хотя проблема пространства и времени в художественном произведении в известной мере изучалась и раньше, непосредственно термин «хронотоп» применил к литературоведению русский ученый М. Бахтин в 30-х годах прошлого века. «Существенную взаимосвязь временных и пространственных отношений, художественно освоенных в литературе, мы будем называть хронотопом (что значит в дословном переводе — «времяпространство»). Термин этот употребляется в математическом естествознании и был введен и обоснован на почве теории относительности (Эйнштейна). Для нас важен тот специальный смысл, который он имеет в теории относительности, мы перенесем его сюда — в литературоведение — почти как метафору (почти, но не совсем); нам важно выражение в нем неразрывности пространства и времени (время как четвертое измерение пространства). Хронотоп мы понимаем как формально-содержательную категорию литературы» [1]. Действительно, признательно то, что вопрос пространства и времени в художественном произведении была введена в обиход в 30-е годы, когда была создана и дошла до широких читательских масс первая книга произведений Михаила Шолохова «Тихий Дон».

В романе-тетралогии Михаила Шолохова «Тихий Дон» упрямство Григория Мелехова, наряду с его героизмом, иногда выступает мостом между народами, бывшими врагами и противниками, этот образ важен для каждой эпохи и побуждает делать из него выводы. В его усилиях присутствуют гуманистические призывы и намеки писателя на предотвращение конфликтов, которые могут возникнуть между нациями и народами, на важность жизни в согласии со своими традициями, ценностями, целями и стремлениями людей. Если обратить внимание на источники написания романа, становится понятной суть дела. О том, как возникла идея написать «Тихий Дон», М. Шолохов говорит следующее: «Начал я писать роман в 1925 году. Причем я первоначально не мыслил так широко его развернуть. Привлекала задача показать казачество в революции. Начал я с участия казачества в походе Корнилова на Петроград... Донские казаки были в этом походе в составе третьего конного корпуса... Начал с этого... Написал листов 5–6 печатных. Поэтому я бросил начатую работу. Стал думать о более широком романе. Когда план созрел, — приступил к сбору материала. Помогло знание казачьего быта...» (Известия, 1937, 31-декабрь, №305). Повесть, над которой работал Шолохов, должна была называться «Донщина». Прийдя к мысли изменить план и характер своего произведения, писатель решительно отложил в сторону все написанное — результат целого года напряженного труда — и в конце 1926 года начал все сызнова. «Работа по сбору материала для «Тихого Дона», — рассказывал Шолохов, — шла по двум линиям: во-первых, собиравание воспоминаний, рассказов, фактов, деталей от живых участников империалистической и гражданской войны, беседы, расспросы, проверка всех замыслов и представлений; во вторых, кропотливое изучение специально военной

литературы, разборки военных операций, многочисленных мемуаров, ознакомление с зарубежными, даже белогвардейскими источниками». Сюжет романа и образы основных персонажей взяты Шолоховым непосредственно из жизни. Действительно, масштабный роман-тетралогия Михаила Шолохова предстает в широком эпическом плане. Писателю нелегко тщательно изучить точные сведения, определить и ограничить их поэтическое значение, описать типичный и истинный характер, цели и стремления героев. В этом смысле единство пространства и времени намекает на события между и после двух мировых войн, на порядок, угнетение и насилие, на великую жалость и неприятие их.

Художественное пространство и время согласовывают сюжет и композицию каждого произведения и подготавливают почву для интерпретации концептуальных взглядов писателя в более привлекательной, совершенной и уникальной форме. После 50-х годов XX века художественный хронотоп приватизировал восприятие двух- и трехмерного мироздания, материи, интерпретации. Размах толкования в древнегреческой литературе, манера восприятия, начавшаяся с эпоса, привели к дальнейшему разнообразию жанров эпического типа. После смерти народного писателя Узбекистана О. Якубова повесть «Жизнь правдивого» была вынесена на суд читателей в газете «Книжный мир» 8 октября 2014 года. История основана на жизни реальных людей, художественная концепция имеет большой охват.

Вот что пишет по этому поводу проф. Х. Каримов: Правда, что роль среды, политики и идеологии того времени в формировании «человеческой природы и веры» велика. Ярким примером этого является тоталитарная система. Известно, что эта система лишена плюрализма и демократических принципов и вместо того, чтобы придавать смысл жизни обществу, служила на благо горстки чиновников, поднявшихся на вершину государства путем насилия и лживых обещаний. Идеология несправедливости и жестокости, совершенно лишённая демократических принципов, внедрялась в сознание людей как правильная на основе обмана и силы. В результате мышление, имеющее социальное содержание, то есть служащее высокой духовности человечества и стремлениям общества к развитию, не стало общечеловеческой истиной, а осталось в скорлупе коммунистической идеологии, претендующей на абсолютную истину. Эта ситуация – трагедия общества, имеющего абсолютно правильные, философские и жизненные мысли. В рассказе это нашло свое истинное художественное воплощение и убедительно и впечатляюще отразилось в жизни и творчестве Правдивого[2]. Действительно, как мы видим, обманы и умственное давление того времени делают человека склонным к серьезным трагедиям. Его установки серьезно проверяют любую человеческую психику. Эти испытания ярче проявляются в образе Правдивого, и писатель доказывает, что на его глазах происходят трагедии периода, и они представляют собой угрозу для сплочения наций и народов.

Характер Правдивого в рассказе ярко раскрывается также в данном разговоре:

«– Что это?

– Водка, говорит племянник, как ни в чем не бывало.

– Вижу, что водка! – сказал Правдивый, возвышая голос. – Не слепой, а на какие деньги ты купил водку?... На нечестные, поэтому не говоришь! Я... Доцент большого института, а зарабатываю триста пятьдесят сумов в месяц. Не могу позволить себе пригласить двух

человек к себе домой. А ты... подарив двадцать ящиков водки, хочешь напоить двести человек! Прости меня, племянник, но я не могу участвовать в таком пиру, в нечестной свадьбе, на которую деньги тратятся как солома. Разрешите мне!

Племянник, расстроенный словами Правдивого, совершенно не подхалившими к ситуации, дал разрешение. После этого несмотря на мольбы родственников, женщин о прощении племянника, снял свой костюм, свисавший с ветки яблони, и направился к двери. Несмотря на слова юношей, поставивших поперек одну из выстроившихся на улице машин, увидев его внушительный вид: Пожалуйста, сядьте, учитель! Отвезем в Туркестан и сами посадим в поезд! - пошел пешком. По настоянию родственников и друзей племянник с молодыми людьми сели в две машины и отправились вслед за Правдивым. Когда они догнали и извинились перед Правдивым, он сказал им: «Все вы думаете не о народе, а о своих желудках! Вы получаете зарплату в сто сумов и проводите свадьбу на десять тысяч сумов! Я отказываюсь участвовать в таких грязных свадьбах!» [3].

В цитируемом отрывке писатель призывает героя Правдивый, который всю жизнь был честным, жить с глубокими размышлениями, делая выводы из прошлого. Правдивый проповедует все ценить, учит, что чрезмерная роскошь и расточительность ведет человека к духовной гибели, честолюбию и материализму. Ко всему в этой истории писатель относится с особым вниманием. Духовный образ и правдивость человека мешают ему честно жить в обществе. В начале XX века сильно критиковалась одна из самых отвратительных сторон советской политики - жизнь богатых и бедных, их желание думать в любой ситуации только о себе, карьеризм и подхалимство людей. Обратите внимание: период, в котором создавался рассказ, был тяжелым временем обретения Узбекистаном независимости, которое называли «переходным периодом» узбекского народа. Поэтому пространство и время, которые хотел передать писатель, должны были показать истинную природу самодержавного строя в XX веке, основанного на воспитании человечества в качестве немногого, раба и равнодушного, подхалима и притворщика.

Русский критик М.Бахтин: «Биографическое время необратимо в отношении самих событий жизни, которые неотделимы от исторических событий. Но в отношении характера это время обратимо: та или иная черта характера сама по себе могла бы проявиться раньше или позже. Самые черты характера лишены хронологии, их проявления переместимы во времени. Сам характер не растёт и не меняется, — он лишь воплощается: не полный, не раскрытый, фрагментарный вначале — он становится полным и округленным в конце. Следовательно, путь раскрытия характера ведет не к изменению и становлению его в связи с исторической действительностью, а только к завершению его, то есть только к восполнению той формы, которая была предначертана с самого начала. Таков биографический тип Плутарха» [4]. Действительно, создание О. Якубовым характера, философско-эстетическая цель и размах, которые он перед собой ставил, проявляются в повести «Жизнь Правдивого» в ярких красках и образах. Каждую из них можно назвать уникальными жизненными сценами, происходящими в человеческой психике. Горькие следы испытаний времени серьезно испытывают героя. Его боли и страдания калечат и ранят таких праведников, как Правдивый. Соответственно, справедливые размышления писателя о природе человечества, этнической принадлежности, родословной и будущем побуждают его глубоко задуматься и сделать

выводы от нечистых дел в прошлом пространстве и времени. С этой точки зрения на основе философско-психологического рассказа отражается истинная картина былой союзной эпохи, призывавшей всю жизнь убеждать людей, под которой скрываются лицемерие и произвол.

Писатель и критик Н. Эшанкул пишет так: «Правда, что литература сыграла свою роль с тех пор, как человек начал рассказывать сказки. Не будем заходить слишком далеко, даже в 60-х и 70-х годах прошлого века нашими идеальными героями, выражаясь сегодняшним языком, нашими «кумирами» были не звезды с дешевым авторитетом и статусом в шоу-бизнесе, а литературные герои, воплощавшие идеальные мечты человека. Литературные персонажи сформировали наши представления о добре и зле, хорошем и плохом, честном и нечестном, предательстве и верности и человечности в целом. Выполняют ли литература и искусство такую задачу и сегодня? Стесняешься с уверенностью ответить «Да!» на этот вопрос на этот вопрос. Это последствие чего? В поисках ответов на эти вопросы необходимо прочитать произведения некоторых наших современных писателей. Честно говоря, я был весьма разочарован. Эти «беспокойства» показали мне образцами «массовой культуры» - «культуры толпы» и это произвело на меня тяжелое впечатление» [5]. Эта сцена привела и развитие социально-философских основ литературы XX века в крайне печальное состояние, в идеологическом аспекте она привела к устареванию эстетического вкуса людей и «затвердеванию» их мышления. Такие горячие мысли ярко проявляются в рассказе Одиля Якубова «Жизнь Правдивого». Писатель глубоко изучает реальную картину пространства и времени. Он живет в гармонии с тем временем. На самом деле словами героя произведения выражает свои внутренние страдания и переживания. Ибо, развитые страны мира выйдут из болота коррупции и молчания 100 лет назад. Социально-экономическое положение самых могущественных стран улучшится в руках истинных патриотов. Общество, которое живет корыстью и страстью, никогда не будет прогрессировать. На самом деле это самый важный аспект произведения.

Художественное пространство и время еще больше сплетают сюжетно-композиционные единицы в рассказе. Все компоненты, заложенные в его природе, связаны друг с другом. В этом смысле человеческий образ, каждая деталь, образ, характер выступает в своей сущности. Реалистические принципы XX века, вдохновение М. Шолоховым, чрезмерное расширение масштабов литературного влияния, отсутствие

человеческой ценности в истреблениях прежнего режима, судьба общества, смотрящего «на руку» только одного человека, не оставит равнодушным ни одного интеллигента.

Следует отметить, что в синтезе философско-психологических изменений в узбекской литературе, подпитываемых широким поэтическим стилем М. Шолохова, внимания заслуживают следующие три аспекта:

1. Сжатость. Таким образом, автор рассказа в двух-трех эпизодах раскрывает широко-плановый изобразительный материал романтической мысли.

2. Точность. Если в сюжете рассказа затрагивается тема войны, внимание уделяется причинам и факторам возникновения этой войны. В этом писатель поэтически индивидуализирует пространство и время. Реальность может произойти за относительно короткий промежуток времени. Но проблемы, суматоха почти вековой давности заставляют писателя глубоко задуматься.

3. Философия. Один из самых передовых методов XX века. В этом методе на первый план выходят метафора и ирония. На основе этой модификационной интерпретации писатель показывает, что все общество нуждается в реформе, что ложная слава не может жить вечно ни в какое время.

**Заключение.** В целом, каждое бедствие, постигшее человечество, происходит из-за неустойчивости людей. Эта нестабильность сгибает человеческий дух и волю и ведет общество к упадку. На первый взгляд, варварские приемы бывшего союза, направленные на унижение достоинства, гордости и чести, не оставляли без страданий ни одного писателя. В размышлениях Михаила Шолохова важно ценить человечность и благородные качества, вести свободную и благополучную жизнь. В художественных изысканиях О. Якубова, Ш. Холмирова, У. Умарбекова мы можем найти ответ с их произведениями, написанными красочно от литературного воздействия до творческой оригинальности. Наглядное свидетельство воспеания и трагедий человеческих отношений вызывает широкие дискуссии в литературоведении новой эпохи. Теперь поэтическая интерпретация рассказов и повестей, романов-эссе характеризуется тем, что она направлена на восприятие выводов, сделанных из того прошедшего периода, ошибок, которые не были вовремя исправлены. Ведь такое развитие художественной прозы дает большие возможности человеку, мыслящему вокруг пространства и времени.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Бахтин М. Формы времени и хронотопа в романе (Очерки по исторической поэтике) / В кн.: Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики.-М.: Художественная литература, 1975, стр. 234.
2. Каримов Х. Адабий портретлар. –Т: Янги нашр. 2017. –Б.21.
3. Ёкубов О. Рўстгўйнинг ҳаёти//Китоб дунёси. 2014.№8. –Б.4-6.
4. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. –Т.: Akadernashr. 2015. –Б.114.
5. Эшонкулов Н. Ижод фалсафаси. –Т.:Академнашр .2017. –Б.30-31.



*Muattarxon ISMOILOVA,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail:s42813275@gmail.ru*

*Prof. M.Kurbanova taqrizi asosida*

## SEMANTIC STRUCTURE OF AFFILIATION IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation

Objects through the relationship of ownership of one to the other is called relationship. One of these objects is called a possessor, and the one the possessed object as a correlate, is accepted as a strategic norm in possessive relationships. The relative – belonging relation is mainly in the English and Uzbek languages that the object belongs to the person. The units of predicative relationship-certain voice category used on the basis of a specific proportion in Uzbek language are formed by combining verbs with nouns, objects, etc, and in English by compact lexemes.

**Key words:** Lexical, semantic, realization, relatedness, category, lexeme, word group, theme, adjective connections.

## СЕМАНТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ПРИНАДЛЕЖНОСТИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Объектами отношение собственности одного к другому называется отношением принадлежности. Называть одного из этих объектов обладателем, а обладаемый объект — коррелятом, принято в качестве стратегической нормы в реляционных отношениях. Относительно-принадлежность в основном в английском и узбекском языках, что предмет принадлежит лицу. Единицы предикативного отношения-свойства, используемые на основе определенной пропорции, в узбекском языке образуются путем соединения глаголов с существительными, объектами и т. д., а в английском языке - компактными лексемами.

**Ключевые слова:** Лексический, семантический, реализация, родственность, категория, лексема, группа слов, топик, изафет связи.

## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QARASHLILIK- TEGISHLILIKNING SEMANTIK TARKIBI

Аннотация

Qarashlilik-tegishlilik birining ikkinchisiga egalik qilishi munosabatlari orqali ikki ob'ektning o'rtasidagi shu munosabatning lisoniy birliklar bilan ifodalanishi qarashlilik-tegishlilik deb yuritiladi. Shu ob'ektlardan biriga egalik qiluvchini possessor, egallangan ob'ektni esa – korrelyat deb atash qarashlilik-tegishlilik munosabatlarda strategik me'yor deb qabul qilingan. Qarashlilik-tegishlilik munosabati asosan ingliz va o'zbek tillarida ob'ektning shaxsiga tegishlilikni tashkil qiladi. O'zbek tilidagi aniq bir nisbat asosida qo'llaniladigan predikativ qarashlilik-tegishlilik birliklari o'zining doimgidek fe'l bilan ot, ob'ekt va xk.larning birikishi, ingliz tilida esa kompakt leksemalar orqali yuzaga keladi.

**Kalit so'zlar:** Leksik, semantik, realizatsiya, qarashlilik-tegishlilik, kategoriya, leksema, so'z turkumi, tematika, izafet bog'lanishlar.

**Kirish.** Leksik semantik realizatsiya bo'yicha bir necha leksemalar aniqlangan bo'lib, ular grammatik jihatdan turli so'z turkumlariga mansub, farqli tematik ma'noga ega ekanliklari aniqlandi.

Qarashlilik-tegishlilik kategoriyasini verballashtirishda aktiv leksemalar birinchi navbatda egalikni qo'lga kiritish ma'nosiga ega fe'l so'z turkumiga mansub so'zlar vositasida sodir bo'lishi ma'lum bo'ldi. Shu jumladan ingliz tilida: to be in possession of, to access, to acquire, to gain, to get hold of

O'zbek tilida: erishmoq, qo'lga kiritmoq, qo'lga olmoq

Egalik ixtiyoriy ravishda osonlik bilan qo'lga kiritib bo'lingani ifoda qilinadi: to have in hand, to take for disposal, o'z qo'lga olmoq, o'z ixtiyoriga olmoq, o'z tasarrufiga olmoq (adabiy uslub)

Egalik qiyinchilik bilan qo'lga kiritiladigan vaziyatlar ham tematik tarzda ifodalanadi: to achieve, to catch, to secure, to take possession of, to procure.

O'zbek tilida qarashlilik-tegishlilik kategoriyasi doirasidagi fe'llarning konnotatsiyasidagi bu kabi xususiyatlar yo'q, ular qo'shimcha ravish bilangina ifodalanishi mumkin: mashaqqat bilan erishmoq, qiyinchilik bilan erishmoq

Misol uchun birinchi fe'l ko'p ko'p ulgurjiga o'xshash usul bilan qo'lga kiritish, ikkinchisi o'g'irlilik tortib olish yo'li bilan qo'lga kiritish, uchinchisi yulib olish yo'li bilan qo'lga kiritish, to'rtinchisi yuqoridan turib ko'lga kiritish ma'nolarini individual tarzda aks ettirib, o'zaro bir birining o'rnida qo'llanilishi mumkin emas.

O'zbek tilida esa bu tasodifiy qo'lga kiritish ma'nosiga tegishli qarashlilik-tegishlilik kategoriyasi doirasidagi fe'llar chegaralangan ma'noga ega: tortib olmoq, yulib olmoq, zo'ravonlik bilan olmoq

Bu kabi alohida konnotatsiyaga ega leksik komponentlar orasida ingliz tilidagilari o'zining individual, kompaktiligi, o'zbek tilidagilar esa muayyan ravish bilan yoki ko'makchi fe'l bilan birikib kelishi orqali xarakterlidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Biron nima (pul, ayriboshlash vositasi, kredit va hk.) hisobiga egalik qilishni anglatadigan fe'llar ingliz tilida shu vositaning verbal konversiyasi vositasida hosil bo'lgan: to buy, to purchase, to mortgage, to loan something

O'zbek tilida esa bu holat ingliz tilidagidan ahamiyatli darajada farqli: sotib olmoq, harid qilmoq, ko'chmas mulk kreditiga olmoq, kredit evaziga olmoq.

Qarashlilik-tegishlilik kategoriyasi doirasining eng yaqin periferiyasini egallagan egalik qilmoq, ega bo'lmoq

ma'nosidagi fe'l va fe'lli konstruksiyalarning o'zbek va ingliz tillaridagi umumiy o'xshash xususiyatlari ko'p: to have, to possess, to bear

To carry (kiyim, ko'zoynak, kiyiladigan va taqiladigan, olib yuriladigan narsalarga nisbatan);

To exist (mavjud bo'lmoq ma'nosining ifodalinishiga nisbatan);

Fe'lli konstruksiya: there is / there are

O'zbek tilida bu kabi leksik komponentlar ega bo'lmoq, bor bo'lmoq, olib yurmoq, taqib yurmoq, mavjud bo'lmoq, bor bo'lmoq (fe'lli konstruksiya)

Qarashlilik-tegishlilik kategoriyasi doirasida ot so'z turkumiga mansub boshqa leksik birliklar ham mavjud bo'lib, ular turli tematika bo'yicha kategoriyalashtirilishi mumkin: Ingliz tilida: Mol mulkka egalik qilishga binoan: Property

Biron buyumga egalik qilishga binoan: Possession

Shaxsiy hayotga egalik qilishga binoan: Privacy

Umumiy ma'noda egalik qilishga binoan: Bearing

O'zbek tilida esa tematika bo'yicha bir muncha ingliz tilidan farqli: Mol mulk, shaxsiy buyumlar, mulk va hk.lar.

Aniq bir nisbatni inobatga olgan holda egalik qilish tushunchasi ham mavjud bo'lib, ingliz tilida bular: to win, to secure a victory, to earn, to inherit, to borrow, to rob

O'zbek tilida: yutmoq, g'alaba qozonmoq, pul topmoq, meros qilib olmoq, qarzga olmoq, o'g'irlab olmoq

Ingliz tilida hamda otlarning tarixiy rivojlanishida mutlaqo mavjud bo'lmagan kelishik turi "egalik kelishigi yoki bosh kelishik nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariya tarafdorlari G.N.Voronsova, A.M.Muxin an'anaviy talqin etishni davom ettirishdi hamda qaratqich kelishigining tuslanish shakli haqiqatdan ham otlarning "-s" formanti bilan qo'shilib egalik ma'nosini berishini aniqlashdi.

Ingliz tilida pozessivlik munosabatlari -'s da, tire yoki to'g'ridan to'g'ri hokim va tobe' so'zning bog'lanishida, relyativ olmoshlar bilan, of predlogi vositasida realizatsiya qilinadi.

Ingliz va o'zbek tillarida ham izafet bog'lanishlar, "va" bog'lovchisi va qaratqich olmosh orqali qarashlilik-tegishlilik munosabatining o'rnatilishi asarlar, san'at na'munalarining nomlanishida traditsiyaga aylangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qarashlilik-tegishlilik ingliz va o'zbek tillarida qaratqichlik, egalik olmoshlar bilan ham qo'llanilib, ingliz tilida rodni farqlash uchun uchinchi shaxs birlikda alohida olmoshlar, o'zbek tilida esa ikkinchi shaxsda birlik, ko'plik va hurmat belgilarini farqlash aloqalari bor. O'zbek tilida egalik olmoshiga birikkan korrelyatda ham egalik qo'shimchasi qarashlilik-tegishlili belgisi sifatida bor bo'lgani sababli olmoshning qo'llanilishiga zaruriyat katta emas, ingliz tilida bu narsa yo'qligi sababli egalik olmoshisiz qarashlilik-tegishlilik ifodalanganmay qoladi.

Qarashlilik-tegishlilik ma'noviy aspektlari. Tildagi qarashlilik-tegishlilik shakl va ko'rsatkichlari faqatgina shaxsning ob'ektga egalik qilishinigina ko'rsatmaydi. Qarashlilik-tegishlilik ma'noviy aspektlarining doirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

qism va butun munosabatlari: (daraxtning shoxi – branches of the tree, nastarin gullari - flowers of the nastarin, Pinokioning burni - nose of Pinoccio)

qarindoshchilik munosabatlari: (Zolushkaning o'gay onasi – step-mother of Cinderella)

yaqinlik, bir biridan uzoqlik munosabatlari: (Mening do'stlarim - my friends, mening otam va onam - my father and mother)

Biron ob'ektning tegishliligidan tashqari, uning yaratuvchiligiga nisbatan ham qarashlilik-tegishlilik munosabati realizatsiyalashadi, bunga avtorlik huquqi, biron kishining tayyorlagan taomlari va h.k.larni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Sub'ekt yaratuvchi sifatida ishlab chiqaruvchi mamlakat ham tushunilishi mumkin. Qarashlilik-tegishlilik lokativ tegishlilik orqali kelib chiqadigan shakl ham mavjud. O'zbek tilida mavjud qarashlilik-tegishlilik aloqasi ingliz tilida ko'rinmas holda keladi.

Ob'ektning biron shaxsga tegishli ekanligi munosabatining aks etishida o'zbek tilida qaratqichlik munosabati, egalik olmoshi, sifatning egalik munosabatlariga kirishuvi va hk. katta chastotali hisoblansa, ingliz tilida, of predlogi orqali bu funksiyalarning barchasi osongina realizatsiya qilinadi.

Ingliz tilida qarashlilik-tegishlilik qo'shimchasi ko'plikda, so'z oxiri o'zi bilan paronimik munosabatdagi so'zlar bilan kelishida, o'zbek tilida esa asosan poetik janr va og'zaki nutqdagi talaffuzida bir biridan farqlanadi.

Predlog va apostrof vositasida qarashlilik-tegishlilik munosabati shu birikmaning komponentlari inversiyasi ta'sirida, o'zbek tilida esa korrelyatga egalikni yuklash bilan xarakterlanadi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbek tilida o'zlik olmoshining egalik formasi, ingliz tilida "own" bilan qarashlilik-tegishlilik olmoshlarining hosil qilgan konstruksiya mavjud.

Qarashlilik-tegishlilik kategoriyasini verballashtirishda aktiv fe'llar birinchi navbatda egalikni qo'lga kiritish ma'nosiga ega fe'l so'z turkumiga mansub so'zlar vositasida sodir bo'lishi ma'lum bo'ldi. Egalik ixtiyoriy ravishda osonlik bilan qo'lga kiritib bo'lingani ifoda qilinadi.

Egalik qiyinchilik bilan qo'lga kiritiladigan vaziyatlar ham tematik tarzda ifodalangan.

O'zbek tilida mavjud qarashlilik-tegishlilik aloqasi ingliz tilida ko'rinmas holda keladi, misol uchun quyidagicha holatlarda o'zbek tilidagi korrelyatga qaratqich egalik qo'shimchasi bor: Nestle milk, Nestle suti

O'zbek tilida qarashlilik-tegishlilik kategoriyasi doirasidagi fe'llarning konnotatsiyasidagi bu kabi xususiyatlar yo'q, ular qo'shimcha ravish bilangina ifodalinishi mumkin.

Bu kabi alohida konnotatsiyaga ega leksik komponentlar orasida ingliz tilidagilari o'zining individual, kompakligi, o'zbek tilidagilar esa muayyan ravish bilan yoki ko'makchi fe'l bilan birikib kelishi orqali xarakterlidir.

O'zbek tilidagi aniq bir nisbat asosida qo'llaniladigan predikativ qarashlilik-tegishlilik birliklari o'zining doimgidek fe'l bilan ot, ob'ekt va h.k.larning birikishi, ingliz tilida esa kompakt leksemalar orqali yuzaga keladi.

Ingliz tilida qarashlilik-tegishlilik kategoriyasi attributiv va predikativ birliklarda, iboralarda ob'ektning ifodalinishida ishtirok etadi.

**Xulosa va takliflar.** O'zbek tilida esa har bir mavzu bo'yicha frazeologik ibora va frazalarda qaratqich kelishigining qo'llanilishining individual xususiyatlari bor. Kelishik ko'proq vositasiz, kamdan kam hollarda vositali keladi.

O'zbek tilida vositasiz qaratqich kelishigi vositasida bog'langan frazema va idiomalarda qaratqich kelishigining o'rni faqatgina sub'ektga ko'ra belgilanadi. Vositali qaratqich kelishigida tayanch komponentning o'rni substantiv hisoblanadi. Mulkning xususiy, shaxsiy, ko'chmas, jamoatga tegishli, davlatga tegishli va boshqa xususiyatlari property ot so'z turkumiga mansub so'zlarning semantikasida o'z aksini topadi: private, personal, movable, real, common

Xullas possessor, va – korrelyat o'rtasidagi qarashlilik-tegishlilik munosabatlarni munosabatlari deb atalishini xulosa qilish mumkin. Bu kabi konstruksiyalarda o'z funksiyasiga ko'ra qarashlilik-tegishlilik predmetga egalik qilishi, struktur jixatdan morfologik usullar, maxsus affiksalar orqali qarashlilik-tegishlilik kategoriya hosil qilishi, ingliz tilida qarashlilik-tegishlilik munosabatlari qarashlilik-tegishlilik qo'shimchasi va of, from predlogi vositasida reprezentatsiya qilinishi, o'zbek tilida qaratqich kelishigining vositali va

---

vositasiz turlari, turli gap konstruksiyalari, sintaksik munosabatlari va hk.lar vositasida berilishi bilan xarakterlidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Tojiev Y. O'zbek tilida ega ekanlik va ega emaslik ma'nolarini ifodalovchi affikslar sinonimiyasi T. 1981; Nomzodlik dissertatsiyasi T. 1994-y.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili ,T1080 , 217-251 sahifalar .Akademik Kononov A.N. Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi(Moskva –Leningrad, 1960 ,73-103-betlar
3. O'zbek tilshunosligining aktual masalalari, T.ToshDU ,1987 - yil kitobida (1975 yil)
4. G'ulomov A. O'zbek tilida kelishiklar/ Труды Узбекского филиала АН СССР.Ser.2Kn.2.-Т.,1941.
5. Qodirov M. O'zbek tilida grammatik kategoriyalarni sistem tahlil qilish ( kelishik kategoriyasi) :Filol.fan.nom...diss.avto-ref.,Samarqand, 1993.
6. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili (2009 yil )M. Sayfullaeva R.Kurbanova M , Mengliev B, Boqieva G, M Abuzalova
7. Blox M.YA. Teoreticheskaya grammatika angliyskogo yazika. M.: – Visshaya shkola, 2000. – S. 62-74



*Shohida KARAMOVA,*  
*QarDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*  
*E-mail:sh.karamova72@mail.ru*

*PhD Z.Pardayev taqrizi asosida*

## BASIC PRINCIPLES OF UPDATED ARTISTIC THOUGHT

Annotation

From the last quarter of the 20th century, artistic thinking began to be renewed. The renewal of artistic thinking in our national literature was initially manifested in the form of a critical perception of social reality on the eve of independence. Especially in the renewed artistic thinking from the end of the 20th century, the strengthening of the spirit of criticism was connected with another principle in it. This was the principle of freedom of artistic thinking. The liberation of artistic, i.e., creative thinking led to changes at all levels in poetry, as in art and literature. The spirit of harmony with the world was born in the national artistic thinking. This principle was manifested in various forms. In art and literature, they came out with the claim of breaking away from the old methods and rules and completely renewing them. The article talks about these issues.

**Key words:** Artistic thinking, national literature, social reality, creative personality, perception of the world, critical spirit.

## ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ОБНОВЛЕННОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ МЫСЛИ

Аннотация

С последней четверти XX века художественное мышление начало обновляться. Обновление художественного мышления в нашей национальной литературе первоначально проявилось в форме критического восприятия социальной действительности накануне независимости. Особенно в обновленном художественном мышлении конца XX века усиление духа критики было связано с другим в нем принципом. Это был принцип свободы художественного мышления. Раскрепощение художественного, т. е. творческого мышления привело к изменениям на всех уровнях поэзии, как в искусстве, так и в литературе. В национальном художественном мышлении зародился дух гармонии с миром. Этот принцип проявлялся в различных формах. В искусстве и литературе они выступили с требованием порвать со старыми методами и правилами и полностью их обновить. В статье говорится об этих вопросах.

**Ключевые слова:** Художественное мышление, национальная литература, социальная реальность, творческая личность, мировосприятие, критическое мышление.

## YANGILANGAN BADIY TAFAKKURNING ASOSIY TAMOYILLARI

Annotatsiya

XX asrning oxirgi choragidan badiiy tafakkur yangilana boshladi. Milliy adabiyotimizda badiiy tafakkurning yangilanishi dastlab – mustaqillik arafasida ijtimoiy voqelikni tanqidiy idrok qilish shaklida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, XX asr oxiridan yangilangan badiiy tafakkurda tanqid ruhining kuchayishi undagi boshqa bir tamoyil bilan bog‘liq edi. Bu – badiiy tafakkurning erkinligi tamoyili edi. Badiiy, ya‘ni yaratuvchi tafakkurning erkinlashuvi, san‘at va adabiyotda bo‘lgani singari, she‘riyatda ham hamma sathlardagi o‘zgarishlarga olib keldi. Milliy badiiy tafakkurda dunyo bilan uyg‘unlashuv ruhi tug‘ilib keldi. Bu tamoyil turli shakllarda voqelandi. San‘at va adabiyotda eski usul va qoidalardan kechish, butunlay yangilanish da‘vosi bilan maydonga chiqdilar. Maqolada shu masalalar xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Badiiy tafakkur, milliy adabiyot, ijtimoiy voqelik, ijodkor shaxsi, olamni idrok etish, tanqidiy ruh.

**Kirish.** Badiiy tafakkur milliy adabiyotshunosligimizda asosan ijodkor shaxsining olamni idrok etish mexanizmi, ijodkorning shaxsni yaratuvchi tafakkuri tushuniladi.

XX asrning oxirgi choragidan bizda shu ma‘nodagi badiiy tafakkur yangilana boshladi. Milliy adabiyotimizda badiiy tafakkurning yangilanishi dastlab – mustaqillik arafasida ijtimoiy voqelikni tanqidiy idrok qilish shaklida namoyon bo‘ldi. Qayta qurish, oshkorlik deb nom olgan yillarda sobiq ittifoq tarkibidagi boshqa Respublikalarda bo‘lgani singari o‘zbek shoir-yozuvchilari ham davrning mohiyatini anglab yetdilar. Katta o‘zgarishlar zamoni boshlanayotgani, o‘tmish butun dahshatlari bilan orqada qolgan va boshqa tarafdin davr bergan imkon tufayli ayrim ijtimoiy haqiqatlar baralla aytila boshladiki, bu borada she‘riyat peshqadamlikni qo‘lga oldi desak yangilishmaymiz. Erkin Vohidov, Omon Matjon, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron kabi shoirlar ijodida ayniqsa, bu hol jarayon tusini oldi.

To‘g‘ri, XX asrning 60-70-yillarida ham tanqidiy ruhdagi misralar, she‘rlar bor edi. Masalan, Abdulla

Oripovning qator she‘rlarida o‘zi va xalqi yashayotgan ijtimoiy muhitning salbiy tomonlari ham qalamga olinadi. “Tilla baliqcha”, “Ona tilim”, “Yuzma-yuz”, “Avlodlarga maktub”, “O‘ylarim”, “Nekrasov hasrati” kabi o‘nlab she‘rlarda hayotning mutafakkir ijodkorning o‘tkir ko‘zlari bilan ko‘rilgan fojialari ifoda etilgan. Masalan, shoir “Yuzma-yuz” she‘ridagi “Rangpar singilginam, seni o‘ylayman, kuzgi rayhondayin so‘lg‘in o‘sding sen” degan ikki misradayoq ayolning qismati, jamiyatdagi hol -u ahvoli voqelangan. Kuzgi rayhon – yoshligi barbod bo‘lgan inson fojiasini yorqin ifoda etyapti. Yoki “Avlodlarga maktub”dagi “Yer osti tinch tursin desangiz agar, Sizlar yer ustida so‘ylamang yolg‘on”, - deganda shoir balki o‘sha tarixiy voqelikda hayotning hamma jabhasini qamrab olgan ijtimoiy hamda shaxsiy yolg‘onlarni nazarda tutgandir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bunday mazmundagi misralar, she‘rlar yoki boshqa janrdagi asarlarni yana ko‘plab shoir-yozuvchilar ijodidan ham topa olamiz. Adabiyotimizning bu davri yetarli darajada tadqiq ham etilgan. Ammo bizning ta‘kidlamochi bo‘lganimiz shuki,

o'tgan asrning 60-70-yillari adabiyotidagi tanqidiy ruh hali ijtimoiy-siyosiy tuzumning mohiyatini aniq, to'la anglab yetishning natijasi emas edi. Millatning ilg'or ziyolilari, jumladan, shoir-yozuvchilar hayotda illat-u fojialar borligini ko'rdilar-angladilar-u, ammo uning tub sababini to'liq idrok etolmadilar. Turmushning nochorligi, insonning haqsizligi tizimning nobopligi tufayli ekanligini anglashga hali ancha bor edi. Ayni vaqtda bu davr ijodkorlarining hayot fojialariga diqqat qaratganining o'zi katta jasorat bo'ldi. Sotsialistik realizm hayotni dinamik o'sishda, jiddiy konfliktlarsiz tasvirlashni, faqat g'alabalarni kuylashni, kommunistik partiya va uning daholarini madh etishni talab qilib turgan bir vaziyatda tevarak-atrofdagi g'ayriinsoniy hodisalar kechayotganini anglash va uni aytilish, o'quvchiga ko'rsatish ham katta gap edi.

Biz badiiy tafakkurning yangilanishi deganda eng avvalo mana shuni – ijodkorlar tomonidan ijtimoiy borliqning tanqidiy idrok etilishini nazarda tutamiz. Chunki aynan mana shu tanqidiy munosabat adabiyot va she'riyatda birmuncha o'zgarishlarga debocha bo'ldi.

Abdulla Oripovning "Sovg'a" she'ri 1967 - yilda "Buxoro gazining Moskvaga yetib borishi munosabati bilan" yozilgan. A. Oripov o'zbek gazining rus poytaxtiga yetib borishini buyuk qardoshlikning timsoli, xalqlar tarixidagi quvonchli voqea kabi talqin qiladi. Ammo shoirning hayotni nihoyatda realistik tasvirlash bilan xarakterlanadigan uslubi yozilgan she'rning ichki qatlamlarida qayg'uli haqiqatlarni ham muhrlagan.

Baxtini bus-butun topgunicha to  
Ne-ne balolarni ko'rgan o'zbekman.  
Mehmon joy so'rasa, ayamay hatto  
Unga jonini ham bergan o'zbekman.  
Dilbar Farg'onadan sohibkor xalqim  
Har yili uzatar tonnalab meva.  
Bundayin bisotni ko'rmagan balkim  
Makkaga qatnagan millionlab teva.  
"Tomdi" yaylovida ma'sum qo'zichoq  
Do'stlar deb ko'z ochmay berar jonini.  
Hisoblab chiqishga son yetmas bu choq  
Muruntovdan ketgan oltin konini...  
Gaz degan, do'stlarim, nima bo'libdi,  
Azaldan jonimiz sizga sadaqa.  
Jahon-ku rost gapni ko'rib turibdi,  
Bizlar shundoq edik, bizlar shunaqa [1].

26 yoshli Abdulla Oripov o'z davrining farzandi, tarixni sovetcha mafkura talqinlarida o'qigan shoir o'laroq, asrlar bo'yi yurtimiz musulmonlari tomonidan muqaddas Makkaga jo'natilgan hadyalarni "Makkaga qatnagan millionlab teva" degan istiora orqali ifodalaydi. Qarangki, sho'roning qisqa muddatlik tarixida dilbar Farg'onadan katta og'aga jo'natilgan sovg'alar oldida asrluk tuya karvonlari hech nima ekan. Endigina dunyoga kelgan qo'zichoqning hali ko'zini ochmay turib "do'st"lar uchun jon berishi shoir tomonidan faxriya ohangida yozilgan bo'lsa-da, fojiani o'zginasi! "Ma'sum" degan sifatlash bu fojiani yanada bo'rttiradi... Shu o'rinda bir mulohaza. Bu she'r hozirgi tarixiy kontekstda o'qilganda shunday fojiviy idrok etilyapti. O'sha, olis 1967 - yilda esa o'quvchida faxriya ruhi ustuvor bo'lgan. Sho'ro hamda mustaqillik faktori olib tashlansa va bu she'rni biz bilgan mash'um tarixdan butkul bexabar bir o'quvchi o'qisa, ehtimol, unda shunday savollar tug'iladi: nega tonnalab mevalar boshqalarga jo'natiladi? Nega qo'zichoqlar boshqalar uchun ko'z ochmay jon beradi? Nega bir xalq o'z konlaridagi oltinlarni boshqa bir xalqqa yuboradi?..

Oradan 46 yil o'tib, 2013 - yilda shoir o'sha yozganlarini afsus va pushaymon bilan shunday "tahrir" qiladi:

Paxta - yu gazni-ku qaroqchi har kas  
O'marib ketganda to'ylar qilganmiz.

O'lsak, xokimizga Makkani emas,  
Kreml devorin shon deb bilganmiz [2].

Gaz, to'y qilish, Makka tafsillari o'sha 1967 yilda faxriya tarzida bitilgan "Sovg'a" she'riga ishora qiladi, bu tasodif emas. Bu satrlar ongli ravishda yoshlikda yozilgan o'sha misralarga oppozitsion tarzda tug'ilgani aniq.

Sho'ro davrida yashagan yoki o'sha davr tarixini yaxshi bilgan o'quvchiga Abdulla Oripov ishlatgan istiora, ko'chimlar, ramzlarning ma'nosi ikki karra ikki kabi tushunarli. Ha, mazkur she'r faqat tarixiy voqealar kontekstidagina tushunarli. She'rni bu tarixlardan umuman xabarsiz bo'lgan yaponiyalik yoki taylandlik biror odam o'qisa, anchagina mavhum tasavvur ichida qoladi yoki ta'sir zarbi u qadar kuchli bo'lmaydi. Masalan, yapon xokkularidagi har bir obraz, tafsil ham o'z "tarix"iga, chuqur-chuqur ramziy ma'nolarga ega. O'quvchi – yapon madaniyati, san'ati bo'yicha mutaxassis bo'lmasa, u xokkularni o'qiganda, umuman estetik zavq olishi mumkin, ammo matnning ichki qavatlariga kira olmaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bu mulohazalar muayyan badiiy asarning idrok etilishi zamon va makon yoki o'quvchi shaxsga bog'liq holda turlicha bo'lishi, nisbiy xarakterda ekanligiga oid ikkinchi mulohazani ham tug'diradi. Masalan, Dante Aligverining "Ilohiy komediya"si yoki Salmon Rushdining "Iblis qo'shiqlari" asarlari borasida tug'ilgan munozaralar, iqror va e'tiroflar ham qisman shu xil nisbiylikdan kelib chiqadi.

XX asr oxirlarida yangilangan milliy tafakkurda voqelangan tanqid ruhi to hozirga qadar ham o'z darajasida turibdi. Ayniqsa, yoshlar she'riyatida muhitdan, odamlardan, o'zidan norozilik, shularning barini tanqid qilish tamoyili nihoyatda kuchaygan. Go'yoki qariyb bir asr mobaynida ko'zga qamalagan tanqid birdaniga ko'zasidan chiqib, oldingi bandilik o'chini ham olayotgandek...

Ijtimoiy hayotni tanqid qilish o'tgan asrning 80-90-yillarida E. Vohidov, O. Matjon, Sh. Rahmon ijodida kuchli bo'ldi. E. Vohidovda istehzoning quyugligi, Sh. Rahmon va A. Mahkamda esa she'r matni o'z bag'ridan xalq so'zlashuv so'zlari, hatto dag'al-tabu so'zlarga ham o'rin berganini ko'ramiz. Sho'ro davrida kommunistik jamiyat, kommunistik mafkura adabiyotda qancha ko'p madh etilgan bo'lsa, XX asrning so'nggi o'n yilliklaridan to hozirga qadar shuncha ko'p qoralandi. Inson erki cheklangan muhitlarda adabiyotda erk mavzusi ham markaziy mavzulardan bo'lishi kerak. Qizig'i shundaki, bizda Sovet ittifoqi qulab, milliy mustaqillikka erishilgandan keyin bu mavzuga ko'proq diqqat qaratildi.

XX asr oxiridan yangilangan badiiy tafakkurda tanqid ruhining kuchayishi undagi boshqa bir tamoyil bilan bog'liq edi. Bu – badiiy tafakkurning erkinligi tamoyili edi.

**Tahlil va natijalar.** Badiiy, ya'ni yaratuvchi tafakkurning erkinlashuvi, san'at va adabiyotda bo'lgani singari, she'riyatda ham hamma sathlardagi o'zgarishlarga olib keldi. Bular quyidagilar:

- Ijodkor o'zi xohlagan mavzuda yozish imkoniga ega bo'ldi. Ayrim ijodkorlar erkinlikni hatto shu darajada tushundilarki, sho'ro mafkurasida ruhi zamonlar bitilgan misra-yu baytlarini, she'rlarini yangi zamon ruhiga moslash uchun tahrir qilishgacha bordilar. Bunda ijodkor sifatida o'z siymolariga soya soladigan g'ayritabiiy hech nima ko'rmadilar. Buyuk adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov "E'tiqodimni nega o'zgartirdim?" - degan sensatsion chiqish qildi. Mana shu chiqishdagi mulohazalar shoirlarning o'z she'rini nima uchun o'zgartirganligini qisman izohlay oladi [3]. Olim Oltinbek Rauf Parfi va jahon she'riyatining o'zaro munosabatlari haqida yozar ekan, "Dunyo sonetchiligida ikkita yo'l bor: biri Petrarka yo'li (klassik sonet), ikkinchisi Shekspir yo'li (erkin sonet). R. Parfi sonetchilikda Shekspir yo'lini tutdi, o'sha yo'lda o'zbek sonetchiligini yangi

bosqichga ko'tardi", [4] - deydi. Bizningcha, bu tanlov ham tasodif emas, R. Parfi tomonidan shekspircha erkin sonet usulining tanlanishi ham g'ayrushuuriy ravishda badiiy tafakkurning erkinlashuvini o'zida voqelantiradi.

- Janrlarga munosabat ham erkinlashdi. Sonetga e'tibor kuchaydi, janr taraqqiyoti Rauf Parfi va Faxriyov ijodida yangi bosqichga ko'tarildi. Rauf Parfi jahon she'riyatining rondo, rondel, tanka, xokku kabi janrlarida she'rlar yozdi, shular ta'sirida uchlik janriga asos soldi.

- Abdulla Oripov uch misrali banddan tashkil topgan qofiyasiz she'rlar yozdi. Faxriyov "Oy // bolta" kabi ikki so'zli she'r yozdi, geometrik she'rlarni tajriba qildi. Buxorolik shoir Isroil Subhon shashqator janriga asos soldi, "Barmoqdagi g'azallar" nomli turkum yaratdi. Namanganlik shoira Dilorom Ergasheva aruzda "Payvand"lar yaratdi (muntoz shoirdan bir bayt tazmin tarzida olinib davom ettirildi)...

- She'ning mohiyatini anglash o'zgacha tus oldi. Sharqda, ma'lumki, she'riy nutq nihoyatda shakllangan, bezakdor, o'ziga xos leksik qatlamga ega, ramziy-istoraviy bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan ma'rifatparvarlik shoirlari bunday leksikani hajviy she'rlarda qo'llagan edilar. O'tgan asr shoirlarida esa bu kabi noshoirona leksika jiddiy she'rlardan ham o'rin oldi. Shunday qilib, "shoirona"lik, badiiy bezakdorlik bilan bir qatorda, she'riyatga nihoyatda jo'n so'zlashuv usuli ham kirib keldi. Bu ayniqsa, Tillanisa, Al-Fayz singari yoshlar ijodida tipiklik kasb etdi. She'riyat leksikasining o'zgarishi, unda oddiy so'zlashuvdagi dag'al, haqoratomuz, she'r tugul adabiy matnlarda-da ishlatilmaydigan so'zlarning kirib kelishi esa sal oldinroq – Shavkat Rahmon, Asqar Mahkam she'rlarida sodir bo'lgan edi.

Biz yuqorida yangilangan badiiy tafakkur tufayli shoirlar "Sho'ro mafkurasida ruhida misrayu baytlarini, she'rlarini yangi zamon ruhiga moslash uchun tahrir qilishgacha bordilar", - dedik. Bu esa yangilangan badiiy tafakkurga xos yana bir tamoyildan kelib chiqqan edi: malomatiylik, iqrar, afsus, o'kinch. Davr ijodkorlarining ayrimlarida uzoq yillar mobaynida yolg'on g'oyalarga ishonib yurganlari uchun o'zlarini malomat qilish tamoyili paydo bo'ldi. O'sha malomatiylik tufayli allaqachon e'lon bo'lgan, o'quvchilarga ma'lum misrayu baytlar o'zgarishga uchray boshladi. Malomatiylik ruhida she'rlar paydo bo'ldi.

O'zbekiston Qahramoni O. Sharafiddinov adabiy jarayonni qattiq silkitgan "E'tiqodimni nega o'zgartirdim?" nomli maqolasida shunday degan edi: "Bugun shuncha odamning (20 million kompartiya a'zosi – Sh. K.) hammasi bo'lmasa-da, mutlaq ko'pchiligi kommunistik mafkuradan uzil-kesil yuz o'girib, e'tiqodini o'zgartirdi. Tuzukroq o'ylab qarang, ma'naviy suyanchig'i barbod bo'lgan, ixlos bilan ishongan ideallari sarob bo'lib chiqqan salkam 20 million odam! Hayotining yarmidan ko'pini yashab qo'ygach, birdan shuncha umr behuda ketganini anglab qolgan, dunyoni poklashdek oliy niyatga xizmat qilyapman deb o'ylagan, aslida esa o'zi butkul «kirlanib» bitgan 20 million odam! Bashariyat tarixida hali hech qachon bunaqa katta falokat, bunchalik behudud fojia ro'y bergan emas edi va ehtimolki, bundan keyin ham hech qachon ro'y bermas. Bu shunday mislsiz falokat, shu qadar ulkan ma'naviy yemirilishki, uning oqibatida kurralar mehvaridan chiqadi, jamiyatning ruhiy muvozanati buziladi, qanchadan-qancha odam to'satdan o'zini junun vodiysiga tushib qolganday his qiladi va yangi suyanch tog'larini izlab har tomon sarsari yuguradi" [5]. Iqrar, malomatiylik, afsus ruhi, xususan, o'zbek xalqining XX asrdagi eng ulkan shoiri Abdulla Oripovda kuchli bo'ldi.

Shavkat Rahmon ham so'nggi she'rlaridan birida alam va afsus bilan:

Chindanam, bunday erk og'irmasmi ko'p  
odamga ergashib qattiq aldangan,  
o'limdan o'zga bir nasibasi yo'q,

bir umr qamoqda yotgan odamga... [6] –  
deb yozgan edi. Asqar Mahkam esa "Tavajjuh"da:  
Qirq bir hujra ichra qirq bitta havas,  
darvozadan chiqding besharm, beg'usul,  
sohilga yetding sen, daryoga emas,  
ey ko'ngil, ey ko'ngil, ey telba ko'ngil! [7] –  
deydi.

Afsus-nadomat, buyuk yolg'onlarga aldanganlikdan alam motivi, xususan, katta avlod badiiy tafakkurida asosiy tamoyil bo'ldi. E. Vohidov "Shukurkim, keldi istiqlo!" nomli g'azalida shunday yozdi:

Agarchi ismim Erkin,  
Erki yo'q, bandi kishan bo'ldim.  
Ko'zim bog'liq, dilim dog'liq,  
Tilim yo'q, besuxan bo'ldim.

A. Oripov she'riyatida o'kinch aralash iqrar qayta-qayta qalamga olindi. "Afsus, afsus, aldanibman, ko'p aldanibman", - deydi bir o'rinda to'g'ridan-to'g'ri. Yana bir o'rinda esa:

Men ham o'sha davr yalovin tutdim,  
Ko'rmagan yovimga uraverdim do'q.  
Sayid Olimxonni anglamay o'tdim,  
Ibrohimbekni ham tushunganim yo'q.  
Hazrat deb insonga o'qidim takbir,  
Raso bo'lsin deya kuyladim jo'shib.  
Hazratni "hasrat" deb so'ng qildim tahrir,  
Rasoga "v" harfin qo'ydim-ku qo'shib [2], -  
deya hasrat chekadi.

Keyinroq malomatiylik afsus, nadomat ruhida emas, balki fitratidagi nuqsonlarni, xatolarini iqrar etish shaklida yuz ko'rsatdi. Endi bu iqrar "biz undoq, biz bundoq" kabi umumiy, hammaga doxil (aslida o'zini o'shalardan emas deb bilish bu) xato-kamchilik kabi talqin qilinmadi, balki gapning egasi to'g'ridan-to'g'ri "men" bo'ldi. Nodira Afoqova bir she'rida:

Ko'zyoshni ko'rsatmoq... yo'q-yo'q, bu o'lim.  
Balki bu kibrdir...  
Yiqilgan odam  
Izzati nafsiga tasalli, balkim.  
Yiqildim... – [6]

deydi. Ko'zyoshni ko'rsatmay turishni sabr-matonat, jasorat belgisi emas, kibr, yiqilgan odamning o'z izzat-nafsiga tasallisi o'laroq taqdim etadi. Yosh shoira Tillaniso "Men samimiy, bo'lolmasman, yo'q!", - deydi.

Ana shu malomatiylik izchillik bilan boshqa bir tamoyilni ham maydonga keltirdi. O'zidan norozilik, aldanganlikdan alam o'zini boshqalar bilan qiyosda ko'rishga mayl uyg'otdi. Milliy badiiy tafakkurda dunyo bilan uyg'unlashuv ruhi tug'ilib keldi. Bu tamoyil turli shakllarda voqelandi. Erkin Vohidovning "Turkiston bir, Vatan bir" deb yozgan naqorati davrning shiori kabi jarangladi.

Abdulla Oripov xorij mavzusida ko'p she'rlar yozdi. Albatta, ularning aksariyati xorij safarlari bilan bog'liq edi. Bu she'rlarda o'zini o'zгалar bilan qiyoslash, ulardan kam emasligini ko'z-ko'z qilish, ba'zan esa nobop tuzum tufayli ilg'orlardan ortga qolganlikdan afsus, ba'zan esa eng go'zal milliy qadriyatlar bilan moddiyunchilikka, nafsaga berilgan, robotga aylangan dunyodan ustunlikdan faxr-iftixor qalamga olindi.

Sof modernistik uslubda yozadigan shoirlarning ko'payishi ham badiiy-yaratuvchi tafakkurning jadal olg'a borayotgan jahon bilan uyg'unlashuvga intilishi natijasi bo'ldi. Chunki XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jahon adabiyotida ijtimoiy-tarixiy voqelikka norozilik natijasida turli xil oqimlar paydo bo'ldi. Ular san'at va adabiyotda eski usul va qoidalardan kechish, butunlay yangilanish da'vosi bilan maydonga chiqdilar. Keyinchalik, XX asrning 60-70-yillarida modernizm elementlari Rauf Parfi she'riyatida yuz ko'rsatdi. 80-90-yillari va undan keyingi davrda modernizm Abduvali

Qutbiddin, Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Go'zal Begim kabi ijodkorlar uslubida to'la qaror topdi. Ta'kidlash ortiqcha emas: modernizm o'tgan asr oxirlarida milliy adabiyotimizda dunyoning boshqa mamlakatlarida bo'lgani kabi san'at va adabiyot ahlining ijtimoiy borliqqa munosabatidan paydo bo'lgan emas, bil'aks, aynan milliy badiiy tafakkurning jahon bilan uyg'unlashuvga intilishidan paydo bo'ldi. Rauf Parfi o'z she'rlarida turli xalqlarning Pol Verlen, Isikava Takuboku, Viktor Hara, Eduard Veydenbaum, Uldis Berzinsh, Knuts Skuyeniyeks, Muktibodh, Rolando Eskardo, Bernd Iyentsh, Tavfiq Fikrat kabi ijodkor, ziyoli farzandlarini eslaydi, ularga she'rlar bag'ishlaydi, iqtiboslar oladi. Milliy badiiy tafakkurning jahon bilan uyg'unlashuvga intilishi mana shu tarzda ham yuz ko'rsatdi. Rauf Parfining ijodiy uslubiga, badiiy tafakkuriga xos bu xususiyat keyinchalik Faxriyor ijodida yanada mukammallashdi. Shoirning ingliz tilini bilishi, bu tildan tarjimalar qilishi ham mazkur tamoyilning kuchayishiga ta'sir ko'rsatdi.

**Xulosa va takliflar.** Mustaqillik tufayli sho'roning dahriyona mafkurasidan keyin e'tiqod erkinligiga erishildi. Katta-kichik har bir odam muqaddas dinimiz asoslari bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Masjidlar ochildi, islomiy

adabiyotlar nashr qilina boshladi, diniy bilim olish, uni takomillashtirish oson bo'lib qoldi. Qatag'on, ta'qibu tazyiqlar barham topdi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, badiiy tafakkurda g'alati tamoyil paydo bo'ldi. Kommunistik mafkura hukmronligi davrida badiiy matnda "xudo", "olloh" kabi so'zlarni ishlatish-da mumkin emasdi; bu boradagi ta'qiqlar olib tashlangach esa, mustaqillik e'tiqod bobida bergan erkinlikni suiiste'mol qilishga o'xshagan bir holat kuzatiladi. Biz yashab turgan dunyo va son-sanoqsiz olamlarning Parvardigorga insonning belgilarini nisbat berish, Yaratguvchi bilan munozaraga kirishish, ba'zan uni to'g'ridan-to'g'ri inkor qilish kabi hollar ham uchray boshladi. Dardning, iztirobning kuchini ko'rsatish uchun "Parvardigor, bor bo'lsang agar..." kabi shart ergash gapli misralar paydo bo'ldi. Bir shoira "Meni xudoga nikohlab qo'ying", - deb yozdi. Bizningcha, badiiy tafakkurdagi erkinlik tamoyili inson va Parvardigor o'rtasidagi chegaraga ham o'ta erkin munosabatda bo'lish shaklida voqelandi. Umuman olganda esa, ijodkor shaxsning Yaratganga malomati, u bilan munozaraga kirishish boshqa makon va zamon adabiyotlarida ham uchrab turadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. 8-jild. – Toshkent.: G'afur G'ulom 2016. – 6-b.
2. Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1997 yil. – 209-bet.
3. Mahkam A. Haq. – Dushanbe, Adib, 1998. – 265-bet.
4. Sharafiddinov O. E'tiqodimni nega o'zgartirdim? // Tafakkur jurnali, 1997 yil, 10-son.
5. Oltinbek O. Rauf Parfi va jahon she'riyati // <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/olim-oltinbek-rauf-parfi-va-jahon-she'riyati.html>.
6. Afoqova N. Yolg'izning Yori. Toshkent.: Muharrir nashriyoti. 2022 y. 146 bet



*Kristina KITYAN,*  
*O'zDJTU tadqiqotchisi*  
*E-mail: akristina1979@mail.com*

*TerDPI dotsenti, filologiya fanlari falsafa doktori O.Uralova taqrizi asosida*

### SHERVUD ANDERSONNING IJODIY O'ZIGA XOSLIK ("WINEBURG, OGAYO" TO'PLAMI)

Annotatsiya

Shervud Anderson Amerika adabiyotiga asl yozuvchi sifatida kirdi. Ammo uning ishini XX asr boshidagi Amerika haqiqati kontekstidan tashqarida ko'rib chiqish mumkin emas. Ham romantik, ham realistik Amerika qissalari, avvalambor, xalq og'zaki ijodining boy an'analari – og'zaki tarix, chegara rivoyatlari, negr folkloriga tayangan holda milliy asosda shakllangan. Sherwood Andersonning formalistlarning eksperimentalizmidan asosiy farqlovchi jihati yangilikka chuqur ongli g'oyaviy-estetik yondashishdir va bu yozuvchining ijodiy yutuqlarining asosiy sabablaridan biri edi.

**Kalit so'zlar:** Amerika adabiyoti, novelist, novella, jamoat hayoti, ijtimoiy adolatsizlik, kichkina odam.

### CREATIVE ORIGINALITY OF SHERWOOD ANDERSON (COLLECTION «WINEBURG, OHIO»)

Annotation

Sherwood Anderson entered American literature as an original writer. But his creative work cannot be considered outside the context of the American reality of the early 20th century. Both romantic and realistic American novels were formed primarily on a national basis, relying on the rich traditions of oral folk art - oral narrative, legends of the frontier, black folklore. The main distinguishing feature of Sherwood Anderson from the experimentation of formalists is a deeply conscious ideological - aesthetic approach to questions of innovation, and this was one of the main reasons for the writer's creative achievements.

**Key words:** American literature, novelist, short story, social life, social injustice, little man.

### ТВОРЧЕСКОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ШЕРВУДА АНДЕРСОНА (СБОРНИК «УАЙНСБУРГ, ОГАЙО»)

Аннотация

Шервуд Андерсон вошел в американскую литературу как оригинальный писатель. Но его творчество нельзя рассматривать вне контекста американской реальности начала XX века. Как романтическая, так и реалистическая американская новелла, формировалась прежде всего на национальной основе, опираясь на богатые традиции устного народного творчества – устный рассказ, легенды фронта, негритянский фольклор. Главной отличительной чертой Ш. Андерсона от экспериментаторства формалистов является глубоко сознательный идейно - эстетический подход к вопросам новаторства, и это явилось одной из главных причин творческих достижений писателя.

**Ключевые слова:** Американская литература, новеллист, новелла, общественная жизнь, социальная несправедливость, маленький человек.

**Введение.** Шервуд Андерсон вошел в американскую литературу как оригинальный писатель. Но его творчество нельзя рассматривать вне контекста американской реальности начала XX века. В начале XX в. событийная, остросюжетная новелла становится для писателей реалистического направления просто невозможной. Она оставалась, в большинстве случаев, уделом писателей - ремесленников, вырождавшаяся во второсортную продукцию, предназначенную для занимательного чтения буржуазной публики.

Такая развлекательно – сенсационная новелла получила резкие осуждения со стороны Андерсона: «В наших популярных новеллах всегда происходит что-то невозможное. Над героями всегда чинят насилие. Но обычно не понимают, что чинить такое насилие, предавать героя в воображаемом мире – это не меньшее преступление, чем предавать человека в действительности». (см.17,58) Не меньший гнев писателя вызывали лицемерие и фальшь официально - лакированной литературы, представители которой, «преподносили жизнь в изящной упаковке - и предавали жизнь». (см.7,173) С другой стороны, в процессе сложного взаимодействия социального романа и новеллы последняя перестает быть преобладающим жанром в американской литературе. Но это не свидетельствует о ее исчезновении и прекращении поступательного развития.

Многие видные американские писатели обращались к этому традиционному жанру, и их новеллистическое творчество было глубоко новаторским (Т.Драйзер, Ш.Андерсон, Д.Стейнбек, В. Фолкнер, Хемингуэй и др.). Одной из главных тенденций американской новеллы XX века становится психологизм. Основными жанровыми признаками психологической новеллы является глубокое раскрытие внутреннего драматизма характеров и событий, вызванного жестокостью и бесчеловечностью капиталистического бытия, сосредоточенность действия вокруг одной напряженной психологической ситуации, нередко фрагментарность и статичность повествования. Основоположником этой новеллы в американской литературе следует считать Т.Драйзера, который, по образному выражению В. Фолкнера, является в и литературном отношении «старшим братом» Ш.Андерсона.

Не отрицает драйзеровского влияния и сам Ш.Андерсон. Называя Т.Драйзера пионером современной американской литературы, писатель подчеркивает: «Этот человек проложит тропу из тьмы к свету, и тропой этой пошли за ним все мы». (см.15) Здесь же Андерсон выступает в защиту новаторства Т. Драйзера - новеллиста, иронизируя над искусственно развивающимся сюжетом традиционной новеллы.

От экспериментаторства формалистов Ш. Андерсона отличает глубоко сознательный идейно - эстетический подход к вопросам новаторства, и это явилось одной из главных причин творческих достижений писателя. Свою задачу Ш.Андерсон видит в честном изображении действительности, «трагизма и комизма живой жизни» (см.15) в искреннем протесте против социальной несправедливости (см.13) в глубоком и всестороннем познании и осмыслении действительности. Писатель стремится «максимально развить свою способность чувствовать, видеть, слышать, обонять», «быть свободным, гордым, мужественным, все острее воспринимать землю, людей, улицы, дома, города», «вобрать в себя, переварить как можно больше». (см.7,173).

Эти творческие принципы писателю впервые удалось наиболее глубоко реализовать в сборнике «Уайнсбург, Огайо». Заслуга Ш. Андерсона как писателя-реалиста заключается прежде всего в том, что, изображая серую безрадостную жизнь американского провинциального захолустья, он одним из первых в американской литературе показал результаты тлетворного влияния действительности на «маленького человека» провинции - мелкого, служащего, интеллигента, сельскохозяйственного рабочего. Большая часть героев новелл изломана, искалечена, разбита этой действительностью.

Трагична и бесперспективна жизнь Винга Бидлаума («Руки»). Автор умело вводит в рассказ социальный фон, являющейся причиной трагедии Винга. Тупость, нравственное убожество и пустота жителей городка, которые были не способны не только оценить, но даже и понять необычайную поэтичность и нежность натуры Винга, стали источником трагического конфликта в рассказе.

Безрадостная жизнь и многих других обитателей Уайнсбурга и его окрестностей. С поразительным психологическим мастерством писатель показывает их вечную неудовлетворенность и поиски правды, одиночество и смятение, потерянную любовь и стремление к взаимопониманию.

Все они несколько чужаковы и болезненны, и автор называет их гротесками. Во многих рассказах ошутим контраст между Джорджем Уиллардом и главными героями рассказов, которые стремятся сблизиться с молодым газетным репортером. Д.Уиллард, как и единство места действия (городок Уайнсбург), является звеном, объединяющим рассказы сборника. Герои не случайно тянутся к Джорджу, открывают ему свою душу, рассказывают о своих бедах и огорчениях. Джордж еще не затянута в тину мещанской ж и з н и Уайнсбурга, не испорчен ею. Чувствуя его чистоту и непосредственность, Винг Бидлаум, Кейт Свифт и некоторые другие хотят спасти юношу от косности и пошлости Уайнсбурга и научить его жить. Винг Бидлаум предостерегает его от подражания и стремления «стать как все в этом городе». (см. 12, 20). В рассказе «Мать» Джордж становится причиной конфликта между его отцом, который во имя преуспеяния хочет заглушить юношеские мечты, и матерью, стремящейся развить в сыне те здоровые ростки, которые были уничтожены в ней мещанской респектабельностью. Важное место принадлежит рассказу «Учительница», в котором Кейт Свифт, обожаясь о молодом журналисте, терпеливо и страстно объясняет ему, как нужно правильно понимать жизнь, как правдиво и честно изображать ее.

«Тебе придется познать жизнь - говорит Кейт Свифт. – Если ты хочешь сделаться писателем, ты не должен играть словами. Лучше отбросить свою мысль о

писательстве, пока ты к этому не подготовишься. Я не хочу пугать тебя, но я хочу чтобы ты понял всю важность того, что ты думаешь предпринять. Ты не должен быть простым поставщиком слов. Нужно постигнуть то, что думают люди, а не то что они говорят». (см. 12, 157).

Безусловно, в этих словах проявилось и авторское отношение к задачам литературы. Но значение образа Джорджа Уилларда не ограничивается тем, что он связывает рассказы сборника. Это вполне самостоятельный образ, данный в развитии, в познании и изучении тайн жизни.

Писатель показывает его духовное созревание и физическое мужание окончательное освобождение от душной атмосферы Уайнсбурга («Отъезд»). Причем, это не бегство. Натура глубоко восприимчивая, он переходит от простого любопытства и ограниченного понимания жизни к стремлению активно участвовать в событиях городка, глубоко и широко познать жизнь. Поэтому его роль неодинакова вразличных рассказах. В первых рассказах, в начале сборника, ему отведено незначительное место: он больше слушает, наблюдает и получает советы, но мало действует и часто пассивен («Руки», «Философ», «Мать»). Постепенно Джордж Уиллард начинает более активно интересоваться событиями («Благопристойность»), понимая, что писать можно лишь о том, что сам видел и пережил («Мыслитель»), пробует писать рассказы, засиживаясь в редакции «Орла Уайнсбурга» до поздней ночи («Божья сила»)(см. 12, 173). Юноша стремится «научиться чему-то и умеет постигать жизнь». Автор показывает, что путь познания жизни у молодого журналиста не является простым и прямолинейным. И у него «бывали такие дни, когда он чувствовал себя несчастным» (см.12, 183), «смутные стремления и тайные неизъяснимые желания овладевали и им». (см. 12, 189) Знакомая с простыми труженниками, Джордж приходит к выражению глубокой симпатии и необыкновенной привязанности к ним («Пьяный»).

Творчески усваивая традиции Драйзера, Андерсон уже в сборнике «Уайнсбург, Огайо» выступает новатором в развитии американской психологической новеллы. Здесь впервые ярко проявилось его многогранное искусство рассказа. Во многих рассказах этого сборника доминирующую роль играет авторское повествование, тесно сочетающееся с размышлениями и высказываниями героев («Руки», «Никто не знает», «Божья сила», «Созерцание»); в других - мы встречаем преобладание диалогов и внутренних монологов над авторской речью («Человек идей», «Тенди»); третьи почти целиком представляют собой исповедь героев, и автор только изредка вмешивается в повествование («Философ», «Благопристойность»); в отдельных рассказах повествование ведется от лица автора («Бумажные шарики»). Авторская психологическая характеристика занимает видное место в рассказах. Внешнее действие подчинено раскрытию внутреннего мира персонажей. Обычно рассказ начинается с краткого описания места действия и портрета героя, причем внешний портрет тесно подчинен внутреннему. Внешние черты портрета персонажей даются как бы мимоходом, вскользь, зато большое внимание уделяется основным внутренним особенностям героев рассказов.

Этот прием служит яркой психологической характеристикой образов. В психологическом портрете преобладают черты, показывающие необычность поведения и характера героя, потрясенного каким-либо ударом, кризисом. Благодаря этому Ш. Андерсон сумел воплотить наиболее существенные черты маленького человека в период наступления империализма в США,

показывал неопределенность его положения, сложность исканий и противоречивость чувств.

**Заключение.** Разнообразие судеб маленького человека в рассказах «Уайнсбург, Огайо» породило необычайно богатую тональность сборника, где драматизм нередко сменяется трагедией, ирония может соседствовать с комизмом. Но есть одна особенность художественной манеры писателя, которая является одной из главных причине динства « Уайнсбурга , Огайо».

Это лиризм, вызванный тем, что автора интересует изображаемая действительность. Умело используя разнообразные художественные приемы, Ш.Андерсон создал неповторимые психологические образы, показав их диалектическую зависимость от явлений социальной действительности. Сборник рассказов «Уайнсбург, Огайо» явился яркой страницей в творчестве Ш.Андерсона, правдивым произведением критического реализма в американской литературе.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Андерсон Ш. Избранное. М., 1983.
2. Андерсон Ш. Рассказы – М. – Л., 1959.
3. Anderson Sherwood. Winesburg, Ohio. – N.Y., 1960.
4. Sherwood Anderson's Memoirs: A Critical Edition. Chapel Hill, 1966
5. Anderson Sherwood. Selected short stories. – Moscow, 1981.



*Nadezhda LOKTEVA,*

*Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Science 2nd year Doctoral student (DSc) of the Uzbek State World Languages University, nadejda.lokteva@mail.ru*

*Rewiew PhD Z.Majid*

## THE PRINCIPLE OF DETERMINING THE GENRE OF FAMILY CHRONICLE IN MODERN AMERICAN LITERATURE

Annotation

This scientific research is dedicated to the principles of the "family chronicle" genre in American literature of the 20th century. The article examines criticism of Russian and American literary critics. And the definition of the principles of the genre is clearly given, as well as the work of American writers who created in the genre of the family chronicle of the XX – early XXI centuries. The methodological basis of our study was the historical-biographical and chronological and problematic approaches. The article proves that the family chronicle, as a special type of novel prose, has a number of specific features and its own structure of the genre. And also the works of writers of the 20th century, such as Irwin Show, Ann Tyler and Julia Alvarez, are also considered.

**Key words:** Genre, chronicle, family, principle, generation, family relations, clash of characters, conflicts.

## ZAMONAVIY AMERIKA ADABIYOTIDAGI OILAVIY XRONIKANING JANRINI ANIQLASH PRINTSIPI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy tadqiqotlar XX asrning amerikalik adabiyotidagi "Oilaviy xronika" janrining tamoyillariga bag'ishlangan. Maqola rus va amerikalik adabiy tanqidchilarni tanqid qiladi. Va janr tamoyillarining ta'rifi aniq beriladi, shuningdek, XX asr boshlarida yaratilgan amerikalik yozuvchilarning ishi. Tadqiqotning uslubiy asoslari tarixiy-biografik va xronologik va muammoli yondashuv edi. Maqolada oilaviy nasroniyning maxsus turlari sifatida, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega va uning janrining o'ziga xos tarkibiga ega ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, XX asrning yozuvchilarining asarlari, masalan, Irvin shousi, Anler va Julia Alvarez ham ko'rib chiqilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Janr, hronika, oilaviy, printsipial, avlod, oilaviy munosabatlar, to'siqlar, mojarolarning to'qnashuvi.

## ПРИНЦИП ОПРЕДЕЛЕНИЯ ЖАНРА СЕМЕЙНОЙ ХРОНИКИ В СОВРЕМЕННОЙ АМЕРИКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

Данное научное исследование посвящается принципам жанра «семейной хроники» в Американской литературе XX века. В статье рассмотрена критика русских и американских литературоведов. И четко дается определение принципам жанра, а также рассмотрены работы американских писателей, которые творили в жанре семейной хроники XX – начала XXI вв. Методологическую основу нашего исследования составили историко-биографический и хронологический подходы. В статье доказывается что семейная хроника, как особый тип романной прозы, обладающий рядом специфических особенностей и собственной структурой жанра. А так же рассмотрены работы писателей XX века, таких как Ирвин Шоу, Энн Тайлер и Джулия Альварес.

**Ключевые слова:** Жанр, хроника, семья, принцип, поколения, семейные отношения, столкновение характеров, конфликты.

**Introduction.** Having determined the political events that radically influenced social life, as well as the formation of philosophical, ethical and aesthetic theories of the peoples of not only Europe, but also the whole world, it is possible to generalize the features of the development of national literatures in the last century and establish general patterns of the development of world literature. Such events include the collapse of the socialist system in the late 80s - early 90s and the formation of new independent states in Europe and Central Asia, which continues to this day.

Under the circumstances, the literary genre "family chronicle" becomes the main genre, which indicates either the collapse of the empire, or the decline of the old state through the conflict of generations, through its change, the breakdown of the way of life, the collapse of the old patriarchal family. According to E.V.Nikolsky, "a detailed study of the family theme by writers results in the creation of a special type of novel prose – the "family chronicle", the distinctive feature of which is the movement (change) of generations in the context of epochs" [2]. Such works include the works of modern American writers of the second in the genre of "family

chronicles", which contain a deep analysis of family relations, in which universal values are affirmed.

**Main part.** "In any significant work of modern American (not only American, of course) literature, we will easily find the same conflict between the individual and the world. So that the writers ... seem to only reproduce a typical situation"[1].

This statement of N.A.Anastasiev has not lost its relevance in our days: "... depicting a typical situation with complete realism, writers immediately begin to search for stable, core values that resist the energy of decay. The family becomes such a value. The family is not just like a union of two, three, ten people – centrifugal forces also act inside the cell, this can be seen even in a cursory plot retelling. But the family is like a long series of generations, like a person's home in contrast to the world's roadlessness, world homelessness" [1].

In the works of American writers Irwin Shaw (1913-1984), Ann Tyler (born 1941) and Julia Alvarez (born 1950), the theme of family occupies a special place. They are concerned about the problem of the family, in their works they

explore its many aspects. A striking example of this is the dilogy of I.Shaw "Rich Man, Poor Man" (Rich Man, Poor Man, 1970; rus. trans. 1979) and "Beggar, thief" (Beggarmen, Thief, 1977; rus.trans.1986). It traces the fate of three generations of the Jordakh family, gives a wide panorama of the life of American society in the post-war period.

The works of I.Shaw have been translated into many languages. And the novels "Night Porter" ("Tungi darbon", translator Nizom Komil) and "Rich Man, Poor Man" ("Boy va kambagal", translator A. Fayzulla) have also been translated into Uzbek.

Ann Tyler's novel "Dinner at the Homesick Restaurant" (1982) tells about the difficult situation in the Tull family, about the difficult relationship between spouses, between parents and their children, as well as between brothers and sister. In the dilogy of Julia Alvarez, a writer and poet of Dominican descent, "How the Garcia Girls Lost Their Accents" (How the Garcia Girls Lost Their Accents, 1991) and "!Yo! (!Jo!, 1997) traces the life of the Garcia family and his four daughters - Carla, Yolanda, Sandra and Sofia from 1956 to 1989.

The "family chronicle", taken in the totality of its problems aimed at understanding the relationship between family and man, which has been developing and changing over the past centuries, is a rather complex phenomenon. Here we mean not only the American "family saga", but the "family chronicle" as a whole.

At the turn of the XX-XXI centuries, the contradictions between the individual and society on the one hand, and the hero and other characters of the work on the other hand became so complicated that they no longer fit into the framework of one novel in the traditional sense. And in an effort to resolve these contradictions, the novel, as it were, "modernizes" this form ("subjective narrative"), in the sense that it puts into the expression "the new is the well-forgotten old." This is how the family chronicle appears. "Now the type of panoramic, multi-character narrative, a family chronicle in the style of "Buddenbrokes" or "Forsyte Sagas" is clearly being revived[1].

However, there is a certain difference in terminology in Russian and Anglo-American literary studies. In Anglo-American literary studies. If in American literary studies the "family chronicle" is a separate genre, then in Russian literary studies it is a complex genre formation, in the narrative structure of which elements of different genre traditions and forms of artistic writing are combined.

The "Family Chronicle" differs from other genres of the novel by the originality of the composition, which manifests itself in repetitive, familiar in its ordinariness events of family life: birth, teaching, wedding, parenting, death, funeral" [4]. As a rule, these events carry a symbolic load, revealing in the eternal regularity of what is happening the uniqueness of a particular case, which becomes a kind of outcome of a separate fate, a test of the viability of a given human personality, the significance of its actions.

Sometimes it seems that individual family chronicles do not contain these major events affecting the life of the whole nation and that they reflect only the little things of family life, the biography of some family members. However, we agree with the opinion of N.A. Anastasiev, who says that "... in the new era, the novel enters into a different relationship with reality than in Balzac's times. Without abandoning the function of "secretaries" of society, the realist writers of the West perform this function differently, looking at life through the prism of fate, whether individual or family... in this sense, private conflicts reveal a connection with the real course of events in the country, even if these events are not directly reflected" [1].

E.Nikolsky highlights such features of the "family chronicle" as the observance of the principle of clear chronology, the dominance of the linear principle, which is expressed through the dating of events, the designation of the action of chapters, the correlation of the events of the novel and the events of history, the principles of aging or maturation of characters. However, as N.A.Anastasiev notes, "... no matter how limited or, conversely, chronologically extended the field of action may be (from a few days in Gardner's novel to seventy years in McCullough's), a long strip of history that imperiously intervenes in current affairs always remains outside of it as an implied and active value and conflicts" [2].

In our opinion, the genre of "family chronicle" assumes, first of all, the thematic community of works, therefore, its study requires the identification of problem-thematic semantics. "Family Chronicle" combines numerous narratives about the life of not one single-family member, but the whole family, and not a single generation. The presence of intra-family conflict in kinship relationships becomes a characteristic feature of this genre. Relations between different family members, which, having a number of private features, are built on the principle of movement from organic unity to rupture, are crucial for the entire architectonics of the genre.

Historical, cultural, religious and economic integrity, both the United States and Russia, have always been in question, and all its facets, considered from the point of view of intellectual history, as well as issues related to the ideology of concepts such as the family and individual of any gender. They demanded a holistic and serious modernization, both in the life of society and in the works of writers who lived around the world.

Thus, a number of decisive features of the genre of family chronicle should be attributed, firstly, linear chronicle, and secondly, multidirectional coverage of family problems, which is emphasized by the presence in the plot of real historical events, thirdly, the presence of a description of the life of several born in a row of generations of one Families or genus, and fourthly, creating an author of a certain microclimate around the members of the described family, and, which is a mandatory factor, the presence of problems between the older generation and the younger-fathers and children.

This genre has always had great prospects in the literature[3]. The subject in this direction was the idea of the readers of the life of a certain family, as a rule, numerous, several generations of the descendants of which passed in their being before the eyes of readers. At the same time, the main task of the writer was to observe the logical development of the plot, built in strict accordance with the presentation of the events of the historical era.

In Western literature, the family chronicle underwent specific changes throughout the 19th century and, finally, it took the form of a realistic novel, in which writers contrasted the characters of heroes and their fate, which underwent modernization under the influence of various situations and the influence of individuals.

The purpose of the authors was to reflect the similarities and differences in the continuity of individual families, the plot was reflected in the historical events of the presented era, and the tests only randomized family members passing through tests and hardships that took place in their lives in connection with historical events unfolding in the country[3].

The continuity of generations, in this perspective, should be given special attention, because, thanks to her, the family saga received the right to exist and occupied its own niche in world fiction. Based on the continuity of generations, the authors could develop such moments as the interpretation of acts committed by heroes based on the genetic

interconnection of fathers and children, external signs of characters and their internal features.

The continuity of generations serves as a bridge from what is happening to the expected through the predicted one, it is a kind of bridge that allows the reader to travel in time, both, being next to the heroes and a few decades after their death, continuing to comprehend the storyline, but with other characters. , recalling and comparing those moments that were displayed by the author in the initial chapters and comparing them with what was happening in the novel at the moment.

Each family saga is based on the principle of historical thematism, a description of family life and customs that existed in the 19th century. The creators of the family saga were interested, first of all, the issue of the history of the family itself, which develops against the background of the history of the country or several countries.

In the background, it was possible to note their interest in the formation of personalities of representatives of the young generation, starting from childhood, and ending with growing up when they are ready to make decisions on their own.

Possessing all the above qualities, any girl could claim a successful marriage, the acquisition of children and the further structure of her life. Marriage is considered the highest achievement in the life of young women, but married girls should follow a strict system of moral conventions.

Even harmful public expressions of sympathy between a man and a woman were categorically prohibited. The girl

was not allowed to be alone with a man, courtship should have been open and secular, conduct ritual conversations, use symbolic gestures and signs, can I use expressions? And I have to think ... instead of direct confessions in love.

**Conclusion.** Thus, one of the tasks in studying the features of the family novel includes consideration and analysis and subsequent highlighting the individual manner of each writer, to present their problems and poetics.

All this was reflected in the work of writers who reflected the cruel reality of being. Thanks to them, today we have the opportunity to know the truth about what took place more than a century ago, reading the literary works they created.

The "Family Chronicle" is extremely characteristic of American literature at the turn of the XX-XXI centuries. As L.Simonova notes, the appeal to this genre in this period "speaks of the awareness by modern authors of the need to search for the foundations of identity in a situation – a change in the temporal and ideological paradigm at the onset of the new millennium." [5]

The dialogues "Rich Man, Poor Man" and "Beggar, Thief" by Irwin Shaw, "How the Garcia Girls Lost their accent" and "!Yo!" by Julia Alvarez, as well as Ann Tyler's family chronicles "Earthly Blessings" and "Lunch at the Homesick Restaurant" are the best examples of modern "family chronicles".

#### LITERATURE

1. Anastasev N. Obnovlenie traditsii. – Moscow: Sovetskiy pisatel, 1984. C.336,336,337,334,338.
2. Nikolskiy E. Janr semeynogo romana-hroniki v russkoy literature rubeja vekov. – Moscow, 2002. S. 3, 39
3. Nikolskiy E. V. Janr romana semeynoy hroniki v russkoy literature rubeja tyisyacheletiy. // Vestnik Adyigeyskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 2: Filologiya i iskusstvovedenie. № 4, - 2011, s. 37-45
4. Cae X. Semeyniy roman //Aktualnyie problemyi sovremennogo literaturnogo protsesssa. Referativniy sbor–nik. - Moscow, 1985. S.21-23.
5. Simonova L. Trilogiya E.Bazena Semya Rezo‘ v kontekste frantsuzskogo semeynogo romana. Diss. na soiskanie uchenoy stepeni kand. fil. nauk. – M., 2005. S. 9.



*Nigina MAVLYANOVA,*  
*BuxDU mustaqil tadqiqotchisi,*  
*Buxoro shahar 1-umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

*Buxoro Davlat Universiteti dotsenti, f.f.d. (PhD) M. Akhmedova taqrizi asosida*

### SARA KEYN VA FILIPP RIDLI DRAMALARIDA GO'DAK-BOLA OBRAZI TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asrning 2-yarmi davomida ingliz tilida ijod qilingan S.Keyn va F.Ridli kabi dramaturglar go'dak-bola obrazining holat tasviri tahlil qilingan. Ingliz dramaturglari S.Keyn va F.Ridli shafqatsizlikni tom ma'noda qo'pol kuchning namoyon bo'lishi, zo'ravonlik va qon to'kish deb tushunadilar. Ingliz dramaturglarining "shafqatsiz" pyesalarida bola "passiv qurbon" tipini gavdalantiradi. Qahramon bolaning iztiroblari va o'limi prizmasi orqali XXI asr boshlari, 20-yillarning 2-yarmidagi Britaniya jamiyatining siyosiy va ijtimoiy muammolari, bolalarga nisbatan zo'ravonlik sahnalarining tabiiy tasviri yangi ingliz dramasi asosiy mavzulari hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Go'dak tasviri, bolalar obrazi, hissiyot, dramaturgiya, hikoya, salbiy va ijobiy obrazlar.

### INTERPRETATION OF THE IMAGE OF A CHILD IN THE DRAMAS OF SARAH KANE AND PHILIP REEDLY

Annotation

This article analyzes the image of a child by playwrights such as S. Kane and F. Ridley, created in English during the second half of the 20th century. English playwrights S. Kane and F. Ridley understand brutality literally as a manifestation of brute force, violence and bloodshed. In the "brutal" plays of English playwrights, the child embodies the "passive victim" type. Through the prism of the suffering and death of the hero child, the political and social problems of the British society of the beginning of the 21st century, the second half of the 20th century, and the natural depiction of scenes of violence against children are the main themes of the new English drama.

**Key words:** Image of baby, image of children, emotion, dramaturgy, story, negative and positive images.

### ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА РЕБЕНКА В ДРАМАХ САРА КЕЙН И ФИЛИПА РИДЛИ

Аннотация

В данной статье анализируется изображение образа ребенка такими драматургами, как С. Кейн и Ф. Ридли, созданное на английском языке во второй половине XX века. Английские драматурги С. Кейн и Ф. Ридли понимают жестокость буквально как проявление грубой силы, насилия и кровопролития. В «брутальных» пьесах английских драматургов ребенок воплощает тип «пассивной жертвы». Через призму страданий и смерти ребенка-героя раскрываются политические и социальные проблемы британского общества начала XXI века, второй половины XX века, естественное изображение сцен насилия над детьми. Основные темы новой английской драмы.

**Ключевые слова:** Образ младенца, образ детей, эмоция, драматургия, рассказ, негативные и позитивные образы.

**Kirish.** XX asrning oxirgi uchdan bir qismi va XXI asr boshlari bir qator teatr va dramatik tajribalar, ko'plab estetik tushunchalarning paydo bo'lishi va yangi tendentsiyalarning shakllanishi bilan ajralib turadigan davr. Teatr va dramaturgiyadagi yangi tendentsiyalarni tavsiflash uchun tegishli kontseptual apparat zarur edi, drama va teatrdagi bo'lgan o'zgarishlarni aks ettiruvchi "postdramatik teatr" termini paydo bo'ldi. Ushbu estetik hodisani ta'riflovchi bir qancha qarashlar mavjud.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** "Postdramatik teatr" atamasi ilmiy muomalaga nemis tadqiqotchisi X.T.Leman tomonidan kiritilgan. 1999 - yilda xuddi shu nomdagi "Postdramatik teatr" asarida ushbu kontseptsiya 20-asr oxiri va XXI asr boshlaridagi teatr va dramatik o'zgarishlarning butun spektrini o'z ichiga oladi. "Postdramatik teatr" kitobida olim teatr va dramaning yangi modelining paydo bo'lishi teatr belgilaridan foydalanish va til uslubidagi o'zgarishlar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. X.T.Leman dramaga xos bo'lgan bir qator xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi va estetikaning har bir tarkibiy elementini batafsil tavsiflaydi: iyerarxiyaning yo'qligi, musiqiylashtirish, vizual dramaturgiya, korporativlik, voqea/vaziyat. Lemanning ta'kidlashicha, spektakl va dramada mutlaqo barcha elementlarning mavjudligi ularni postdramatik deb tasniflash

uchun yetarli emas, ammo bu parametrlar tendentsiyani belgilaydi [1].

Postdramatik tajribalar, asarning muallifi aniqligi va haqiqiyliги muammolari shubha ostiga olinadi; postdramatik teatr keskin ijtimoiy muammolar haqida gapiradi, ko'pincha ilmiy tezislar va nazariyalar postdramada o'z aksini topadi.

**Tadqiqot metodologiyasi va natijalar.** "Crave" pyesasi (1998) ingliz dramaturgi Sara Keynning (1971-1999) so'nggi asarlaridan bo'lib, u avvalgi pyesalaridan, birinchi navbatda, shakli jihatidan tubdan farq qiladi. Asarning asosiy motivlari tasvirlangan "Starved" monologidagi qahramonning anoreksiya, dahshat, yolg'izlik, sevgi va o'limga tashnalik tajribasi S. Keynning keyingi "Chanqoqlik" asarida o'zini namoyon qildi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, "Chanqoqlik" o'zining shakliga ko'ra S.Keynning oldingi pyesalaridan tubdan farq qiladi: asarda hikoya chizig'i, tasviriy vositalar, sahna yo'nalishlari yo'q, aniq belgilangan personajlar o'rniga faqat lotin harflari bilan ko'rsatilgan ovozlari (A,B,C... M kabi) mavjud. S. Keynning "ovozli" spektaklida tasviriy reja tuzilmagan va rejissyor uchun uni sahnada jonlantirish juda qiyin: syujetni tashkil etuvchi voqealar silsilasi ham, personajlarning plastik jihatdan tushunarli obrazlari ham mavjud emas.

"C. You're dead to me.

B. My will reads, Fuck this up and I'll haunt you for the rest of you fucking life.

C. He's following me.

A. What do you want?

B. To die" [2].

Ovozli tovushlarning u yoki bu personajga tegishligiga kelsak, S.Keynning o'zi so'nggi intervyularidan birida shunday degan edi: "A doim keksa odam, M keksa ayol, B yosh yigit va C yosh ayol .... M oddiygina ona, B o'g'il bola va C yosh bola edi. Ular abadiy o'zgaras bo'lib qoladi va o'zgartirilmaydi" [2].

Bola (C) go'yoki qahramonlar orasida bo'lishiga qaramay, uning umumiy ovozlari xoridagi so'zlari bolalarcha mazmun yoki intonatsiya bilan ajralib turmaydi, ammo C belgisi jinsi taxmin qilingan yagona belgidir: o'quvchi oldida ayol qahramon (o'smir qiz) paydo bo'ladi, uning hikoyasi, M. Petersga ko'ra, "ayol hikoyasi, chiziqli bo'lmagan va uzoq hikoya" [3]. Dramatik materialni taqdim etishning erkin tartibi postdramaning eng xarakterli xususiyati hisoblanadi, bolaning ovozi esa bo'shliqqa o'xshaydi va kattalar ovozi bilan parallel ravishda eshitiladi. Shuningdek, noma'lum bo'lgan belgilar tadqiqotchi M.Peters tomonidan quyidagicha talqin qilinadi: "P'yesadagi to'rtta alohida ovoz psixologik azob-uqubatlarni baham ko'rishning iloji yo'qligini anglatadi, chunki hech kim bir-birini tinglashga tayyor emas". M.Peters nima uchun C ning qahramon qiz bola ekanligi haqida bahs yuritir ekan, aynan ayollar va qizlar erkaklarnikiga qaraganda turli ruhiy kasalliklarni boshdan kechirishlari qiyinroq bo'lishini, zo'rvonlik va ruhiy jarohatlarga ko'proq duchor bo'lishlarini ta'kidlaydi: "C – jinsi oshkor bo'lgan yagona personaj, u ayol ekanligi aniq: bu muhim kuzatish, chunki ayollar, ayniqsa, yaqin sheriklari qo'lida zo'rvonlikka duchor bo'lish ehtimoli ko'proq. Ayollarga depressiya, anoreksiya va boshqa isteriya turlari tashisi qo'yilishi ehtimoli ko'proq" [4].

C. When I wake I think my period must have started or rather never stopped because it only finished three days ago [5].

Asardagi ovozlardan birining muallif ovoziga yaqinligi haqidagi bu fikrni tadqiqotchi L.A.Bakler ham bildiradi va u drama ustidagi og'ir mehnat davrida dramaturgning ruhiy kasalligi qaytalanishini eslaydi: "Keynning adabiy asariga ko'ra agent Mel Kenyon, Keyn "Chanqagan"ni yozganidan so'ng qattiq depressiyadan aziyat chekdi va depressiyaga moyil bo'lishiga qaramay, dori-darmonlarni qabul qilishni istamadi..." [6].

Muallifning so'zlari bola tilidan aytilgan degan tahminlar mavjud bo'lib, qahramon C depressiya, anoreksiya, o'lim va yolg'izlikdan qo'rquv haqida mulohazalar yuritadi:

"C. The heart is going out of me"...

"C. Someone has died who is not dead"....;

"C. I feel nothing, nothing. I feel nothing"[8].

U. Shekspirning "Hamlet" asaridan olingan iqtiboslar C qahramonning ruhiy dard haqidagi mulohazalariga misol bo'la oladi:

"A. What do you want? C. To die. B. To sleep.

M. No more" (P.158).

Dramaning ritmik qurilishi personajlar nutqining parchalanish xususiyatiga asoslanadi, bu esa uzluksizlik, diskretlik, chiziqli bo'lmagan bayon tuyg'usini yuzaga keltiradi, bundan tashqari, dramaturg til va nutqdan nihoyatda tejankor va vazminlik bilan foydalanadi.

Zamonaviy ingliz dramaturglari orasida Filipp Ridli (1964) biroz ajralib turadi: Ridli nafaqat bolalar uchun, balki bolalar haqida ham yozadi, uning asarlari qahramonlari yosh kitobxonlar bilan tengdir. Biroq, dramaturg "himoya" pozitsiyasini egallashga va didaktik yo'nalishdagi asarlar yaratishga intilmaydi, "Ridli ko'pincha bolalar uchun

essellarida shafqatsizlik, voqelikni qisqacha namoyish qilishi uchun tanqid qilinadi, lekin muallif o'smir qahramonlarning haqiqiy dunyoni qanday nazar bilan ko'rishni xohlashlari, dunyo haqidagi tushunchalarini kengaytiradigan hissiy va axloqiy muammolarni yorqin tarzda yoritadi. Ridlining bolalar dramalari hozirgi ijtimoiy-siyosiy kontekstda yozilgan, masalan, "Brokenville" (2000) dramasi dastlabki versiyasi 1998 - yilda "Apocalyptica" nomi bilan nashr etilgan va jamoatchilik tomonidan yaxshi qabul qilingan.

"Brokenville" spektaklining qahramonlari o'smirlar bo'lib, ularning ism-laqablari, bir tomondan, tashqi ko'rinishning xarakterli belgisini bildirsa, ikkinchi tomondan, ertak qahramonlari bilan bog'liqlikni ko'rsatadi: Sequin, Tattoo, Briefcase, Tuft, Scratch. Qahramonlar orasida kampir ham, bola ham bor - o'n yoshli bola, barcha qahramonlar orasida eng yosh qahramon. Bolalarga g'ayrioddiy taxalluslarni o'ylab topishlari kerak edi, chunki qahramonlar o'zlarining haqiqiy ismlarini eslamaydilar, ular o'z ismlarini, tanish narsa va hodisalarning nomlarini va umuman o'zlarining butun o'tmishlarini eslamasliklari sabablarini bilishmaydi. Qahramonlar Child musiqi qutisidan kuyni eshitib, vayrona uyga yetib kelishadi. Dramada harakat kampir qo'rqib ketgan bolaga tasalli berishga urinayotgan paytdan boshlanadi va u o'smirlarga olov yoqishni buyuradi, ularga hikoya o'qishga harakat qiladi. Ammo harobalar orasidan topilgan ertaklar kitobi yirtilgan bo'lib chiqadi va ertakni yangidan tuzishga to'g'ri keladi. Kampir va uning hikoyasi Sequin, Tattoo, Briefcase, Tuft, Scratch va boshqalar bilan o'ldiriladi:

"Old Woman opens book and reads.

"There was once a land called ..." – Oh ... the pages are burnt.

Child begins whimpering again.

Old Woman. Don't worry. I'll think of something. Slight pause.

There was once a land where everything ... everything was in ruins. No one knew what had caused everything to be broken. But broken it was. And this land was called ...

Satchel. Brokenville?

Old Woman. Very good"[7].

Shunday qilib, dramaturg dramatik matnning ikki qatlamini (tashqi va ichki, spektakl qahramonlari tomonidan yaratilgan) quradi:

"A fluidity and exhilarating speed to the storytelling now. Movement, use of found objects – everything used to maximum effect. The evolution from static narration to full-blown theatre is complete".

Ridlining "Brokenville" dramasi post-dramatik "nutq teatri", "ovozlar teatri"ga misol bo'lib, bu yerda so'z, hikoya, nutq jarayoni teatrlashtiriladi va dramatik harakat deyarli butunlay so'zlashuv bilan almashiriladi.

**Xulosa va takliflar.** Adabiy tanqidchilar tomonidan S.Keynning avtobiografiyasi o'rganilib, bu nazariyaga ko'ra bola qahramonning ovozini yozuvchining ovoziga o'xshash deb baholadilar: "Crave" dramasi qahramon C kabi, Keyn "boshqalarning azob-uqubatlarni o'g'irlaydigan hissiy plagiat", ya'ni u haqiqiy voqealarni o'rganadi va ularni o'z asariga o'tkazadi, keyinchalik bu tarjima qilingan hikoyalarni o'z tomoshabinlariga taqdim etadi va shu bilan ular ikkinchi hayotga ega bo'lishadi" [9]. F.Ridli "Brokenville" dramasi ertak motivlarini postdramatik uslublar bilan uyg'unlashtiradi. Dramatik matnning kollaj va parchalanishi, muallifning improvizatsiyaga ochiqligi kabi postdramatik teatr xususiyatlari postdramaturgiyaning bir qismi bo'lgan turli xil ertak suyetlarini (harakatchanlik, moslashuvchanlik va dinamizm) modellashtirishga yordam beradi. F.Ridlining "Brokenville" pyesasidagi kichik personajlar "bola-simulyakr" turini ko'rsatadi, chunki ular ham Ridli pyesasi qahramonlari, ham o'zlari yaratgan matn qahramonlaridir.

## ADABIYOTLAR

1. Bahodirovna A. M. The concept of alternative in english and uzbek proverbs. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 169.
2. Bakhodirovna A. M. (2015). Effectiveness of teaching vocabulary through short stories. World science, (1 (1)), 55-57.
3. Buchler L. A. In-Yer-Face: The Shocking Sarah Kane. Dissertation submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Master of Arts in Drama and Performance studies in the School of Literature Studies, Media and Creative Arts. University of KwaZulu-Natal, Pietermaritzburg, 2008. – P.47.
4. Kane S. Crave // S. Kane. Complete plays. London: Bloomsbury Methuen Drama, 2001. – P.155.
5. Kane S. Crave // S. Kane. Complete plays. London: Bloomsbury Methuen Drama, 2001. – P.156.
6. Kane S. Crave // S. Kane. Complete plays. London: Bloomsbury Methuen Drama, 2001. – P.156,157,158.
7. Nigora S., & Bahodirovna, A. M. (2023). Stylistic Use of Various Types of Lexical Meanings. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(1), 61-66.
8. Peters M. Utterly Unknowable: Challenges to Overcoming Madness in Sarah Kane's Blasted, Crave, and 4.48 Psychosis. Thesis submitted to the Faculty of Graduate and Postdoctoral Studies in partial fulfillment of the requirements for the M.A. degree in English with a specialization in Women's Studies. Department of English Faculty of Arts University of Ottawa. Ottawa, 2016. – P.50.
9. Peters M. Utterly Unknowable: Challenges to Overcoming Madness in Sarah Kane's Blasted, Crave, and 4.48 Psychosis. Thesis submitted to the Faculty of Graduate and Postdoctoral Studies in partial fulfillment of the requirements for the M.A. degree in English with a specialization in Women's Studies. Department of English Faculty of Arts University of Ottawa. Ottawa, 2016. – P.48.
10. Rebellato D. Sarah Kane Interview. 1998. 3 November. URL: <http://www.danrebellato.co.uk/sarah-kane-interview/> P. 15-16
11. Ridley P. Brokenville // P. Ridley. The Storyteller Sequence: Karamazoo; Fairytaleheart; Sparkleshark; Moonfleece; Brokenville (Play Anthologies). London: Bloomsbury Methuen Drama, 2015.
12. Леман Х.Т. Постдраматический театр. М.: ABC design, 2013. – P.29.



UDK:894.375:8-7(021)

*Gulruxbegim RAVSHANOVA,*  
*QarDU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*  
*E-mail: ravshanovagulruxbegim1987@gmail.com*

*PhD Z.Pardayev taqrizi asosida*

### HARMONY OF FORM AND CONTENT IN SATIRE

Annotation

The choice of the content that matches the form in the poetic work, the form that matches the content, requires important aspects of the artist's poetic skills. Especially the semiotic modes of comic poetic genres open the way to approach the issue from the same point of view. The form determines the idea, the content, the concept of the creator, his goals, and most importantly, his attitude to the things and events in existence. For example, in a comic poem, negative and positive characteristics determine the attitude of the poet to the world and people. In particular, it shows the artist's manner of "rediscovering" the mood of the time in a sharp philosophical-intellectual way. Such uniqueness also underpins the closeness of human relations. After all, times have changed, comic modes of the 60s have become more unique in the 80s. This process plays a major role in the development of the artist's artistic concept.

**Key words:** Form, content, humor, criticism, satire, humor, poetic construction, pathos, theme, idea, criterion, motive of laughter and crying.

### ГАРМОНИЯ ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЯ В САТИРЕ

Аннотация

Выбор содержания, соответствующего форме в поэтическом произведении, формы, соответствующей содержанию, требует важных аспектов поэтического мастерства художника. В особенности семиотические модусы комических поэтических жанров открывают путь для подхода к проблеме с той же точки зрения. Форма определяет идею, содержание, замысел творца, его цели, а главное, его отношение к вещам и событиям сущего. Например, в комической поэме отрицательные и положительные характеристики определяют отношение поэта к миру и людям. В частности, в ней проявляется манера художника «переоткрывать» настроения времени в остро-философско-интеллектуальном ключе. Такая уникальность также лежит в основе близости человеческих отношений. Ведь времена изменились, юмористические моды 60-х стали более уникальными в 80-х. Этот процесс играет большую роль в развитии художественного замысла художника.

**Ключевые слова:** Форма, содержание, юмор, критика, сатира, юмор, поэтическая конструкция, пафос, тема, идея, критерий, мотив смеха и плача.

### HAJVIYOTDA SHAKL VA MAZMUN UYG'UNLIGI

Annotatsiya

She'riy asardagi shaklga mos mazmunni, mazmunga mos shaklni tanlash, ijodkor poetik mahoratining muhim qirralarini taqozo etadi. Ayniqsa, hajviy she'riy janrlar semiotik moduslari masalaga ayni shu jihatdan yondashishga yo'l ochadi. Shakl – g'oyani, mazmunni, ijodkor konsepsiyasini, uning maqsadlarini, eng muhimi borliqdagi narsa-hodisalarga munosabatini belgilab beradi. Deylik hajviy she'rda – salbiy va ijobiy xususiyat shoirning olam va odamga munosabatini belgilaydi. Ayniqsa, ijodkorning davrning kayfiyatini o'tkir falsafiy-intelektual tarzda "qayta kashf" etish manerasini dalolatlaydi. Bunday o'ziga xoslik insoniy munosabatlarga tig'izligini ham asoslaydi. Negaki, davr o'zgardi, 60-yillardagi hajviy moduslar 80-yillarda yanada o'ziga xoslik kasb etdi. Mana shu jarayon ijodkor badiiy konsepsiyasini yanada yuzaga chiqishida katta rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** Shakl, mazmun, yumor, tanqid, satira, hajvnavislik, poetologik konstruksiya, pafos, mavzu, g'oya, mezon, kulgi va yig'i motivi.

**Kirish.** Ma'lumki, badiiy shakl o'zgaruvchan (plastik) fragmentlardan tarkib topadi. She'riy asardagi shaklga mos mazmunni, mazmunga mos shaklni tanlash, ijodkor poetik mahoratining muhim qirralarini taqozo etadi. Ayniqsa, hajviy she'riy janrlar semiotik moduslari masalaga ayni shu jihatdan yondashishga yo'l ochadi. Shakl – g'oyani, mazmunni, ijodkor konsepsiyasini, uning maqsadlarini, eng muhimi borliqdagi narsa-hodisalarga munosabatini belgilab beradi. Shakl – olam va odam nisbati, ijodkorning tasavvur kengliklarini, maqsadga va natijaga olib boruvchi oniy, ruhiy kechinmalarni yuzaga chiqishida zamin hozirlaydi. Prof. U.To'ychev bu haqda: "Genial asar yozish badiiy shaklning ichki imkoniyatlarini to'la ishga solish orqali amalga oshadi. Shakl inson xarakterini yaratishda, asar kompozitsiyasi va tilida namoyon bo'ladi. U go'zalligi bilan muhim xususiyatlari mukammallik, meyor, hajm, moslik, muvofiqlik,

ob'ektivlikdir; rohat, zavq berish, ko'ngilni ochish xususiyatlariga ega, ustalik idealga suyanadi, estetik sezgi faolligi bilan bog'liq, xunuklikka ziddir. Shakllangan obraz – tugal, bir butun, tipik, individual, emotsionaldir. Badiiy asar shakl orqali yashay oladi, obraz shakl orqali jonli ko'rinadi; mazmunning yashash tarzi shakldir" [1]. Haqiqatdan ham, she'riy asar shakli uning yuzaga chiqishida obrazli tafakkur muhim rol o'ynaydi. Obrazlilikning eng birlamchi jihati: shaklda namoyon bo'lsa, mazmun uning yashovchanligini, davr manzaralarini, shoir poetik olamining turfaqligini taqozolaydi. Arastu ham bu haqda shunday fikrlarni ilgari suradi: "San'atkorlar muayyan shaxslarni tasvirlaydilar, ular esa yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin. (Negaki, shaxslarning qandayligi shu bilan belgilanadi, zero, hamma odamlar xarakterlaridagi illatlari yoki fazilatlarini jihatidan farqlanadilar). Ular bizdan yaxshiroq yoki bizdan yomonroq,

yoki hatto bizdek bo'ladilar. (Xuddi rassomlardagidek. Polignot, masalan, eng yaxshi odamlarni, Pavson – yomonlarni, Dionisiy esa bizga o'xshash kishilarni tasvirlaydi). Chamasi, yuqorida aytilgan tasviriy usullarning har biri ham ana shunday tafovutlarga ega bo'ladi. Demak, xilma-xil predmetlarning tasviri ham har xil bo'ladi. Chunki shunga o'xshash farqlanuvchi xususiyatlar raqsdan ham, atletikada, surnay chalishda, nasr va oddiy she'rda ham bo'lishi mumkin"[2]. Arastuning mazkur nazariy qarashlari hozirgi kunda ham badiiylik moduslarini aniqlashda, shakl va mazmun birligini yaxlit organzim sifatida o'rganishda juda qo'l keladi. Shaklning mazmunga o'tib turish tamoyillari, mazmunning shoir olamidagi hamda tasavvur tug'yonlarini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etuvchi komponentlarini idroklashda qo'l keladi. Deylik hajviy she'rda – salbiy va ijobiy xususiyat shoirning olam va odamga munosabatini belgilaydi. Ayniqsa, ijodkorning davrning kayfiyatini o'tkir falsafiy-intelektual tarzda "qayta kashf" etish manerasini dalolatlaydi. Bunday o'ziga xoslik insoniy munosabatlar tig'izligini ham asoslaydi. Negaki, davr o'zgardi, 60-yillardagi hajviy moduslar 80-yillarda yanada o'ziga xoslik kasb etdi. Mana shu jarayon ijodkor badiiy konsepsiyasini yanada yuzaga chiqishida katta rol o'ynaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Shuni qayd etish lozimki, har qanday imoratning yuksakligini ta'minlovchi shakli va jozibasini belgilovchi mazmuni – arxitekturasi bo'ladi. She'r ham shoir arxitekturasi noyob mahsuli. Buni har bir davr o'z "qarichi" bilan belgilab olishga loyiq. "Adabiyotshunos lingvistikdan kam bo'lmagan holda o'ziga xos va o'ziga mos tarzda so'zni, nutqni, etimologik va sintaksis shakllarni, tinish belgilarini, pazani, umuman olganda, obraz va g'oyalarni yaratuvchi, shoir, yozuvchi, dramaturg va, nihoyat, adabiyotshunosning uslubini ham belgilovchi barcha qismlarni tadqiq etadi" [3], - deya yozadi A.V.Chicherin. Darhaqiqat, badiiy matnda tinish belgilari she'rning musiqiylikni, ohangraboligini, tovushlar tizimini, ritmini, bir so'z bilan aytganda – pafosni ta'minlaydi. Pafos – she'rning musiqiy ozuqasi. Pafos – ehtirosli kuy va ohang. Unda butun bashariyat ruhi mujassam bo'ladi. Shuningdek, she'rning musiqiylikni ayni shu o'tkir falsafiy haqiqat yuzaga chiqarishi bilan bir qatorda, syujet va kompozitsiyaga nimaiki dahldor bo'lsa, barchasini bir nuqtada jamlaydigan fragmentlar tartiblashtiradi:

O'qi qorning ochgani sayin,  
Bilib ol she'r o'qish shartini.

Chunki,  
Qorning to'ygandan keyin  
Tushunmaysan shoir dardini...[4]

Shoir Anvar Obidjon she'riyatining aksariyat qismida zamon va makonning o'ziga xos surati emas, ko'proq inson ruhiyati, ahvoloti xususida so'z boradi. Masalan, shoir o'zining botinida – kitob o'qishga bo'lgan ehtiyojni oddiy so'zlar yordamida ranginlashtirar ekan, o'quvchiga kinoya orqali yetkazishga intiladi. Kitob mutolaasini ta'kidlar ekan, och va to'q qorinning g'ami ham turlicha bo'lishiga ishonitiradi. Kinoya – ob'ektiv jihatdan ana shu masalalarni yaxlitligini ta'minlashga qaratiladi. She'rdagi tinish belgilari nuqta, ko'p nuqtalarga katta umuminsoniy masalalarni singdirib yuboradi. "She'rdagi tinish belgilari she'rning g'oyasi va mazmunini ochishda, ta'sirchanligini, emotsionalligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Grammatik va mazmuniy vazifa qo'shilib esa uchinchi vazifa – tovushdagi badiiy-estetik ohangni ta'minlaydi. Tovushning musiqiylikni, mazmunning hajmi, tuyg'uning dinamikasi aynan punktuatsiya orqali yanada yaqqolroq yuzaga chiqadi. Buni Anvar Obidjonning ko'p nuqtaga ko'proq murojaat qilishida ham ko'rish mumkin. Odatda, ko'p nuqta ifodadagi fikrning tugamaganligini, davom etishi mumkinligini, so'zga sig'magan fikrni anglatishini ko'rsatish lozim. Bundan

tashqari, lirik qahramonning kechinmalarini so'zsiz ifodalash, unga o'quvchi dunyoqarashidan kelib chiqib ham baho berish yoki she'r mazmuni haqida o'quvchini o'ylashga majbur qiluvchi vosita sifatida ham olish mumkin. Chunki so'zsiz ifoda vositasi deganda muayyan shartlilikni unutmashlik kerak"[5]. Haqiqatdan ham, she'riy satrlarning o'ziga xosligi – punktuatsiya bilan bog'liq tarzda yanada salmoqli yuzaga chiqar ekan, buni hech ikkilanishsiz e'tirof etish lozimki, ritmik qator va intonatsion, mazmuniy ixchamlik bilan yanada tipiklashadi.

Yuqorida shoir "g'am yo'q odamga kitob o'qi desang ham o'qimaydi, g'am bor odam esa o'z-o'zidan o'quvchidir" degan falsafiy-estetik kinoyani tartiblashtiradi. Demak, yaxshi o'quvchi bilan yomon o'quvchining farqini ajratib olishda shoir ixcham ifoda segmentlaridan unumli foydalana oladi.

Tinish belgilarining she'r kompozitsiyasida tutgan o'rni haqida so'z borganda, A.Obidjonning bir misradan iborat she'rlarini misol qilish mumkin. Masalan:

Yerni so'kdi... osmonga chiqqach [6].

She'rdagi ritm - ikkiga ajralib, bir inson xarakterining ikki qirrasini, qiyofasini, fazilatu qusurlarini ko'rsatib bermoqda. She'rdagi ko'p nuqtani ko'ramiz: inson biron bir mansab pillapoyasiga ko'tarilgach, oddiylikni, odamiylikni unutib, o'zining qo'li ostida ishlayotganlarga, atrofida qilargalarga past nazar bilan qaray boshlashin tabiiy. Bu har bir insonda bor. Shuning uchun shoir – kamtarlikni ham, manmanlikni ham o'tkir kinoyaga olib, kuchli hissiy-falsafiy metaforani yaratmoqda. Yer va osmon ikki dunyo! Unda katta umumlashma yasay olish shakl va mazmun uyg'unligini dalolatlaydi. Tinish belgilari – ko'p nuqta mavjud o'rinda (kechinma) shoir qalbidagi tushuncha va tasavvurlarni dramatik tarzda tus olishini ta'minlashga qaratilgan. Ko'p nuqtaning yana bir muhim tomoni to'xtam (...dan keyin yakuniy xulosaga o'rin ajartishida yaqqol namoyon bo'ladi. Osmonga chiqqandan keyin lirik qahramon yerni so'kyapti. Bu esa she'rdagi ruhiy-falsafiy immunitetni taqozo etmoqda.

Rus munaqqidi V.G.Belinskiy yozishicha: "Tirik inson o'z ruhida, yuragida, qonida jamiyat hayotini tashiydi, beixtiyor uning illatidan dard chekadi, uning iztiroblaridan azob tortadi, uning salomatligidan yashab yashnab ketadi, saodatidan baxtiyor bo'ladi, xolos. Lekin bunda inson hayotining hammasi bo'lmas-da, muayyan daqiqalari, shubhasiz, talab qilinadi. Ammo grajdanin insonni, inson grajdaninni inkor etmasligi kerak. U holda ham, bu holda ham – bir yoqalamalik bo'ladi. Har qanday bir yoqalamalik esa cheklanganlik bilan egizakdir. Vatanga muhabbat, xuddi yakka va umumga o'xshash, insonning insoniyatga muhabbatidan kelib chiqmog'i lozim" [7]. Ko'rinadiki, V.Belinskiy nazarda tutayotgan narsa hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Deylik, insonning buyuk muhabbati bo'lsagina umrboqiy asarlar yaratishga qodir. Hajviy asar davrning tragik manzaralarini komik tarzda ifodalalar ekan, undan fazilat axtarish zarur. Hech bir san'at asari hajviy asar kabi muammoning tub mohiyatini baralla ochiqlab ifodalab berolmaydi. Shuni qayd etish lozimki, poeziyaning hayot ifodasi ekanligini hech bir zamon unutgan emas. Shoir Anvar Obidjonning har qanday hajviy she'rining tagida yengil hazil va mutoyiba bilan, kinoya uyg'un paradoksn yuzaga keltiradi. Unda davr ham, zamon ham, vaqt ham birga harakatlanadi:

Toping menga bir xotin,  
Surishtirmang tag-zotin,  
She'rni sevsa bo'lgani.

She'rdagi uchlikning tag-zamirida ayni shu yuqoridagi jihat qabarib ko'rinadi. Insonning muhabbati, uning e'tiqodi va iymonini belgilaydi. Dunyoning o'tkinchi havaslariga oshiq ham, unga nafs yo'li ham bir xildir. Shuni inobatga olib shoir kinoya qilyapti. She'rni sevgan insonning qalbidan Vatanga bo'lgan ham, ota-onaga, yor-u do'stga bo'lgan muhabbat ham

hech qachon so'nmasligini anglatmoqda. Mana shu tamoyilga e'tibor berilsa, A.Obidjon izlanishlarida shaklning mazmunga hamohang qirralaridagi o'tkir falsafiy-psixologik ruhning kuchini sezamiz. Shoir o'zini tushunishni va o'zgalari uni iste'dodini qadrlashni istaydi. Lirik qahramoni ko'ngli to'lmaganligidan azobini "kulgi" orqasida namoyon qiladi. Unga xotinning qanaqaligi muhim emas, muhimi - she'rni sevsa bo'ldi qabilida ish ko'radi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Ironiya va sarkazm ideal voqelikning nomutanosibligini anglashdan paydo bo'ladi"[8], – yozadi rus olimi G.N.Pospelov. Haqiqatdan ham, nomutanosib voqelikning yuzaga chiqish omillari turlicha bo'ladi. Bu bir tomondan, voqelikning hali to'laonli amalga oshishi uchun bir intilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, yumorning o'ziga xosligini dalolatlaydi. Ironik munosabatli nutq shoir izlanishlarida biror bir fikr yoki maqsadning til birliklari negizida ochiq-oshkor aytilmasidan, aksincha, ko'chma ma'noda ifodalanihini tushunish mumkin. Ironik she'rlarni hamma ham yoza olmaydi. Bunday she'rlar tabiatida "ko'chma, yashirin ma'no" mavjud bo'ladi. Anvar Obidjon she'rlaridagi shakl va mazmun birligi hodisasi ironik kayfiyatni badiiy-estetik qamrovini belgilab beradi. Prof.D.Quronov shunday yozadi: "Komiklik umumestetik kategoriya sanalib, badiiy asarlarning barida (me'morlikdan tashqari) kuzatilishi mumkin. Har qanday kulgi ham komiklik sanalavermaydi, bu o'rinda ijtimoiy ahamiyatga molik kulgi nazarda tutiladi. Satira ob'ektda idealga mutlaqo zid, jamiyatning joriy holati nuqtayi nazaridan to'la inkor qilinuvchi ziddiyatlarni aks ettirsa, yumorda ob'ektdagi ayrim jihatlarnigina inkor qilish ko'zda tutiladi"[9]. Mana shu jihatdan e'tibor qilinsa, A.Obidjonning ko'pchilik she'rlarida tinish belgilaridan tortib barcha unsurlargacha ma'lum bir funksiyani bajaradi.

Tuyg'ulari bog'dadir

Orzulari tog'dadir,

O'zi esa... xandakda [10].

Shoir ironik kayfiyatda tinish belgilardan unumli foydalanidiki, o'quvchini oddiy voqelikning o'ziga jalb qiladi. Har qanday inson mashhur bo'lishni orzu qiladi. Orzuga ayb yo'q, ammo shunga loyiq bo'lish uchun inson ma'nan haqli sanalmog'i kerak. Orzularining o'zi tog'da bo'lsa-yu, shaxsning xandakda yotishi, ya'ni pastda, o'z ustida izlanish olib bormagan, komillik istamagan odamning taqdiri haqida so'z bormoqda. Uchinchi misradagi ko'p nuqta she'rga yuksak estetik kayfiyat beradi. Mana shu tinish belgilari she'rning umumiy ruhiyatini va shaklni, mazmunni idroklashga yo'naltirilishi ayni haqiqatdir.

Tadqiqotchi Q.Yo'lchiyev shunday yozadi: "Shoir ironik she'rlar orqali insoniyatning shaxs va jamiyat muammosini yechishga uringan. Mummmoni yechishga urinish barcha davrlarda ham bo'lgan. Ammo uni yangi muhit va zamonda anglash har kimga ham nasib etavermaydi. Shu ma'noda shoir o'zining ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik kabi turli axloqiy qarashlarini ixcham shakl va teran mazmunda ko'rish uchun ma'lum tayyorgarlik kerak. Chunki shoir ignabarglarda voqelikning yuz qismini chizib beradi. Bir qarashda ulardan zarur xulosa chiqarib bo'lmaydigandek tuyuladi. Ammo she'riy nutq elementlari orqali ularni topish oson kechadi". Darhaqiqat, Anvar Obidjonning har bir she'rda kulgi va hajv falsafiy-estetik tanlov shartlilikini idroklaydi. U olamga yengil yumor bilan razm solish orqali insoniy muammolarga yechim topishga da'vat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Anvar Obidjonning bolalarga atab yozgan she'rlarida ham hajviy-parodik talqinlar juda ko'pchilikni tashkil qiladi. U bola tarbiyasiga alohida e'tibor

qaratadi. Bolalarning ruhiy-ma'naviy olamini ham o'ziga xos tarzda poetik talqin qilib, ularning yoshlikdagi damlaridan unumli foydalanishlari uchun ko'proq mutolaa bilan vaqt o'tkazish muhimligini ta'kidlaydi. Natijada, bola tasavvurida o'ziga xos bir olam paydo bo'ladi, shoir bularni katta yoshdagilar ham chuqur his qilib o'qishlariga da'vat qiladi. Tadqiqotchi G.Jo'rayeva shunday yozadi: "Bolalar uchun yaratilgan badiiy adabiyot namunalarini ham mazmun va shakliga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin: a) satirik ruhda yaratilgan bolalar she'riyati namunalari; b) yumoristik ruhda yaratilgan bolalar she'riyati namunalari. Satirada ayovsiz tanqid bo'lgani uchun ham bu bolalar adabiyotida kam uchraydi. Shoir bolalar tarbiyasi, xulqidagi ayrim nuqsонlarni boshqa jismlar, hayvonlarga ko'chirish orqali yengil kulgi vositasida ularni tanqid qiladi. Aslida, dramatik turga mansub komediya janrining asosida ham tanqid-fojialar ustidan kulish, ularni keskin qoralash yotadi. Lekin buni jamiyat har zamonda ham tushunavermagan, shu sababli ham kulgi vositasi adabiyotdagi eng nozik, shuningdek, eng o'tkir va elita qurol hisoblanadi. Bu vositaning mohiyatini katta adabiyotda ham tushunish mushkul, aksariyat hollarda asl mazmun anglanmaydi. Bolalarga uning asliyatini yetkazib berish ikki karra murakkab, chunki bola psixikasi, ruhiyati hali yosh. U ko'rgan va eshitgan narsasiga ishonadi. Kesatiq, piching kabi so'zlashuv vositasidagi tanqidlarni ham yaxshi anglamaydi, iboralar, tasviriy ifodalarning ham bosh mazmunini so'zmaso'z qabul qiladi"[11]. Mazkur iqtibosga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, bolalar she'riyatidagi ikki xususiyatdan anglashiladigan eng muhim fragment ham shakliy, ham uslubiy modifikatsiyani yuzaga chiqishiga zamin hozirlaydi. Bolalarning ruhiy olamidagi o'sish-o'zgarishlarni teran idroklay olgan shoir qalbida o'ziga xos bir maqsad borki, uni teran anglash lozim. Hajviy holatlar bolalar ruhiyatida qanday ta'sir qilish manerasi bilan ham alohida talqin barqarorligini keltirib chiqaradi. Hajv qilinayotgan ob'ekt o'ziga mos bir yo'nalishni talab qiladiki, busiz inson kechinmalari namoyon bo'lmaydi. Ayniqsa, hajv qilinayotgan vaqtdagi ijtimoiy kayfiyat: davrning manzaralari ham o'z ifodasini topshi shart.

Uning ilk ijod namunalarida ham bola ruhiyatini teran idroklash falsafasi qabarib ko'rinadi. Shoir Anvar Obidjon bir she'rda:

Kalamushvoy,

Kalamush.

Savoding sal,

Chalamish.

Yoz desalar,

"Temir" deb.

Sen yozibsan,

"Kemir!" deb[12].

**Xulosa va takliflar.** Kalamushning salbiy ma'no kasb etgan xarakteri – kemiruvchi ekanligini, savodi shu tariqa yetmasligini yengil yumor bilan idroklagan. Bolalar buni mutolaa qilganda savodi yaxshi bo'lishi uchun ko'proq mutolaaga sho'ng'iydi. O'z ustida izlanish olib boradi. Natijada bolalar ruhiyatidagi salbiy illatlar: dangasalik, ishyoqmaslik, erikchoqlik va shunga o'xshagan qator qusurlar barham topadi. Shoir majoz orqali – temir, kemir so'zlarini qarama-qarshi qo'yib kalamushning psixologik holatini yuksak kayfiyatda yuzaga chiqirishga erishadi. Kemiruvchanlik kalamushning asl tabiatiga mos illat. Bolalar buni to'g'ri ma'noda qabul qilib, kalamushga o'xshamaslikka, har qanday so'zning mag'zini chaqib, yetti o'lchab bir kesish zarurligini taqozo etadi. Inson har bir kunidan unumli foydalanishi lozim degan tarbiyaviy ahamiyatga ega xulosalarni chiqarishi tabiiy holdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик. –Т.: Янги асп авлоди. 2011. –Б.391.

2. Арасту. Поэтика. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2018. –Б.23.
3. Чичерин А.В. Идеи и стиль о природе поэтического слова. –М.: Советской писател, 1968. –С.372.
4. Анвар Обиджон. Кетмагил. –Т.: Адабиёт ва сан’ат нашриёти. 1985 –Б.29.
5. Исмоилов Д. Деталнинг ўрни. // Театр. 2011. №1. –Б.42.
6. Анвар Обиджон. Танланган ше’рлар тўплами. –Т., Шарқ. 2006. –Б.222.
7. Белинский Г.В. Адабий орзулар. – Т.: Адабиёт ва сан’ат. 1977. –Б.98-99.
8. Поспелов Г.Н. Теория литературы: Учебник для ун-тов. –М.: Высшая школа, 1978. –С.223.
9. Қуронон Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Янги аср авлоди. 2013.-Б.140.
10. Анвар Обиджон. Кетмагил. – Т.: Адабиёт ва сан’ат нашриёти. 1985 –Б.29.
11. Жўраева Г. Ўзбек болалар ше’риясида ҳажвия. Монография. –Т.: Nodirabegim. 2021. –Б.149.
12. Анвар Обиджон. Баҳромнинг ҳикоялари. –Т.: Ёш гвардия. 1980. –Б.20.



*Xusniddin RUZIYEV,*  
*Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: ruzievx@tersu.uz*

*TerDPI dotsenti, filologiya fanlari falsafa doktori O.Uralova taqrizi asosida*

### O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MAQOLLAR TADQIQI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida maqollarni tadqiqi bayon etilgan bo'lib, leksikografiya, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, pragmatika, aksiolingvistika, korpus tilshunosligi sohalarida maqollar ustida olib borilgan tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Maqol, otalar so'zi, lingvomadaniy, lingvopoetik, pragmatika, aksiolingvistika, korpus tilshunoslik.

### ИССЛЕДОВАНИЯ ПОСЛОВИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАЧЕНИИ

Аннотация

В данной статье описаны исследования пословиц в узбекском языкознании, а также проанализированы исследования пословиц в областях лексикографии, языкознания, когнитивной лингвистики, прагматики, аксиолингвистики и корпусной лингвистики.

**Ключевые слова:** Пословица, слово отцов, лингвокультурология, лингвопоэтика, прагматика, аксиолингвистика, корпусная лингвистика.

### THE INVESTIGATION OF PROVERBS IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation

This article is devoted to the investigation of proverbs in Uzbek linguistics and the research works are based on proverbs in the fields of lexicography, linguistics, cognitive linguistics, pragmatics, axiolinguistics, and corpus linguistics are analyzed.

**Key words:** Proverb, word of fathers, linguocultural, linguopoetic, pragmatics, axiolinguistics, corpus linguistics.

**Kirish.** Xalq maqollari til, falsafa va badiiy ijod ta'sirida yuzaga kelgan, xalq og'zaki ijodining teran mazmun ifodalaydigan janridir. Maqollar hajm jihatdan ixcham, xalqning pand-nasihati, odob-axloqi, madaniyati, mentaliteti va urf-odatlarini o'zida aks ettiruvchi tugal jumladir. Ming yillar davomida maqollarni ota-bobolarimiz o'z nutqini ajralmas qismi sifatida ishlatib kelgan.

Maqollar xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janridir. Qadimda turkiy xalqlar adabiyotida maqol janrini anglatuvchi "caw" atamasi va "otalar so'zi" birikmasi qo'llanilgan. Ma'lumki, turkiy xalqlarga oid yozma yodgorliklarning yaratilish davri V-VIII asrlarga to'g'ri keladi. Xalq og'zaki ijodi janrlari esa yozuv paydo bo'lgunga qadar yaratilgan. Demak, xalq og'zaki ijodining eng kichik aforistik janrlari turk xoqonligi hukm surgan davrlardan ham ilgari yaratilgan degan xulosa haqiqatga yaqindir. Bu esa maqol janri Turk xoqonligi hukmronligidan ilgari ham turkiy xalqlarda "otalar so'zi" shaklida islomgacha iste'molda bo'lgan degan xulosani beradi.

Maqollarning o'rganilishi haqida gap ketganda ularni ilk bor to'plab, to'plam holiga keltirgan, maqollarga tilshunos olim sifatida yondashgan Mahmud Koshg'ariyning nomini tilga olib o'tish joiz.

**Tahlil va natijalar.** Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk'da 380 dan oshiq turli maqol va matallarni keltiradi, o'rni bilan ularga ham izohlar beradi. Bu maqol va matallarning aksariyati bugungi kunimizda unutilgan bo'lsa, ayrimlari haligacha yashab kelmoqda.

Muhammad Sharif Gulxaniy o'zining «Zarbulmasal» asarida 300 dan ortiq xalq maqollaridan juda mahorat bilan foydalangan. Aytish mumkinki, asar maqol tarkibiga qurilgan.

Sulaymonqul Rojyning «Zarbulmasal»ida ham 400 ga yaqin xalq maqollari she'riy vaznga solingani bilan ahamiyatlidir.

G'azal mulkini sultonni Alisher Navoiy o'z asarlarida maqollardan keng foydalangan. Turkiy xalqlar orasida "maqol" so'zi o'rni "masal" qo'llanganing guvohi bo'lish mumkin. Alisher Navoiy g'azallarida "Masaldurkim, uyqu – o'limdur" kabi shaklda uchrasa, maqol qo'llash asosiga qurilgan badiiy san'at "irsolu masal" deb nomlangan.

O'zbek xalq maqollariing o'rganilishi tarixida venger olimi Xerman Vamberining alohida o'rni bor. X. Vamberining 1867 - yilda Germaniyada chop etilgan «Chig'atoy tili darsligi» xrestomatiya kitobidan xalq ijodi va yozma adabiyot namunalari joy olgan bo'lib, 112 o'zbek maqoli ham asliyatda, ham nemischa tarjimasi bilan keltirilgan.

N.P. Ostroumovning "Yerli xalqning maqol va topishmoqlari" nomli kitobida 600 dan oshiq xalq maqollari keltiriladi. Mazkur manba ham maqollar tarixini o'rganishda muhim manbalardan bo'lishi bilan birga, aytish mumkinki, maqollarning asliyatini taqdim etilmagan.

O'zbek folklorshunosligi asoschisi Hodi Zarifovning "O'zbek folklori" xrestomatiyasidan maqol namunalari ham joy olgan. Bu kitobda maqollar ma'no va mazmunidan kelib chikib guruhlashtirilgan.

Folklorshunos olimlar O.Madaev, T.Sobitovlarning maqollar xususida ilmiy izlanishlari mavjud.

XX asrga kelib maqollar ustida lingvistik tadqiqotlar olib borish jadallashdi, ya'ni olimlar maqollar to'plamlarini yaratish, yangi materiallar yig'ish va uni oldingisi bilan solishtirish, maqollarning strukturasi, paydo bo'lish tarixi, evolyutsiyasi va ularning xalq mentaliteti bilan bog'liq tomonlarini o'rganib boshlashdi.

O'zbek olimlari T.Mirzayev, B.Sarimsoqovlar tomonidan yaratilgan ikki jildidan iborat "O'zbek xalq maqollari" (1987, 1988) lug'ati nashr ettirildi.

Maqollarni tilshunoslik nuqtayi-nazaridan Sh. Rahmatullaev, Y.Pinxasiv, G'.Salomov, Q.Samadov, Sh.Shoahmedov, X.Abdurahmonov va M. Sadriddinovalar tomonidan tadqiq etilgan.

X.Abdurahmonovning doktorlik dissertatsiyasi o'zbek tilida maqol va matallarning sintaktik qurilishi, maqollardagi gap va so'z birikmalarining asosiy ko'rinishlari, ularning morfologik, sintaktik va ba'zi ma'noviy-uslubiy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan.

G'.Salomov o'z nomzodlik dissertatsiyasida "frazeologik ibora", "idioma", "ibora"larni maqol va matallardan farqlashga urinadi.

Xalq maqol va matallarining lug'aviy xususiyatlari esa M.Sadriddinova tomonidan adabiy til va dialektlarning leksik qamrovida qiyosiy o'rganilgan.

Keyingi vaqtlarda o'zbek tilshunosligida xalq maqollari boshqa bir yo'nalishda tadqiq etila boshlandi, ya'ni yozuvchi va shoirlar asarlarining tili va uslubiga oid ko'pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida xalq maqollarining ma'noviy, uslubiy xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor berildi. Bu borada A.Rustamov, H.Sulaymon, Sh.Shomaqsdov, Sh.Shorahmedov H.Berdiyev, R.Rasulov, M.Abdurahimov, R.Jumaniyozov, A.Xolmuhamedov, B.Abdullayev, X.Doniyorov, S.Mirzayev, S.Asqarov, A.Jo'raxonov, M.To'ychiyev, M.Hakimovlarning ishlari diqqatga sazovor.

O'zbek tilshunosligida xalq maqollarining to'laqonli sinonimik lug'atini yaratish kabi muhim vazifa B.Jo'rayeva tomonidan uddalandi. Olima tomonidan tuzilgan, tartiblangan paremik birliklar sinonimiyasi asosida yaratilgan mazkur lug'atni ushbu yo'nalishda yaratilajak leksikografik ishning debochasi sifatida baholash mumkin.

O'zbek xalq maqollarini lingvopoetik, lingvomadaniy, maqollarining lingvo-funksional, aksiologik aspektida D.Turdaliyeva, Sh.Qalandarov, A.Ahrorov, G.Komilovava va boshqalarning tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

D.Turdaliyevaning "O'zbek xalq maqollarining lingvopoetik" nomli dissertatsiyasida o'zbek xalq maqollarining paremiologik tizimdagi xususiyatlarini badiiy nutq sifati nuqtayi nazaridan baholagan holda ularning lingvopoetik imkoniyatlari ochib berilgan.

Sh.Qalandarovning "O'zbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollarining evfimizatsiyasi" nomli dissertatsiyasida xalq maqollarida evfemik mazmun voqelanishini parema, ma'nodoshlik, vulgarizm, sintaktik qurilma kabi lisoniy hamda inson, ong, faoliyat, madaniyat kabi nolisoniy omillar ta'minlashi aniqlangan.

A.Ahrorovning "Nutq madaniyatini ifodolovchi o'zbek xalq maqollarining lingvo-funksional va xulqiy qiymati" nomli dissertatsiyasida tilshunoslikda umumiyashirin mazmun, tagma'no va presuppozitsiyaning farqli va o'xshash jihatlari maqollar misolida ochib berilgan, maqollar turli modal ma'nolar ifodalash imkoniyatiga ega bo'lganligi uchun nutqiy aktlarni shakllantirishda birlamchi vosita bo'la olishi isbotlangan.

G.Komilovning "O'zbek tilidagi maqollarining aksiologik tahlili" nomli dissertatsiyasida tilda qadriyatlar va baho ifodalanishining xususiyatlari, xususan, o'zbek maqollaridagi olamning qadriyat manzarasi tavsiflangan, ilmiy qo'llanish doirasiga aksiologik konsept tushunchasi va terminini kiritish maqsadga muvofiqligi isbotlangan, maqollarining aksiologik tahlili til egalari baholash belgilari, muayyan madaniy muhit xususiyatlari, milliy qadriyatlarining lingvistik ifodasi, nutqda aks etish darajasini aks ettirishi ko'rsatib berilgan.

P.Bakirov, A.Paizbekova, O.Uralova, Z.R.Narmuratov, D.Mirzaeva, M.Karimova va boshqalarning ishlarida o'zbek xalq maqollarining ma'noviy, semantik, lingvokognitiv, strukturaviy, konseptual, lingvokulturologik va

pragmatik xususiyatlari, hamda ularni boshqa tillardagi turdosh maqollar bilan qiyosiy-chog'ishtirma aspektida o'rganish orqali bu yo'nalishda yangi bosqich boshlab berilgan.

P.Bakirovning "Номинацентрические пословицы в разноразличных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков)" nomli doktorlik dissertatsiyasida qiyosiy paremiologiyaning asosiy tamoyillari, usullari ishlab chiqilgan, maxsus tipdagi paremiologik birlik sifatida maqol maqomini o'rnatgan, boshqa paremiyalar orasida maqolning o'rni aniqlangan, maqollarni qiyosiy o'rganish uchun nazariy zaruriyatlar, shuningdek, turli tizimdagi tillarning paremiologik birliklarini kompleks tahlil qilish taklif qilingan, rus, o'zbek va qozoq tillaridagi nominal markazli maqollarining semantikasi tavsiflangan.

A.Paizbekova "Ingliz, rus, o'zbek va qozoq tillari maqollaridagi vaqt reprezentatsiyasining lingvokognitiv aspekti" nomli dissertatsiyasida chog'ishtirma va kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan ingliz, rus, o'zbek va qozoq tillari maqollarida ifodalangan «vaqt» konsepti va vaqt strukturalari (taqvim-davriy vaqt, chiziqli vaqt, biologik vaqt, ijtimoiy vaqt)ni aniqlash, tavsiflash va asoslashga qaratilgan masalalar bayon etilgan.

O.Uralovning "Ingliz va o'zbek tillarida «oila» bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi" nomli dissertatsiyasida paremiya, maqol, matal, frazeologik birliklarning lisoniy-madaniy maqomiga murojaat qilinib, ingliz va o'zbek tillaridagi maqol, matal va frazeologik birliklarni qiyoslash natijasida ularning struktur, leksikogrammatik o'xshashligi hamda farqli tomonlari ochib berilib, chog'ishtirma planda "oila" bosh leksemali maqollarining struktur-semantik tasnifi, ingliz va o'zbek tillaridagi "oila" bosh leksemali maqollar qiyosiy-chog'ishtirma, kvalitatif va tematik tahlil asosida guruhlarga taqsimlangan.

Z.R.Narmuratovning "Ingliz va o'zbek tillarida «ta'lim», «ilm» konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi" nomli dissertatsiyasida ingliz va o'zbek tillaridagi «ta'lim», «ilm» konseptli paremiologik birliklarni chog'ishtirib o'rganish orqali ularning lisoniy-madaniy jihatdan o'xshash va umumiy tomonlari tadqiq etilgan.

D.Mirzaevaning "O'zbek-ingliz tillaridagi maqol va matallarining lingvokulturologik hamda pragmatik tadqiqi" nomli dissertatsiyasida o'zbek-ingliz maqol va matallarini qiyoslab, ularning mazmuniy mushtarak hamda farqli jihatlari, o'zbek-ingliz tillaridagi maqol va matallarining olam lisoniy manzarasidagi elementlar milliy-madaniy konnotatsiyasini aks ettirishini aniqlangan, tildagi maqol fondining xalq tafakkurini aks ettiruvchi lingvokulturologik jihatlari tahlil etilgan.

M.Karimovning "Paremiologik birliklarning lingvokulturologik aspekti" nomli dissertatsiyasida paremiyalar o'zbek va inglizlarning lisoniy dunyoqarashlarida folklor g'oyalarini, tabiat va jamiyatning shakllanishi, tartibi va yashashga doir qoidalar bo'lgan madaniyat me'yorlarini lisoniy kodlar orqali aks ettirishi, lingvomadaniy kompetensiyaga ega bo'lishi ushbu kodlarni to'g'ri interpretatsiya qilishi imkonini berishi dalillangan, paremiyaning ingliz va o'zbek tillarida maqol, matal, aforizm, frazema, sarlavha, shior, simvol, maksim, dastur bayoni, ramziy ibora, indeksli ibora, qanotli so'zlar, chaqiriqlar, ijtimoiy-ilmiy formulalar va tabiiy fanlar qaydlari kabi turlarining olamning lisoniy manzarasini shakllantirish va bayon qilishdagi lingvokulturologik jihatlari ochib berilgan.

Bugungi globalshuv davrida tilning elektron variantini yaratish, milliy korpus bazalarini yaratish ustida keng tadqiqotlar olib borilayapti. O'zbek milliy korpus bazasida maqollar korpusini yaratish borasida B. Jo'rayeva, Sh. Hamroyeva va R. Karimovlar o'z fikr-mulohazalarini aytib o'tgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq maqollari o'z tarixiy tadqiqot bosqichiga ega bo'lib, tilshunos olimlar tomonidan folklorshunoslik, leksikografiya, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, pragmatika,

aksiolingvistika, korpus tilshunoslik kabi an'anaviy va zamonaviy tilshunoslik sohalarida tadqiq qilinmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tilshunoslikning yangi sohalarida xalq maqollarini tadqiq qilish muammolari o'z yechimini kutmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдурахманов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества. АДД.-Т., 1977.-С. 48.
2. Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 287 с.
3. Кошгарий М. Девону луғотит турк. 3 томлик. 3-том. - Тошкент: Фан, 1963. - Б.168-169.
4. Саямов, Г.Лексико-фразеологические вопросы художественного перевода : Принципы перевода пословиц , поговорок и идиом с русского на узбекский язык : диссертация ... кандидата филологических наук. - Ташкент, 1964. - 319 с.
5. Хусайний А Бадаийи- с-санойи. - Тошкент: Адабиёт ва санат, 1981. - Б. 160.
6. Ahrorov A.A. Nutq madaniyatini ifodolovchi o'zbek xalq maqollarining lingvo-funksional va xulqiy qiymati. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. –Guliston, 2021. – 149 b.
7. Juraeva B. O'zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lugati. -T.: Fan, 2006.
8. Karimova M.S. Paremiologik birliklarning lingvokulturologik aspekti. . Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. – Andijon, 2022. – 126 b.
9. Komilova G.R. O'zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. –Tomkent, 2022. – 170 b.
10. Mirzaeva D.I. O'zbek-ingliz tillaridagi maqol va matallarning lingvokulturologik hamda pragmatik tadqiqi. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. – Andijon, 2022. – 144 b..
11. Narmuratov Z.R. Ingliz va o'zbek tillarida ta'lim va ilm konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fanlari falsafa doktori diss. Termez, 2022. – 129 b.
12. Paizbekova A.D. Ingliz,rus, o'zbek va qozoq tillari maqollaridagi vaqt reprezentatsiyasining lingvokognitiv aspekti. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. –Toшkent, 2019. – 136 b.
13. Qalandarov III. III. O'zbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollarining evfimizatsiyasi. . Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. –Farg'ona, 2019. – 144 b..
14. Turdaliyeva D.T. O'zbek xalq maqollarining lingvopoetik xususiyatlari. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. – Farg'ona, 2018. – 144 b..
15. Uralova O.P. Ingliz va o'zbek tillarida "oila" bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. – Samarqand, 2021. – 144 b.
16. O'zbek folklori. Tuzuvchi: Zarifov X., - Toшkent, 1939. - B. 268-279.
17. O'zbek folklori ocherklari. 3 tomlik 1-tom. - Toshkent: Fan, 1988. -B. 25.
18. Остроумов Н.П. Пословицы и загадки сартов. Этнографические материалы, вып. IIII. -Ташкент, 1895. - 188 с.



*Nargiza SATTAROVA,*  
*ADPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi*

*ADU prof., filol.f.d. D.A.Nabieva taqrizi asosida*

#### GODONIMLARNING TADQIQIDA ETNONIMLARNING O‘RNI (ASAKA TUMANI ETNONIMLARI MISOLIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada tariximizning ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lmagan, hali o‘rganilishi lozim bo‘lgan, mamlakatimiz tuprog‘ida azaldan yashab kelgan xalqimizning etnogenezi, etnik tarkiblari (avlod-ajdodlari)ga doir, tarixiy-etnografik materiallar tilga olingan va manbalar asosida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘aviy tarkibida juda qadimiy davrlarga xos bo‘lgan bir qator leksik qatlamlar saqlanib kelmoqda. Mana shulardan biri etnonimlardir. Maqolada qabila urug‘ nomlari, totemlar, tamg‘a, maxsus belgilar tashkil etgan etnonimlar haqida fikr boradi.

**Kalit so‘zlar:** Etnonim, tamg‘a, urug‘, barlos, jaloyiriy, yozma bitiklar, elat, etnotoponim, qabila, etnogenez, dialekt, shajara, urbanonim, godonim.

#### THE ROLE OF ETHNONYMS IN THE RESEARCH OF HODONYMS (AS AN EXAMPLE OF ETHNONYMS OF ASAKA DISTRICT)

Annotation

This article mentions historical and ethnographic materials about ethnogenesis, the ethnic composition (ancestors) of our people, who have long lived on the land of our country and the sources of which opinions are expressed. In the vocabulary of the modern Uzbek literary language, a number of lexical layers, characteristic of very ancient times, are preserved. One of them is ethnonyms. The article deals with ethnonyms, which are tribal names, totems, seals and special symbols.

**Key words:** Ethnonym, brand, tribe, barlos, jaloyiri, written references, elat, ethnotoponym, tribe, ethnogenesis, dialect, genealogy, urbanonym, godonym.

#### РОЛЬ ЭТНОНИМОВ В ИССЛЕДОВАНИИ ГОДОНИМОВ (НА ПРИМЕРЕ ЭТНОНИМОВ АСАКИНСКОГО РАЙОНА)

Аннотация

В данной статье упоминаются историко-этнографические материалы об этногенезе, этническом составе (предках) нашего народа, издавна проживающие на земле нашей страны и источники, на основе которых высказываются мнения. В лексике современного узбекского литературного языка сохраняется ряд лексических пластов, характерных для очень древних времен. Одним из них являются этнонимы. В статье рассматриваются этнонимы, представляющие собой родоплеменные названия, тотемы, печати и специальные символы.

**Ключевые слова:** Этноним, бренд, племя, барлос, джалойри, письменные упоминания, элат, этнотопоним, племя, этногенез, диалект, генеалогия, урбаноним, годоним.

**Kirish.** Ma‘lumki, insoniyat biologik jihatdan bir butun bo‘lsa ham, umumiy sotsiologik qonunlar asosida taraqqiy etib, son-sanoqsiz guruhlariga, to‘plarga bo‘linadi. Kishilar urug‘, qabila, elat, xalq, millat kabi uyushmalarga birlashib jamiyatda yashaydi hamda ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug‘ullanadi. Shular orasida qabila alohida o‘rin tutadi. Qabila sinfsiz jamiyatdagi etnik birlik bo‘lib, ijtimoiy tashkiliy guruh, jamoadir. Elat esa kishilarning til jihatdan, hududiy, iqtisodiy va madaniy birligi bo‘lib, millatdan oldingi bosqichdir.

Millat esa kishilarning barqaror tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush hamda til, hudud birligi, madaniyat, ong va psixologiyaning o‘ziga xosligi zaminida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Bugungi kunda o‘zbek onomastikasida etnonimlarning tadqiqiga oid ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Jumladan, K.MarqaeV Janubiy O‘zbekiston hududi materiallari asosida o‘zbek tili etnonimlarining lisoniy tadqiqini amalga oshirdi.[1] A.Otajonovning “Xorazm etnotoponimlari va ularning lug‘aviy asoslari”, [2] N.Oxunovning maqolasi, [3] A.TuroboVning “Samarqand viloyati etnonim va etnooykonimlarining tahlili”, [4] A.Ergashevning etnotoponimlarning areal-onomastik tadqiqiga bag‘ishlangan

tadqiqoti [5]va boshqa tadqiqot ishlarida ushbu sohaning yanada rivoj topib borayotganini ko‘rish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O‘rganilayotgan Andijon viloyati onomastik birliklari orasida godonimlarning vujudga kelishiga asos bo‘lgan etnonimlar (etnogodonimlar) ko‘p qismni tashkil qiladi. Chunki o‘tmishda vodiy aholisining etnik tarkibi xilma-xil bo‘lgan. Bu hududda asrlar davomida turli urug‘, qabila, qavm, xalqlarga mansub kishilar istiqomat qilganlar. Ularning ko‘pchiligi vaqt o‘tishi bilan o‘troqlashib etnik nomlarini unutib yuborganlar. Lekin etnik guruhlarining nomi ular yashagan joylarda toponim sifatida saqlanib qolgan. Tadqiqotning ahamiyati joy nomlarining manbalarini bilish, yangi avlodlarning madaniy-madaniy elementlarga egalik qilish nuqtayi nazaridan muhimdir. Hududning godonimik makonini o‘rganishda nazariy asoslar va zamonaviy ko‘rsatmalarni tushunish uchun asosan tavsifiy va statik metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbek millati o‘z etnik tarkibining serqirra va murakkabligi bilan boshqa turkiy xalqlardan ajralib turadi. O‘zbek etnonimlari uzoq davr taraqqiyotini boshidan kechirgan bo‘lib, ularda qadimiy turkiy qabila va urug‘lar o‘zbeklarning ko‘hna davr ajdodlari amal qilgan urf-odatlar falsafiy diniy e‘tiqodlar, qadimiy madaniyat ildizlari o‘z ifodasini topgan. Andijon viloyati ko‘cha nomlari tarkibida quyida keltirilgan etnonimlarni aniqladik:

*Arg'in, Qadaqsın, Qalmoq, Barlos, Nayman, Marqayuz, Uyg'ur, Qo'ng'iro't, Bahrin, Saroy, Do'rmon, To'da, Urganji, Cho'mbag'ish, Qipchoq, Axtachi, Ayronchi, Barlos, Baxmal, Beshbola, Beshkal, Beshkapa, Beshqovoq, Yuzlar, Yuzobod, Yuziya, Ungut, Tuvadoq, Qadim, Olaqanot, Qo'ng'iro't, Kujgan, Marqayuz, Mang'it, Tumor, Tupayil, Tovoqchi, Toptiq, To'qay, Teyit, Temirho'ja, Taqachi, Munduz, Qoratepa, Kesak, Qorasadoq, Qorayantoq, Qoraqalpoq, Qorako'rupa, Qorabog'ish, Qorabo'yin, Oqto'nlik, Qondi, Qo'ng'iro't, Qo'tqar, Qo'g'ay, Qo'rtqi, Qirguli, Tuyalas, Sirmoq* kabi.

Tahlil uchun tanlangan Andijon viloyati Asaka tumani godonimlari uchun asos bo'lgan etnonimlar juda qadimiy bo'lib, mazkur arealda etnik nomlar bilan bog'liq joy nomlariga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

**Axtachi** – Asaka t. *Axtachi ko'chasi* (Fayziobod mahallasi), *Axtachi mahallasi*. Qadimgi urug'lardan biri. Bu urug' vakillarini Bobur ham tilga olgan. Axta mo'g'ul tilida, umuman "ot" (jumladan "bichilgan ot") demakdir. Axtachi esa "otboqar", "jilovdor" (xon oti jilovini ushlab yuruvchi kishi) ma'nosini beradi.

Tadqiqotning amaliy jarayonlarida *Axtachi* nomini o'zgartirish bo'yicha xalq vakillari ko'p marta murojaat qilganini, go'yoki bu nom, salbiy ma'no ifodalaydi, degan fikrlar bugungi avlod vakillari orasida mavjudligini guvohi bo'ldik. Xalq orasidagi ajablanish va o'z xolicha "tadqiq etish" holatlari nomlarning asl ma'nosini, tarixini bilmaganidan kelib chiqadi.

*Axtachi* qadimiy joy nomlaridan biri hisoblanadi, biroq ilmiy izlanishlar natijasi oydinlashgunga qadar xalq orasida "otlarni axta qiladigan (bichadigan) joy", – deb atash urf bo'lib ketgan. Endilikda "axtachi" nomining "otlarni axta qiladigan (bichadigan) joy", – ma'nosi to'g'ri emasligi isbot qilingan. "O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati" da keltirilgan quyidagi ma'lumotlarga e'tiborimizni qaratamiz.

*Axtachi* – Andijon viloyati Asaka tumaniga qarashli qadimiy qishloq. Keyingi tekshirishlar natijasining ko'rsatishicha, turkiy qavmlarning mayda bir urug'ining nomi "axta" deb atalgan. Axta– ot ma'nosini ham bildiradi. Andijon viloyatining Shahrixon tumanida ham shunday nomli qishloq bor. *Axtachi* – qadimgi o'zbek qabilalaridan biri. *Axtachi* urug'i qirg'iz-qipchoqlarida ham qayd etilgan. *Axtachi* qabilasi vakillari Boburda ham tilga olinadi. *Axtachi* so'zi mo'g'ul tilidan kelib chiqqan bo'lib, "ot boquvchi", "otchi" ma'nolarini ifodalaydi [6]

Mutlaqo ma'nodan mosuvo joy nomlari bo'lmaganidek, haqoratli nomlar ham bo'lmaydi, mutaxassis etnograflar va tilshunoslarda yordamiga murojaat etilmagani tufayli bu singari yangilash xulosalariga kelinadi. Avvalo, ayrim urug' nomlari unutilishi oqibatida xalq joy nomlarini noto'g'ri talqin qila boshlashi mumkin.

**Yuz** -qabila nomi. Yuz qabilasi vakillari yashaydigan bir necha qishloq bo'lsa, bu qishloqlar bir-birlaridan yuqori, o'rta, pastki yoki katta, o'rta, kichik yoyinki eski (ko'hna), yangi kabi sifatlar bilan farqlanadi [7]. Movarounnahr hududiga asosan XVI asr boshlarida Shayboniyxon bilan birga - qo'ng'iro'tlar, yuzlar, lokaylar, semiziylar, kesamirlar, kataganlar, durmenlar va boshqalar kirib kelgan. Yuzlarning O'rta Osiyo hududiga kirib kelishi, ijtimoiy hayoti, xo'jalik faoliyati haqida N.A.Aristov, V.V.Bartold, X.Doniyorov, V.I.Lipskiy, N.A.Maev, L.P.Potapov, I.P.Magidovich, B.X.Karmishevalar o'z asarlarida to'xtalib o'tilgan bo'lsa, yana bir tadqiqotchi Q.Najimov XX asr 50-yillarda yuz qabilasini antropologik jihatdan o'rgangan. Yuz urug'ining yashash joyi hududi Hisor vodiysining sharqiy chekkasigacha cho'zilgan. B.X.Karmisheva yuz urug'larini tadqiq etar ekan o'z navbatida ularning ichki tarmoqlanishi borasida ham fikr bildirib yuzlar marqa, ktay yuz, qorapchi urug'lariga

bo'linishini ko'rsatib o'tgan.[9] Marqa va ktay yuzlar asosan Tojikiston hududida keng tarqalgan.

**Nayman** – Asaka t. *Nayman ko'chasi* (Saidobod mahallasi) qadimda turkiy va mo'g'ul xalqlari tarkibida bo'lgan qadimiy qabila. O'zbek, qozoq, qirg'iz, no'g'oy, oltoy va boshqa turkiy xalqlar tarkibida naymanlar yirik qabila, qabila uyushmasi sanalgan. Bu qabila vakillarining O'zbekiston hududiga kelishi manbalarda XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida deb qayd qilingan. Naymanlar o'zbek xalqining saroy qabilasi bilan ittifoq, yonma-yon yashagan. Shu bois ularni naymansaroy deb ham atashgan. Mo'g'ul tilida nayman so'zi "sakkiz" degan ma'noni bildirgan. Shu ma'no tufayli naymanlarni sakkiz urug', qabila, turkiy xalq deb ham izohlashgan. Rashididdin "Jome'at tavorix" asarida "Nayman qadimgi kuchli qabilalardan biridir. Uning bir qancha tarmoqlari bor"[8], deb yozgan. Nayman so'zi mo'g'ulcha bo'lib, nayman "sakkiz" degan ma'noni bildiradi. N.Aristov, "Nayman so'zi Nayma daryosi (Katunning bir irmog'i)ning nomi bilan bog'liq, toponim daryoning nomi asosida vujudga kelgan"[9], deydi. "Nayman so'zi bilan bog'liq bo'lgan toponimlar O'zbekistonning barcha viloyatlarida uchraydi"[10]. Nayman – o'zbek urug'laridan birining nomi. Lug'aviy ma'nosi "sakkiz" degan so'z. O'zbekistonda, xususan, Samarqand viloyatida Naymon, Naymoncha, Qoranayman, Ravatnaymancha kabi qishloqlarni ko'plab uchratish mumkin.[11]

**Tumor**- *Tumor ko'chasi* (Shahrixon).

Qipchoqlarning *tumor/to'qmor* (tamg'asi to'qmor shaklida) urug'i jamoasining nomi.

**Saroy** - *Saroy ko'chasi* (Andijon, Izboskan, Oltinko'l, Shahrixon). *Saroy* (f-t.) – monumental bino, davlat boshliqlarining istiqomatgohi va qarorgohi, shu bilan birga saroy deganda umum tomonidan foydalaniladigan binolar, masalan, mehmonxona ("karvonsaroy") va boshqalar tushunilgan. Shuningdek, saroy degan qabila bo'lgan.

**To'da** -*To'da mahallasi* (Baliqchi). *To'da* – o'zbek urug'laridan birining nomi. Aholi maskani shu urug' nomi asosida vujudga kelgan.

**Uyg'ur, Uyg'urobod** -*Uyg'ur tor ko'chasi*

(Andijon, Oltinko'l, Paxtaobod) Uyg'ur millatining nomidan olingan joy nomi. S.Qoraev (1978) ning yozishicha, 92 bovli o'zbek qavmlari orasida uyg'ur qabilasi tilga olingan.

**Urganji, Urganjibog'** -*Urganji mahallasi* (Baliqchi, Paxtaobod, Izboskan). *Urganji* so'zi etnonim bo'lib, bu guruh vakillari XVIII asr oxirida Urganj shahridan chiqib O'zbekistonning turli hududlariga tarqalgan. *Urganji* so'zi hozirgi tilda urganchliklar degan ma'noni anglatadi.

**Ayronchi** -*Ayronchi ko'chasi* (Andijon, Oltinko'l). O'zbek xalqi tarkibiga kirgan ayronchi urug'-qabilasining nomi.

**Bo'taqora**- *Bo'taqora ko'chasi* (Andijon) Turkiy qipchoq saroylarning kichik urug'i - bo'taqora (totemdan urug' nomlangan).

**Karvon** - *Karvon ko'chasi* (Andijon, Shahrixon, Xonobod, Marhamat, Qo'rg'ontepa). O'zbek qipchoqlarining urug'i nomi.

**Ko'ksaroy** - *Ko'ksaroy tor ko'chasi* (Qo'rg'ontepa) Saroy qabilasining bir tarmog'i – ko'ksaroy deb nomlangan.

**Olaqanot** – *Olaqanot mahallasi* (Asaka t.) *Yuqori Olaqanot, O'rta Olaqanot, Quyi Olaqanot ko'chalari* (Asaka t. Olaqanot mahallasi). Olaqanot – uyg'ur urug'i

**Oyim**- *Oyim ko'chasi* (Bo'ston. Oyim 7 ta berk ko'cha). Qipchoqlarning og'im/o'g'ini/ o'g'in urug'i jamoasining nomi.

**Puchug'oy** - *Puchug'oy ko'chasi* (Baliqchi). Puchugot – Farg'ona qipchoqlari bir urug'ining nomi.

**Qaychili**- *O'rtaqaychi ko'chasi* (Oltinko'l) Qo'ng'iro't, kenagaslarning qaychili (tamg'asi qaychiga o'xshash) urug'i jamoasining nomi.

**Qo'g'ay** - *Qo'g'ay mahallasi* (Izboskan t.) Fargona vodiysidagi qipchoq urug'laridan biri qo'g'ay deb atalgan.

**Saroy**- *Saroy ko'chasi* (Andijon, Shaxrihon, Baliqchi, Izboskan, Oltinko'l, Paxtaobod). O'zbek xalqining tarkibidagi saroy qabilasining nomi.

**Temirxo'ja**- *Temirxo'ja ko'chasi* (Oltinko'l tumani). Mang'itlar oqmang'it bo'limining temirxo'ja urug' tarmog'i jamoasining nomi.

**Teyit** -*Teyit ko'chasi* (Xonobod, Shahrixon). Qirg'izlarning teyit qabilasi bo'lgan (tarmoqlari: boyteyit, qorateyit, sariteyit, o'g'riteyit va b.). **Qorateyit** - Xo'jaobod t. Teyit qirg'iz qabilasi ikkiga bo'linadi: qorateyit, sariteyit va boshqalar.

**Tuvadoq** -*Tuvadoq ko'chasi, Pastki Tuvadoq ko'chasi* (Asaka). Tuvadoq (adabiycha tuvaloq) - to'valoq. Etnonim bo'lishi mumkin. Tuvadoq/tuvaloq - totem, qush turi.

**Sirmoq** - *Sirmoq mahallasi* (Baliqchi) Fargona vodiysidagi qipchoqlarning bir urug'i sirmoq deyilgan.

**Ungut** -*Ungut ko'chasi, O'rta Ungut ko'chasi* (Asaka). O'zbeklar tarkibida, qozoqlarning boyuli qabilasi tarkibida ungut (ungut) urug'i qayd qilingan. Asli ungutlar (o'ngutlar) - ilk o'rta asrlarda Mo'g'ulistonning janubida, Xitoyning chegara qismlarida yashagan turkiy xalq. Keyinchalik mo'g'ullashib, XIII asrda mo'g'ul qo'shinlari

tarkibida O'rta Osiyoga kelib, mahalliy xalqlar tarkibiga singib ketgan.

**Xidirsho** - *Xidirsho mahallasi* (Xonobod, Shahrixon, Ho'jaobod Qo'rg'ontepa). O'zbek xalqi tarkibidagi xidirsho urug'ining nomi.

**Qo'g'ay** - *Qo'g'ay mahallasi* (Izboskan). Farg'ona qipchoqlarining qo'g'ay degan urug'i bo'lgan, qirg'izlarning sultu qabilasi tarkibida qo'gay urug'i qayd qilingan.

**Xulosa va takliflar.** Ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, joy nomlarining kelib chiqishi o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, balki nomning tarixi, kelib chiqish asosi, xalqning o'tmish xotiralari va kelajakka yetkazuvchi ma'lumoti bo'ladi. Ta'kidlash joizki, har bir davr ishlab chiqarish tarzi, xo'jalik faoliyati va boshqa siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy omillarga tayanib nomlar majmuini yaratadi va aynan joy nomlarida kishilik jamiyati taraqqiyotidagi davr ruhi, xalqning turmushi va madaniyati bilan bog'liq turli xil voqea-hodisalar muhrlanib qoladi.

O'zbek xalqi o'z tarkibiga olgan 92 bovning har biri uni moziy bilan bog'laydigan bir rishtadir, zotan, ulardan voz kechish tarixiy xotirani tiklash borasidagi ishlarga zid kelishi mumkin. Taassufki, joylarda professional toponimchilarning deyarli yo'qligi, shosha-pisha qabul qilayotgan ayrim qarorlar tarixiy xotiraning butun boshli qatlamlari yangi, chiroyli, ammo tarixiy asosga ega bo'lmagan nomlar ostida qolib ketishiga sabab bo'lmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Marqaev K. O'zbek tili etnonimlarining lisoniy tadqiqi. Filol.fanl. nomz. disser. avtoref. -T.: 2007.-25 b.
2. Otajonova A. Xorazm etnotoponimlari va ularning lug'aviy asoslari. T. Fan. 1997.-125b.
3. Ахунов Н. Этнотопонимы –важный исторический источник // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV-XIXвв. –Ташкент: Фан, 1987. -С. 85-
4. Turobov A. Samarqand viloyati etnoykonimlarining tahlili. Filol. fanl. nomz. disser.-T., 1999. 130 b
5. Ergashev A. Andijon viloyati etnotoponimlarining areal-onomastik tadqiqi. Filol.fanl.nomz...dis.avtoref. -T., 2012, -42 b
6. Xudoyberganov R.Y. va boshq. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati:.- Toshkent: 2022. - 37-38 b.
7. Qorayev S. Toponimika. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. - 203 b.
8. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. - М.: 1976. - 112, 224 с
9. Рашид-ид-дин, Сборники летописей, -Ташкент, 1960. -С 176.
10. Аристов Н. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности // отд. Оттис из Живой страна. -Москва, 1896, -С 87.
11. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi, 1977. - 104 b.



UDK: 82.0

*Osiyo SIDDIQOVA,*  
*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti tayanch doktoranti*  
*E-mail: asqarastanaqulov88@gmail.com*

*O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti katta ilmiy hodimi, f.f.d., S.Meli taqrizi asosida*

### ESPECIALLY THE DEVELOPMENT OF COMEDY

Annotation

Comedy is considered to have existed for about two and a half thousand years, and the issues related to its study have always been the focus of theoretical scientists and philosophers. Many scholars have focused on various aspects of comedy. However, despite the large number of known studies in world literature, comedy, which is one of the main types of drama, is still not sufficiently studied. The variety of theories and approaches to understanding comedy shows that until now, researchers have not done enough research on comedy theory.

**Key words:** Drama, comedy, humor, satire, tragedy, literature, artistic, form, style, medium, hyperbole, comic, grotesque, irony, caricature, parody.

### ОСОБЕННО РАЗВИТИЕ КОМЕДИИ

Аннотация

Считается, что комедия существует около двух с половиной тысяч лет, и вопросы, связанные с ее изучением, всегда находились в центре внимания ученых-теоретиков и философов. Многие ученые сосредоточились на различных аспектах комедии. Однако, несмотря на большое количество известных исследований в мировой литературе, комедия, являющаяся одним из основных видов драмы, до сих пор недостаточно изучена. Разнообразие теорий и подходов к пониманию комедии показывает, что до сих пор исследователи недостаточно исследовали теорию комедии.

**Ключевые слова:** Драма, комедия, юмор, сатира, трагедия, литература, художественная, форма, стиль, средство, гиперболы, комизм, гротеск, ирония, карикатура, пародия.

### KOMEDIYA TADRIJI XUSUSIDA

Annotatsiya

Komediya taxminan ikki yarim ming yildan buyon mavjud hisoblanib, uni o‘rganib chiqish bilan bog‘liq masalalar nazariyotchi olimlar va faylasuflarning doimo diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ko‘pgina olimlar komediyaning turli jihatlariga to‘xtalib o‘tdilar. Biroq, jahon adabiyotidagi ma‘lum bo‘lgan juda ko‘p tadqiqotlarga qaramay, dramaning asosiy turlaridan biri bo‘lgan komediya hali ham yetarli darajada o‘rganilmagan. Komediyaning tushunishga qaratilgan nazariyalar va yondashuvlarning xilma-xilligi shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunga qadar tadqiqotchilarning komediya nazariyasi haqidagi izlanishlari yetarli emas.

**Kalit so‘zlar:** Drama, komediya, yumor, satira, tragediya, adabiyot, badiiy, shakl, uslub, vosita, giperbola, komiks, grotesk, ironiya, karikatura, parodiya.

**Kirish.** Qadimgi dramaturgiyadan oziqlangan o‘rta asr olimlari yunon, rim komediya va tragediyalaridan chuqur, ijtimoiy-falsafiy ma‘no izlaydilar. Sevilyalik olim Isidor, komediya quyidagicha ta‘rif beradi: “Komediya oddiy darajadagi odamlarning harakatlariga bag‘ishlanadi va shuningdek ularning harakatlari quvnoq bo‘lishi kerak” [6]. Shu kabi olimlardan yana biri Ioann de Balbining “Katolikan” asarida quyidagicha fikr keltirib o‘tilgan: “...tragediya faqat podsholar va shahzodalar, komediya – past darajadagi odamlarni ifodalaydi” [1]. Shunga ko‘ra antik davrdan to o‘rta asr uyg‘onish davrigacha bo‘lgan vaqtga qadar barcha risolalar va olimlarning qarashlarida ham tragediya uslubi ulug‘, komediya esa sodda deya e‘tirof etilgan. Shu o‘rinda yana bir narsani aytib o‘tishimiz joizki, XVI asr Yevropadagi klassitsizm vakillari “...klassitsizm nazariyasi bo‘yicha butun adabiy janrlar yuksak (tragediya, epos, qasida) va tuban (komediya, satira, epigramm) janrlariga bo‘linadi” [7] deya ta‘kidlaganlar

Shunday qilib biz o‘rta asr mutafakkirlari orasida komediya va tragediyani axloqiy – falsafiy ma‘no kasb etganligini ko‘ramiz. Buyuk italiyan shoiri Dante Aligeri “Komediya, - bu tragediyadan farq qiladegan she‘riy asarning bir turi; farqi shundaki, tragediya boshida hayratlanarli va xotirjamlik bilan sug‘orilgan, oxirida esa qayg‘uli va

daxshatli; komediya g‘amgin boshlanadi va baxtli yakunlanadi. Har ikkala shaklda taqdim etish usullari ham har xil: tragediya yuksak va tantanali, komediya past va sodda” [8]. “Uning tabiatini talqin qilishda ma‘lum bir kelishuvlar ishlab chiqmagan, komediya tushunchasi kontseptualashtirilmagan va komediya funksiyalari noaniq tarzda taqdim etilgan” [II, 6]

“Komediya” atamasi miloddan avvalgi VI asrda qadimgi Yunonistonda paydo bo‘lgan. Miloddan avvalgi 5-4-asrlarda Afinada Aristofan ijodi tufayli komediyalar juda mashhur bo‘lgan. U sharob xudosi Dionis sharafiga har yili o‘tkaziladigan ziyofatlarda boshqa shoirlar bilan tez-tez bahslashardi. Ular eng yaxshi yumoristik asarlarni tanlab, teatrlashtirilgan komediya tomoshalarini namoyish etishdi. Komediyalarda, qoida tariqasida, ko‘plab qo‘shiqlar va raqslar bo‘lib, aktyorlar niqobda ijro etishdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzu bo‘yicha Anikst, Y.Borev, Belinskiy va Arestotelning asarlaridan foydalanilgan holda yozilgan Arestotelning “Poetika” asarida adabiyotga tegishli barcha ma‘lumotlar qatori komediya haqida ham bir qancha mulohazalar keltirib o‘tilgan. Ammo mazkur asarda aynan komediya atalgan alohida bo‘lim yo‘q. Ehtimolki, mazkur kitobning saqlanib qolinmagan qismida aynan keltirilgan bo‘lishi mumkin. Arastu

tragediyani jiddiy doston bilan bog'lagani singari komediyani esa hajviy doston bilan bo'lgan. U komediya haqida shunday deydi: "komediya bu – foydasiz odamlarning harakatlarini tashvirlash", "mashara qo'shiqlari" [1], demakdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan intellektual bir asrda metodlarning ham kundan – kunga soni oshib takomikkashib bormoqda. Shuningdek bunday metodlarning ayni vaqtda biz foydalana oladigan qirqdan ziyod turi mavjud. Bu ma'lumotlarni B. Karimovning metodologiyaga oid kitobida ham ko'rishimiz mumkin. Mazkur maqolamizda bir qancha metodlardan foydalanamiz bular ichida eng ko'p qo'llanilganlari quyidagilar: qiyosiy metod, qiyosiy – tarixiy metod, biografik metod, germenefitik metodlar shular jumlasidandir.

**Tahlil va natijalar.** Darhaqiqat, tragediyalardan farqli o'laroq, komediyalarda razil, tuban insonlar tasvirlanadi. Tragediyalarda esa olijanob personajlar qalamga olinadi. Ammo yana shuni ham ta'kidlab o'tmog'imiz joizki, har ikkala tur qahramonlari ham to'raligicha aqlli va yomon bo'lib qolmasdan o'zgacharoq hislatlar ham biroz qo'shib ifodalangani, shundagina yaratilayotgan asar tabiiy chiqadi. Axir hayotimiz ham butkul nuqsonsiz emasku. Komediyalarda jismonan xunuklik shuningdek axloq qoidalariga zid keluvchi illatlar ham tasvirga olinadi va shu bilan komediyalar boshqa turlardan farqlanadi. Ularda tasvirlanayotgan xarakter va xulq – atvor jamiyat qabul qilgan axloqiy me'yorlarga mos kelmagan taqdir, bu voqea – hodisa kulgili chiqadi. Yuqorida keltirib o'tilgan parchalardan tashqari Arestotelning "Etika" sida komediya xususiyatlariga mos tushadigan xarakter va xulq – atvor haqida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Unda komediyalarda uchrashi mumkin bo'lgan mardlik haqida shunday deyilgan: "...mardlik qo'rqoqlik va jasoratning o'rtasidir".

**Xulosa va takliflar** (Conclusion/Recommendations). Hozirgi vaqtda zamonaviy ijtimoiy munosabatlarda va shaxs hayotida hazilning roli ortib bormoqda. Yumor nafaqat badiiy adabiyat shuningdek, madaniy va dam olish faoliyati doirasidan tashqariga chiqib, odamlarning kundalik hayotining elementiga aylanib, jamiyatning deyarli barcha sohalariga, jumladan siyosat, xizmat ko'rsatish, biznes, ta'lim va boshqalarga kirib bormoqda. "Sovet davridagi ruslarning "kulmaydigan" xalq degan tushunchasi o'timishda qoldi" [4]. Rahbarlar, biznes hamkorlar, o'qituvchilar va hatto yuqori martabali davlat arboblari ham hazil-mulohazaga ko'proq murojaat qilishadi.

Arestotel birinchi komik asarni Gomer yozgan deya e'tirof etadi. Mazkur asar "Margit" deb nomlanuvchi she'riy asar hisoblanib undan kichik parchalar saqlanib qolgan. "Margit" haqidagi munozaralarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir fikr mavjud, ya'ni Aristotelning yozishicha, Gomer "komediyaning asosiy shaklini birinchi bo'lib ko'rsatib, mashara qilish uchun emas, asosan kulgililigiga urg'u berib yakunlagan" [1]. Shuning uchun biz komediyalar alohida holatlarni tasvirlamaydi, balki barcha kulgili voqeliklarni umumlashtirib, ma'lum bir mazmun kiritgan holda tasvirlaydi deyishimiz mumkin. "O'rta asr sharhlovchisi Terens Donat qadimgi komediyalarni o'rganib, yunonlar komediya qahramonlariga qanday nom berishganligi haqida quyidagilarni aytadi: afinaliklar., o'z hayotlaridagi tanqid qilinadigan tomonlarini ko'rsatish uchun, ba'zi shaxslarni kulgili qilib tasvirlashgan" [9].

XVI XVIII asr adabiyotshunos olimlardan keyin bu masalaga to'xtalgan germaniyalik olim Lessing o'zining "Gamburg dramaturgiyasi" asarida shunday yozgan edi: "satiraga boy kulgini kuylovchi yozuvchilar bu davrga kelib ko'proq davlat amaldorlariga nisbatan satirik komediyalar yaratib, kulgi orqali tanqid qilinayotgan qahramonni o'zining ismi bilan atashga harakat qildilar" [10]. Bu bilan

komediya oddiy xalqni qiynab kun ko'radegan, o'zidan boshqa o'zgalari bilan ishi bo'lmaydigan manfur amaldorlarni omma oldida beayov fosh qilganlar. Arestotelning komediya xususida yana bir ta'rifida shunday deyilgan: "Komediya – bu nisbatan yomonroq odamlarni tasvirlashdir", "...kulgi – bu xunuklikning xilma-xilligi, u hech kimga xatolik, sharmandlik va azob-uqubat keltirmaydi" [11].

Yevropada komediyalar Uyg'onish davrida, XIV-XVI asrlarda paydo bo'lgan. Italiyada hatto bunday asarlarning teatrlar uchun maxsus turlari paydo bo'ldi. Ular kulgili skitslar, raqslar, musiqiy va akrobatik raqamlardan iborat teatrlashtirilgan tomoshalarning edi. Ularda ishtirok etgan aktyorlar maxsus niqob kiyishgan. Bu spektakllar italyan yozuvchilarining qayta ishlangan komediyalari asosida yaratilgan. Asarlarning syujeti ko'pincha spektakllar paytida o'zgarib turgan. "XVII-asrdan boshlab komediya Yevropa adabiyotining asosiy janrlaridan biriga aylanib uning yangi badiiy tamoyillari yaratildi" [1]. Komediyalarning har xil turlari rivojlangan. Ularning aksari muhim ijtimoiy va falsafiy muammolarga bag'ishlangan. Bundan tashqari, syujet kulgili kundalik vaziyatlar, qiziq holatlar atrofida qurilgan.

San'atning boshqa turlarida bo'lgani kabi o'rta asr gumanistlari dramaga simmetriya va uyg'unlik ya'ni tartib kiritishga intildilar. Ularning fikricha, birinchi navbatda dramaturgiyaning dramatik shakllarini aniq belgilash va begona shakllardan tozlash lozim edi. Afsuski bu vaqtgacha mazkur janrlarning aniq chegarasi va ta'riflari yo'q bo'lgan. Tragediya va komediya turli xil elementlarni o'z ichiga olgan ma'lum bir syujet bo'lgan. Komediyaning aniq qoida va chegaralarini o'rganishga harakat qilgan Italiyalik nazariyotchi olim Skaligerning ta'rificha komediya va tragediyada uch asosiy farq bor bular: "...personajlarning ijtimoiy kelib chiqishi, harakat va holatning tabiati, tragediya va komediyadagi uslublar nomutanosibligi, ya'ni tragediya mahoratli komediya oddiy bo'lishi" [6]. Eng boshida aytib o'tganimizdek komediyalar ananaviy yumoristik va satiriklarga bo'lingan. Birinchisining mualliflari odatda o'z qahramonlariga hamdardlik bilan munosabatda bo'lsa, satirik komediyalarda esa yozuvchilar jamiyatning illatlarini qoralaganlar, shuning uchun ularning qahramonlari ko'pincha yoqimsiz tarzda taqdim etilgan.

Qahramonlarning ijtimoiy mavqei fojia va komedia o'rtasidagi eng muhim farqlardan birini belgilaydi degan fikr XVI asr davomida drama nazariyasida saqlanib qolgan. XVII asrda yashab o'tgan yana bir Yevropalik olim Spingaring komediyaga oid nazariyasi Anikstning kitobida quyidagicha keltirib o'tilgan:

komediyada tasvirlangan qahramonlar oddiy shaharlik va qishloqlik odamlar;

komediya voqealari kundalik turmushlar va shaxsiy tadbirlardan iborat;

komediya boshlanmasi juda qo'pol boshlansada, ammo oxrida baxtli yakunlanadi;

komediya asosidagi syujeti ko'p hollarda muallif tomonidan o'ylab topiladi;

komediyada asosan sevgi va vas-vasali holatlar tasvirlanadi.

Jahon adabiyotda komiksning shakllari va usullarini aniqlashda juda ko'p chalkashliklar mavjud. Avvalida aytib o'tganimizdek, komiksning ikki xil shakli mavjud: yumor va satira. Bu an'anaviy shakllar bo'lib, ularning farqlanishining qonuniyligiga hech kim shubha qilmaydi. Y. Borev va L. I. Timofey komiksning asosiy shakllari sifatida satira va yumor deb hisoblashadi. "Komiks" atamasi estetik adabiyotda umumiy va keng tushunchani bildiruvchi so'z sifatida qabul qilinadi; Satira va yumor, yuqorida aytib o'tilganidek, komediya shakllari hisoblanadi. "Satira - komiksning eng yuqori va o'tkir shakli. Shuningdek ular komiksning turlari - yumor, satira, grotesk, ironiya, karikatura, parodiya va

boshqalarni keltirib o'tgan" [4]. ( Grotesk – fransuzcha grotesk, “g'alati”, “kulgili”, - badiiy shakllantirish usuli, san'atdagi janr bo'lib, unda hayotiy munosabatlar kulgili yoki tragikomik tarzda umumlantiriladi. (Giperbola – bu – haddan tashqari bo'rtirib yuborish, adabiyatda giperbolani hamma yozuvchi o'z asarlarida istisnosiz qo'llashni yaxshi ko'rishadi. Ular giperbolani o'z asarlarini bezatish, ularni yanada hissiy, yorqin va to'laqonli qilish uchun foydalanishadi. Karikatura – italyancha caricare – “bo'rtirish” satirik yoki hajviy tasviriy san'atga aytiladi. Aniq ijtimoiy, tanqidiy yo'nalishga ega bo'lgan san'at turi. Parodiya – yunoncha zid qo'shiq. Adabiyat, teart, musiqa va estrada janri, kulgi san'ati, hajv va hazil turlaridan biri).

Komediyaning yuqorida keltirib o'tilgan bu kabi turlar hajviy shakl va uslublarning aralashmasidan kelib chiqadi. “Grotesk, karikatura, parodiya giperbola faqatgina komiksning usullari deb hisoblash mumkin emas. Ular komediyalardagi yumor bilan bir qatorda satiraga ham xizmat qiladi” [4]. Shubhasiz, hajviy vositalar va uslublar darhol paydo bo'lmaydi, asta-sekin adabiyot taraqqiyoti bilan ularning soni ko'payib, mazmuni boyib boradi. Y.Borev yuqoridagi keltirilgan shakllar kabi satira shakllari haqida ma'lumot berar ekan, “... satirik personajlarning o'zini-o'zi fosh etilishi, ularning hayvonlar timsoli bilan qiyoslanishi, komediya kontrasti, tilga to'g'ri keladigan vositalari (so'z o'yinlari, xarakteristikasi, satirik allegoriya)” [3], kabi usullarni aytib o'tgan.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bu ro'yxat bitta tartibli sinfni tashkil etmaydi. Bu yerda hajviy vositalar va uslublar turli bo'lishi mumkin, masalan, giperbolizatsiya texnikasi fakt va hodisalarni deformatsiya qilishning eng faol usullaridan biridir; yoki o'zini va bir-birini fosh etish asar tuzilishi va uning syujeti bilan bog'liqdir. Ko'p ma'noli, omonimiya, so'z birikmasi, allegoriya, hajviy kontrast va

boshqalar hajviyning lingvistik vositalaridir. “Mashara, allegoriya, giperbolizatsiya (va uning turlari - grotesk, karikatura, parodiya, fantaziya), hajviy detal, hajviy vaziyat, hajviy xarakter, kontrast, so'z o'yinlari va hokazolarni bir xil tartibdagi omillar sifatida belgilash noto'g'ri” [4].

Hajviy asarning bahosi, yumor va satiraning kuchliligi bu - kulgini keltirib chiqaradigan vositalarni tanlash va ulardan o'rinli foydalanish, matnga mohirona kiritishga bog'liqdir. Asar bu talablarga javob bermagan hollarda, hajviy rangpar shuningdek, satirik va yumoristik jihatdan ruhi zaif bo'lib qoladi. Asar bunday holatga tushmasligi uchun bizga hajviy vositalar va usullarning yordamga keladi. Bunday vositalar va usullar komediyaning ajralmas birligi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Komik vositalarsiz kulgili xarakter va ziddiyatni shakllantirish mumkin emas. Komik asarning syujeti asta-sekin kulgili vositalar bilan to'ldiriladi, bu syujetning umumiy jarayonida komiks texnikasining rivojlanishini belgilaydi. Komediya ustasining asosiy vazifasi lisoniy vositalardan hajviy tarzda foydalanish; kinoya ustasi, yumor ijodkori qo'llanilgan vositalarga satirik yoki yumoristik bo'yoq bera olishi, tilning o'zida hajviy xususiyatga ega bo'lgan birliklarni tanlay olishi, o'z asarini hajviy intonatsiya va hajviy nutq vositalari bilan bo'yashni bilishi kerak. Shuni ta'kidlashni istardimki, komiksning shakllari, usullari va vositalari tez-tez aralashib ketganiga qaramay, hanuzgacha komiksning ikkita asosiy shakli ajralib turadi: yumor va satira. Komik holatni yaratish usullari orasida: vaziyatga qarab aniqlangan istehzo, kontrast, kulgili bo'rtirish (giperbola), kamsitish (litote), tushunmovchilik, kutilmagan hodisalar. Komiks yaratish vositalari orasida epitetlar, metaforalar, qiyoslar, o'xshatishlar, oksimoronlar, sinonimlar, antonimlar, qarg'ishlar, qarg'ishlar, ma'qullashlar, maqtovlar, vulgarizmlar, unvonlar gaplar shular jumlasidandir.

#### ADABIYOTLAR

1. А.Аникст Теория драмы от Аристотеля до Лессинга издательство Москва: Наука 1967.
2. Билинский.Я.С. Русская классика и изучение литературы в школе: Кн.для учителя. – М.: Просвещение 1986.
3. Боров.Ю. Комическое – М.: Искусство 1970.
4. Сафонова.Е.В. Формы средства и приёмы создания комического в литературе //Молодой ученый. 2013 №5 (52). С.474-478.
5. Кязимов.Г. Теория комического проблемы языковых средств и приемов.
6. Spingharn J.E. Op.cit. 65-page
7. Hamdamov U., A.Qosimov Jahon adabiyoti Toshkent :Barkamol fayz media, 2017 128-b
8. А.Дживелегов. Данте. 2-ое изд. М..1946. стр.289
9. Aelius Dotatus Komediya va tragediya In:B. Klark Yevropa drama nazariyasi 1947. 379-b
10. Lessing Gamburg dramaturgiyasi 328-bet.
11. Arestotel. Poetika, E.Radlov tarjimai 11.7, 32-bet
12. <https://core.ac.uk>
13. <https://moluch.ru/archive/52/6970/>
14. <https://uz.m.wikipedia.org>
15. <https://core.ac.uk>
16. <https://ru.m.wikipedia.org>
17. <https://litpr.ru/komicheskoe/>



UDK: 811. 111. 1: 87'9 (575.1)

*Bunyodbek SOTVOLDIYEV,*  
*Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti v.b., filol.f.f.d. (PhD)*  
*E-mail: b.sotvoldiyev@mail.ru*

*O'zMU professori, filol.f.d. A.E. Mamatov taqrizi asosida*

## EXCLUSIVE TYPES OF SHORTENED WORDS AMONG ENGLISH SLANG UNITS

Annotation

The changes taking place in human society in the 21<sup>st</sup> century, that is, in the period when science and technology have reached their peak, are rapidly affecting all areas of our lives. The influence of such updates on the language field is also increasing day by day.

In today's era of advanced media communication, rapid information exchange is considered the need of the period, and as a result, a large number of new slang units are appearing in the speech of Anglophones. Among these slang units of speech, the number of abbreviations is incomparable. Therefore, this article is about non-traditional types of abbreviations in English slang words and reveals a number of their unique features.

**Key words:** Linguistic factor, extralinguistic factor, hybrid abbreviation, monosyllabic abbreviation, abbreviation with the element "X".

## ИСКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ТИПЫ АББРЕВИАТУРЫ СРЕДИ ЕДИНИЦ АНГЛИЙСКОГО СЛЕНГА

Аннотация

Изменения, происходящие в человеческом обществе в 21 веке, то есть в период, когда наука и техника достигли своего расцвета, стремительно затрагивают все сферы нашей жизни. Влияние таких обновлений на языковое поле также увеличивается день ото дня.

В современную эпоху передовых медиакоммуникаций потребностью периода считается быстрый обмен информацией, в результате чего в речи англоязычных людей появляется большое количество новых сленговых единиц. Среди этих сленговых единиц речи несравнимо количество аббревиатур. Поэтому данная статья посвящена нетрадиционным типам аббревиатур в английских сленговых словах и раскрывает ряд их уникальных особенностей.

**Ключевые слова:** Лингвистический фактор, экстралингвистический фактор, гибридная аббревиатура, односложная аббревиатура, аббревиатура с элементом «X».

## INGLIZ TILI SLENGLARIDA QISQARTMALARNING O'ZIGA XOS TURLARI

Annotatsiya

Kishilik jamiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar XXI asr, ya'ni ilm-fan va texnologiya o'zining eng yuqori cho'qqisiga erishgan davrda barcha sohalarga jadal sur'atlar bilan o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bu kabi yangilanishlarning til sohasiga bo'lgan ta'siri ham kundalik hayotimizning bormoqda.

Media muloqoti rivojlangan bugungi davrda tezkor axborot almashuvi zamon talabi hisoblanib, buning natijasi o'laroq anglofonlar nutqida ko'p miqdorda yangi sleng birliklari vujudga kelmoqda. Ushbu sleng nutq birliklari orasida qisqartmalarning salmog'i beqiyosdir. Shu bois ushbu maqolada ingliz tili slenglari tarkibidagi qisqartmalarning noan'anaviy turlari haqida gap boradi hamda ularning bir qator o'ziga xos jihatlari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Lingvistik omil, ekstralingvistik omil, gibrid qisqartma, bir bo'g'inli qisqartma, "X" elementli qisqartma.

**Kirish.** Insonlar bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatga kirishar ekanlar, muloqot jarayonida so'z, so'z birikmalari va so'z guruhlarini qisqartirishga ehtiyoj sezilishi tabiiy holdir. Muloqotda qisqartma so'zlardan foydalanish, asosan, lingvistik va ekstralingvistik omillar sababli yuzaga kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalar va axborot asrida yashayotgan ekanmiz, juda qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotni yetkazib berish va uni qabul qilib olish sekin-astalik bilan kundalik hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylanib bormoqda. Chunki, aynan ular sababli hayot tempi jadallashmoqda va har qanday axborotni tez va qulay yetkazib berish zaruriyatini esa zamonning o'zi talab etmoqda. Buning natijasida, hozirgi zamon ingliz tilida kundalik muloqotda ko'plab yangidan-yangi qisqartma so'zlar paydo bo'lmoqda va aynan mana shu sabablar qisqartmalar ishlatilishining ekstralingvistik omillari sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz tilida so'z qisqartirishining lingvistik omili sifatida esa axborotni qisqa fursatda yetkazish uchun ko'p bo'g'inli so'zlarning qisqartmalar orqali ifodalanishini keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari, ingliz tiliga boshqa

tillardan kirib kelgan so'zlarning to'liq o'zlashib ketishi jarayonida ham ular, ko'pincha, qisqartirishga uchrashi mumkin. Ushbu maqolada ingliz tili slenglari tarkibidagi qisqartmalarning adabiy til so'z qisqartirish qonunlariga bo'ysunmaydigan o'ziga xos turlari lingvistik jihatdan tadqiq qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon tilshunosligida qisqartmalar borasida ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, Yevropa va AQSh tilshunosligida qisqartmalarning terminologik muammolari B. Aarts va A. Makkahun [1], abbreviatura terminologiyasi masalalari J. Ayto [2] va ularning o'ziga xos xususiyatlari H. Busman [3] kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa, qisqartmalarning akronim turi borasida T. Makartur [4] ning ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Sovet tilshunosligida qisqartmalar terminologiyasi borasida O. Axmanova [5], klipping usuli haqida N. Rayevska [6], R. Ginzburg [7], blending usuli to'g'risida D. Shevlakova [8] kabi tilshunoslar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan

bo'lsa, slengdagi qisqartmalar borasida I.Arnold [9]ning mulohazalari diqqatga sazovordir.

O'zbek tilshunosligida qisqartmalar borasida J.Bo'ronov va A.Mo'minov [10], X.Jamolxonov [11], Sh.Rahmatullayev [12] kabi olimlarning mulohazalari ushbu soha doirasidagi ishlarda katta ahamiyatga ega bo'lsa, sleng tarkibidagi qisqartma turlari G'.Rahimov [13], D.Satimova [14] va B.Sotvoldiyev [15]larning dissertatsiya ishlarida ochib berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qisqartma so'zlar turli tillarda har-xil nomlar bilan yuritiladi. O'zbek va rus tillarida abbreviatura deb atalsa, ingliz tilida so'z qisqartirish jarayoni "Shortening", qisqartma so'zlar esa "Shortened words" nomi bilan yuritiladi. Bu hodisa ingliz tiliga ham taalluqli bo'lib, yangi so'zlar va tushunchalar hosil qilishda qisqartmalar ham salmoqli o'rin egallaydi.

Tadqiqotimizning asosiy ob'ekti hisoblangan adabiy til birliklariga shaklan sinonim bo'lgan sleng birliklarini tadqiq qilish jarayonida ham juda ko'plab qisqartma so'zlarga duch keldik. Natijada, ularni tahlil qilish orqali bir qancha qiziq ma'lumotlarga ega bo'ldik. Shu bois mavzuni yoritishda mazkur maqolada sistem-struktur, tavsiflash, pragmatik, statistik hamda komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Slenglar tarkibiga kirgan qisqartma so'zlar tahlili yuqoridagilarning hech biriga to'g'ri kelmaydigan qisqartmalar ham mavjudligini ko'rsatdi. Shu bois bu toifa qisqartma so'zlarning quyidagi turlarini aniqlashni lozim topdik.

1. Gibril shaklli qisqartmalar – so'zning yoki so'z guruhining bir necha joylaridan olingan tovush (lar) yoki bo'g'in (lar) jamlanmasidan tashkil topgan qisqartmalar. Ular quyidagilar: *frit* (adj British) – *qo'rqib ketgan*. U "frightened" so'zidan olingan va bu qisqartma so'zni birinchi bo'lib Margaret Tetcher 1986 - yilda parlamentdagi raqiblariga qarshi qo'llagan; *ha'porth* (n British) – *muhim bo'lmagan odam*. U "halfpenny's worth (yarim pennilik qadr)" so'zlaridan olingan bo'lib, unda insonning qadri yarim penniga qiyoslanadi; *homeys* (n) – *uyini yaxshi ko'ruvchilar, ko'chaga kamroq chiqib, uyida ko'p o'tiradigan odamlar*. U "homeloving young professionals" so'zlaridan olingan bo'lib, yuppi (yuppie)lar tomonidan 1988 - yilda o'ylab topgan akronim hisoblanadi; *(to) O.D./o.d.* (n/v) – *ko'p miqdorda giyohvand modda qabul qilib yuborish/yubormoq*. U "(to) overdose" so'zidan olingan bo'lib, asosan 1960 - yillarda giyohvandlar tomonidan keng qo'llangan va hozirda ham foydalanib kelinadi;

2. Shaklan mustaqil leksik ma'no anglatuvchi so'zdan tashkil topgan qisqartmalar – so'z birikmasi yoki so'z guruhidan faqat bitta mustaqil leksik ma'no anglatuvchi so'zni o'zining ajratib olinishidan paydo bo'ladigan qisqartma so'zlar. Ular quyidagilar: *cock* (n British) – *erkak kishiga murojaat qilishda ishlatiladigan so'z*. U "cock sparrow (erkak chumchuq)" so'zidan olingan. Bu qisqartma so'z ushbu ma'noda kamida 300 yildan buyon qo'llanib kelinmoqda; *duchess* (n British) – *xotin*. U "Duchess of Fife (xotin)" so'z birikmasidan qisqartirib olingan bo'lib, qariyb bir asr avval o'ylab topilgan bo'lsada, hozirda ham foydalanib kelinadi; *filthy* (adj British) – *juda ham boy*. U "filthy rich" so'zlaridan olingan; *gamp* (n British) – *soyabon*. U "Sarah Gamp (Charlz Dikkenzning 1870-yilda chop etilgan "Martin Chuzzlewit" asari qahramoni bo'lib, u katta soyabon ko'tarib yurgan)" asar qahramoni nomidan ilhomlanib olingan; *(the) Gate* (n British) – *Notting Hill Geyt tumani*. U Londondagi yirik festivallar o'tkaziladigan yirik madaniy va etnik markazlaridan biri "Notting Hill Gate" tumani nomidan olingan;

3. Bir bo'g'inli qisqartmalar. Ular quyidagilar: *(to) con* (v/n) – *1) biror noqonuniy ish qilmoq; 2) firibgarlik, qalloblik*. U "confidence – trick" so'z birikmasidan olingan va 1950-yillarda sleng deb hisoblangan. Hozirda esa asosan adabiy

tilga mansub so'z sifatida io'latiladi; *(the) Met* (n British) – *London shahri politsiyasi*. U "(the) London Metropolitan Police force" so'zlaridan qisqartirib olingan; *des.res* (n British) – *istarali uy*. U "desirable residence" so'zlaridan olingan.

4. "X" elementli qisqartmalar – tarkibida "X" harfi mavjud bo'lgan qisqartma so'zlar. Ushbu so'zlar tarkibidagi "X" harfi, asosan, uning metaforik ma'nolaridan kelib chiqqan holda qo'shilgan bo'ladi.

Sleng va adabiy so'zlar lug'atlaridagi "X" elementli so'zlarni tahlil qilish natijasida, ularga xos bo'lgan bir nechta qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldik. Masalan: adabiy so'zlar lug'atlaridan biri "Webster's dictionary" lug'atiga "X" elementli so'zlardan jami 4 ta: 1) *X* (n); 2) *X mas* (n); 3) *X-ray*(n/v); 4) *xylophone*(n) so'zlari kiritilgan bo'lib, ulardan faqat bittasi (4)da "X" mustaqil ma'no anglatuvchi so'zning elementi sifatida, qolgan uchta (1, 2, 3)da esa qisqartma so'zning elementi sifatida kelmoqda.

"Longman Dictionary of Contemporary English (LDOCE 5)" lug'atida esa ulardan 14 tasi kiritilgan: 1) *X* (n); 2) *X chromosome*(n); 3) *to X out*(v); 4) *x-ahis*; 5) *x-certificate* (n); 6) *X-rated* (adj); 7) *(to) x-ray* (v/n); 8) *xenon* (n); 9) *xenophobia* (n); 10) *xenotransplant* (n); 11) *XL* (adj); 12) *X mas* (n); 13) *XML* (n); 14) *xylophone* (n).

Ulardan 4 tasi (8, 9, 10, 14)da "X" mustaqil ma'no anglatuvchi so'zning elementi sifatida, qolgan 10 tasi (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 11, 12, 13)da esa qisqartma so'zning elementi vazifasini bajarmoqda.

"Macmillan Dictionary English" lug'atida esa "X" elementli so'zlardan jami 28 ta kiritilgan: 1) *X/x* (n); 2) *X has left the building* (phrase); 3) *X marks the spot* (phrase); 4) *x-ahis* (n); 5) *X-certificate* (adj); 6) *X-rated* (adj); 7) *(to) x-ray* (v/n); 8) *X-ray vision* (phrase); 9) *XAI* (n); 10) *xanthosis* (n); 11) *XBRL* (n); 12) *xe* (n); 13) *xenoglassophobia* (n); 14) *xenomania* (n); 15) *xenon* (n); 16) *xenophile* (n); 17) *xenophobia* (n); 18) *xenosepticism* (n); 19) *xenotransplant* (n); 20) *Xerox* (n); 21) *Xhosa* (n); 22) *XL* (adj); 23) *X mas* (n); 24) *XML* (n); 25) *XOXO* (n); 26) *xun* (n); 27) *Xy McXface* (n); 28) *xylem* (n).

Ulardan 13 tasi (10, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 26, 28)da "X" mustaqil ma'no anglatuvchi so'zning elementi sifatida, qolgan 15 tasi (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 11, 22, 23, 24, 25, 27)da esa "X" qisqartma so'zning elementi sifatida kelmoqda (37-ilovaga qarang).

Uchta adabiy til lug'atlaridan jami 46 ta tarkibida "X" elementi mavjud so'zlar tahlilga tortilgan bo'lib, ulardan 18 tasi (39.1%)da "X" so'zning mustaqil ma'no anglatuvchi elementi vazifasini bajarmoqda, qolgan 28 ta (60.9%) holatda esa u qisqartma so'zning elementi sifatida kelmoqda.

Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, adabiy so'z lug'atlarida uchraydigan "X" elementli so'zlarning asosiy qismi qisqartma so'zlar tarkibida keladi.

Bu hodisa slenglar tarkibidagi "X" elementli so'zlarga ham xos ekanligini ko'rishimiz mumkin. Adabiy so'z lug'atlaridan farqli o'laroq, sleng lug'atlarida keltirilgan "X" elementli so'zlarning barchasi (100%) qisqartma so'zlar tarkibida keladi. Fikrimizni to'rtta sleng lug'atida keltirilgan barcha "X" elementli so'zlarni tahlil qilish orqali dalillaymiz.

T.Torning "Dictionary of Modern Slang"[16] lug'atida jami 4 ta "X" elementli so'zlar keltirilgan: 1) *X* (n) – *bo'sa, o'pich belgisi*. Hozirda asosan o'smirlar orasida xat oxiriga "X" belgisini qo'yish orqali muhabbatini izhor qilish urfga aylangan; 2) *to x-out* (v) – *a) xatoning ustidan chizmoq (bunda "X" belgisi orqali biror narsaning xato ekanligi ko'rsatiladi); b) o'ldirmoq, yo'q qilmoq (bunda "X" belgisi "Yo'q bo'ldi, yo'q qilindi" ma'nolarini ifodalaydi); 3) x-rated* (adj) – *a) bema'ni, uyatsiz, pornografik (asosan "18+" yozuvi bor filmlarga ironiya tarzida ishlatiladi); b) qo'rqinchli (filmga nisbatan); 4) xtc* (n) – "ecstasy" giyohvand moddasi.

Bu qisqartma so'z ushbu giyohvand modda nomi bilan bir – xil talaffuz qilinganligi uchun atayin uning o'rniga ishlatilgan bo'lib, asosan 1980 - yillar oxirlarida undan foydalanish odatga aylangan. Yuqoridagi misollardan aytilish mumkinki, ularning barchasini "X" elementli qisqartma so'zlar deb atasak bo'ladi.

T. Dalzellning "The Routledge Dictionary of Modern American Slang and Unconventional English"[17] lug'atida jami 9 ta "X" elementli so'zlar keltirilgan bo'lib, ular quyidagilar: 1) (to) X (v/n) – a) "ecstasy" giyohvand moddasi; b) ushbu giyohvand moddani qabul qilmoq; 2) to put X on (v) – o'lgan odamning ustiga "X" belgisini chizmoq; 3) the X (n) – sirk yoki karnavallarda biror predmetning olib kirilishi uchun berilgan mahsus vakolat belgisi; 4) x-double-minus (adj) – juda yomon; 5) x-ray eyes (n) – poker o'yinidagi o'yinchining boshqalarning kartalarini miqdorini sezish tuyg'usi; 6) X-row (n) – qamoqxonadagi o'limga hukm qilinganlar saqlanadigan mahsus kamera; 7) x's and o's (n) – rejaning asosiy detallari; XTC (n) – "ecstasy" giyohvand moddasi; 8) X vid (n) – pornografik video; 9) XYL (n) – xotin. Ushbu lug'atdagi "X" elementli so'zlarning barchasini qisqartma so'zlar deb atashimiz mumkin.

R. Spirsning "NTC's Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions (3<sup>rd</sup> edition)"[18] lug'atida jami 4 ta "X" elementli so'zlar keltirilgan: 1) X'd out (adj) – ustidan chizilgan, o'ldirilgan; 2) X marks the spot (phrase) – Mana o'sha joy!; 3) XMT (phrase) – (xunuk) yozuvim uchun ma'zur

tutasiz!; 4) XYZ (phrase) – tugmangni qada yoki zamogingni ko'tar! Ushbu sleng lug'atidagi "X" elementli so'zlar barchasini qisqartma so'z sifatida kelayotganini ta'kidlashimiz mumkin.

T. Dalzell va T. Viktorlarning "The Concise New Partridge Dictionary of Slang and Unconventional English"[19] lug'atida "X" elementli so'zlardan jami 18 ta uchraydi:

1) X (n) – "ecstasy" giyohvand moddasi; 2) x-double-minus (adj) – juda yomon; 3) x-dressing (n) – erkak kishi ayollarning, ayol kishi esa erkaklarning kiyimlarini kiyishi; 4) X-Files (n) – gemorroj; 5) X-Files E (n) – "ecstasy" tabletikasi; 6) x-ing (n) – "ecstasy" giyohvand moddasini qabul qilish; 7) X marks the spot (phrase) – Mana o'sha joy!; 8) X mas (n) – rojdestvo bayrami; 9) x-ray-eyes (n) – poker o'yinidagi o'yinchining boshqalarning kartalarini miqdorini sezish tuyg'usi; 10) X-row (n) – qamoqxonadagi o'limga hukm qilinganlar saqlanadigan mahsus kamera; 11) xs and os (n) – rejaning asosiy detallari; 12) XTC (n) – "ecstasy" giyohvand moddasi; 13) X vid (n) – pornografik video; 14) XX (n) – yigirma dollar; 15) XY (n) – turmush o'rtoq; 16) XYL (n) – xotin; 17) XYM (n) – er; 18) XYZ (phrase) – tugmangni qada yoki zamogingni ko'tar!

To'rtta sleng lug'ati doirasida tahlil qilingan so'zlarning barchasini raqamlar orqali quyidagi jadvalda ifodalaymiz (1-jadvalga qarang):

1 – jadval

#### To'rtta sleng lug'atida keltirilgan "X" elementli birliklar soni

Sleng lug'atlari	"X" elementli so'zlarning umumiy soni	"X" mustaqil ma'no anglatuvchi so'z elementi sifatida	"X" qisqartma so'zning elementi sifatida
Dictionary of Modern Slang	4	0	4
The Routledge Dictionary of Modern American Slang and Unconventional English	9	0	9
NTC's Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions (3 <sup>rd</sup> edition)	4	0	4
The Concise New Partridge Dictionary of Slang and Unconventional English	18	0	18
Jami (%):	38 (100%)	0 (%)	38 (100%)

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, "X" mustaqil ma'no anglatuvchi so'z elementi sifatida sleng lug'atlarida uchramadi (0%), aksincha keltirilgan misollarning barchasida u qisqartma so'zning elementi sifatida qayd etildi (100%). Bu esa sleng so'zlar tarkibida uchraydigan "X" elementli so'zlarning barchasi qisqartma so'zlar shaklida bo'ladi degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Sleng birliklari tarkibida keluvchi qisqartma so'zlar tahlili ular orasida so'z qisqartirishning eng ko'p uchraydigan turi klipping hodisasi ekanligini ko'rsatdi. Sleng yasashidagi mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'yicha barcha

qisqartma turlari orasida klipping tarkibidagi apokopalar birinchi, abbreviatura tarkibidagi initsial so'zlar ikkinchi, klipping tarkibiga kiruvchi so'zning old va orqa qismini qisqartirish orqali hosil bo'ladigan slenglar esa eng past o'rinni egalaydi.

Qisqartma slenglarning so'z qisqartirishning an'anaviy qoidalarga bo'ysunmaydigan shakllari, xususan, gibril shaklli qisqartmalar, shaklan mustaqil leksik ma'no anglatuvchi so'zdan tashkil topgan qisqartmalar, bir bo'g'inli qisqartmalar va "X" elementli qisqartmalar kabi turlari mavjud ekanligi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Aarts B. and Mccahon A. The Handbook of English Linguistics. UK.: Blacwell Publishing LTD, 2006, p.500.
2. Ayto J. Word Origins (2<sup>nd</sup> ed.). London: A&C Black, 2005, p. 76.
3. Bussmann H. The Routledge Dictionary of Language and Linguistics (edit. by G.P.Trauth). London: Taylor&Francis e-Library, 2006, p. 1.
4. McArthur T. The Oxford Companion to the English Language. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – p.11.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов (2-е изд.). – М.: Советская Энциклопедия, 1969. – с. 406.
6. Rayevska N.M. English Lexicology (Fourth edition). Kiev: Vyšča Škola, 1979, pp. 97-98.
7. Ginzburg R.S. and others. A course in modern English lexicology (2<sup>nd</sup> ed.). Moscow: Vyssšaja Škola, 1979, p.191.
8. Шевлякова Д.В. Бленды как явление в лексикологии. // Международная научная конференция «Инновационная наука». №4 – 2016. – с. 112.

9. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: «Высшая школа», 1986. – с. 143.
10. Buranov J. and Muminiv A. A Practical Course in English Lexicology. Tashkent: “O‘qituvchi”, 1990, p. 61.
11. Jamolxonov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Talqin, 2005. – b. 13.
12. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – T.: Universitet, 2006. – b. 34.
13. Rahimov G‘. Britaniya va Amerika slengining sotsiolingvistik xususiyatlari: Filol.fan.nomz. ...diss. – Samarqand, 2006. - b. 111.
14. Satimova D. Ingliz va o‘zbek yoshlar slengining qiyosiy tahlili: Filol.fan.bo‘y.fal.dok. ... diss. avtoref. – Andijon, 2020.
15. Sotvoldiyev B. Ingliz tilida slengning paradigmatic-sintagmatik xususiyatlari: Filol.fan.bo‘y.fal.dok. ... diss. avtoref. – Namangan, 2021.
16. Thorne T. Dictionary of Modern Slang. – M.: Вече-Персей, 1996. – 583 pp.
17. Dalzell T. The Routledge Dictionary of Modern American Slang and Unconventional English (Preface). – New York: Routledge, Taylor & Francis Group, 2009. – 1104 pp.
18. Spears R. NTC’s Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions. – The USA: McGraw-Hill Companies Inc., 2000. – 560 pp.
19. Dalzell T. and Victor T. The Concise New Partridge Dictionary of Slang and Unconventional English. – N.Y.: Taylor & Francis e-Library, 2007. – 721 pp.



UO'K:82-1/-9(575.1)

*Dilorom TASHOVA,*  
*BuxDU mustaqil tadqiqotchisi,*  
*IIV Buxoro akademik litseyi o'qituvchisi*

*BuxDU professori, f.f.d. (DSc) D. Quvvatova taqrizi asosida*

### ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATIDA IKKILIK SHAKLIDAGI LJODIY IZLANISHLAR

Annotatsiya

Ma'lumki, bugungi she'riyatimizda ikkilik shaklidagi she'rlar o'ziga xos badiiy tizimni tashkil etadi. Bu she'rlarning asosi mumtoz adabiyotdagi fard va masnaviy janrlariga borib tutashadi. Ushbu maqolada ana shunday ikki misradan iborat she'rlar tahlil qilingan; janriy xususiyatlari, fard va masnaviydan farqli jihatlari ko'rsatilgan va o'ziga xos xususiyatlari izohlangan. Tahlil uchun Anvar Obidjon, Usmon Qo'chqor, Sirojiddin Sayyidning shakliy izlanishlari tanlangan.

**Kalit so'zlar:** Ikkilik, masnaviy, badiiy shakl, shakliy izlanish, janr, muqarnas, fard, masnaviy, poetik obraz, ikkiqat, turkum, turoq.

### CREATIVE RESEARCH IN THE FORM OF BINARY IN THE POETRY OF THE INDEPENDENCE PERIOD

Annotation

It is known that in today's poetry, poems in binary form form a unique artistic system. The basis of these poems goes to the individual and masnavi genres of classical literature. This article analyzes two such poems; Genre features, aspects different from individual and masnavi are shown and their specific features are explained. For the analysis, the formal researches of Anvar Obidjan, Usman Kochkar, Sirajiddin Sayyid were analyzed.

**Key words:** Duality, masnavi, artistic form, formal search, genre, muqarnas, individual, masnavi, poetic image, double, series, turoq.

### ТВОРЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ В ФОРМЕ БИНАРИИ В ПОЭЗИИ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

Как известно, в нашей сегодняшней поэзии двустишия образуют своеобразную художественную систему. Основа этих стихов восходит к жанрам фард и маснави в классической литературе. В этой статье анализируются стихи, состоящие из двух таких стихов; указаны жанровые особенности, различия от фарда и маснави, а также исследованы их отличительные особенности. Для анализа были рассмотрены поиски художественной формы в творчестве Анвара Абиджана, Усмана Кучкара, Сирожиддина Сайида.

**Ключевые слова:** Двустишие, маснави, художественная форма, поиск формы, жанр, мукарнас, фард, маснави, поэтический образ, двойственность, категория, тип.

**Kirish.** Ma'lumki, bugungi she'riyatimizda ikkilik shaklidagi she'rlar o'ziga xos badiiy tizimni tashkil etadi. Bu she'rlarning asosi mumtoz adabiyotdagi fard va masnaviy janrlariga borib tutashadi. Ikkilik-fard, ikkilik-masnaviy tizimida bu janr va poetik shakllar orasidagi mushtaraklik va tafovutlarni qiyoslashga harakat qilamiz. Ikki misradan iborat tugal mazmunga ega ikkilik shakli fard janriga o'xshaydi. Ya'ni fardda ham, asosan, axloqiy-hayotiy fikr aks etadi. Shu nuqtayi nazardan zamonaviy o'zbek she'riyatida yuzaga kelgan ikkilik badiiy shakli fard va masnaviy tizimida tipologik xususiyatlar kasb etganligi kuzatiladi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin: 1. Fard-muqarnas-ikkiiqat tizimi. 2. Masnaviy-ikkilik tizimi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mustaqillik davri o'zbek she'riyati badiiy-estetik tafakkurning yangi bosqichi sifatida yuzaga keldi. Uning taraqqiyoti, shubhasiz, qadim ildizlarga borib taqaladi. Darhaqiqat, o'zbek mumtoz adabiyoti bunda asosiy ko'prik vazifasini o'tadi. J.Kamol, A.Obidjon, S.Sayyid, U.Qo'chqor, I.Subhon, A.Hamro, A.Nabi kabi shoirlar ijodiy izlanishlari natijasida adabiyotda tarona, uchpaxsa, uchchanoq, so'taruboiy, to'rtqavatli, muqarnas, shashqator, chorzarb, beshnavo, beshso'z, oililik kabi yangi badiiy shakllar yuzaga keldi. Mazkur she'riy shakllar mavzu rang-barangligi, poetik obrazlarga boyligi, mazmuni bilan alohida badiiy tizimni tashkil etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuqorida ta'kidlaganimizday, o'zbek mumtoz she'riyatida ikki misradan

iborat fard janri mavjud. Bu janr o'zining qat'iy qonuniyatlari va belgilariga ega. Bu haqda adabiyotshunos D.Quronov yozadi: "Fard (ar. – yakka, yolg'iz) – o'zaro qofiyalangan ikki misra – yolg'iz baytdan iborat, tugal mazmunga ega she'r, mumtoz adabiyotdagi eng kichik mustaqil lirik janr. Fard bir baytdangina iborat bo'lsa ham, unda muhim falsafiy-axloqiy masala qalamga olinib, ixcham poetik xulosa ifodalangani. Shu bois fardlar aksar aforistik xarakterda bo'lib, ularning ko'plari hikmatlar, xalq maqollari darajasiga ko'tarilgan" [1, 342]. Ayni zamonda adabiyotshunos fardning mazmuniga ko'ra lirik qahramon holati, oniy kechinma, yor vasfi haqida bo'lishi mumkinligini ham ta'kidlaydi. Ko'rinadiki, fard o'zining qat'iy janr belgilariga ega. Ikkilik shakli esa bu jihatdan mumtoz adabiyotdagi fardga yaqin turadi. Biroq bu janr va shakl vazni nuqtayi nazaridan farqlanadi. Zamonaviy she'riyatdagi ikkilik janrlararo sintezlashuv jarayoni mahsulidir. Sababi fardda ifoda etiladigan axloqiy-falsafiy ma'no bugungi ikkiliklarda o'zini ko'rsatgan.

**Tahlil va natijalar.** So'nggi yillar o'zbek she'riyatida A.Obidjon, Faxriyor, S.Sayyid, Mahmud Toir singari shoirlar ijodida ikkiliklar muhim o'rin egallaydi. Bu jihatdan S.Sayyid fardlari mumtoz adabiyotdagi ayni janrni yodga soladi.

Yuz ming orzu ham havasning garchi qul oshnosisan,  
Sen faqat shul lahzaning, shul lahzaning podshosisan  
[10, 304].

Bu fard bilan inson har lahzaning qadriga yetishi, qancha orzu-havas, maqsadi bo'lsa ham faqat o'zi yashab

turgan vaqtning podshosi ekanligiga, ertaga nima bo'lishini hech kim hech qachon bilmasligiga ishora qilingan.

Biri buzgay, biri tuzgay, shudir eski rivoyatlar:

Jamiyatni – jinoyatlar, raiyatni – rioyatlar [10].

Bu misralarda jamiyatning tuzish va buzish kabi ikki asosiy qonuni borligi, jamiyatni jinoyatlar buzishi va xalq hamisha davlat tomonidan chiqarilgan qonunlarga rioya qilishi lozimligi haqida fikr yuritilgan.

Bu asarlar mazmunan fard janriga yaqin, shaklan esa farq qiladi. Sababi, bugungi ikkiliklar aruzda emas, barmoqda yoki erkin vaznda bitilmoqda. Qolaversa, ularning mavzu doirasi ham kengaygan. Bundan tashqari, mustaqillik davrida har bandi ikki misradan iborat bo'lgan she'riy shakllarda ham ijod qilindi.

Bugungi kunda ikki misradan tuzilgan mustaqil she'rlar yaratish an'anasi davom ettirilmoqda. Bu kabi ijod namunalarida mumtoz adabiyot ta'siri sezilib turadi. Bu yo'lni davom ettirgan ijodkorlardan biri Usmon Qo'chqor o'zi yaratgan yangi poetik shaklga "muqarnas" deb nom berdi. "Muqarnas" qanday so'z, qanday poetik shakl degan savol tug'iladi. "Sharq me'morchiligida muqarnas deb ataluvchi usul bor. Binolarning gumbaz va qubbalariga ushbu usulda o'yima yoki qabariq qilib ishlangan bir xil shakl, ayni o'lchamdagi naqshlarida o'ziga xos hayotiy falsafa ham yashiringan deyishadi. Mumtoz adabiyotda bu so'zning "osmon", "ko'k gumbazi", "falak charxi" kabi ma'nolari ham bor. She'riyatimizda ikkiliklar o'z janriga ko'ra turfa nomlar bilan atalsa-da, men o'z mashqlarimni muqarnas deb atashni havas qildim" [2]. Shu jihatdan Usmon Qo'chqor badiiy izlanishlarida muqarnas shakli muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda ikki misrali band ko'rinishidan iborat janr fard aa (izoh: qofiyalanmaydigan fardlar ham bor ab) tarzida, masnaviy esa aa, bb, vv shaklida qofiyalanadi. Biroq muqarnaslarning qofiyalanishi ulardan tubdan farq qiladi. Ya'ni muqarnas qofiyalanmaydi. Shoir aytmoqchi bo'lgan barcha fikr, g'oya ana shu ikki misra she'rda, ya'ni muqarnasda mujassamlashtirilishi lozim. Shoir ijodi bilan maxsus shug'ullangan yosh olim N.Norova bu haqda yozadi: "Muqarnas qofiyalanmaydigan, shoir aytmoqchi bo'lgan barcha fikrni, g'oyani fard singari qisqalikda ifodalaydigan she'riy shakldir. Uning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqadigan bo'lsak, binoning go'zal qubba shaklidagi naqshlari – shoir ijodidagi qabarib turadigan go'zal naqshlar bilan bezangan she'riy satrlardir" [3, 34]. Demak, mazkur termin arxitektura, naqsh san'ati bilan aloqadorlikda shakllangan. Sababi, binodagi naqshlar ko'zga tashlanganidek, muqarnasda ham qisqagina ikki misrada poetik fikr joylanadi. Olima buni she'riy shakl deya to'g'ri baholaydi. Chunki boshqa shoirlar ikkilik yozgan bo'lishi mumkin, lekin bu nom ostida berishmagan:

Ham azal, ham abad mening ko'nglimda,

Unga duch kelgaysan qay yondan kelsang [4].

Shoirning bu misralari Alisher Navoiyning:

Azal ham sen, abad ham sen, na avval birla oxirkim,

Unda yo'q ibtido paydo, bunda yo'q intiho paydo [5, 7], – misralarini esga soladi. Azal va abad, avval va oxir, ibtido-yu intiho deya Yaratganga ishora qilinmoqda. U.Qo'chqor ham Yaratganga bo'lgan muhabbatini aytib, ko'nglimga qay yondan kelsangiz ham shu muhabbatga duch kelasiz, deydi. Bunda shoir tazod san'atini samarali qo'llagan va poetik fikrni ta'sirchan qilib yetkaza olgan.

Ko'lkadan o'taman chumoli kabi

Ko'lka egasiga tushmaydi ko'zim [4].

Yuqoridagi misrada qo'llangan "ko'lka" so'zi bugungi kunda kam qo'llanuvchi so'z bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'lanka so'zining ma'nodoshi sifatida keltirilgan [6]. Lirik qahramon hayot ummonida chumolidek harakatchan, tinib-tinchimas kishi sifatida yasharkan, birovnig ko'lankasi – soyasi yonidan o'tayotganda o'z

tashvishlari bilan bo'lib, ko'lka egasiga e'tibor bermaydi. Bu bilan shoir har bir insonning bu hayotda o'z dunyosi, g'am-u shodligi borligini aytmoqchi bo'ladi.

Sham oppoq yig'ladi, men yig'ladim qon,

Bildim, alvon ekan muhabbat rangi [4].

Yonib erib ketayotgan shamni "oppoq yig'ladi" deya shoir betakror metafora yaratadi. Ya'ni yonib oqayotgan shamning shakli ko'z yoshiga o'xshaydi. Shu ma'noda ishq dardida qon yig'lagan lirik qahramon va shamning holati parallel qo'yiladi. Shoir shuning uchun ham muhabbatni alvonga qiyoslaydi. Bu misralarda oppoq va qon so'zlari shartli ravishda tazod san'atini yuzaga keltirgan.

Kuz aytdi bahoring oldindadir deb,

Bahor yig'lab meni kuzga uzatdi [4].

Bu muqarnasda shoir inson umrini fasllarga qiyoslaydi. Betimsol ma'naviyat sohibi Alisher Navoiy ham "Xazoyin ul-maoniy" asarida inson umrini yilning to'rt fasliga mengzaydi. Shunga ko'ra, bahor – insonning eng gullagan yoshlik, o'smirlik payti bo'lsa, kuz – inson umrining o'rta yosh davriga qiyoslangan. Ya'ni Usmon Qo'chqor ham shu an'anaga muvofiq ravishda inson bahorga – yoshlikka qanchalik talpinmasin, baribir umr o'tkinchi, u kutib turmaydi, shuning uchun kuzga – xazonga peshvoz chiqaveradi, degan hayotiy-falsafiy fikrni ifoda etgan.

Umrimga bepoyon taskin bitta so'z:

Ko'ngil, ko'ngil; ko'ngil ko'ngil; ko'ngil, ko'n... [4]

Mumtoz she'riyatda, xususan, Alisher Navoiy ijodida ko'ngil Ka'baga qiyos etiladi: shoir umriga taskin beruvchi jumla borligini aytadi. "Ko'ngil ko'ngil" birikmasini takror qo'llash orqali takrir san'ati yuzaga kelgan. So'z takrori she'rning qiymatini tushirmaydi, balki badiiy pafosini belgilab bergan. Shu ikki so'zning o'zida so'z o'yini ham bo'lib, tajnis san'atidan mahorat bilan foydalanilgan. Bu so'zlardan biri ot so'z turkumiga mansub bo'lsa, boshqasi fe'l turkumiga oid.

Yordan chiqqan bu jafu yotdan chiqmas,

Ko'ngildan chiqmagay, hech yoddan chiqmas [4].

Usmon Qo'chqor muqarnaslari orasida har ikki misrasi o'zaro qofiyalanganlari ham bor. Yuqoridagi muqarnasda yotdan chiqmas-yoddan chiqmas birliklari qofiyani tashkil etib, yot va yod so'zlari paronim juftlik hisoblanadi. Yordan keladigan bu jafu yot kishidan chiqmaydi, yor yetkazgan ozorlar esa ko'ngildan ham, yoddan ham chiqmaydi, deydi shoir.

Labolab qonli may ichdim lab ollab,

Baloyi ishqdan ozod louboliyman [4, 139].

Yor ishqida lablarimni ol qilib qadah labolab may ichdim va o'zimni ishq dardidan ozod qilgan beparvo, beg'amman, deya aytadi lirik qahramon. Bu o'rinda "louboliy" so'zi kam qo'llanuvchi so'z bo'lib, beparvo, beg'am degan ma'noni anglatadi [6, 179].

Qoshlaring xayoli ketmas qoshimdan...

Ochunda qoch undan, ochunda qoch undan [4].

Yuqoridagi muqarnasda radd, ya'ni qaytarish san'ati qo'llangan bo'lib, birinchi misra boshidagi so'z shu misra oxirida ham keladi. Qosh so'zi har ikki o'rinda boshqa-boshqa ma'noda kelgan. Ikkinchi misrada qo'llangan "ochunda qoch undan" jumlasini ham ikki ma'noda tushunish mumkin: yorning qoshlari xayoldan ketmaydi, ochunda – bu dunyoda undan qochmoq kerak; ochun – dunyo sen ham uning qoshlaridan qochgin. Bu esa muqarnasning har ikki misrasida ham tajnis san'ati qo'llanganidan dalolatdir.

Demak, muqarnas Usmon Qo'chqor ijodiy individualligini ko'rsatuvchi o'ziga xos badiiy shakl sifatida istiqloq yillari o'zbek she'riyatidagi yangilanishlarni ifoda etadi.

Zamonaviy ikkiliklarda ham hayotiy qarashlar jamlangan. Xususan, A.Obidjon "ikkiqatlar", "fardlar" deb nomlagan badiiy shakl namunalarida kinoya, yumor ruhi ustunlik qiladi. Ayniqsa, "ikkiqatlar" shoir mahoratini

ko'rsatib turadi. Ya'ni ikki misrada ikkita qat bor. Ikkinchisi ko'proq yumoristik, shu bilan birga falsafiy mazmunga ega. Shoir ikki qatorni o'zaro qo'fiyalashtirgan va aruziy ohangga solishga intilgan, shu bois fard deyish mumkin. Ammo "Ikkiqatlar" barmoq vaznida yozilgan, a-a tarzida qo'fiyalangan bo'lib, bu ikkiliklar fikr tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Har balodan asrayman seni  
Yo'q qilmasang bas, do'stim meni [11].

Bu ikkilikda kinoya ohangi va mazmuni bor. Shoir qo'shtirnoq ichidagi do'stlarga murojaat etadi. Xalqimizda "Bitta dushmaning bo'lsa ham ko'p" degan maqol mazmuniga mos keladi.

Labingdagi bu xol kishmishdan,  
Qoraygan u turli mish-mishdan [11].

Bunda ham kinoya mazmuni bor. Ya'ni xol qora rangda bo'ladi. Shoir shu xolni kishmish uzumga qiyoslayapti. Biroq uning qoraligini g'iybat, mish-mishga bog'layaptiki, bu ko'chma ma'noda to'g'ri fikrdir.

Toshqin bo'lsang, o'zim qirg'oqman,  
Moshin bo'lsang, avtoturg'oqman [11].

Sevgilisiga xushomad ohangida bitilgan bu ikkilik toshqin, qirg'oqman va moshin bo'lsang bo'lib, inson baxtariga urg'u berilgan. Agar sevikli yo'q bo'lsa, o'zini qirg'oqman va moshin bo'lsang bo'lib, inson baxtariga urg'u berilgan. Agar sevikli yo'q bo'lsa, o'zini qirg'oqman va moshin bo'lsang bo'lib, inson baxtariga urg'u berilgan.

O'lsak bizda o'lar manmanlik,  
Dushmanlarda esa – dushmanlik [11].

Bu ikkilikda aforistik fikr ifoda etilgan. Manmanlik, kibr Avloniyda yomon xulqlar qatorida tilga olinadi. Shoirming aytishicha, manmanlik ayrim kishilarning qoniga singib ketgan, qachonki u o'lsa bu qusur barham topadi. Qolaversa, dushmanlardagi dushmanlikni ham faqat o'lim yo'qotishi mumkin. Bu achchiq haqiqat hayotda o'z isbotini topgan.

Oyog'imdan chalaverdilar,  
Chalib ortda qolaverdilar [11].

Xalqimizda "It huradi, karvon o'tadi" degan maqol bor. Yuqoridagi ikkilik mazmunan shu maqolga hamohangdir. Ya'ni agar har bir hurgan itga e'tibor berilsa, inson asosiy maqsaddan adashadi. Hayotda qilishi mumkin bo'lgan ishlar qolib ketadi. Shoir aytganiday, "oyoqdan chalinsa ham ularga e'tibor berilmasa, o'sha oyoq chalganlar yo'lda qolib ketaveradi".

U shoirdir, yo'qdir amali,  
Amal asli – shoir ajali [11].

Haqiqiy shoir odam aslida amalparast bo'lmaydi. Amal, mansab, shoirming fikricha, ijodkor uchun o'limdir. Binobarin, mansab uni o'zligidan yiroqlashtiradi.

She'r – Alpomish, g'azal – Barchinoy,  
Biron-birin yomonlama, hoy! [11].

Shoir bu ikkilikda doston qahramonlari Alpomish va Barchinoyga ishora qilib, talmeh san'atini yaratgan. Demak, Alpomish – she'r, Barchinoy esa g'azaldir. Ya'ni Alpomish va Barchinoyni yomonlab bo'lmagani kabi she'r va g'azalni ham yomonlab, birini biridan kamsitib bo'lmaydi.

Mahmud Toir ham ikki misradan iborat she'riy shaklda salmoqli ijod qilgan ijodkorlardan biri sanaladi. Uning ikkiliklari ham g'oyaviy jihatdan fardlarni esga solsa-da, vazn nuqtayi nazaridan farqlanadi.

Havasning yuzlari yorug' hamisha,  
Hasadning yuzlari yorilgan shisha [8].

Shoir bu misralarda havas va hasad tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, tazod san'atini yuzaga keltirgan. Havas qilgan insonning yuzlari yorug' bo'lishi, hasadgo'y kimsaning yuzlari esa sinib, qayta tuzatib bo'lmaydigan shishalarga qiyoslanganini kuzatish mumkin.

Yengiltak odamlar changdan ham yengil,  
Odamsan, eng avval, nafsingni yenggil [8].

Ushbu misralar Yassaviy hikmatlarini eslatadi. Ahmad Yassaviy ham o'z hikmatlarida nafsni qoralab, undan xalos bo'lishga chaqirgan edi. Bu misralar ham kishilarni yengiltabiat bo'lishdan tiyilishi, inson, eng avvalo, nafsini yengishi lozimligi uqtirilgan. G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy ham "Nafs itin qilsang zabun, olamda yo'q sendek shujo" [11], – deb kishilarni nafs ustidan g'olib bo'lishga, bu dunyoda haqiqiy inson sifatida nom qoldirishga chaqiradi. Ayni zamonda shoir so'z o'yinidan ham samarali foydalangan: dastlabki misrada "yengil" yengiltak odamning sifati bo'lib kelgan, keyingi satrdagi "yenggil" fe'l bo'lib, nafsni yengish ma'nosida keladi.

Dilingni o'rtasa gunohing har on,  
Demak, vujudingda uyg'oqdir imyon [8].

Darhaqiqat, imyonli insonning bitta muhim sifati – o'zini doimiy ravishda taftish qilib turishidir. Bu esa uni odamiylik, ezgulik tomon yetaklaydi. Chunki xatolarini anglan kishigina to'g'ri yo'lda bo'ladi. Binobarin, bu satrlar Alisher Navoiyning quyidagi baytiga hamohang jaranglaydi:

Kimki jahannomning inson baxtariga urg'u berilgan.  
Bilki, nishoni anga imyon erur [9].

Ya'ni insonlikning birinchi sharti imon ekanligini mutafakkir shoir ta'kidlaydilar.

Gunoh – gunohkorning qo'lin tutmakdir,  
Savob – hojatmandning yo'lin tutmakdir [8].

Ushbu ikkilikda savob va gunohni bir-biriga qarshilantirish bilan birga, tarse' ya'ni parallelizm san'atidan ham unumli foydalanilgan: gunoh-savob, gunohkorning-hojatmandning, qo'lin-yo'lin, tutmakdir-tutmakdir.

Tunda gar ko'ngilning bedorligi bor,  
Jimingdagi jonning hushyorligi bor [8].

Yuqoridagi satrlarda hayotiy fikr mujassam: tunda inson bedor bo'lar ekan, bu jism hushyorligi bilan bog'liq.

Ko'rinadiki, ikkiliklar Mahmud Toirning ko'p yillik ijodiy izlanishlari mahsuli sifatida ahamiyatlidir. Ulardagi axloqiy-falsafiy fikr-qarashlar mazmunan mumtoz adabiyotdagi kichik janr – fardga muvofiq keladi. Qolaversa, shoir mumtoz adabiyotni, ayniqsa, Alisher Navoiy she'riyatini chuqur tushunadi. Shu bois qator ikkiliklari mohiyatan mutafakkir baytlaridagi fikrlarni davom ettiradi.

Shoir Mahmud Toir ikkiliklarining aksariyati 11 lik turkumni hosil qilgan bo'lib, asosan, 6+5 shaklida turoqlangani bilan boshqa ijodkorlarning ikki misrali she'rlaridan farqlanadi.

Dilim – daryo, to'g'oning bekor,  
Girdobiga bo'lma giriftor [8].

Yuqoridagi ikkilik esa 9 lik turkumda yozilgan bo'lib, aksariyat barmoq vaznidagi she'rlar kabi, ya'ni 4+5 shaklida turoqlangan. Dilni daryoga tashbeh etib, inson qalbi junbushga kelsa, uni hech qanday to'g'on to'xtata olmasligi shoirona tarzda chiroyli dalillangan.

**Xulosa va takliflar.** Ko'rinadiki, yuqorida tahlil etganimiz ikkilik shaklidagi she'rlar tuzilishi, mazmuni va mavzusiga ko'ra mumtoz adabiyotdagi masnaviy va fard janrlariga hamohanglik qiladi. S.Sayyidning ikkilik bandlardan iborat she'rlari asosida mumtoz adabiyotdagi masnaviy yotgan bo'lsa, A.Obidjon, Faxriyor va Mahmud Toir ijodidagi ikkiliklarda fard janrining ta'siri sezilib turibdi. Biroq she'riy vazn, badiiy-estetik funksiyasining kengayganligi bilan farddan farqlanib turadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademyashr, 2010.
2. Қўчқор У. Ше'рий драма ва ше'рлар.–Тошкент: Адабиёт, 2020.
3. Norova N. Usmon Qo'chqorning badiiy mahorati. Monografiya. Buxoro, 2023.

4. Қўчқор У. Имом Бухорий. Т.: Адабиёт, 2020.
5. Navoiy A. MAT. 10 jildlik, 3-jild. Vadoye ul-vasat. – Т.: G'.G'ulom nashriyot-matbaa uyi, 2017.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик, 2-том. Т.: Фан, 1983.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
8. Тоир М. Иккиликлар. // Шарқ юлдузи, 2011, №5.
9. Навоий А. МАТ. 20 томлик, 7-том. – Т.: Фан, 1991.
10. Саййид С. Асарлар. I жилд. – Т.: Sharq, 2018.
11. www.ziyouz.com



**Bahrom TOSHBOYEV,**  
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: bahromsaidkulovich@gmail.com

*Bobojon G‘afurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti professori, f.f.d. A.A.Hasanzoda taqrizi asosida*

**GRAMMATICAL AND LEXICAL CHARACTERISTICS OF ARABIC WORDS  
(BASED ON THE CONCLUSIONS OF LINGUISTIC VIEWS IN HISTORICAL WORKS WRITTEN IN THE  
PERSIAN-TAJIK LANGUAGE IN THE 10-13TH CENTURIES)**

Annotation

This article talks about the general characteristics of the Arabic language. These conclusions were made during the study of linguistic theories, especially etymological views, of historical works written in the Persian-Tajik language in the 10th-13th centuries.

**Key words:** Arabic language, anthroponym, ethnonym, etymology, Persian-Tajik, lexical layer, vocabulary, derived words, Turkic languages, toponym.

**ГРАММАТИЧЕСКАЯ И ЛЕКСИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АРАБСКИХ СЛОВ  
(НА ОСНОВЕ ВЫВОДОВ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ В ИСТОРИЧЕСКИХ СОЧИНЕНИЯХ,  
НАПИСАННЫХ НА ПЕРСИДСКО-ТАДЖИКСКОМ ЯЗЫКЕ В 10-13 ВВ.)**

Аннотация

В этой статье говорится об общих характеристиках арабского языка. Эти выводы были сделаны при изучении лингвистических теорий, особенно этимологических воззрений, исторических произведений, написанных на персидско-таджикском языке в X-XIII вв.

**Ключевые слова:** Арабский язык, антропоним, этноним, этимология, персидско-таджикский, лексический пласт, лексика, производные слова, тюркские языки, топоним.

**ARABCHA OLINMA SO‘ZLARNING GRAMMATIK VA LEKSIK XUSUSIYATLARI  
(10-13-ASRLARDA FORS-TOJIK TILIDA YOZILGAN TARIXIY ASARLARDAGI TILSHUNOSLIK  
QARASHLARINING XULOSALARI ASOSIDA)**

Аннотация

Mazkur maqolada arab tilining umumiy xosliklari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ushbu xulosalar X-XIII asrlarda fors-tojik tilida yozilgan tarixiy asarlarning tilshunoslik nazariyalari, xususan, etimologik qarashlarini o‘rganish jarayonida yuzaga kelgan.

**Kalit so‘zlar:** Arab tili, antroponim, etnonim, etimologiya, fors-tojik, leksik qatlam, lug‘aviy fond, olinma so‘zlar, turkiy tillar, toponom.

**Kirish.** Til ijtimoiy hayot realliklarini o‘zida aks etuvchi vosita bo‘lib, unda har bir ijtimoiy-siyosiy voqeahodisalar o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Tillar rivojlanishining yana bir omili ularning leksik jihatdan boyib borishi hisoblanib, leksik qatlam ichki va tashqi ta‘sir natijasida ko‘payadi. Shu o‘rinda eslatish joizki, hech bir til yakka holda, o‘z leksik qatlam asosida taraqqiy etmagan va shu singari fors-tojik tili ham ichki imkoniyatlar barobarida olinma so‘zlar hisobidan lug‘aviy tarkibini boyitib kelgan.

Lug‘aviy fondning ichki imkoniyalar asosida rivojlanishi xalqning yaratuvchanligi va shu asosda so‘zlarning vujudga kelishi, so‘z yasash imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, olinma so‘zlarning tilga kirib kelishi ikki sabab bilan asoslanadi. Birinchisi, xalqlarning qo‘ni-qo‘shnichilik aloqalari, savdo-sotiq ishlari natijasida, ya‘ni o‘zga tilga mansub so‘zlarning tilga ixtiyoriy qabul qilinishi. Ikkinchisi, siyosiy vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, bir mamlakat boshqa hududni bosib olishi va unda hukumronlik qilishi natijasida so‘zlarning majburiy ravishda tilga qabul qilinishi hisoblanadi.

Fors-tojik tilining turkiy oilaga mansub tillar bilan so‘z almashishi xalqlarning qismatdoshligi va yonma-yon yashashi misoli bo‘lsa, ushbu tillar tarkibidagi yunon, mug‘ul, arab tillarga mansub leksikalarning qabul qilinishida majburiy ta‘sir vositasining roli yuqoriroq. Ammo arab tilidan keng miqyosda so‘zlarning qabul qilinishi zahirida ixtiyoriy iqtiboslar, xalq tomonidan islom dinining qabul qilinishi,

musulmon madaniyati ommalashishi sabablari ham mavjudligini aytib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Ayni xalq tomonidan qabul qilinadigan madaniyati bo‘lmagan sababli ham qariyb 200 yil davomida o‘lkalarimizda hukumronlik qilgan mug‘ullardan juda kam sonli leksik birliklar tilda saqlanib qolgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar miqdorini olimlar turli ko‘rsatkichlarda taxmin qilishadi. Chunonchi, Homid Majidov “Tojik tilidagi arabcha olinma so‘zlar” («Kalimahoi iqtibosii arabi dar zaboni tojiki») maqolasida Malikushshuro Bahor ma‘lumotlariga tayagan holda tojik tili tarkibidagi arabcha so‘zlar sonini XI asrlarda 10-15 foiz, XII asrda 22 foiz, XIII-XIV asrlarda 70-80 foiz, XX asr boshlarida 60-70 foiz hamda XX asrning ikkinchi yarmida 40-50 foiz miqdorlarida taxmin qilgan[14;1].

Ammo arabcha so‘zlar miqdorini aniqlashda, yoxud leksik birliklarni arab tiliga mansub bilish uchun so‘zning arab lug‘atida mavjudligi kifoya qilingan. Shu boisdan asli eroniy tillarga mansub bo‘lgan ko‘plab leksikalar lug‘aviy asarlarda arab tiliga mansub deb e‘tirof etilgan. Shoir, jurnalist hamda oriyoshunos olim Muhtaram Hotam “Arab tilidagi oriycha so‘zlar” (“Vojahoi oriyo dar zaboni arabi”) maqolasida bu borada to‘xtalib o‘tib, lug‘atlarda arab tiliga mansub sanalgan bir qancha: adab, tarh, g‘ani, tamom, g‘am, sel, qahti, ajami, nil, tor, minnat, halohil, dob kabi so‘zlarning sanskrit tilidan o‘zgarmagan shaklda, shams, vatan, javi (havo) jarayon,

g'ussa, g'izol, birinj, hayot, izzat, izo singari ko'plab so'zlarning ayrim fonetik o'zgarishlar bilan arab tiliga o'tganini qayd etib, ta'kidlaydiki, "arab lug'atlarida bu so'zlarning mavjudligi ularning arab tiliga mansubligi belgisi emas"[15;1].

Shu bilan olim sanskrit tilida mavjud so'zlarning boshqa tilga mansub bo'lishi mumkin emasligini eslatib o'tadi: "Ko'pgina sanskrit tili olimlari, jumladan, T.Barrou aqidasi ko'ra sanskrit tilida mavjud bo'lgan har bir so'z boshqa tilning moli bo'la olmaydi"[15;1].

Arab va fors-tojik tillarning so'z almashuvi haqidagi yuqoridagi tahlillar ko'rsatadiki, mazkur tillar o'rtasidagi aloqalar juda qadimgi ildizlarga ega bo'lib, hatto ayrim so'zlarning mazkur tillarning qay biriga mansubligini aniqlash haligacha tilshunoslikning bahsli masalaridan hisoblanadi. Arab madaniyati, dinining fors-tojik xalqi tomonidan qabul qilinishi esa nafaqat yangi eroniy tillar lug'aviy tarkibiga arabcha leksikalarning keng miqyosda kirib kelishini ta'minladi, balki ajamrajod olimlarning ayni arab dini, madaniyati, ilmi, adabiyoti, san'ati va tili rivojiga beqiyos hissa qo'shishiga asos bo'ldi. Bu borada islom dini aqidolari va fiqh ilmidagi ko'zga ko'ringan olimlari, aksar ko'zga ko'ringan muhaddislar, arab tili grammatikasini ishlab chiqish va arabcha lug'atlar tuzgan tilshunoslar hamda Qur'on kitobining ilk mufasssirlarining fors-tojik millati ollomalaridan bo'lgani kabi dalillar so'zimizning isbotidir. Ayniqsa, IX-XIX asrlarda yashab ijod qilgan shoir va adiblarning arab adabiyoti rivojiga qo'shgan hissi beqiyosdir. Bu davrlarda yashab o'tgan bir qator ijodkorlar arab tilida she'riy va nasriy asarlar bitgan bo'lsa, yana bir guruh adiblar arablardan kirib kelgan she'riy janrlar va badiiy san'atlarning yuksak darajada e'tirof etilishiga sababchi bo'lgan.

Shu qatorda fors-tojik muarrixlarining ham arablarning tili, tarixi, diniy masalalari rivojiga qo'shgan hissi salmoqlidir. Jumladan, arab tilida 16 jildda bitilgan "Tarixi rusul va muluk" hamda Qur'on kitobining ilk tafsirlaridan hisoblangan "Jeme'u-l-bayon an ta'vili-l-Qur'on" (ommalashgan nomi "Tafsir" yoki "Tafsiri Tabariy") asarining muallifi bo'lmish Muhammad ibn Jarir Tabariyning kelib chiqishini eroniy najod qavmlar bilan bog'lanadi. Yoxud ayni shu asarning fors-tojik tiliga tarjima qilgan Muhammad Bal'amiyning arablar va islom tarixini yoritishdagi daqiqnazarligi, voqea-hodisalar bayonida realistik nigoh bilan yondashuvi, shu sababdan asl muallif hisoblangan Jarir Tabariyning ayrim ma'lumotlarini asosli ravishda rad etishi, islom haqiqatini yoritishdagi xizmatlari barcha islomshunos va arabshunoslar tomonidan yuksak baholanadi. Ayni shu e'tirof uning aksar muhaqqiqlar tomonidan "Tarixi Tabariy" asarining muallifi sifatida ko'rilishiga sabab bo'ldi. Yana bir misol "Tarjimai Tarixi Yaminiy" tarjimoni hisoblangan Jurfodiqoniyning amaliyoti bilan bog'liq bo'lib, muarrix o'z asarini arablardan kelgan saj' uslubida bitgani, mazkur asar fors-tojik saj' san'atida yozilgan eng sara asarlar sirasida e'tirof etilganini, ammo muallifning o'zi arab nazm-u nasrida ulovining chopqir, fors-tojikcha libosi esa eski-jandaligi ta'kidlagani fors-tojik mualliflarining arab tili bilish va mazkur tildagi san'atkorlik darajasini belgilab beradi[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Fors-tojik muarrixlari o'z tarixnomalarida nafaqat arab leksikalaridan oqilona foydalanishgan, balki ayrim leksik birliklarning kelib chiqishi va ma'nolari xususida lisoniy tahlillarni ham taqdim etishgan. Xususan, izlanishlarimizda XI-XIII asrlarda fors-tojik tilida bitilgan tarixiy asarlarda yuzdan ortiq (116 ta) arab tiliga mansub leksik birliklarning lug'aviy izohi va etimologik tahlillari keltirilganligini kuzatishimiz mumkin. Biz ularni tarixiy-qiyosiy metod asosida tahlil qildik va bugungi kun ilmiy yutuqlari, lug'atshunoslik tahlillari, tilshunoslik tadqiqotlari bilan solishtirib, shartli ravishda kundalik-ijtimoiy

hayotga oid leksikalar, antroponimlar, toponimlar hamda etnonimlar kabi guruhlarga ajratdik.

Tahlil va natijalar. Tarixiy asarlarda etimologiyasi va lug'aviy izohi keltirilgan so'zlarning tahlili asnosida arabcha olinma so'zlar va umuman arab tiliga xos qoidalar xususida quyidagi xulosalar tahlil qilindi:

- arab tilidan leksikalarning keng miqyosda tilimizga kirib kelishi ixtiyoriy so'z olish masalasi va islom dinining xalq madaniyatining ajralmas bo'lagiga aylanishi bilan bog'liq;

- fors-tojik tili tarkibidagi arabcha so'zlarning salmog'i davriy xususiyatga ega bo'lib, XI asrdan bugungi kungacha ko'rsatkichlar 10-15 foizdan 70-80 foizgacha ko'rsatkichni tashkil qilgan;

- din va e'tiqod tufayli arablarga yaqinlashgan O'rta Osiyo allomalari, xususan, fors-tojik mualliflarining ayni arab dini, madaniyati, ilmi, adabiyoti, san'ati va tili rivojiga beqiyos hissa qo'shishiga asos bo'ldi.

- arab tilida mavjud bo'lgan lug'atlarning fors-tojik tilida yangi ma'no kasb etishi holatlarini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, arafa so'zi arab tilida joy nomi va hayit kunidan oldingi vaqtni bildirsa, bizning tilimizda ayni shu hayitdan oldingi kun mazmuni barcha masalalarga tegishli va har bir jarayondan oldingi vaqtni bildiradigan so'z sifatida yangi ma'no kasb etgan;

- arab mustamlakasidan keyin o'lkalarimizda arab lug'ati barobarida arabcha onomalar ko'paydi. Bunga ilm ahli va mahalliy hokimlarning moyilligi endilikda arab lug'atining milliy tilga nisbatan g'oliblik kayfiyatini yuzaga keltirib, arabcha so'zlashish va nomlash madaniylik belgisiga aylandi;

- VIII-IX asrlardan boshlab Osiyo hududlarida arabcha va mahalliy til bilan, shu jumladan, fors-tojik tili bilan o'zaro aloqalar masalasi yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Ko'plab lug'atlar almashuvi, qo'sh tilli leksikalar hosil bo'lishi holatlari kuzatildi;

- boshqa tilga mansub so'zlar aynan fors-tojik tili vositasida arab tiliga o'tishi va arab tiliga mansub ko'plab lug'atlarning fors-tojik tili vositasida boshqa tillarga o'tdi;

- shaxs nomlari va laqablar tanlashda arab leksikalari, arabcha nomlash strukturasi o'zlashtirildi. Natijada bugungi kunda iste'molda bo'lgan fors-tojikcha atoqli shaxs otlarining to'rtan bir hissasini arabcha ismlar tashkil etmoqda. Arab xilofati va uning vorislarining islomiy ism, laqab, unvon, kunya va boshqa qo'shimcha ismlarga rag'bat va laqab-unvon sotish tadbirlari ma'lum tarixiy davrda arab ismlarining asosiy mavqe egallashini ta'minladi;

- milliy ismlarda ham arabcha nomlash qoliblari moslashtirildi. Natijada qadimdan mavjud bo'lgan va nasabga ishora qiluvchi *-duxt*, *-pur* kabi qo'shimchalar o'rnini arabcha najodiy qo'shimcha va yordamchi so'zlar (*ibn*, *bin*, *bint*) egalladi;

- arab tili leksikasi asosida Ajam mintaqasida arablarning o'zida mavjud bo'lmagan yangi *Sulton*, *Mirzo*, *Mizrob*, *Amir* kabi nomlar vujudga keldi. Ollohning sifatlariga qo'llik ma'nosidagi ismlar soni ko'paydi. *Abdu-* qo'shimchasi asosida nomlash ham milliy ham arab otlari yasallishida qo'llanildi;

- arablardagi qo'shimcha ismlar va kunyalar Ajam o'lkasida shaxslarning ismi sifatida qabul qilindi. Arablarda Abdullonning otasi ma'nosini bildiruvchi Abuabduullo kabi ismlar bizning o'lkalarimizda go'daklarga qo'yiladigan oddiy ismga aylandi. Mazkur arablarga xos otalarning to'ng'ich farzand ismi bilan chaqirish xalqimiz urfiga aylandi va er-xotinlarning bir-biriga farzandlar ismi bilan murojaat qilishi shu o'zlashma odatlardan hisoblanadi;

- arablarning kunya nomlari mahalliy amirlarning iftixoriy laqablari yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Mahalliy nomlar murakkab tuzilishga ega bo'lib asl ismlar yonida bir qancha iftixoriy, nisbiy ismlar, ijobiy yoki salbiy ma'nolarni

ifodalaydigan laqablar, insonlarning nasl-nasabi, qavmi, tug'ilgan joyiga ishora qiluvchi taxalluslari qo'shildi. Ayrim holatlarda bir kishiga sanalgan ilova nomlarning bir qanchasi mavjudligi yoki bir laqab va unvonning qo'shma so'z, so'z birikmasi, ibora va boshqa murakkab ko'rinishdagi leksik birliklar bilan ifodalanishi ismlar tuzilishini yanada murakkablashtirardi;

- qo'shimcha ismlar, xususan, laqablar orqali shuhrat qozonish holatlari kuzatildiki, ayrim holatlarda asl ismlar ularning soyasida qoldi. Hatto arab xalqining o'zlarida laqablar mavqei yuqoriligidan bir qator qavmlarning nomlari kishilarning laqablaridan yuzaga kelgan. Bizning o'lkalarimizda ham unvon va laqablar kishilarning ijtimoiy mavqeyini belgilovchi bir vositaga aylandi;

- tarixnomada etimologik tahlili keltirilgan shaxs otlarining aksariyati ilmiy asoslangan fikrlar qatorida e'tirof etilishi, muarrixlar fikrlaridan keyingi tadqiqotlarda, xususan, izohli va etimologik lug'atlar tuzishda keng foydalanilganligi mazkur etimologik qarashlarni o'rganishning ahamiyatini belgilovchi mezon ekanligini alohida ta'kidlash joizdir;

- arab leksikalari va grammatik qolibi asosida nomlash nafaqat yangi nomlanishlarda, ko'p hollarda eski onomalar o'rini egallashi hodisalari keng tarqaldi. Shuning natijasida eski nomlar o'rini Jayhun, Sayhun, Tavois kabi nomlar paydo bo'lib, ayrim qadimgi nomlar tarix girdobida yoki tarixiy bitiklar doirasida qolib ketdi. Chunoschi qadimgi Aqrud qishlog'i haqida faqatgina "Buxoro tarixi" asarida ma'lumot uchraydi. Arxaik so'zlar etimologiyasiga doir qarashlarning tarixiy asarlarda uchrashi mazkur manbalarning til tarixini o'rganishdagi ahamiyatini ham belgilab beradi;

- shu bilan bir qatorda ayrim leksik birliklar sharhida muarrixlarning o'zaro yoki tilshunolar bilan bir xil aqidada emasligi, ba'zi so'zlar kelib chiqishi haqida bir necha asoslarni keltirish holatlariga duch kelinadi;

**Xulosa va takliflar.** Lug'atlarda arab tiliga mansubligi qayd etilgan barcha so'zlar ham arab tiliga mansub bo'lmay, leksik birliklar o'zagini o'rganish orqali ularning haqiqatidan xabardor bo'lish mumkin. Bu borada leksik birliklarining faqatgina arab lug'atlarida mavjudligiga e'tibor bermaslik maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mehnat mahsuli o'rganilayotgan fors-tojik muarrixlarining arab tili va tarixini bilish darajalarining yuksakligi, daqiqnazarligi tufayli aslida tarjimon maqomida bo'lgan Bal'amiy kabi mutafakkirlarning ko'pchilik tomonidan "Tarixi Tabariy" muallifi sifatida e'tirof etilgan. Boshqa bir muarrix Jurfodiqoniyning arablardan kelgan saj' uslubida tarixiy asar yozgani va ushbu asar fors-tojik tilida saj' san'ati bilan yozilgan eng sara asarlar sirasida e'tirof etilganini va muallifning o'zi arab nazm-u nasrida ulovining chopqirroqligini tan olishi mualliflarining arab tili bilish va mazkur tildagi san'atkorlik darajasini belgilab beradi.

Fors-tojik muarrixlari tomonidan arab tiliga mansub leksik birliklar etimologiyasidagi muvaffaqiyatlarning son va ilmiylik darajasi ham e'tirofga sazovor bo'lib, aksar nazariyalari bugungi olimlar tomonidan tan olingan va takrorlangan bo'lib, miqdor jihatidan ham arab tiliga mansub so'zlar fors-tojik tilidagi so'zlar miqdoriga deyarli teng keladi.

VIII-IX asrlardan boshlab arab tili, dini va madaniyati ularning qadami yetgan har bir hududning mushtarak merosiga aylandi. Shu bois arab tiliga mansub leksikalar tahlillari natijasi bizga arab lug'atining Ajam va islom dini yetib borgan har bir xalq va millat madaniy hayotini o'rganishdagi ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Ayrim leksik birliklar yuzaga kelish hodisoti tarixnomalar bitilgan davrga to'g'ri kelishi nuqtayi nazaridan muarrixlarning qaydlari ilk, sahif va ba'zan yagona manba sifatida qadrlidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Abushsharaf Jurfodiqoniy. Tarjimai Ta'rixi Yamini. – Xo'jand: Noshir, 2013, 420 s.
2. Bal'ami A. Ta'rixi Tabari. 2 jildda – Tehron.: Zamon, 2001 y.
3. Gardezi A. Zayn u-l-axbor. – Dushanbe.: Buxoro, 2014 y.
4. Zehni T. Az tarixi leksikai zaboni tojiki (Tojik tili leksikasi tarixidan). – Dushanbe.: Donish, 1987 y.
5. Zehni T., Kapranov A. va digaron. Farhangi zaboni tojiki. 1-2-jild. – Moskva: Sovetskaya ensiklopediya, 1969 y.
6. Nazarzoda S., Sanginov A. va digaron. Farhangi tafsiriy zaboni tojiki. 1-2-jild. – Dushanbe: Pajo'hishgohi zaban va adabiyot ba nomi Ro'daki, 2008 y.
7. Narshaxi. Ta'rixi Buxoro – Dushanbe.: Donish, 1979 y.
8. Rastorgueva S.V., Yedelman D.I. Etimologicheskii slovar iranskix yazikov. 1-6-tomlar. – Moskva.: Vostochnaya literatura, 2000-2015 y.
9. Ta'rixi Siston (mullifi noma'lum). – Dushanbe.: Buxoro, 2014 y.
10. Qoraev S. Toponimika. – Toshkent.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006 y.
11. G'afurov B. Tojikon. 1-2-kitob. – Dushanbe, 2008 y.
12. G'iyosuddin M. G'iyos-ul-lug'ot. 1-2-jildlar. –Dushanbe.: Adib, 1987, 1988 y.
13. Hudud-ul-olam (mullifi noma'lum). – Dushanbe.: Buxoro, 2014 y.
14. <http://safo-khatlon.tj/asosi/198-kalimaoui-itibos-dar-zaboni-toik.html> .
15. <https://farazh.tj/sahifai-asosy/jahon/vozha-oi-orijo-dar-zaboni-arab/> .



Azamat URALOV,  
Sirdaryo viloyat pedagogika markazi dotsenti, PhD  
E-mail: azamaturalov06@gmail.com

*Olmalik Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti professori, f.f.d., T. Mirzaqulov taqrizi asosida*

### AGGLYUTINATSIYA VA FUZIYA JARAYONLARIDA NOMUTANOSIBLIKNING YUZAGA CHIQICHI

Annotatsiya

Morfologik shakllar tizimidagi nomutanosibliklarning soʻz va soʻz-shakl (ayrim hollarda yasovchi shakllar bilan bogʻliq jihatlari) tarkibida roʻy bergan oʻzgarishlar, aglyutinatsiya va fuziya jarayonlari orqali sodir boʻlgan nomutanosibliklar oʻrganib chiqilgan. Nomutanosiblikning mazmun bilan shakl orasidagi munosabati: 1:1 – shaklning aniq bir farqlanuvchi elementi, bir morfemaga mazmun tomonining bir vazifa birligi; 1:2 – bir shaklga bir necha mazmun birligi; 2:1 – bir necha shaklga bir mazmun birligi sxemalari tadqiq etilgan.

**Kalit soʻzlar:** Agglyutinatsiya, fuziya, nomutanosiblik, morfologik shakllar, maʼno va vazifa, shakl va mazmun, diaxroniya, sinxroniya, genetik shakl, pleonastik takror.

### ПОЯВЛЕНИЕ ДИСПРОПОРЦИИ В ПРОЦЕССАХ АГГЛЮТИНАЦИИ И ФУЗИИ

Аннотация

Изучены различия в системе морфологических форм, изменения в составе слов и словоформ (в ряде случаев аспекты, связанные с составляющими формами), различия, произошедшие за счет процессов агглютинации и слияния. Отношения несоразмерности содержания и формы: 1:1 - четко дифференцированный элемент формы, одна заданная единица содержательной стороны к одной морфеме; 1:2 – несколько единиц контента на форму; 2:1 – изучено несколько форм схем одной единицы содержания.

**Ключевые слова:** Агглютинация, слияние, диспропорция, морфологические формы, значение и функция, форма и содержание, диахрония, синхрония, генетическая форма, плеонастический повтор.

### THE APPEARANCE OF DISPROPORTION IN THE PROCESSES OF AGGLUTINATION AND FUSION

Annotation

The disparities in the system of morphological forms, changes in the composition of words and word forms (in some cases related to constituent forms), disparities that occurred through the processes of agglutination and fusion have been studied. The relationship of disproportion between the content and the form: 1:1 - a clearly differentiated element of the form, one task unit of the content side to one morpheme; 1:2 – several content units per form; 2:1 - several forms of one content unit schemes have been studied.

**Key words:** Agglutination, fusion, disproportion, morphological forms, meaning and function, form and content, diachrony, synchrony, genetic form, pleonastic repetition.

**Kirish.** Nomutanosiblik soʻz shaklning oʻzgarishiga ham aloqador boʻladi. Soʻz tarkibi oʻzgarsa, yangi tarkib eskisiga nisbatan nomutanosib boʻlib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, ikki shakl (diaxron va sinxron jihatlarda) bir mazmuni ifodalaydi, ammo ulardan biri yoki eskirgan boʻladi, yoki oʻzgarigan boʻladi.

Morfologik shakllarning asos tarkibiga birikishi natijasida yoki ikki shaklning birikuvi natijasida aniqrogʻi agglyutinatsiyasi natijasida nomutanosiblik yuzaga chiqadi. Taraqqiyot natijasida roʻy bergan oʻzgarish shaklga taʼsir oʻtkazadi va turli holatda fuziyaga uchrab tashqi tomondan asl (dastlabki) shakldan boshqasiga oʻtadi yoki boshqa shakl qiyofasini oladi. Bunda shakl oʻzgarishi bilan mazmun oʻz qiyofasini saqlab qoladi, ayrim holatlarda shakl oʻzgarmay qolib, mazmun ifodalamay qoʻyadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Til tizimidagi tarixiy-semasiologik oʻzgarishlar mavjud materialning turlicha taqsimlanishiga olib keladi. Morfologik shakllar makon va zamon oraligʻida turli oʻzgarishlarga uchraydi. Ularning nomlanishi til boʻlimlari va yoʻnalishlari bilan bogʻliq hodisadir. Qaysidir asos (soʻz)ning qanday tugashiga qarab qisqarishga yoki oʻzgarishga uchrashi yoki morfemalar qoʻshilishi natijasida soddalashishi tabiiy holat, chunki tildagi soʻzlar qanchalik kengaysa (uzaysa), shunchalik qisqarishga, soddalashishga intilaveradi. Bu jarayon ishlatilishga qulay

boʻlishi oqibatida yuzaga keladi. Ayrim soʻzlar morfologik shakllar qoʻshilganda yoki asosning oʻziyoq fuziyon holatni boshidan kechirganda oʻzgaradi.

Jahon tillarida soʻz oxiri boshlanishiga nisbatan koʻproq qisqarishga uchraydi, chunki davrlar osha ishlatila borgan sari soʻz maʼnosini soʻz oxirida tashuvchi elementlar qisqara boradi. Oxirgi affiks yaxshi eshitiladigan, talaffuzi aniq, jarangli tovushlardan iborat boʻlsa, oʻz-oʻzidan, qisqarishga kam uchraydi. Manbadan koʻrinadiki, soʻz tarkibiga bir necha affikslarni qoʻshilishida oxirgi qoʻshilgan affiks yaxlitroq saqlanadi. Oldinroq qoʻshilgani fuziyaga uchrash ehtimoli yuqori boʻladi.


Turkiy tillarda, jumladan oʻzbek tilida asos morfemalar asosiy maʼnoni tashib keladi. Shuning uchun soʻzning bosh qismi turli fonetik-fonologik oʻzgarish – deformatsiyalarga kam uchraydi. Asos fonetik barqarorligi, turgʻunligi va nisbatan kam variantligi tufayli axborot tashib kelishi jihatidan ham yetakchi mavqega ega. Shu bilan birga, maʼnoni mustahkamlash, maʼno-vazifa qiymatini saqlab turish ehtiyoji ham soʻz boshi, oʻzak vokalizmini fonetik jihatdan barqaror holda saqlab turish qonuniyatining amal qilishi bilan taʼminlanadi [1. 132].

Oʻzbek tili morfologik shakllar tizimida birinchi tipdagi boyish koʻp kuzatiladi. Bu oʻzgarishlar morfologik shakllar tizimida turli holatlarda oʻrinlashadi hamda turli shakl

va mazmun nomutanosibliklarini yuzaga keltiradi. Birinchi holatdagi – asos va morfologik shaklning o'zaro zich birikishi natijasida yangi asosning hosil bo'lishi orqali ravish so'z turkumlarining ayrimlari vujudga kelgan. *-dan* shaklining asosga birikuvidan: *birdan, to'satdan, qo'qqisdan, bexosdan, chindan, boshqatdan, indamasdan, shoshmasdan, orqavorotdan; -da* shaklining asosga birikuvidan: *tezda, quyida, birda; -ga* shaklining asosga birikuvidan: *birvarakayiga, birga, birdaniga, jo'rtaga...* kabi. Morfologik shakllarning agglyutinatsiya tufayli asoslar tarkibiga birikib olishi, kelishik shakllarining o'z mavqeyini yo'qotishi hisobiga nomutanosiblikni yuzaga chiqarmoqda.

A.Berdialiyevning fikricha, "Tilimizda *qalqidi (qalqidi), tupuruk (tupuk), qo'zidi (qo'zidi), boramiz, kelajak* kabi ko'plab lug'aviy birliklar ham mavjudki, ular tarkibidagi shakliy unsurlarning ayrimlarini lisoniy ma'no va vazifaga ega deb bo'lmaydi" [2. 15]. A. Berdialiyev keltirgan misollarda *-i, -ur-, -i-, -a-* qismlari buning dalilidir. Shuningdek, *odamgarchilik, insongarchilik* so'zlaridagi *-gar* unsuri o'z mavqeyini saqlab qolgan bo'lsa, *oshnachilik, qudachilik* so'zlaridagi *-chi* unsuri tutashtiruvchi submorflar (amorflar) hisoblanadi. *Qisir, naycha* (biologik atama), *qo'shimcha* (lingvistik atama) kabi so'zlar tarkibidagi *qis+ir, nay+cha, qo'sh+im+cha* qismlarini bugungi kun leksikasida qotib qolgan unsurlar deb atash mumkin. Bir qarashda bunday unsurlar lingvistikamizdagi birliklarga juda o'xshab ketadi. Biroq bularni aynan shu qo'shimcha yoki asos sifatida olib bo'lmaydi. Aslan olib qaralganda morfologik shakllar tizimidagi nomutanosiblikni yuzaga keltirayotgan bu tipdagi unsurlar shakllanish nuqtayi nazardan morfologik shakllar hisoblangan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuqorida keltirilgan misollardagi *qis, nay, qo'sh* morfemalar sifatida mustaqil ishlatiladigan so'zlardan farqlash lozim. O'zbek tilidagi *qismoq* fe'li, *qo'shmoq* fe'li, *sozandaning nayi* singari ma'nolari bo'lsa-da, leksema sifatida birgalikda ma'no ifodalamoqda. Bu leksemalar: *qisir, naycha, qo'shimcha* bugungi kunda ajralmas holatga kelib qolgan. Yuqoridagilar so'z tarkibida "asos" qismi asl ma'nosini tubdan yo'qotgan,



Tilning ifoda va mazmun sathlariga xos aloqadorlikni aks ettiruvchi bunday sxemalarning birinchisi ishoralarning shakl va mazmun jabhalarining mutanosibligini ko'rsatadi. Unda shakliy bir ifoda hamma vaqt bir ma'no qiymatiga ega bo'ladi. Bunday xususiyat tilning rasmiy maqomidagi lisoniy ishoralarga, masalan, rasmiy ma'nodagi morfema va so'zlarga xosdir. Shuningdek, boshqa fanlarga xos rasmiy va norasmiy ishoralarning ifoda va mazmun sathlarida ham ana shunday mutanosiblik bo'ladi. Masalan, matematikada (+) alomati qo'shish va faqat qo'shishni; (:) alomati bo'lish (taqsim)ni; (1), (2) esa "bir" va "ikki" tushunchalaridan boshqa narsalarni bildirmaydi, shu shakl va simvollarga birlashtirilgan ma'nonigina ro'yogga chiqaradi, xolos. Til tizimida esa, uning lisoniy ishoralari ifoda (shakl) va mazmun jabhalarida qat'iy rasmiylashgan bunday mutanosiblik bo'lmaydi. Aniqlik, tilda uning rivojlanish omillaridan biri sifatida ijobiy baholanuvchi shakl va mazmun nomutanosibligi – asimmetriyasi mavjuddir [5. 33].

O'zbek tilida ham terminlar 1:1 shaklida izohlanadi. Chunki ularda bir tushunchani faqat bir shakl ifodalaydi.

denotativ nom nuqtayi nazardan ularga teng kelmaydi. *-ir – gapir, tushir; -cha – uycha, yigitcha...* singari boshqacha ma'nolarini ifodalab turgan morfemalardan tubdan farq qiladi. Ularni yuqoridagi misollarimizdan kelib chiqib bugungi kunda morfologik shakl deb bo'lmaydi. Ayrim tilshunoslarga tomonidan ularga nisbatan ham morfema atamasi qo'llanilgan. Masalan, Praga funksional tilshunosligi ta'limotida morfemaga ana shu nuqtayi nazardan qaralgan. Unda "so'z tarkibida formal (shakliy) yoxud struktur vazifa bilan amal qiluvchi qism morfema" [3.156-157] deb atalgan. Professor A.Berdialiyev morfemtaxlit unsurlar deb nomlaydi: "Morfemtaxlit unsurlar til morfem tizimidagi biror-bir vazifaviy-ma'noviy xususiyat kasb etuvchi affiks morfemalarga shaklan o'xshaydi. Shuningdek, morfemtaxlit unsur so'z tarkibining yo'zak, yo affiks maqomidagi boshqa bir morfemasi tarkibiga singishib, uning taksanomik xarakterdagi tarkibiy qismiga aylanadi. Masalan, oshnachilik, sarsionchilik, tavakkalchilik so'zlari tarkibidagi "-chi" morfemtaxlit (submorf) unsurdur"[4. 111].

Agglyutinatsiyaning bu tipdagi ko'rinishi morfologik shakllarning vaqtlar o'tishi bilan so'z tarkibiga ulashib ketishiga olib kelgan va morfologik shakllarning mavqeyi yo'qolib, semantik holatini asemantik holatiga, ya'ni o'z shaklini ma'nosiz holatga keltiradi hamda tilda ma'noga nisbatan nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi.

**Tahlil va natijalar.** Shakl va mazmun borasidagi nomutanosiblikning yana bir ko'rinishi an'anaviy tartibdagi 1:1; 1:2; 2:1 sxemalardir. Bu sxemalarda mazmun bilan shakl orasidagi munosabat ifodalanadi. Ya'ni 1:1 shaklning aniq bir farqlanuvchi elementi, bir morfemaga mazmun tomonining bir vazifa birligi to'g'ri kelishi kerak: *bola-lar*, bunda *-lar* shakl tomonidan 1 ga teng, mazmun tomonidan ham ko'plik affiksi (1-rasm) 1 ga teng. Bir shaklga bir necha mazmun (2-rasm) birligi 1:2 sxemasida (*keldilar – -lar* bir shaklga ega bo'lsa ham, ikki mazmunni bermoqda: 1-ko'plik, 2-hurmat), bir necha shaklga bir mazmun (3-rasm) birligi 2:1 sxemasi (*bormoq, borish* so'zlaridagi *-moq, -ish* affixlari shakli ikkita bo'lsa ham mazmunan bir affisdir)ga mos tushadi.

Atama bo'lmagan lisonimizdagi lug'aviy birliklarda 1:2 yoki 2:1 shaklini kuzatish mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rish mumkinki, belgilangan qo'shimcha morfemalar: birinchi so'zdagi *-a-*, ikkinchi so'zdagi *-a*, uchinchi so'zdagi *-i-*, to'rtinchi so'zdagi *-ur-* an'anaviy sxemaga nomuvofiq tarzda 1:0 ko'rinishidagi nomutanosiblikni aks ettirmoqda.

Odatda tilimizda bir lug'aviy ma'no kasb etgan asos morfema yoki qo'shimcha morfema atama ma'nosiga ega bo'lmagan holatlar ham tez-tez uchrab turishi tabiiy hol. Ba'zi holatlarda ma'lum bir sintagmatik qurshovda tayinli va rasmiylashgan o'sha ma'nosi va vazifasida kelmay, lisoniy nomutanosiblikni keltirib chiqarishi mumkin.

"Fuziya" terminini amerikalik tilshunos E.Sepir 1921-yilda ilmiy muomalaga olib kirdi. U fuziyani affiksalar, yangi o'zaklar hosil qiluvchi alohida usul sifatida ajratib ko'rsatmagan bo'lsa-da, unda fuziya ikki elementning o'zaro singishib, biri yoki har ikkisi o'zgarishga uchrashi va dastlabki ma'nolardagi izohlashish yuz berishini ta'kidlaydi. Ayni talqin J.Maruzoning "Tilshunoslik terminlari lug'ati" (M.1960. 331-beti)da to'lig'icha o'z ifodasini topgan. O.S.Axmanovning

lug'atida "O'zgaruvchan o'zak bilan nostandart qo'shimchani morfemalar o'rtasidagi chegaraning yo'qolishiga olib keluvchi zich birikuvchi fuzyiyadir" [6. 505] deyiladi. Bu xuddi soddalanish hodisasiga o'xshaydi va shu jihati bilan shakl hamda mazmun nomutanosibligini anglatadi.

Morfologik shakllar tizimidagi nomutanosibliklarni yuzaga chiqarayotgan affiks + affiks fuzyiyasi ot va sifatdagi *-choq, -loq, -gina, /i/msira, -i/nqira* kabi kichraytirish shakllari ikki va undan ortiq vazifaviy o'xshash shakllardan tarkib topgan; *-dagi, -moqchi* kabi qo'shimchalar esa vazifaviy noo'xshash qismlardan tuzilgan. Bunday shakllar o'zbek tilida fuzyiyaning keng tarqalgan ko'rinishlaridir. Ko'rinadiki, bir necha morfemalarning o'zaro fuzyialanishi uchun o'zak (asos)ning vazifa jihatidan faolligini yo'qotishi, ayniqsa, oraliq halqalarda keluvchi morfemalarning o'z ma'no va vazifasidan uzoqlashishi, shuningdek, morfemalarning tutashuv nuqtalarida fonetik o'zgarishlarning ham sodir bo'lishi zaruriy sharoitdir.

Yangi yasalma tarkibiga fuzyialangan morfemalar o'zlarining sobiq, genetik ma'nolaridan ajraladi, bu o'rinda qismlarning keyingi, real ma'nosi ustun chiqadi. Avvalgi genetik ma'noni tiklash maxsus etimologik tekshirishlarni talab qiladi. Genetik ma'no yangi ma'noga nisbatan, yangi shakl oldingi shaklga nisbatan nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Fuzyia diaxronik hamda sinxronik turlarga ham bo'linadi. A.A.Reformaskiyning uqtirishicha, sinxronik fuzyia, diaxronik fuzyiyani inkor etmagan holda, fuzyion negizlarning tabiatini ochishga yordam beradi: fuzyiali tillarda so'z yasashida mavjud bo'lgan qo'shimchalarning takrorlanishi mumkinligi – yangi butunlikka fuzyialanishda ularning so'nishi natijasi bo'lib, bu narsa sinxronik plandagi soddalanishdir [7. 83]. Bu xil jarayon agglyutinativ tillarda, jumladan o'zbek tilida ham mavjud. O'zbek tilidagi birgalik nisbat shakli o'z ma'nosini kuchaytirish, ma'noning bittasini – birgalikni ajratib ko'rsatish uchun *-sh* affiksi o'zakka ba'zan ikki marta qo'shiladi: *so'zlashishdi, gaplashishdi, tortishishdi, quchoqlashishdi, bahslashishdi...*

*Tiktirtir, kulchacha, qo'zichoqcha, kichkinagina* kabu so'zlar tarkibidagi morfologik shakllar – pleonastik takrorlar ko'plab tillarga xos bo'lib, yangi birliklarning yuzaga chiqishida muhim vosita rolini o'taydi.

Yuqorida keltirilgan va go'yo pleonastik qo'llanish kabi qayd etilayotgan holatlarda, so'zshakl tarkibidagi birinchi qo'llanish boshqa vazifa bajarsa, ikkinchi qo'llanish boshqa vazifa uchun ishlatilgan: *tortishdi* va *tortishishdi* alohida-alohida ifodalar; *toychoq* – boshqa, *toychoqcha* – boshqa. Chunki birinchi *-sh* boshqa vazifada, ikkinchi *-sh* boshqa vazifada, birinchi *-choq* boshqa, keyingi *-cha* boshqa vazifada kelmoqda. Demak, bir shaklning ikki ma'no ifodalab kelishi shaklga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

Shuningdek, bugungi kunda keng iste'molda bo'lgan *tugmacha ko'ylak, kamyuterning sichqonchasi* so'z birkmalidagi *-cha* morfemasini kichraytirish shakli deb bo'lmaydi, chunki agglyutinatsiya tufayli bunday so'zlar tarkibidagi kichraytirish shakli deyarli o'z mavqeyini yo'qotib bormoqda. So'zlar o'rtasida agyutinatsiya tufayli ikki

birlikning bir birlikka aylanishi ya'ni fuzyiyasi ham kuzatiladi: *kelar emish – kelarmish*. So'z takrorlarida birinchi qismning fuzyiyasi orqali ortirma nisbat shakllarini hosil qilish: *qizil – qizil-qizil – qip-qizil, saqiq – sariq-sariq – sap-sariq* shaklidagi *qop-qora, yam-yashil, ko'm-ko'k* (og'zaki nutqda *kap-katta, yap-yaxshi*) holatlarida kuzatiladi.

Mustaqil so'zlarning fuzyiyasi orqali morfologik shakllarga tortilishi: *men – man* (borar men – baraman), *sen – san* (borar sen – barasan), *biz – miz* (borar biz – boramiz) kuzatilsa, shaxs-son va egalik shakllarining soddalanish yo'li bilan birlikning davomiga ko'plikning qo'shilishi natijasida fuzyiyani kuzatamiz: *kitob+im+iz, qalam+im+iz; ko'r-di+ing+iz, bor-di+ing+iz*. Misoldan anglashiladiki, II shaxsda egalikning hamda shaxs-sonning (o'tgan zamon) ko'plik shakllari birlik shakli affiksi (*-im, -ing*)ga tarixiy ko'plik shakli affiksi (*-iz, -z*)ni qo'shilishidan hosil bo'lgan: *-(i)ng+iz – -(i)ngiz*. Birlik + ko'plik shakllarining soddalanishidan hosil bo'lgan hozirgi ko'plik shakllari agglyutinatsiya usulida yaxlitlashadi. Bu holat qaysidir ma'noda tabiiy jarayon: bosh kelish shakliga boshqa kelish shaklining qo'shiluvidan boshqa (qo'shilgan) kelish shakli hosil bo'ladi, shuningdek kelishik affiksini olib tashlash orqali bosh kelish shakliga o'tadi. Ko'plik shakli ham birlik shaklining ustiga quriladi. Matematik belgilar bilan ifodalanganida:

$Qalam+im$  (birlik) +  $-iz$  (ko'plik) =  $qalam+imiz$  (ko'plik);

$Qalam+imiz$  (ko'plik) –  $-iz$  (ko'plik) =  $qalam+im$  (birlik).

$Ko'r-di+ng$  (birlik) +  $-iz$  (ko'plik) =  $ko'r-di+ngiz$  (ko'plik);

$Ko'r-di+ngiz$  (ko'plik) –  $-iz$  (ko'plik) =  $ko'r-di+ng$  (birlik).

$Bola$  (birlik) +  $-lar$  (ko'plik) =  $bolalar$  (ko'plik);

$Bolalar$  (ko'plik) –  $-lar$  (ko'plik) =  $bola$  (birlik).

$Bola$  (bosh kelishik) +  $-ni$  (tushum kelishigi) =  $bolani$  (tushum kelishigi);

$Bolani$  (tushum kelishigi) –  $-ni$  (tushum kelishigi) =  $bola$  (bosh kelishik).

**Xulosa va takliflar.** Demak, birlik shakliga ko'plik shaklining qo'shilishi ko'plikni hosil qiladi, ko'plik shaklidagi so'zdan ko'plikni olib tashlanishi orqali birlik shakli hosil bo'ladi.

Fe'llarda I-II shaxsda zamon + shaxs-sonning (III shaxsda zamon + zamonning) agglyutinatsiyasidan sintetik shakllar hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan sintetik shakl fuzyia tufayli ajralmas holatga kelib qoladi: *bor+yap+man, bor+yap+san, bor+yap+di* (*bor+yapti*). Zamon va shaxs-sonning fuzyiyasidan

*-yapman, -yapsan, -yapti* kabi sintetik shakllar hosil bo'ladi va bu shakllar bo'linmasdan ifoda etiladi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, morfologik shakllarning agglyutinatsiya va fuzyia jarayonlarida nomutanosibliklar yuzaga chiqadi. Genetik shaklning hozirgi shaklga nisbatan nomutanosib bo'lib qolishi, shakl jihatidan ham, mazmun jihatidan ham sodir bo'lishi mumkin. Nomutanosiblikning bunday holatda yuzaga chiqishi taraqqiyot natijasidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования ... АДЦ. – С. 18; Абдуллаев Ф.А. Фонетика хорезмских говоров. – Т.; 1967. – С. 132.
2. Berdialiyev A. So'z tarkibi va shakl-ma'no nomutanosibligi. – Bishkek, 2013. – B. 15.
3. Гимпелевич В.С. Вопросы об асемантических морфемах, Проблемы семантики. – М.: Наука, 1974. – С. 156-157.
4. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Tamaddun, 2022. –B 111.
5. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995. – B. 33.
6. Ахманова О.С. Словар лингвистических терминов. – М.; 1966. – С. 505.
7. Реформатский А.А. Агглютинация и фузия / Морфологическая типология и проблема классификации языков. – М.; 1967. – С. 83.



*Jaloliddin URALOV,*  
Master student of USWLU  
E-mail: [jaloluralov95@gmail.com](mailto:jaloluralov95@gmail.com)

Based on the review by head of the Department of English Language Theory and Practice (SamSIFL), PhD Shermatov A. A.

### STRUCTURAL-SEMANTIC AND FUNCTIONAL FEATURES OF ENGLISH ANTHROPNYMS

Annotation

This article reflected structural- semantic and functional features of English anthroponomy. In this article the concept of anthroponomy has been well analyzed and explained with different ehamples of language.

**Key words:** Anthroponomy, structural characteristics, Greek, onomastic systems, different people, conceptual meaning, history, anthroponomical dictionaries.

### СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОНИМОВ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье нашли отражение структурно-семантические и функциональные особенности английской антропонимии. В этой статье концепция антропонимии была хорошо проанализирована и объяснена на различных языковых примерах.

**Ключевые слова:** Антропонимия, структурные характеристики, греческий язык, ономастические системы, разные народы, понятийное значение, история, антропонимические словари.

### INGLIZ ANTROPNYMLARINING STRUKTURAL SEMANTIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Bu maqola ingliz antropomiyasining structural – semantik va funksional xususiyatlarini o'zida ifodalagan. Maqolada antropomiyaya tushunchasi yaxshi tahlil qilingan va misollar bilan ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Antropomiyaya, structural xususiyati, yunon, onomatik sistemalar, turli xalqlar, konseptual ma'no, tarix, antropomik lug'atlar.

**Introduction.** In the lexical form all the languages in the world, nouns have a special place in the sentences. From the point of this, nouns are inseparably linked with all levels of the lexicon. The research of proper nouns is applicably and significant in linguistics both scientifically and realistically. Mainly proper nouns are used to give an attractive name to a new-born the member of the family. So that everything has a name, so do humans have a name as well. For ehample, when the word “human” is produced, a person can be created before one’s eyes; the word “book” is a specific expression.

Language is an standard of person’s culture because it realizes not only the depiction of the world, background reality, conditions of life but also the people’s awareness, way of thinking, personality, customs, morals and structure of esteems. The language feature of poetic literature lies in the fact that it reflects the culture an individual world outlook of people by whom it has been made. These aspects have caused lots of difficulties and problems during the analysis of dramatic pieces of literature and during the correlation of the original text and its translation.

Anthroponomy on the one hand is the component of person’s cultural identity and on the other hand it has a connectional function in the question of multicultural communication. The functional and structural characteristics of English-language anthroponomical dictionaries, as well as the ways of representing the semantic features of personal names in dictionaries, have not been sufficiently studied. The need to address these issues of describing English-language dictionaries determines the relevance of this study [1].

The issue of anthroponomy has appeared as a result of the intercultural communication of variety of people and at the same time it has great historical roots. The forms of

anthroponomy are influenced as well as by social factors. Lots of anthroponomy have become more likely as a national figure in different countries and this sign indicates its great significance and the role in the system of language. The forming of anthroponomy in the English language depends on its semantic and phonetic features and has its distinctive aspects.

**Literature Review.** The research of literary anthroponyms emerged in the second half of the 20<sup>th</sup> century. The investigators are dedicated primarily to depict their practical and stylistic chances in a poetic text. So, dramatic onyms are reflected to be one of the common components of a text that fully involved in the recognition of the author’s out looking. Besides that, onomastic lexicon, in addition to lots of nominations of things of the neutral actuality, makes a real factual and cultural background of text events, fills it up variety of metaphorical component.

Anthroponomy has a conceptual meaning, which is based on the idea of a category, a class of objects. According to Dmitry Ivanovich Ermolovich, the following signs are inherent in this value.

- a) an indication that the carrier of the anthroponomy is a person: Peter as opposed to London;
- b) an indication of belonging to the national-linguistic community William, Hans.
- c) an indication of the gender of a person: John, Kunz, unlike Mary, Lieschen.

Each nation has different onomastic systems, depending on the traditions associated with the naming of the personality of different people [2].

O.S. Cubryakova has noticed that «onomastics as the sphere of language is closely connected with social

phenomena. So, we should always take into account the interaction between language and not language factors that determine the functioning of a word in a sentence» [3].

Anthroponomy is the special science that studies the names of people. «Its

name is created from the Greek words «anthropos» – «man» «onoma» – «name», This term has been created by Portuguese linguist Z. Vaskonselva in 1887» [4]

**Research Methodology.** The methodology of this study is difficult and includes make use of an extensive method that provides application of the descriptive method as the leading one. We also have used analysis and interpretation of scientific literature method in this research paper. Besides that, fundamental methods of component analysis, word-formation, etymological and quantitative analysis of English anthroponyms in the literary texts. All of them enable deep linguistic interpretation of the language components being considered which supposes the determination of the prevalence of anthroponomy elements within their formation, as well as the use of a contextual-interpretive method which provides grounds for describing functional peculiarities of the author's onyms in dramatic texts.

Anthroponomy researches human's proper names that may be official – names, surnames and not official – nicknames or pseudonyms. Anthroponym is an unrelated name that points out a certain person. At the same time, it should be noticed that anthroponomy may not be created in the text only by way of using the rules of the word building of a certain language. It is very difficult process that has documented public and aesthetic grounding.

**Analysis and results.** The problem of anthroponomys and their types are considered as an important issue. Of these boids, the language has a place in the structure of the dictionary and is distinguished by the presence of structural peculiarities. The study shows that the main types of anthroponomy in British culture are as follows:

1.First name - the name that is given at birth and stands first in a person's full name, for ehample, John, Peter, William, Anne, Elizabeth, Mary.

2.Middle name (middle name) - the second name of a person. It stands between the first and last name: John Winston Lennon.

3.Last name / surname / family name is a surname used by members of the same family, for ehample, Smith, Green.

4.Nickname is a nickname, most often a shortened or diminutive form of the name: William – Bill, Will; Elizabeth – Betty, Liz.

5.Birth name is a birth name, i.e. a name given to a child at birth; a real, unchanged name (compared to pseudonyms or acquired names).

6.Legal name is an official name that is used for official purposes.

7.Married name - surname by marriage.

8.Patronymic name - patronymic, i.e. the naming of a person formed on behalf of a father or other ancestor by adding a certain suffix or prefix, for ehample, Johns.

History shows us that most of the proper names are closely connected with the Christian tradition and religious texts. Their roots come from Greek, Latin, and Jewish languages. English anthroponym has a great history which is connected with English people and the process of the development of language. Anglo-Saxons had only one name that was very simple by its structure [5].

Systematically the names became more complex; their structure has included several components. These components have been taken from the Old English. The preference of several personalities to a one family has been indicated by combining of personal names and the parents' names of the

family members. By its structure Old English female names have no differences from the male names. The most important role we are considering proper names – anthroponomy – play in the study of philological subjects – history, literature, foreign languages.

In the first case, a high concentration of proper names falls on the names of specific individuals who left their mark on the development and formation of a particular state. The anthroponomy of the English language are also conditioned by its semantics. There are special rules of forming of anthroponomy and their use in the text in the English language especially when we speak about surnames. There are different ways of the surname building, for ehample: from the names of professions: *cooper* – *Cooper*; from the names of animals: *wolf* – *Wolf*; from the proper names: *John* – *Jones*, *Johnson*; from the names of color: *black* – *Black*; from the appearance: *big* – *Big*; according to belonging to a certain ethnic group or nationality: – *French* – *French* [6].

After the Norman invasion, Old English names gradually began to lose their

popularity, and they were replaced by onomastic constructions borrowed from the

French language.

Names such as Richard, Robert, William, Hugo, as well as names of biblical origin – Thomas, John and Peter – began to be used in the naming system more and more. The most intensive assimilation of names with “Old French” roots took place in the ruling circles and the upper strata of society. English anthroponomy have the number of unique features that make them different from anthroponomy of other languages.

We should point that there are no differences between male and female surnames in the English language, for ehample: *William Smith* – *Alice Smith* but there may be the interchanging between first names and surnames, for ehample: *Henry George* – *George Washington*, *Irving Stone* – *Washington Irving*, *George Washington* – *Henry George* [6].

The characterizing feature of the English anthroponomy system is the presence of several first names with one surname. In most cases there are two first names (the second one is called middle name), for ehample: *Bernard George Huston*, *Gregory Joseph Byrd*.

Another peculiarity of the English anthroponomy system is the familiar attitude to official persons or politicians. In most cases the diminutive forms of names with surnames or without them are used, for ehample: *Tony Blaer*, *Bill Clinton* (*Antony Blaer*, *Wil-liam Clinton*).

Anthroponomy may serve as the tool of the individualization of a personality and at the same time as the device of showing the respect or polite attitude in the English language. In such a case different words are used with anthroponomy like sir, mam, miss, missis, mister, madam, lady etc. These words differentiate people according to gender, age, social state. For ehample, the lexeme «sir» is used speaking with an older man, or with the personality who has a greater social status [7].

The lexeme «lady» is used in the communicational situations with the women of any status or age in order to address the person officially with a high degree of politeness. There are also cases when the anthroponomy is used with the names of professions or scientific degree in order to identify a certain personality, for ehample: lawyer Nicholson, Professor Smith etc. It should be noticed that such a communicational norm is absent in the Ukrainian and Russian languages [8].

In the fiction text anthroponomy may have the functions of different stylistic devices like allusion, comparison, metonymy, epithet and others as in following ehample: «Tommy ordered two cognac, and when the door

closed behind the waiter, he sat in the only chair, dark, scarred and handsome, his eyebrows arched and up curling, *a fighting Puck, an earnest Satan*» [9]

In this ehample the main hero of the piece of literature by S. Fitzgerald is compared with the evil spirit Puck.


Apresjan states that homonymy is one of the poles on the scale of language ambiguity; another pole is monosemy whose types represent different degrees of approximation to polysemy. The most interesting of them is the type of meaning which is created by the inclusively disjunctive organization of the semantic components.

Let's have a look at some examples of these linguistic occurrences. An Uzbek word "ot" can be understood as a homonymous in these sentences.

*Or:* (animal type) - *Ana u ulkan otga qarang poygada yutishi aniq.* *Or:* (name) - *U mening otimni so'radi.*

The polysemantic nature of the word *eye* is shown in the following sentences:

*The human eye - It is not difficult for a sharp-eyed person to read books written in small letters.*

*The eye of the Ring - The eye of the ring presented to her is made of diamond.*

**Analysis and results.** In contrast to the polysemantic phenomenon, monosemantic words can be understood simply by their name. Scientific terminology and words with only one meaning are examples of monosemantic words. Monosemy is thought to be specific to the era of initial use of a freshly developed or acquired word. For example, metallurgical phrases such as *absorber* and *magnetite* are frequently monosemantic, as are mining terms such as *amalgamation* and *rock debris*. Proper nouns are frequently included in monosemantic words. It has been scientifically proven that scientific and technical terms are monosemantic words. Monosemantic words include *hydrogen* and *molecule*. Because they are only used for one meaning.

Ales Klegr states that polysemy, or multiple distinct yet related (motivated) senses of a form, is a complex phenomenon which has been studied from a lot of aspects. Among the key issues are the distinction between polysemy and monosemy and the relations between the distinct senses of a given word form. The discussion of the monosemy and polysemy ambiguity possesses two sides: the borderline between monosemy and polysemy; and, depending on this, the issue of how many senses ought to be attributed to a word. Related to this is the dispute between the monosemic view which in contrast to the polysemic one holds that as few senses as possible should be associated with a single form in the mental lexicon and as many as possible readings should be derived from these [6].

Understanding the meaning of a word is very important in language learning and teaching. We will find out what the word is from the meaning of the sentence. We have paid attention to the use of the English word *pupil* in the following sentences.

*Students: All pupils in my class are very active. Eye pupils: Different people have different pupils.*

It is clear from these statements that the word *pupil* has no semantic connection and no closeness, which means that the words are not polysemantic but have a homonymous character. Therefore, if we can understand the meaning of a word in a sentence, we can conclude whether it is polysemantic or not.

We have used the word *race* in English in sentences in order to analyze whether it is polysemantic or homonymous.

*Race 1* - competition: *Let's have a swimming race.*

*Race 2: People of many different races were living side by side.*

The word "race" used in two sentences is homonymous and has not any similarity or relatedness.

Let's analyze the word *yellow* - the word belonging to the category of adjectives in sentences.

*Yellow 1 (color) - I have clothes which are yellow.*

*Yellow 2 (people) - People are called yellow if they belong to a race that have pale yellowish brown skin.*

The word *yellow* used in these sentences has a color connection, and we have proved that it is polysemantic.

As Rakova M. stated that the widespread phenomenon of polysemy is a puzzle for any theorist who attempts to offer generalizations concerning the use of a polysemous word. What drives a polysemy theorist is the belief that different uses of a polyseme have to be related in some unarbitrary way. Introducing the notion of conceptual structure mental representation into semantics gives one the tools to offer such generalizations [7].

From the above, it can be seen that polysemantic words are also found in adjectives, nouns, or verbs in various functions. It should be stated that homonymous words might also occur within different word families. For example, adjectives can be homonymous.

*Dear (loved) - She is very dear to me.*

*Dear (expensive) -The dress was very comfortable but very dear.*

Here another example for homonymy which is noun.

*Bank1 (river)-By the time we reached the opposite bank, the boat was sinking fast. Bank2 (financial) -I had to take out a bank loan to start my own business.*

*Bank3 (mass of something)- A dark bank of cloud loomed on the horizon,*

*Bank4 (a row of similar things)-Bank of switches were difficult to differentiate, Bank5 (store)-A blood bank was very helpful for the patient.*

For exemplifying we have looked through the word case and proved it as a homonymy word by using in sentences.

*Case1 (situation)- I wouldn't normally agree but in this case, I will make an exception.*

*Case2 (problem) -Nowadays many organizations are trying to make better changes in teaching case.*

*Case3 (container)-Please bring my case for putting my books.*

*Case4 (argument)-She is very busy, so do not overstate the case-just give her the facts.*

*Case5 (grammar cases)-It is not very difficult to differentiate accusative and dative cases.*

It is understandable that case has no semantic relationship, therefore it is a homonymous term.

**Conclusion.** Minayeva defines that words are usually used to convey more than one item or concept, and that they can be utilised to express a variety of things. The language

system naturally functions in a variety of ways to prevent ambiguity and provide a tip to differentiate the required meaning. It is also crucial to evaluate the significance of the context, whether linguistic or non-linguistic, because a number of ambiguities are never discovered because the scenario excludes the different alternative meanings. Contextual, distributional, and transformational analyses have produced significant observations in this part of the language [8].

The problem of polysemy, in other words, the use of the same word in two or more distinct meanings is relevant to a number of other important matters. These are: the development of different types of synonyms, as a result of semantic transpositions of lexical units and homonymy.

It can be concluded that the linguistic phenomenon of polysemy is the most essential way to make any language more descriptive. In addition to this specific peculiarity they demonstrate that languages are always in progress. Both in English and Uzbek languages we have studied these phenomena and sentences which are given in this article prove that most words in these languages are polysemous. The issue of ambiguity is one of the most debated in lexicology. One of the distinct categories of lexicology is polysemy. Each polysemantic term has its unique stylistic characteristics, and analysing the lexical meanings in it necessitates extensive investigation and observation. Context is generally known to be significant for the meaning of polysemantic words. Because polysemantic words have multiple lexical meanings, but only one in this context.

#### LITERATURE

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992.-B.103-106.
2. Vimala Herman, Brigitte Nerlich, Zazie Todd, David D. Clarke. Polysemy flexible patterns of meaning in mind and language. Berlin.- 2003.-p.60.
3. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992.-B.103-106.
4. Ginzburg E.S., Khidekel S.S. A course in modern English lexicology. 1979.- p.112.
5. Ingrid Lossius Falkum, Augustin Vicente. Polysemy. 2017.-P.2-10.
6. Ales Klegr. The limits of polysemy. Enantiosemy. 2003.- p.8.
7. Rakova M. The extent of the literal metaphor, polysemy and theories of concepts. New York. -2003.- p.118.
8. Minayeva L.V. English lexicology and lexicography. — M.: High school, 2003.-p.185.



*Shohista XOLMUROTOVA,*  
TerDU Psixologiya kafedrası o'qituvchisi  
E-mail: [shohista.xolmurotova@mail.uz](mailto:shohista.xolmurotova@mail.uz)

*"Ma'mun-universiteti" NTM professori psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent D.A. Urazbayeva taqrizi asosida.*

## FACTORS INVOLVING THE PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF PERSONS OBSESSED ON WOMEN

### Annotation

In the era of current global changes and the evolution of spiritual values, the strength of the family, which is the basis of society, could not be imagined without intelligent and wise women. Therefore, there are many women in our society who are role models for others with their behavior, mind and thinking, understanding, intellect and taste. But among them, unfortunately, there are also those who tarnish the great name of women and cause their honor to be trampled.

**Key words:** Behavior, consciousness, thinking, perception, intelligence, global change, spiritual values

## ФАКТОРЫ, ОКАЗЫВАЮЩИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ НА ЖЕНЩИН

### Аннотация

В эпоху современных глобальных изменений и эволюции духовных ценностей крепость семьи, являющейся основой общества, невозможно представить без умных и мудрых женщин. Поэтому в нашем обществе немало женщин, которые своим поведением, умом и мышлением, пронизательностью, умом и вкусом являются образцом для подражания для окружающих. Но среди них, к сожалению, есть и такие, которые порочат великое имя женщин и заставляют попирать их честь.

**Ключевые слова:** Поведение, сознание, мышление, понимание, интеллект, глобальные изменения, духовные ценности.

## AYOLLARGA MUTAASSIB SHAXSLAR TOMONIDAN PSIXOLOGIK TA'SIR SOLAYOTGAN OMILLAR

### Аннотация

Xozirgi global o'zgarishlar, ma'naviy qadriyatlar evrilish davrida jamiyat negizida bo'lgan oila mustahkamligini oqila va dono ayollarsiz tasavur etib bo'lmadi. Binobarin, jamiyatimizda o'zining xulq atvori, ong va tafakkuri, fahm farosati, aql zakovati hamda didi bilan boshqalarga namunama bo'lib kelayotgan ayollar ko'p. Ammo ular orasida ayol degan buyuk nomga dog' tushurayotgan va o'z sha'ning toptalishiga sabab bo'layotganlar ham, afsuski topiladi.

**Kalit so'zlar:** Xulq atvori, ong, tafakkuri, fahm farosat, aql zakovat, global o'zgarishlar, ma'naviy qadriyatlar

**Kirish.** Inson o'zining kognitiv (aqliy) faoliyati davomida o'zidan bir necha milliard masofa uzoqlikdagi sayyoralarini kashf etdi. Lekin haligacha o'zini, «men»ligini to'lik va aniq o'rgana olmayapti. Har qancha urinmasin, o'z ichidagi «men»ning buyruqlariga quloq osmoqda, o'zi uchun nomaqbul bo'lgan xususiyatlaridan voz kecha olmayapti. Haligacha giyoxvandlik separatizm, ayirmachilik, turli diniy-axloqiy buzilishlar ko'paymoqdaki, ammo ozaymayapti. Inson shaxsiyati demormatsiyasi (o'zgarishi) natijasida paydo bo'livchi va uni manqurtlik darajasiga qadar olib boruvchi illatlardan biri mutaassiblikdir. Mutaassib (fanat-fanatizmus so'zi bilan sinonim bo'lib, "g'azablangan", "jazavasi tutgan" ma'nolarini bildiradi) shaxs qandaydir g'oya yoki e'tiqodda oxirgi nuqtasigacha yetgan, shunga mukkasidan ketgan va boshqa g'oyalarni kesin inkor etuvchi ruhiy holat hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mutaassiblar o'z g'oyalaridan boshqa har qanday qarash va e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'ladilar. Ularda o'z "men"ligini atrofga ko'rsatishga intilish hissi yuqori bo'ladi. Qolaversa, mutaassib shaxsga xos asosiy xususiyatlardan biri bu egoizmning rivojlanganligidadir. Binobarin, o'z fikri, xohishlarini amalga oshirish mutaassiblarning bosh maqsadi sanaladi. Ayrim mutaxassislar esa mutaassiblikning asosida kuchli ehtiros bilan ijtimoiy muhit, muayyan guruh yoki shaxsga yoqish istagi yetadi deb, ta'kidlaydilar.

Achinarlisi, nosog'lom e'tiqod egalarning nozik hilqat hisoblanuvchi ayollarimizga turli usul va vositalar orqali ta'sir o'tkazishi orqali bir oilaning mahallaning va butun bir jamiyatning xavfsizligiga rahna solmoqdalar. Bunda ular ayollar psixologiyasidagi nozik jihatlardan, kuchli gipnotik

usullardan foydalanmoqdalar. Mutaassiblikning bugungi kunda ko'plab ko'rinishlari mavjud bo'lib, ulardan:

- siyosiy mutaassiblik:
- san'at mutaassibligi:
- sport mutaassibligi:
- milliy mutaassibligi:
- diniy mutaassibligi:
- g'oyaviy mutaassiblik kabilarni sanab o'tish mumkin.

Yuqoridigilardan bugungi kunda inson ruhiyati va ijtimoiy tinchlikka katta xavf tug'dirayotgani bu diniy mutaassiblik masalalaridir. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, barcha sohalar kabi diniy sohada ham katta islohotlar amalga oshirildi. Islom dini arkonlarini amalga oshirish uchun barcha sharoitlar yaratildi. Ammo shu o'zgarishlarga qaramay, yurtimizda mavjud siyosatimizni o'zgartirish, noqonuniy (xalifalikka asoslangan xayoliy) tizimni o'rnatishga qaratilgan bir qancha oqimlar o'z faoliyatini yashirincha olib bormoqda. Ular o'z g'oyalarni yosh diniy saviyasi past, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga qaratmoqdalar. Ular yuqoridagilar orasidan mutaassib bo'lgan manqurtlarni tayorlamoqdalarki, ular nafaqat ota-onalari, balki o'z yurtining tinchligiga tahdid qilmokdalar. huquqni himoya qiluvchi qator organlar faoliyati yordamida ularning soni ancha ozayadi, ammo ularning butkul bartaraf qilish imkoniyati hozirgacha topilmadi. Diniy mutaassiblik tufayli ozodlikdan mahrum etilganlarning ayrimlari bu faoliyatlarini jazo muddatini o'tab bo'lib ham qayta davom ettirmoqdalar. Bu esa mutaassib shaxslarni, ularning psixologiyasini chuqur bilish, tahlil qilish kabi masalalarni oldinga surmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Psixologlar erkaklardan farqli ravishda ayollarga xos qator xususiyatlarni qayd etganlar. Ulardan:

- bo'ysunuvchanlik;
- irratsional (mantiqiy bo'lmagan) yondashuv;
- ustanovka (shaxsning biror xatti-harakatga nisbatan ichki hozirgi)ning qat'iy emasligi;
- tashqi ta'sirlarga tez beriluvchanlik;
- axborot olishga nisbatan qiziqishlarning dominanta (ustun)ligi;
- ijtimoiy munosabatlarga kirishishga xohishning kuchliligi;
- ko'pchilikka bevosita ta'sir o'tkaza olishi;
- psixologik stresslarga chidamsizligi;
- reallikdan xayolot olamining ustunligi va boshqalar.

Ma'lumki, mutaassib shaxslarning asosiy maqsadlari bu – o'z g'oyalari sodiq manqurtlarning sonini oshirish bilan o'z vazifalarini ularga yuklash va shunday "savob" ishlarini imkoni boricha sezdirmasdan olib borishdir. Mutaassiblikning paydo bo'lishiga qator omillar sabab bo'ladi:

- hayotda o'z o'rnini topa olmaslik;
- ma'lum psixologik zarbalarga uchragan insonlar o'z qadriyatlar tizimini o'zgartirishga majbur bo'ladilar va aynan ular mutaassiblar uchun "zarur" insonlardir;
- insonda tabiatan taqiqlangan yoki noma'lum har qanday narsa va hodisaga intilish hissi mavjud. Ayollarda aynan shu xususiyat yaqqol namoyon bo'ladi;
- ayollar har qanday shov-shuvli ma'lumotlarga qiziquvchan bo'ladilar va shov-shuvli axborotlarni tarqatish orqali o'zlarining ijtimoiy faolliklarini namoyish qilishga intiladilar;

- "muammoli" hayotdan chiqish yo'lini emas, ko'pincha butunlay "qutilish" yo'llarini izlaydilar;

- ijtimoiy munosabatlarga kirishish ehtiyoji yuqori bo'lgani sabab, doimo hamfikr, dardkashga muhtoj bo'ladilar.

**Tahlil va natijalar.** Mashhur psixolog A.Adler o'zining "To'liqsizlik kompleksi" nazaryasi orqali katta shuhrat qozongan. Unga ko'ra, har bir inson ma'lum bir kamchilik bilan tug'iladi. U o'zidagi ma'lum kamchilikni boshqa bir xususiyat bilan kompensatsiya qilishga harakat qiladi. Ya'ni bunda do'stlari kam, tashqi ko'rinishi yoki nutqi, ko'rish a'zosisida kamchiligi bor ayollar yuqoridagi bo'shliqlarni boshqa bilan to'ldirishga harakat qiladilar va shunda ularning ayrimlari mutaassiblar tuzog'iga tushib qoladilar.

O'ziga xos xususiyatlari tufayli ayollar ekstremistik kuchlarning oson o'ljasiga aylanmoqda. O'zbek xonadonlarida ayollar asosan uy yumushlari bilan mashg'ul bo'ladilar. Shu sabab ularning ijtimoiylashuv jarayonlari nisbatan sekin kechadi. Bunday vaziyat ayol ruhiyatiga mavjud holatlardan qoniqmaslik hissini paydo qiladi. Muttassiblar esa bu vaziyatdan unumli foydalanib, ularga quyidagicha psixologik ta'sir o'tkazishga urinadilar:

Ularga bu hayotni daxshatli bir tusda tasvirlaydilar va bunga ishontiradilar ham. O'z o'rnida hayotidan norozi ayol ongida o'zini oqlashlik ya'ni, "Men yomon emasman balki dunyo, odamlar yomon shuning uchun men qiynalyapman" degan g'oyani shakllantiradilar.

Ayollarni o'z g'oyalari asosida tashkil topgan guruhga olib boradilar va unga xushomad kilib, "haqiqiy hayot aslida mana shu" ekanini singdirdilar. Ayollarga bunday e'tibor va xushomad shu qadar ta'sir qiladiki, ular hatto bu yerda qolish uchun barcha narsaga tayor bo'ladilar.

O'z g'oyalari va "buyuk" vazifalari haqida o'lim va oxirat, jazo haqidagi shunchalik ulug'vor nutqlar so'zlaydilar, ayollarda tanqidiy tafakkur yo'qolib o'rniga tafakkur rigidligi ustunlik qila boshlaydi.

O'zini tug'ilganidan buyon "noto'g'ri" yo'lda ekanligini anglagan ayol umri davomida o'zlashtirgan qadriyatlarini butkul o'zgartirish kerak, degan fikrga keladi. Shuncha umrim zoye ketibdi, endi nima qilish kerak, deb hayotda esankirab qolgan ayol osongina oqimlar tuzog'iga ilinadi.

O'z oilalari, yaqinlari "xato yo'lda ekanliklari bois ularni ham o'zlari "haq" deb bilgan yo'lga boshlashga harakat qiladilar va hatto o'z yullariga yurmaslar ulardan osongina voz kechib ham yuboradilar.

Qolaversa, mutaassiblar avvaliga ochiq - oydin targ'ibotga o'tmay, dastlab farzandlar, taomlar, mish-mishlarni muhokama qilib boradilar. Ular ayollarni buysunuvchanlik xususiyatlaridan foydalanib, oqim yetakchisi bilan muloqot tashkillashtiradilar. Ayollarda yetakchi haqida "u hech qachon xato qilmaydi" degan fikrni shakllantiradilar. Vaqt o'tishi bilan oqim yetakchisining har qanday gapi bu ayol uchun mutlaq haqiqat va bajarilishi lozim bo'lgan vazifaga aylanib boradi. Mutaassib shaxslarning asosiy maqsadlari ularning g'oyalari sodiq manqurtlar sonini oshirish bilan o'z vazifalarini ularga yuklash va amalga oshirayotgan "savob" ishlarini imkon boricha sezdirmasdan olib borishdir. Ayollarning turli oqim va sektalarga kirib qolishida ham bir qator omillar sabab bo'lishi mumkin. Jumladan, turli oqimlarning e'tibori eng avvalo ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlarga qaratiladi. Ular boquvchisini yo'qotgan oilalardagi beva ayollar, farzandini yolg'iz o'stirayotgan, moddiy jihatdan ehtiyojmand, tushkun kayfiyatga tushib qolgan, himoyaga muhtoj, hatto og'ir kasallikka chalingan ayollar bo'lishi ham mumkin. Psixologik muvozanati izdan chiqqan ayollarga turli yordamlar ko'rsatish, dalda berish vositasida ishonchini qozongan oqim yoki sekta vakillari ularning o'z maqsadlari yo'lida qurbon qilishlari osonroq kechadi. Bunda ayollarning nafaqat ruhan ezilganliklari, balki jismonan kuchsizliklaridan foydalanib, ularga zug'um o'tkazilishi, kaltaklanishi, narkotik moddalarga qaram qilib qo'yilishi ham ehtimoldan yiroq emas.

Ba'zi ayollarning yuqorida qayd etilganidek, diniy va dunyoviy bilimlarning yetarli darajada o'zlashtirmaganlari hamda din niqobi ostidagi ekstremistik tashkilotlar asl maqsadlari haqida bilmasliklari turli diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga sabab bo'lsa, ba'zan ayollarining diniy bilimlarga chanqoqliklari, unga erishish yo'lida noto'g'ri yo'lni tanlashlari, xususan, islom dinini o'rganish va uni muqaddas manbalarini asl holida o'qishga bo'lgan qiziqishlari, lekin zaruriy bilimlarni qayerdan olish haqidagi ma'lumotlarga ega emasliklari ularning aldanib qolishlariga zamin yaratmoqda. Diniy saboq olaman, deb ekstremistik kayfiyatdagi kimsalar tuzog'iga tushib qolgan ayollarga "sof islom dini aqidalaridan saboq berish" davolari bilan yashirin tarzda arab imlosi, islom dini ahkomi va ibodatlarini o'rgatish baxonasida turli buzg'unchi g'oyalar singdirilgan ma'ruzalar bilan tanishtiradilar, ta'qiqlangan adabiyot, video va audio materiallar tarqatadilar. Ayollar esa, o'zlari bilgan holda ekstremistik guruhga moyil shaxs va hatto guruh a'zosi faollaridan biriga aylanib boradilar.

Diniy – ekstremistik oqimlarga a'zo ayollar, avvalo, yangi guruhlar tuzish va ekstremistik g'oyalarni kuchaytirish maksadida o'z ruhiyatlarini ustida ishlaydi; o'z guruhiga yetakchilik saloxiyatiga ega, ta'sir o'tkaza oladigan ayollarni to'plashga harakat qiladilar. Natijada ong ostida yoshlikdan itoatkorlik singdirilgan ayrim o'zbek ayollar bunday "ta'sirga" ega harizmatik ayollarning oson o'ljasiga aylanadi.

Hozirgi kunda mutaassib ayollarga internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali xalifalik davlatini barpo qilish va islomiy hukmlarni joriy qilish yo'lida "jihod" qilayotgan jangchi erkaklarga o'zini bag'ishlash, ya'ni "nikoh jihodi" ni amalga oshirish keng targ'ib qilinmoqda. Bunda ayol guruhdagi aynan bir erkakning mahrami bo'lib qolmaydi, balki guruhdagi

turmush o'rtog'i jangda vafot etsa, ikkinchi jangariga turmushga chiqaveradi yoki vafot etgan turmush o'rtog'i bilan tez kunda "jannatga ko'rishish" niyatida o'z o'limiga rozi bo'ladi va "shahidlik belbog'ini" bog'laydi. Vaholanki, islom ta'limotiga ko'ra, insonga berilgan jon ne'mati Yaratganning eng buyuk ne'matlaridan sanaladi.

**Xulosa va takliflar.** Mutaassib shaxslar tomonidan ayollarda egotsentrizm ("men" yuqori ifodalanganligi)ni shakllantiradi. Bunda "biz yaxshi", "boshqalar esa yomon" prinsipi ustivor bo'la boshlaydi.

Ayollarni mustaqil fikrlashi, erkinligi hatto bo'sh vaqti ham nazoratda bo'ladi va bu holat o'z o'rnida ayollarda aggressivlik (tajovuzkorlik)tuyg'usini shakllantiradi.

Mutaassiblar endi ta'sirning yanada samaraliroq uslubi bo'lmish jamoaviy ta'sir o'tkazishni boshlaydilar. Ayollar ma'lum fikrni mutlaqo noto'g'ri ekanligini bilsalarda, jamoaviy bosim ostida ongsiz holatda uni ma'qullaydilar.

Mutaassiblar shunday psixo-sotsial muhit yaratishadiki, endi bu yo'ldan qaytish va oqimga "xiyosat qilish" ning imkoni yo'qligi uqtiriladi.

Turli ta'sirlar natijasida ayollarda autizm (o'z qobig'iga o'ralib qolish) shakllanadi. Natijada ular qaysar, tushunarsiz, fe'l – atvori tajovuzkor holatga keladi.

Mutaassib shaxslar ayollarni o'z hissiyotlarini jilovlashga, ya'ni hissiy beparvolikka olib boradilar. Natijada ayollardagi mehr, bir birini tushinish, o'zaro hamkorlik kabi hissiy kechinmalar o'rnini sovuqqonlik, interiozatsiyalashuv (ichga yutish, sirlilik) jarayonlari egallaydi.

Ayollarga jannat, uning tavsiflari ahllari shu qadar chiroyli bo'yoqlarda yetkaziladiki, natijada ayollar bu

qorong'u dunyoda qiynalib yashashdan boqiy jannatga ketdi, shuning uchun barcha narsaga tayyor bo'ladi. Bunday ruhiy hoatga olib chiqqan ayoldan mutaassiblar kamekadze va terrorchilarni yaratadilar.

Xulosa qilganda, mutaassib shaxslar o'zlarining nopok maqsadlarini amalga oshirishda dinimizda yuksak maqomga ko'tarilgan ayollarimizning ruhiyati asrorlaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanib yurtimiz farovon hayotimizga xavf solib, asrlar davomida shakllangan oila muqaddasligi tushunchasini poymol etmoqdalar. Bu esa o'z navbatida mahallalarda otinoyilar yordamida mutaassib oqim va sektalarning psixologik ta'sir usullarini fosh qilish, ularning zararli oqibatlaridan ogoh qilish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanini ko'rsatmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, ayollarning faoliyatini kuzatish orqali ulardagi o'zgarishlarni baholash asosida turli usullari orqali immunitetlarini shakllantirish mumkin. Yot - begona g'oyalar ta'sirida tushgan nozik jins vakillarining xatti-harakatidan tortib to nutq faoliyatigacha ma'lum miqdorda o'zgarishi tabiiy hol hisoblanadi. Ana shunday ayollar bilan alohida ilmiy asoslangan suhbatlar tashkil etib, ularga yot g'oyalarga nisbatan immunitet shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Ayol shaxsi nihoyatda sodda, juda nozik, tabiatan mehribon o'ta murakkab shu bilan birga tengsiz qahrli hamdir. Unda qanday xususiyat ustunlik qilishi ko'p hollarda uni qurshab turgan hamjinslarga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib ayolning atrofidagi ayollarga ham befarq bo'lmaslik talab etiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ma'rifat ziyosi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar bosh imom-xatiblarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha yordamchilari uchun qo'llanma / Tahrir hay'ati: A. Mansur, I. Usmonov. – : Toshkent islom universiteti, nashriyoti- matbaa birlashmasi. Toshkent-2015. 213- bet
2. Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga – yuz javob) : mas'ul muharrir O. Yusupov.-Toshkent: : Toshkent islom universiteti, nashriyoti- matbaa birlashmasi. Toshkent-2017. 101- bet
3. Turdiyeva D. Adashgan Nozik hilqat. Movarounnahr nashriyoti. Toshkent. 2016.
4. Islam: Ensiklopedicheskiy slovar. – M., 1991.
5. Isoqjonov R. Islom falsafasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012.
6. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari (O'quv qo'llanma) / Mas'ul muharrir Ochildiev. A.– T.: Toshkent islom universiteti, 2008.
7. Xolmurotova Shohista Mirzaliyevna Nozik hilqat G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent-2017. 35- b



O'g'lonoy XUDOYNAZAROVA,  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi  
E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

TerDPI dotsenti, filologiya fanlari falsafa doktori O.Uralova taqrizi asosida

### DINIY BARQAROR BIRIKMALARDA MADANIY QARASHLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi diniy barqaror birikmalarning shakllanish asoslari, etimologik xususiyatlari va insonlarning din bilan bog'liq qarashlari, islom dini, madaniyati va islomiy urf-odatlarini o'zida mujassamlashtirgan diniy barqaror birikmalarning ingliz tilida berilishi hamda xristian olamini aks ettiruvchi diniy barqaror birikmalarning o'zbek tilida ekvivalentlik va adekvatlik hosil qilishi, teologik nazariyalarni qamrab olgan turg'un birikmalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Din, teologiya, diniy qarashlar, diniy barqaror birikmalar, islom madaniyati, xristian olami, turg'un birikmalar.

### CULTURAL CONSIDERATIONS IN STABLE RELIGIOUS ASSOCIATIONS

Abstract

In this article, the basis of the formation of religious stable compounds in English and Uzbek languages, etymological features and people's views on religion, the presentation of religious stable compounds in English that embody the Islamic religion, culture, and Islamic traditions and reflect the Christian world the formation of equivalence and adequacy of stable religious compounds in the Uzbek language, information about stable compounds covering theological theories is given.

**Key words:** Religion, theology, religious views, stable religious associations, Islamic culture, Christian world, stable associations.

### КУЛЬТУРНЫЕ СООБРАЖЕНИЯ В СТАБИЛЬНЫХ РЕЛИГИОЗНЫХ ОБЪЕДИНЕНИЯХ

Аннотация

В данной статье рассмотрены основы образования религиозных устойчивых составов в английском и узбекском языках, этимологические особенности и взгляды людей на религию, представление религиозных устойчивых составов на английском языке, олицетворяющих исламскую религию, культуру и исламские традиции и отражающих Христианский мир формирование эквивалентности и адекватности устойчивых религиозных составов в узбекском языке, приведены сведения об устойчивых соединениях, охватывающих богословские теории.

**Ключевые слова:** Религия, теология, религиозные взгляды, устойчивые религиозные объединения, исламская культура, христианский мир, устойчивые объединения.

**Kirish.** O'zbek frazeologik birliklari orasida mustahkam o'rin tutgan diniy barqaror birikmalar islom olami arkonlari, Allohga ishonch, o'zaro hurmat kabi fazilatlarini ifodalab, o'zbek milliy aksiologik (qadriyat) manzarasini ifodalaydi. Ular o'zbek mentalitetining Parvardigori oldidagi farzlariga sobit bo'lishi, o'lim va omon qolish olami o'rtasidagi sinov lahzalarida Allohga hamd aytish, Yaratganning xohish va irodasini taniy bilish kabi fazilatlarga ega bo'lishi, har bir vaziyatda minnatdorchilik bildirib olishi kabi qarashlarni ifoda etadi. Va ushbu diniy barqaror birikmalar ba'zida ingliz turg'un birikmalari bilan uyg'unlashib, adekvatlik va ekvivalentlik xususiyatini namoyon etadi.

Al-Asma al-Husna-Ollohning eng go'zal ismlaridan biri. Islomda Ollohning 99 ismi qayd etiladi va ularni bilgan insonlarning jannatga kirishiga ishoniladi. Alpha and omega-Ushbu harflar grek alifbosidagi birinchi va ohirgi harflari a va o harflariga teng bo'lib, Ollohning buyukligiga ishora etadi. Ko'p musulmonlar God-xudo so'zi o'rnida arabcha al-illah so'zlaridan tarkib topgan *Alloh* so'zini ishlatishadi. Bu haqida Eski Ahdda Alloh yagona degan ma'noni ifodalaganligi sababli Xudoning nomini bildirmaydi deb aytishadi. Ko'pchilik arab nasroniylari Alloh so'zining o'rnida semantik jihatdan biroz farqlanuvchi *rab-ona* yoki *al-rab* so'zlaridan foydalanishadi.[5]

**Tahlil va natija.** *Eternal life/future life*-Inson vafotidan keyingi boqiy olam. *Eternal life/future life*-Ushbu ibora inson vafotidan keyingi hayot demakdir. Ushbu turg'un

birikma ingliz va o'zbek tillarida to'liq adekvatlikni hosil qiladi. Inson vafotidan keyingi hayotga ishonch eng qadimgi qabilalar orasida mavjud bo'lgan. Qadimgi greklar marhumlarni yer osti dunyosida soya kabi izg'ib yurishiga, azobli poklanish jarayonlarini boshdan kechirishiga ishonishgan. Iso Masih ham boqiy dunyo borligiga ishora qilgan. U o'z nutqida "Mening otamning uyi ko'plab qasrlardan iborat degan"[6].

*Kingdom of God/Kingdom of heaven*-Haqqa oshiqlik. Ushbu turg'un birikma asosan xristian olami bilan bog'liq bo'lib, Iso Masih bu tushunchalarga yangi qadriyatlarni kiritdi, ularni yuksaltirdi va ruhlantirdi. Masihning ta'limotida Xudoning Shohligi jamiyatning holatini ramziy qiladi, unda Xudoga bo'lgan sadoqat (eng oliy ideal) oliy va sevgi qonuni (odamlarga yaxshi niyat) amalda ustunlik qiladi[1; 27-b]. Aynan shu holatni inson birinchi navbatda izlashi va hamma narsadan avval o'z ichida o'rnatishi kerak edi. Aynan shu tushuncha o'zbek she'riyatida Boborahim Mashrab g'azallarida o'z aksini topgan. U o'z g'azallarida «*Shariat sharobini ichgan*», «*Tariqat halqasin tutgan*», «*Haqiqat shohini shurgan*», «*Malomat kuyida yurgan*», «*Muhabbat yo'lida kuygan*» «*suyar qullar*», *ya'ni Haq oshiqdari so'zlarini qo'llagan*.

*The Kingdom of heaven is within you*-Shariat sharobin totgin deya tarjima qilishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, ingliz va o'zbek tili diniy barqaror birikmalari bir qator diniy leksemalardan tarkib topgan bo'lib, ularning etimologik

xususiyatlarini tadqiq etish ular bilan bo'g'liq bilimlarni o'zlashtirishda qulayliklar yaratadi. [2;106 b]

Masalan: *Hegira, hejira*-Muhammadning Makkadan parvozi (milodiy 622-yil 15-iyul), Muhammad davriga tegishli; *Kibla-qiblagoh*. Musulmonlar tomonidan Makkaga ibodat qiluvchining namozda sajda qiladigan joy sifatida qo'llagan atamasi; *Kismet-qismat*. Taqdiru azal, peshonada yozilgani; *Lord's Prayer*-Rabbiyning ibodati. Iso shogirdlariga o'rgatgan ibodat; *Lord's table*- Muqaddas elementlar totirilgan stol yoki qurbongoh; *The last supper*- Iso Masihning o'n ikki havoriy bilan tanovvul qilgan kechki taom; *Qadarities*- Insonning o'z harakatlarida ixtiyori yoki kuchi (qadar) borligiga ishonadigan islomiy mazhab; va bu taqdir uni Xudoning quliga aylantirmaydi kabi[3;136 b]. *The most fantastic [performance] I have seen in the strict idiom of the music hall comedian. (OHPC: journalism)*- Musiqa zali komik aktyori o'zining betakror **san'ati** orqali eng yaxshi ijroni namoyish etganligini birinchi ko'rishim. *The portraits of women in the garden of M. Forrest that Lautrec sent to Les Vingt, and a number of similar portrayals which should be placed with them, demonstrate his continuing interest in an Impressionist idiom of plein-air painting.* Lautrec Les Vingtga yuborgan M. Forrest bog'idagi ayollar portretlari va ular bilan birga joylashtirilishi kerak bo'lgan bir qator shunga o'xshash tasvirlar uning plener rasmining impressionistik **suratlarga** doimiy qiziqishini ko'rsatadi.

Ikkinchi holatda tilga oid leksik yoki frazeologik birlikni anglatadi. Good things come to those who wait-pillow. (Sabr tagi sariq oltin).

Ingliz tilida ***I am good friends with him (shunchaki do'st)*** idiomasi grammatik jihatdan notog'ri shakllantirilganligiga qaramasdan o'z idiomatik xususiyatini saqlab qolgan va barchaga tushunarli, uni ***I am a good friend with him*** deb o'zgartirsak grammatik jihatdan to'g'ri ammo mantiqan noto'g'ri. To have a bee in one's bonnet-bir ish bilan ovora bo'lmoq grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan ammo, ma'nosi noaniq idiomadir. Uchinchi turdagi idiomalar grammatik jihatdan ham, mantiqan ham noto'g'ri shakllantirilgan iboralar: to be at large-qamoqxonadan qochmoq/jinoyatchilarning ozodlikda yurishi.

*Twelve prisoners are at large following a series of escapes. To go through thick and thin, to be at daggers drawn, to be in the swim* kabi idiomalar shu turdagi idiomalardir. Ushbu turdagi idiomalar asosan fe'l-predlog-sifat so'z turkumlari asosida shakllanadi. Ingliz tilidagi idiomalarning katta gurruhi ikkinchi turga mansub. Idiomalar ma'nolarini to'g'ridan tog'ri, matn tarkibida yoki lug'atlarga murojaat etish orqali aniqlash mumkin. *To give someone green light*-biror kishiga imkoniyat berish osonlik bilan aniqlanadi. Bu svetaforning yashil chirog'i bilan bog'liq. *To be at the top of the tree*-matn orqali anglashiladi. Ten years ago John joined the company, and now he is the general manager! Yes, he is really at the top of the tree. -O'n yil ilgari Jon kompaniyaga ishga kirgan edi, hozir u asosiy ish boshqaruvchi. U hozir tashkilotdagi eng kuchli hodim. *To tell someone where to get off-esini tanitib qo'ymoq* idiomasi lug'atlar asosida aniqlanadigan idiomaga turiga mansub[2;6]. *Kingdom of God/Kingdom of heaven*-Haqqa oshiqlik. Ushbu turg'un birlikma asosan xristian olami bilan bog'liq bo'lib, Iso Masih bu tushunchalarga yangi qadriyatlarini kiritdi, ularni yuksaltirdi va ruhlantirdi. Masihning ta'limotida Xudoning Shohligi jamiyatning holatini ramziy qiladi, unda Xudoga bo'lgan sadoqat (eng oliy ideal) oliy va sevgi qonuni (odamlarga yaxshi niyat) amalda ustunlik qiladi. [1;27 b]Aynan shu holatni inson birinchi navbatda izlashi va hamma narsadan avval o'z ichida o'rnatishi kerak edi. Aynan shu tushuncha o'zbek she'riyatida Boborahim Mashrab g'azallarida o'z aksini topgan. U o'z g'azallarida «*Shariat sharobini ichgan*»,

«*Tariqat halqasin tutgan*», «*Haqiqat shohini surgan*», «*Malomat kuyida yurgan*», «*Muhabbat yo'lida kuygan*» «*suyar qullar*», ya'ni *Haq oshiqdari so'zlarini qo'llagan.*

*The Kingdom of heaven is within you-Shariat sharobini totgin deya tarjima qilishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, ingliz va o'zbek tili diniy barqaror birlikmalari bir qator diniy leksemalardan tarkib topgan bo'lib, ularning etimologik xususiyatlarini tadqiq etish ular bilan bo'g'liq bilimlarni o'zlashtirishda qulayliklar yaratadi.*

Masalan: *Hegira, hejira*-Muhammadning Makkadan parvozi (milodiy 622-yil 15-iyul), Muhammad davriga tegishli; *Kibla-qiblagoh*. Musulmonlar tomonidan Makkaga ibodat qiluvchining namozda sajda qiladigan joy sifatida qo'llagan atamasi; *Kismet-qismat*. Taqdiru azal, peshonada yozilgani; *Lord's Prayer*-Rabbiyning ibodati. Iso shogirdlariga o'rgatgan ibodat; *Lord's table*- Muqaddas elementlar totirilgan stol yoki qurbongoh; *The last supper*- Iso Masihning o'n ikki havoriy bilan tanovvul qilgan kechki taom; *Qadarities*- Insonning o'z harakatlarida ixtiyori yoki kuchi (qadar) borligiga ishonadigan islomiy mazhab; va bu taqdir uni Xudoning quliga aylantirmaydi kabi.

Shunisi ahamiyatliki, ingliz tilida mavjud ayrim diniy barqaror birlikmalar o'zbek halqi diniy qarshlari bilan umuman aloqadorlik kasb etmaydi.

Masalan: *Truce of God*. Xudoning kelishuvi. 11—12-asrlarda xususiy janjallarning oldini olish uchun kelishuv amal qilgan. Bu kelishuv Angliya, fransiya va Italiyada Advent va Lent davrida (Iso Masihning tug'ilgan kunini xotirlash, ham oxirzamonda ikkinchi marta tirilishi intiqlik bilan kutiladigan davr) har haftada chorshanba tunidan dushanba tongigacha, muqaddas kunlarda amal qilinadi.

Idiomalar shaklan o'zgartirilishi yoki barqarorligini saqlab qolishi mumkin. O'zgartirib bo'lmaydigan idiomalar turg'un idiomalar sanaladi. *To give someone the cold shoulder*-biror kimsaga sovuq munosabatda bo'lmoq, *to make a clean breast of it*- ochiq va halol gapirmoq (ilgari yolg'on aytilgan yoki sir tutilgan narsa haqida ) *ushbu turdagi idiomalar turiga kiritilsa, to take/ have/enjoy/catch forty winks*-bir oz mizg'imoq idiomasi fe'llar bilan bog'liq o'zgarish kuzatilsada forty so'zida o'zgarish bo'lmaydi. Bu idioma qisman o'zgaruvchi idiomalar turiga mansubdir. To keep a sharp/careful/watchful/professional eye on someone-diqqat bilan biror kishini kuzatmoq ham shu turdagi idiomadir[2;7 b].

Shunisi ahamiyatliki, ingliz tilida mavjud ayrim diniy barqaror birlikmalar o'zbek xalqi diniy qarshlari bilan umuman aloqadorlik kasb etmaydi.

Masalan: *Truce of God*. Xudoning kelishuvi. 11—12-asrlarda xususiy janjallarning oldini olish uchun kelishuv amal qilgan. Bu kelishuv Angliya, fransiya va Italiyada Advent va Lent davrida (Iso Masihning tug'ilgan kunini xotirlash, ham oxirzamonda ikkinchi marta tirilishi intiqlik bilan kutiladigan davr) har haftada chorshanba tunidan dushanba tongigacha, muqaddas kunlarda amal qilinadi[1;27 b].

Yoki *Angelic life*- Ushbu metafora monastirlar hayotini farishtalar hayotiga taqqoslaydi. Monastirlar bizga ma'lumki, tashvishlardan holi insonlar hisoblanishgan. Monastirlikning eng dastlabki davrlarida paydo bo'lgan atama. Har bir xristian hayoti jannatni va'da etuvchi farishtalar hayoti kabi gunoh ishlardan holi bo'lishi kerak deb ishonilgan[4; 38-b].

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ingliz va o'zbek tili diniy barqaror birlikmalari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular o'zida o'sha millat va elat vakillarining dinga muhabbati, foni va boqiy olam, Haqqa bo'lgan ishonchini ko'rsatadi va insonlarni ezgu maqsadlar, ezgu amallar sari undaydi.

**ADABIYOTLAR**

1. Macmilan dictionary of religion. London. Macmilan Press. 1994.-10-27
2. Smith Jonathan Z; Green, William Scott; Buckley, Jorunn Jacobsen. The Harper Collins dictionary of religion. San Francisco: Harper San Francisco.1995. –p.106
3. Richard Ince M A Camb. A dictionary of religion and religions. 1935. –p.130-136
4. Encyclopedic dictionary of religion. Philadelphia, PA: Sisters of St. Joseph of Philadelphia; Washington, D.C.; Corpus Publications. 1979. –p.3815
5. <https://www.quora.com/We-all-know-the-99-most-beautiful-names-of-Allah-What-is-the-100th-name>
6. <https://idioms.thefreedictionary.com>



UDK: 811.11-112

G'ulom SHAYZAKOV,  
GulDU Fakultetlararo chet tillar kafedrasida o'qituvchisi  
E-mail: gulomjonshayzakov@gmail.com

PhD H. Aякулов тақризи остида

### INGLIZ TILIDA ZAMON MA'NOSINING LISONIY-PRAGMATIK IFODALANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamon ma'nosining lisoniy-pragmatik ifodalanishida ma'no turlari tillardagi barcha fe'llarni qamrab, ularning grammatik kategorial belgisiga aylanganligi bois temporallikning sof lisoniy ifoda vositasi deb qaraladi. Biroq ingliz tilidagi *tense* shakllari nutqda voqelanar ekan ularda ma'no siljishi yuz berib, boshqa bir zamon turning lisoniy pragmatik ifodalovchisiga aylanishi ham kuzatiladi. Eng yirik funksional pragmatik ma'no qavatlanishi hozirgi oddiy va hozirgi davomiy shakllar doirasida uchraydi. Oddiy hozirgi zamon kelajakda yuz berishi muqarrar, aniq rejalashtirilgan ish-harakatni anglatishi yoki gazeta sarlavhasi shaklida o'tgan zamonda sodir bo'lganligini bildirishi mumkin. Yoki hozirgi davomiy shakl ham kelajakda yuz berishi aniq rejalashtirilgan ish-harakatga nisbatan qo'llanishi, shuningdek ba'zi davomiy zamonda tuslanmaydigan fe'llar ma'nosini kuchaytirish maqsadida ishlatilishi kuzatiladi.

**Kalit so'zlar:** Funksional-semantik maydon, kategoriya, paradigma, temporallik, sintaktik, leksik, morfologik.

### LINGUISTIC-PRAGMATIC EXPRESSION OF TENSE MEANING IN ENGLISH LANGUAGE

Annotation

In this article, in the linguistic pragmatic expression of the meaning of tense, the types of meaning cover all verbs in languages and become their grammatical categorical sign, so it is considered a purely linguistic means of expression of temporality. However, as tense forms in the English language appear in speech, they undergo a shift in meaning and become a linguistic pragmatic expression of another type of tense. The largest functional pragmatic layering of meaning occurs within the present simple and present continuous forms. The present simple can indicate an action that is certain to happen in the future, or it can indicate that it happened in the past, as in the case of a newspaper headline. Or it is observed that the present continuous form is used in relation to an action that is clearly planned to happen in the future, as well as in order to strengthen the meaning of some verbs that are not expressed in the continuous tense.

**Key words:** Functional-semantic field, category, paradigm, temporality, syntactic, lexical, morphological.

### ЛИНГВО-ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЗНАЧЕНИЯ ВРЕМЕНИ В АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

В данной статье в лингвистическом прагматическом выражении значения времени виды значения охватывают все глаголы в языках и становятся их грамматическим категориальным признаком, поэтому оно рассматривается как чисто языковое средство выражения темпоральности. Однако по мере появления в речи временных форм в английском языке они претерпевают изменение значения и становятся лингвистическим прагматическим выражением другого типа времени. Наибольшее функционально-прагматическое наложение значения происходит в формах настоящего простого и настоящего продолженного времени. Настоящее простое время может указывать на действие, которое обязательно произойдет в будущем, или на то, что оно произошло в прошлом, как в случае с газетным заголовком. Или наблюдается, что форма настоящего продолженного времени употребляется по отношению к действию, которое явно запланировано в будущем, а также для того, чтобы усилить значение некоторых глаголов, не выраженных в продолженном времени.

**Ключевые слова:** Функционально-семантическое сфера, категория, парадигма, темпоральность, синтаксический, лексический, морфологический.

Temporallik (zamon) funksional semantik maydoni elementlari turli ma'nolar ostida tasniflanadi. Ma'no tabaqalanib, quyilashgani, toraygani sayin uning turlari ham ortib boradi. Funksional semantik maydon ma'no turlari ochiq tizimga aylana boshlanadi. Kichik ma'nolar markaziy gipersemadan uzoqlashib ifodachilari. Grammatik kategoriya elementlari emas periferik vositalar bo'la boshlaydi. Temporallik maydoni o'z tarkibiga zamon va aspekt

ma'nolarini qamraydi. Biroq aspekt va zamonn bir-biriga teng ikki yadro deb bo'lmaydi. Ular bir-birini to'ldiruvchi, biri ikkinchisini taqazo qiladigan ma'no turlari bo'lib semantik iyerarxiyada aspekt zamonga tobe, unga bo'ysunadigan ma'no guruhidir [1]. Umuman olganda ushbu funksional-semantik maydon ma'nolarini uch turga ajratib tabaqalash to'g'ri bo'ladi [2].

#### Zamon ma'nolari – tense meanings

O'tgan – Past	Hozirgi - Present	Future - kelasi
---------------	-------------------	-----------------

#### Main aspect meanings – asosiy tarz ma'nolari

Davomiy – Continuous	Tugallangan - Perfect	Tugallangan davomiy – perfect continuous
----------------------	-----------------------	--

#### Additional aspect meanings – qo'shimcha tarz ma'nolari

Boshlanish	Takroriylik	To'liqsizlik
Jadallik	Ketma-ketlik	Odatiylik
Oniylik	Kutilmaganlik	Sekinlik
Mutlaqlik	Ehtimolilik	Uzoq kutilganlik

Maydon tarkibidagi elementlar ushbu ma'nolarni muntazam ifodalasa, bu sema ularning lisoniy ko'rsatkichiga aylanadi. Matn kontekstiga ko'ra biror element bu ma'nolardan birini vaqtincha ifodalasa unda sema matn diskursiga bog'liq vaqtinchalik pragmatik xususiyati bo'ladi. Zamon barcha fe'llarga xos umumiy ma'no belgisi, asosiy tarz ma'nolari ham ingliz tilidagi deyarli barcha fe'llarni qamrab oladi. Biroq qo'shimcha tarz ma'nolarini ifodalaydigan birliklar barcha fe'llar bilan birikmaydi, yoki barcha fe'llarning ma'no tarkibida kuzatilmaydi. [3] Bu ma'nolarning ba'zilari o'zbek tilshunoslari tomonidan ilgari surilgan tarz maydoni ma'nolarini takrorlaydi. Boshqalari temporallik maydoni elementlarining semik tarkibi tahlilidan umumlashtirildi. Kichik tarz ma'nolarini shu sanab o'tilgan semalar bilan cheklash imkonsiz. Har bir fe'l o'ziga xos aspektual ma'noga ega bo'lishi va bu ma'no nutq kontekstida

Lisoniy funksional sema – muntazam takrorlanuvchi ish-harakat:	The university announces application season once a year. Most shops offer discounts on holidays and seasonal festivals. Children enjoy observing new things and places.
Lisoniy pragmatik sema – kelajakda yuz berishi rejalashtirilgan ish-harakat:	I should remind you that we have a lesson next Monday. Parties sign contact after negotiations about interest rates. McDonalds opens new branches in the downtown shopping district.
Lisoniy pragmatik sema – o'tmishda yuz bergan ish-harakatni ta'kidlash:	Corporate disorder: workers strike over pay rise. World known actress gets into violent car crash. Fugitive runs away with huge cash and fake identification.

Birinchi lisoniy semantik ma'no anglashilishi vaqt markerlari ko'magida anglashiladi. Ikkinchi tur pragmatik ma'noni anglatishda zamondan ko'ra ko'proq *next Monday*, *after*, *new* kabi so'zlar xizmat qilmoqda. Ya'ni zamon va muayyan boshqa birliklarning o'zaro hamkorligi pragmatik ma'noni hosil etadi. Uchinchi pragmatik sema anglashilishida hech qanday qo'shimcha ma'no markerlari ko'mak bermaydi. Bu jumlar o'tgan zamonga oid ish-harakatni anglatishi faqat qo'llanish o'rni ya'ni gazeta jurnal sarlavhasida bo'lganiga qarab anglashiladi. Shuningdek, sanoq sifatida qator ish harakatlarni oddiy hozirgi zamon shaklida keltirib ish-harakatning ketma-ket sodir bo'lganini, birining yuz berishi uchun avvalgisi tugallanishi kerakligini bildiradi.

Oddiy hozirgi zamon ifodachilari deb modal fe'llarni ham ta'kidlash mumkin, ularning asosiy semantik-funksional xususiyati zamoni ifodalash emasligi, bu ma'no qo'shimcha anglashiladigan sema ekanligini inobatga olib ularni lisoniy-pragmatik ifoda vositasi deymiz. Masalan, *can* modal fe'llining lisoniy-funksional semasi "qodirlik" yoki "taklif" lisoniy-pragmatik semasi odatiylik, oddiy hozirgi zamon, yaqin kelajak ma'nosi mavjud. Ya'ni "*I can speak several foreign languages*" jumlasini qobiliyatni anglatadi, bu uning asosiy lisoniy-funksional ma'nosi. Biroq funksional-semantik maydon taklif (iltimos)ga aylanganda pragmatik sema ham yaqin kelajak, kelasi zamonga o'zgaradi. Bunday pragmatik

Lisoniy funksional sema – hozirgi zamonda davom etayotgan hatti-harakat	Now the crew is working on identification of geo-locations. Exhaust fumes are increasing risk of air pollution. Two of them are eagerly discussing elements of presentation.
Lisoniy pragmatik sema – kelajakda yuz berishi rejalashtirilgan ish-harakat	We are flying to Dubai to spend winter vacation. The course is finishing this level by the end of December. Auntie is coming to celebrate Sam's first birthday.
Lisoniy pragmatik sema – holat mavjudligini tasdiqlash, ta'kidlash, kuchaytirish	Decorations, music and even food is fine, I am loving this party. From now on I am understanding the way things work. We are hating how our partners feel irresponsible about their duties. You are sounding hopeless, please don't give up.

Qolaversa, *to think* fe'llining davomiy zamon shaklida qo'llanishi uning ma'nosini o'ylamoqdan rejalashtirmoq semasiga siljitiib jumla ma'nosini ham kelasi zamonga yaqinlashtiradi: *I am thinking of moving home next term*. [6]

Zamon shakllaridagi ma'no ko'chishiga payt ma'nosidagi ifodalar ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, quyida vaqt yoki payt ma'nosiga ega elementlar davomiy shaklning ma'nosiga ta'sir o'tkazadi. Shu elementlar bilan semantik butunlik hosil qilgan davomiy zamon shakli tugallanmagan, jarayondagi hatti-harakat ma'nosini emas, odat

yanada boyib o'zgarishi mumkin. Bundan kelib chiqib ingliz tilidagi temporallik maydoni elementlari vazifaviy polisemiya xususiyatiga ega deb xulosa qilamiz. Bunday polisemiya ayniqsa maydon yadrosi bo'lgan zamon kategoriyasi doirasida kuzatiladi. Lisoniy birlik sifatida bir fe'l zamonini anglatuvchi morfologik element matn diskursida o'zining pragmatik ma'no xususiyatini namoyon etadi. Masalan, oddiy hozirgi zamon shakli muntazam takrorlanuvchi, nutq paytida aktual bo'lgan ish-harakat, holatdan tashqari kelajakda aniq rejalashtirilgan harakat-holatni ham ifodalaydi. Ya'ni bu uning pragmatik semasiga aylanadi. Ayni shu zamon shakli gazeta sarlavhasi ko'rinishida bo'lsa, ya'ni biror maqola sarlavhasi bo'lib uchrasa undagi hatti-harakat, holat o'tmishda yuz berganini anglatadi. Bir zamonning uch xil semasi matn konteksti ya'ni diskurs va matn o'rni kabi pragmatik omillardan anglashiladi.

siljishni "can we help you to check the homework" jumlasida kuzatamiz. Gapda yordam berish taklifi (istagi) bildirilmoqda. Bu istak ish-harakat hali sodir bo'lmaganini, biroq sodir bo'lishi kutilayotganini ham anglatadi. Shuning uchun kelasi zamon semasi lisoniy-pragmatik xususiyatga aylanadi.

Zamon ma'nosining lisoniy-pragmatik ifodachilari sifatida yana qator modal fe'llarni ajratish mumkin. *Should* va *must* modal fe'llari maslahat, tavsiya va majburiyat, ma'suliyat ma'nolari bilan birga kelasi zamoni ham anglatadi: *you should spend more time on mathematic tests, teachers must consider individual interests and abilities of their students*. [4]

Ingliz tilida temporallik polisemiya ya'ni bir zamon shakli, aspektual elementning maydondagi boshqa bir ma'noni ifodalashi continuous shaklida ham uchraydi. [5] Lisoniy-funksional jihatdan hozirgi zamondagi tugallanmagan ish-harakatni anglatadigan *present continuous* kelajakda yuz berishi rejalashtirilgan ish-harakat ma'nosida ham, yoki muntazam takroriy ravishda uzoq vaqt mobaynida yuz bergan hatti-harakat ma'nosida ham qo'llanadi. Uslubiy qonuniyatlar va cheklovlar sabab ba'zi hissiy holat va aqliy faoliyat fe'llari ingliz tilida davomiy shaklda qo'llanilmaydi. Biroq bu mutlaqo mumkin emas degan xulosaga olib kelmaydi. Agar uslubiy cheklovga ega fe'llar davomiy zamonda qo'llansa bu ularning ma'nosini tasdiqlash, ta'kidlash maqsadida bo'ladi.

tusiga kirgan, takroriy hatti harakatni anglati boshlaydi: *Most of the time, I was working on optimizing expenditures of the coffee shops. – Asosan (asosiy vaqtimda) qahva do'konlari harajatini qisqartirish ustida ishladim. You are always interrupting the teacher, so it is irritating whole class. – Doim o'qtuvchining gapini bo'lasan, shunga butun sinfning g'ashi kelyapti. I was talking to you the whole day, still no change. – Kun bo'yi senga gapirdim, qilt etgan o'zgarish yo'q.*

Tugallanmagan zamonda ham shunday payt markerlari qo'llanishi shaklning aspektual ma'nosiga ta'sir o'tkazadi.

Masalan, always, often, sometimes, usually kabi takroriy payt markerlari tugallangan zamonning asosiy semasi to'liqlilik aspektini noto'liqlikka o'zgartirib yuboradi: *Stephen King had always written horror stories for young readers.* – *Stiven King doim yosh o'quvchilar auditoriyasiga mo'ljallangan qo'rqinchli hikoyalar yozgan.* *Linda had usually spent evenings reading romantic adventure novels.* – *Linda odatda oqshomlari ishqiy sarguzasht romanlari o'qib vaqtini o'tkazardi.* *We had called Sandra on and on, yet the line had*

*been busy all the time.* – *Biz Sandraga qayta-qayta qo'ng'iroq qildik, shundayam telefoni doim band bo'laverdi.*

Aspekt ma'nosini ifodalaydigan leksik elementlar zamon ma'nosini siljitish xususiyatiga ega. Ma'noni o'zgartirish bilan birga ushbu periferik elementlar mavjud samon semasini mustahkamlash vazifasini bajarishi ham mumkin. Bu aslida ularning asosiy lisoniy-pragmatik vazifasi hisoblanadi. Masalan:

<b>Frequency adverb:</b> always, occasionally, rarely	<i>The newspaper always invites young politicians for short interview. Administration occasionally offers team building events and webinars for employees of all positions. Parents rarely let us down when we ask for support and advice.</i>
<b>Adverb of time:</b> yesterday, tomorrow, now	<i>Tomorrow we are going to discuss results and mistakes of our tests. Now we are watching documental films about important historical events. Yesterday the weather was nice and suitable for evening out in the park</i>
<b>Other adverbs:</b> finally, meanwhile, lately	<i>Finally, we have completed research survey on online education industry. Meanwhile, Adam took up some time to note down important ideas. Lately, Sandra was coming late to work as traffic volume had increased.</i>

Aspekt ma'nolari kutilmaganlik, jadallik, tugallanganlik va boshqalar iboralar, birikmalar vositasida ham ifodalanadi. Ya'ni leksik qolip bir so'z doirasida cheklanmay kattaroq hajm kasb etib sintaktik birlikka

aylanadi. Ularning zamon semasi o'zi birikkat fe'l zamoni ma'nosiga qarab o'zgarib ketadi, ma'no pragmatik vaziyat ta'sirida, matn diskursida siljiydi.

<b>Once in a while</b>	<i>They meet once in a while and have lovely time together by the pool</i>
<b>Once in a blue moon</b>	<i>As my father is busy with his endless meetings and negotiations we may have a day with him once in a blue moon.</i>
<b>Every then and now</b>	<i>Those trees blossom every now and then in the perion between march and June.</i>
<b>Sooner or later</b>	<i>Sooner or later everyone will definitely get to know the truth, so its better to tell now.</i>
<b>At the moment</b>	<i>At the moment we are considering all candidate names for this management position.</i>

#### ADABIYOTLAR

1. Минор А. Функционально-семантическая категория темпоральности и ее тексто организующие потенции (на материале немецких научных текстов): дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04 – М., 1985. – 174 с;
2. Бондарко А. Теория значения в системе функциональной грамматики на материале русского языка. М., 2002. с. 485.
3. Шендельс Е. Многозначность и синонимия в грамматике (на материале глагольных форм современного немецкого языка) / Е. И. Шендельс. - М.: Высшая школа, 1970. - С.208
4. Шендельс Е. Транспозиция морфологических форм // Иностраные языки в высшей школе. 1964. - Вып. 3. - С. 104 - 110;
5. Шендельс Е. О грамматической полисемии // Вопросы языкознания - 1962. - № 5. - С. 47 - 55.
6. Князев Ю. Настоящее время: семантика и прагматика // Логический анализ языка. Язык и время / отв. ред. Н. Д. Арутюнова, Т. Е.Янко. - М.: Индрик, 1997.-С. 131-138.



Dilfuza SHONAZAROVA,  
O'zMU mustaqil tadqiqotchisi

O'zMU p.f.n., dots. v. b., N. Alavutdinova taqrizi asosida

### DISCOURSE DIALOGUE VA DISCOURSE ANALYSIS

#### Annotation

According to the anthropocentric paradigm, which is stabilizing in world linguistics today, human thinking and perception of the external world are directly related to language, so it is acceptable to accept as a natural process the continuation of directions such as linguistic linguistics, cognitive linguistics, sociolinguistics, and pragmalinguistics. For this reason, it should be taken as a matter of course that linguistics today deals with the study of problems such as language and society, language and culture, language and personality, language and thinking. Because the rise of speech activity to the level of the most important object for linguistic research, along with determining the development perspective of linguistics, also causes the birth of new scientific problems and their scientific solution.

**Key words:** Discourse, text, text content, spoken and written adjectives.

### ДИАЛОГ ДИСКУРСА И АНАЛИЗ ДИСКУРСА

#### Аннотация

Согласно стабилизирующейся сегодня в мировой лингвистике антропоцентрической парадигме, мышление человека и восприятие внешнего мира напрямую связаны с языком, поэтому допустимо принять как закономерный процесс продолжение таких направлений, как лингвистическая лингвистика, когнитивная лингвистика, социолингвистика и прагматическая лингвистика. По этой причине следует считать само собой разумеющимся, что языковедение сегодня занимается изучением таких проблем, как язык и общество, язык и культура, язык и личность, язык и мышление. Потому что под`ем речевой деятельности на уровень важнейшего объекта лингвистического исследования, наряду с определением перспективы развития языковедения, вызывает также рождение новых научных проблем и их научное решение.

**Ключевые слова:** Дискурс, текст, содержание текста, устные и письменные прилагательные.

### DISKURS DIALOG VA DISKURSIV TAHLIL

#### Annotatsiya

Bugungi kunda jahon tilshunosligida barqarorlashib borayotgan antropotsentrik paradigmaga ko`ra insonning tafakkuri, tashqi dunyoni idrok etishi til bilan bevosita bog`liq ekan, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, pragmalingvistika kabi yo`nalishlarning ilmda bardavom bo`lishini tabiiy jarayon sifatida qabul qilish maqbul ishlardan hisoblanadi. Shu sababdan tilshunoslik bugunga kelib, til va jamiyat, til va madaniyat, til va shaxs, til va tafakkur kabi muammolar tadqiqi bilan shug`ullanayotganini ham tabiiy holat sifatida qabul qilish kerak. Zero lingvistik tadqiqotlar uchun nutqiy faoliyatning eng muhim ob`ekt darajasiga ko`tarilishi tilshunoslik fanining taraqqiyot istiqbolini belgilash bilan birga, yangi ilmiy muammolarning tug`ilishi va ilmiy jihatdan hal etilishiga ham sabab bo`ladi.

**Kalit so`zlar :** Diskurs, matn, matn mazmuni, og`zaki va yozma sifatlar.

**Kirish.** Matn dialog bilan yoki dialogsiz kengayishi mumkin. Agar dialogsiz matn bo`lsa, bu matn ko`proq tavsifiy xarakter kasb etadi. Tavsifiy matn dialoglar bilan kengaysa, uning hayotiyliigi, jonliligi yanada ortadi. Diskursiv faoliyatga to`xtash talab etilar ekan, dialog xususida ham so`z aytish zaruriyati kelib chiqadi. Zero, diskursiv faoliyat jarayonini chuqur bilmasdan diskurs hodisasining mohiyatini tushuntirish mushkul. Negaki diskursiv faoliyat nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon nutq yaratuvchi va uni qabul qiluvchi – retsipient shaxsi bilan uzviy bog`liqdir

Lug`atlarda dialog (yunoncha: dialogos - suhbat) – nutq turlaridan biri; ikki yoki undan ortiq shaxsning bir-biriga qaratilgan nutqi, deb talqin etiladi. Dialog azaldan dramada xarakterlar va voqealar rivojini ifodalashning asosiy vositasi hisoblanadi. Nasrda (ba`zan nazmda) badiiy ifoda usuli vazifasini bajaradi. Og`zaki nutq jarayonining mahsuli hisoblanadi, ya`ni kishilarning o`zaro suhbatlari ham dialog vositasida yuzaga chiqadi. Dialog, ayni paytda, publitsistik va falsafiy janr ham ekanligi lug`atlarda qayd etilgan.

**Materiallar va metodlar.** Qadim Yunon adabiyotida dialog tragediyalarning muhim unsuri sifatida paydo bo`lgan. Sharq og`zaki adabiyotida masallar, ertaklar, xalq dostonlarining nasriy va nazmiy qismlarida syujet rivoji,

konfliktlar va qahramonlar talqinini harakatlantiruvchi kuch sifatida aytimchilar tomonidan shakllantirilgan. Yozma adabiyotda dialog anchayin keyinroq paydo bo`lgan. Manbalarda diologning nasrda paydo bo`lishini Nosuriddin Burhoniddin o`g`li Rabg`uziyning agiografik asari “Qisasi anbiyoyi turkiy” bilan bog`lashadi. Asarning nasriy matnlarida qahramonlarning o`zaro muloqotlari baayni dialog orqali berilgan. Diologni nazmga dastlab Mavloni Lutfiy olib kirgan. Keyinchalik lirik she`rlarda dialogik situatsiyalarni qo`llash odat tusini olgan va ko`proq voqeaband (hikoyamonand) lirik she`rlar (Navoiy, Ogahiy, Hamza)da ana shu usul etakchilik qilganini uchratish mumkin. Biroq har qanday lirik she`r dialogik shaklda bo`lavermagan. Epik she`riyatda dioagni qo`llashning yetuk namunasi Hazrati Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida kuzatiladi. Dostondagi Xusrav va Shirin o`rtasidagi dialog savol-javob xarakterida bo`lganidan, uni xuddi interv`yu matni singari qabul qilish mumkin. Ana shu dialogdan parcha keltiramiz:

Dedi: Qaydinsen, ey majnuni gumrah?

Dedi: Majnun vatandin qayda ogah.

Dedi: Nedur sanga olamda pesha?

Dedi: Ishq ichra majnunliq hamesha.

Dedi: Bu ishdin o`lmas kasb ro`zi,

Dedi: Kasb o'lsa basdur ishq so'zi.  
 Dedikim: Ishq o'tidin de fasona!  
 Dedi: Andin kishi topmas nishona.  
 Dedikim: Kuymagingni ayla ma'lum!  
 Dedi: Andin erur joh ahli mahrum!  
 Dedi: Qay chog'din o'ldung ishq aro mast?  
 Dedi: Ruh ermas erdi tang'a payvast.  
 Dedi: Ishq ahlining nedur hayoti?  
 Dedi: Vasl ichra jonon iltifoti.

Agar e'tibor qilinsa, ushbu matn dialogning barcha jihatlariga javob bera oladi: unda dialogning shakliy unsurlari, adresat va adresant, savol va unga muxtasar javob. Ayni chog'da, dialog jarayonida har ikki qahramonning surati va siyrati, qaysi va qanday hayotiy pozitsiyada turganligi, ijtimoiy ahvoli to'liq namoyon bo'lganligini kuzatish mumkin.

Nasimbek vafot etganida u o'rtog'ining uyida bir necha kun qolib ketadi. Uch haftagacha xatmi Qur'on kechalari Anvar Muhammad Rajabek uyiga kelib turadi. "Oxirgi xatmi Qur'on kechi Muhammad Rajabek Anvardan ahvol so'radi:

- Domlangiz salomatmi?
- Shukur.
- O'qishingiz yaxshimi?
- Birmuncha.
- Domlanning uyida turasizmi?
- Taqsir.
- Siqilmaysizmi?
- Yo'q.
- Ilmi hisob o'qug'aningiz bormi?
- Yo'q, taqsir.
- Domlangiz ilmi hisobni bilurmikin?
- Bilmaslar deb o'ylayman.
- Agar men bir domla ta'yin qilsam, hisob o'quysizmi?
- Ustozim ruxsat bersalar, albatta o'quyman.
- Xo'b... bo'lmasa ertaga kechka domlangiz shu erga kelib, menga uchrashsin.
- Xo'b, taqsir".

Ko'rinib turibdiki, keltirilgan matn ham biz e'tiborda tutayotgan masalaga yaqinligi bilan diqqatni tortadi. Bugina emas, Sharq she'riyatida savol-javob, munozara singari janrlar ham borki, bular ham diologlarga asoslangan janr sifatida diskursning o'ziga xos ko'rinishi sifatida e'tiborni tortadi.

**Natija.** Diskurs tushunchasi, darhaqiqat, dialog tushunchasiga juda yaqin turadi. Diskurs, har qanday kommunikativ akt singari, ikkita asosiy qatnashuvchi – savol beruvchi (muallif) va javob qiluvchi (adresat) mavjudligi va ayni jarayonni tashkil qiluvchilarni nazarda tutadi. Bunday holda ma'ruzachi va adresat rollari navbatma-navbat diskurs ishtirokchilari – shaxslar o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin; bu holda suhbat yuzaga keladi. Agar nutq davomida (yoki nutqning muhim qismi) savol beruvchi vazifasi bir kishiga yuklangan bo'lsa (bunda savol-javob situatsiyasi oqsaydi), bunday nutq monolog deb nomlanadi. Monologni bitta ishtirokchi bilan sodir etilgan nutq deb o'ylash noto'g'ri: monologda adresat ham zarur. Monolog mohiyatan diologning alohida hodisasidir. Garchi an'anaviy ravishda dialog va monologning xususiyatlar farqlansa-da, ularning yaqin bir jarayon mahsuli sifatida farqlash mumkin bo'ladi. "Dialogik diskurs axborot etkazish maqsadiga ega va "pragmatik tashna" bo'lgan monologik diskursdan axborot almashish maqsadi va "pragmatik to'yinganligi" bilan farqlanadi. Boshqacha aytganda, dialogik diskurs bevosita muloqot unsuri bo'lganligi sababli, adresant va adresatning saviyasi va ruhiyati bir-biriga keskin hamda so'zsiz ta'sir qiladi. Shu sababli, bunda adresant tomonidan nutqning illokutiv kuchini ta'minlaydigan verbal va noverbal vositalarning roli behad kuchliligi bilan karakterlanadi. Adresant fikrining illokutiv kuchini

ta'minlashda monologik diskursdagiga nisbatan faqat lisoniy vositalargagina suyanib qolmaydi. Bunda adresant nutqni pragmatik sharoit va vaziyat bilan muvofiqlashib borishini nazorat qilib ta'minlab boradi".

Matn va dialog atamaları ko'proq an'anaviy bo'lib, ulardan erkin foydalanishga xalaqit beradigan holatlar mavjud. Shuning uchun diskurs atamasi tilning barcha kishilar tomonidan ishlatilishini birlashtirgan umumiy atama sifatida qulaydir. Tadqiqotning ayrim yo'nalishlari va an'anaviy proq matn hamda diolog tushunchalari bilan bog'liq ba'zi natijalar ana shu doirada e'lon qilingan maqolalarda muhokama qilingan.

Nutqning tuzilishi ikkita tubdan qarama-qarshi rollarning – adresat va adresantning mavjudligini nazarda tutganligi sababli lingvistik aloqa jarayonining o'zi ushbu ikki jihatdan ko'rib chiqilishini talab qiladi. Nutqni qurish (yaratish, sintez qilish) jarayonlarini modellashtirish nutqni tushunish (tahlil qilish) jarayonlarini modellashtirish bilan bir xil emas. Diskurs fanida ikki xil ish guruhi ajratilgan - nutq konstruksiyasini o'rganidiganlar (masalan, ma'lum bir ob'ektni nomlashda leksik vositani tanlash) va qabul qiluvchining nutqini tushunishini tekshiradiganlar (masalan, tinglovchining qisqartirilgan leksik vositalarni qanday tushunish masalasi).

Bugungi kunga kelib, diskursiv tahlilning bir necha yo'nalishlari maydonga kelgan. Ulardan biri diskurs interpretatsiyasi ekanligi. Diskurs interpretatsiyasi nutq tuzilmasini "ichdan" turib tahlil etuvchi, kognitiv tilshunoslik bilan uzviylikka ega bo'lgan tahlil ko'rinishlaridan biri hisoblanib, diskursiv tahlil tadqiqotchidan ham muallif nuqtayi nazarini, ham retsipient nuqtayi nazarini e'tiborga olishni talab qilishini alohida ko'rsatib bergan.

**Muhokama.** Diskurs interpretatsiyasi bilan shug'ullangan tadqiqotchilardan biri, mashhur gollandiyalik tilshunos T.A.Van Deyk matbuot materiallari ustida olib borgan tadqiqotlarida diskurs tahliliga oid bir qancha muhim nazariy qarashlarni yaratgan ekan. Shulardan biri makropropozitsiya haqidagi ilmiy qarashdir. Makropropozitsiya termini matnda ifodalangan ob'ektiv mazmuni aks ettiruvchi hodisadir. T.A.Van Deyk so'zlari bilan aytganda, "Makropropozitsiya... diskursni tashkil etgan gaplarda ifodalangan propozitsiyalardan hosil qilingan propozitsiyadir.... u bir propozitsiyalar ketma-ketligining yana boshqa shunday yuqoriroq darajadagi propozitsiyalar ketma-ketligi bilan bog'lanishini aniqlaydi va buning natijasida diskurs yoki epizodning global ma'nosi kelib chiqadi". Bu intervyu matnlarga bevosita aloqador fikrlar ekanligini ta'kidlab o'tish ushbu o'rinda ahamiyatlidir. Matnda yonmayon kelgan gaplarning mazmunan bog'lanishini lokal aloqa, diskursda ifodalangan ob'ektiv mazmuni keltirib chiqaradigan bog'lanishni esa global aloqa terminlari bilan nomlaydi va bu ikki hodisani farqlash lozimligini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, matnda ifodalangan asosiy mazmun (tema, topik) alohida olingan gapdagi shunday mazmundan – propozitsiyadan tubdan farq qiladi. Makropropozitsiyani tadqiq etish tadqiqotchiga diskurs yaratilishida tafakkur va tilning munosabatini chuqurroq o'rganish, lisoniy shaxs fenomenini kengroq yoritish imkoniyatini beradi. Makropropozitsiya matnda ifodalangan gaplarning mantiqiy sintezidir. Uning qanday verbal vositalar orqali ifodalanishi nutq yaratuvchi shaxsning diskursiv qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Makropropozitsiya haqidagi bu qarashlari publitsistik uslub materiallari misolida asoslangan. Makropropozitsiya haqidagi bu qarash diskursiv matnni tushunishning kognitiv-diskursiv jihatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Zero, har qanday nutqiy tuzilma, shu jumladan, ko'p hollarda ikkilamchi nominatsiya bilan ish ko'ruvchi badiiy matnning asosida ham mantiqiy-kognitiv asos yotadi.

**Xulosa.** Diskurs masalasi tilshunoslikning bugungi rivojida muhim kontseptsiyalardan biri ekanligi sababli bir qator tadqiqotlar markazida turgan masalalardan biridir. Diskursning mohiyati yuzasidan bildirilgan mulohazalar mazkur yo'nalishning lingvistikada muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar sifatida tan olingan pragmatik va kognitiv

tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri ham ayni diskurs masalasi ekanligi e'tirof etildi. Diskursiv faoliyat nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon nutq yaratuvchi va uni qabul qiluvchi – retsipient shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lib, diskursiv tahlil psixolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, lingvistik semantika va kognitiv tilshunoslikning bir nuqtada kesishishini taqozo etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A.A. va f.f.d. Umumiy tilshunoslik – T.: O'zMU, 2003.
2. Ablakulova O. U. Diskurs tushunchasi va uning tadqiqi.– Scientific Journal Impact Faktor (SIJF) 2021: 5.
3. Aleksandrova O. V., Kubryakova Ye. S. Vidi prostranstv teksta i diskursa // Kategorizatsiya mira: prostranstvo i vremya. Materiali nauchnoy konferentsii. Pod red.prof. Ye. S. Kubryakovoy, prof. O. V. Aleksandrovoy. M.: Dialog-MGU, 1997.4. Arutyunova N.D. Metafora i diskurs // Teoriya metafor. – M.: Progress, 1990.
4. Arutyunova D.N. Diskurs // Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar; gl. red. V. N. Yarseva.– M. : Sovet Ensiklopediya, 1990.
5. Askoldov S.A. Konsept i slovo // Russkaya slovesnost. Ot teorii slovesnosti k strukture teksta: Antologiya. / Pod red. V.P.Neroznaka. – M.: Academia, 1997.7. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. T.: Fan, 1995.
6. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T.: Fan, 1985.
7. Belikov V.I., Krisin L.P. Sosiolingvistika.- M., 2001
8. Borchaev S.G. Lingvokulturologiya, yazikovaya lichnost, konsept: stanovleniye antroposentricheskoy paradigmy v yazыkoznanii // Filologicheskiye nauki. – M., 2001.-№1
9. Gorbunov A.S. Diskurs kak novaya lingvofilosofskaya paradigma. – Chita,2001.



UDK: 811.161.1

*Gulhayo ESHNIYOZOVA,*  
Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti  
E-mail: [gulhayoeshniyozova@gmail.com](mailto:gulhayoeshniyozova@gmail.com)

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti f.f.n. B.Zaripov taqrizi asosida

### HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA QO'LLANGAN LAFZIY SAN'ATLARNING LEKSIK-MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

So'nggi yillarda Halima Xudoyberdiyeva hayoti va ijodiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Lekin shoira ijodida, badiiy asarlarida she'riy san'atlar, xususan, lafziy san'atlar chuqur o'rganilmagan. Maqolaning asosiy maqsadi shoira ijodida, asosan, she'rilarida lafziy san'atlarning mohiyatini ochib berish, ushbu san'atning shoira ijodida o'ziga xos o'rnini belgilash hamda leksik-morfologik xususiyatlarini tahlilidan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** Lafziy san'at, leksik, morfologik, antonim, sinonim, omonim, o'xshatish, iyhom, tajnis, tashbeh, ma'nodosh, takrorlar.

### LEXICAL-MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF VERBAL ARTS USED IN THE POETRY OF HALIMA KHUDOYBERDIYEVA

Annotation

In recent years, many studies have been conducted on the life and work of Halima Khudoyberdiyeva. However, poetic arts, especially verbal arts, have not been deeply studied in the work of the poetess and her artistic works. The main goal of the article is to reveal the nature of verbal arts in the work of the poetess, mainly in her poems, to determine the specific place of this art in the work of the poetess, and to analyze the lexical-morphological features.

**Key words:** Verbal art, lexical, morphological, antonym, synonym, omonym, iyhom, allusion, tajnis, tashbeh, synonym, repetition.

### ЛЕКСИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ГЛАВНЫХ СРЕДСТВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПОЭЗИИ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ

Аннотация

В последние годы было проведено множество исследований жизни и творчества Халимы Худойбердиевой. Однако поэтическое искусство, особенно искусство словесное, в творчестве поэтессы и ее художественных произведениях не получили глубокого изучения. Основная цель статьи – раскрыть характер словесных искусств в творчестве поэтессы, преимущественно в ее стихах, определить специфическое место этого искусства в творчестве поэтессы, проанализировать лексико-морфологические особенности.

**Ключевые слова:** Словесное искусство, лексическое, морфологическое, антоним, синоним, омоним, tashbeh, аллюзия, tajnis, синоним, повтор.

**Kirish.** Til, uning ifodalanish shakllari va badiiy matnda til vositalarining tutgan o'rnini belgilash bilan bog'liq masalalar – amaliy tilshunoslikning asosiy ob'ekti va muammolaridan biri hisoblanadi hamda u nihoyatda mashaqqatli va ko'p qirrali jarayonlarni qamrab oladi.

Til va adabiyot o'zaro ajralmas, et bilan timoq darajasidadir. Mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar o'z hosilini berayotganligi, badiiy adabiyotimiz mavzular ko'lami jihatidan ham, janrlar nuqtayi nazaridan ham rang-barang bo'lib borayotganligi, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo'layotganligi ma'naviyatli kishilarni quvontiradi, albatta.

Til vositalarining lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlash badiiy matnlarga tayanishni, qator shoir va yozuvchilar asarlarini tahlil doirasiga tortishni taqozo etar ekan, o'zbek she'riyatida o'ziga xos ovozga ega shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyati va uning o'ziga xos xususiyatlarini shu yo'nalishda tadqiq etmoqlik ham o'zbek tili va uning nutqiy ifodalanishi imkoniyatlarini ko'rsatib berishga xizmat qila oladi. Aytish zarurki, shoira Halima Xudoyberdiyeva

she'riyati va uning o'ziga xos xususiyatlari hozirgacha til nuqtayi nazaridan maxsus tadqiqot manbai bo'lgan emas.

Demak, o'zbek xalqining otashqalb, o'ziga xos uslub va ovozga ega bo'lgan shoirasi Halima Xudoyberdiyeva she'riyati lingvopoetik xususiyatlarining tadqiqot ob'ekti sifatida maxsus tahlilga tortilishi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu she'rda shoira nutqimizdagi "Azaga borgan xotin o'z dardini aytib yig'lar" maqolidan ustalik bilan foydalangan [2]. She'riyatda bunday maqol qo'llash irsoli masal san'atini vujudga keltiradi. Bundan tashqari, Mingboyeva Zulayhoning "Halima Xudoyberdiyeva poetikasida she'riy san'atlarning qo'llanishi" maqolasida ham mukarrar (takror) lafziy san'ati haqida ma'lumotlar uchraydi. Avvalambor, lafziy san'atlar nima? Leksik-morfologik xususiyatlari nimalardan iborat?

Bilamizki, she'riy san'atlar 3 ta tavsifiy guruh bo'yicha o'rganiladi:

1. Lafziy san'atlar
2. Ma'naviy san'atlar
3. Lafziy-ma'naviy san'atlar (Harfiy san'atlar).

Lafziy san'atlar – so'zning shakli bilan bog'liq holatda vujudga keladigan san'atlar.

Ma'naviy san'atlar – so'zning mazmuni va o'ziga xos ichki ma'nolari asosida vujudga keladi.

Lafziy-ma'naviy san'atlar – she'riy san'atning ushbu turida so'zning shakliga ham, uning mazmuniga ham e'tibor beriladi.

Lafziy san'atlar, she'riy nutqdagi so'zning tovushi bilan bog'liq bo'lib, ko'proq shakl hodisasi sifatida namoyon bo'ladi. Ammo uning ham o'z shartlari mavjud “Bilginki, lafziy go'zalliklarning asosi uldurkim, albozni ma'noga to be qilgaylar”, deb ta'kidlaydi Atoulloh Husayniy.

Lafziy san'atga quyidagilar kiradi: tajnis, iyhom, ishtiyoq, takrir, tarde'aks, tasbe, tazod, tanosib, nido va shu kabilar.

“So'lg'in-so'lg'in lablaringdan ucharkan shu so'z, Otaginam xayolimda rostlay boshlar qad.

Dorilomon kunlarga qayt, onam, yumib ko'z, O'ksik dilda boshlanmasin desang qiyomat” [3]

So'zlarning juft takroriga mukarrar deyiladi va ular orasiga chiziqcha qo'yiladi. Keltirilgan to'rtlikda ham tuzilishi jihatdan takror so'z hisoblangan so'lg'in-so'lg'in juft so'zi she'rdam mukarrar san'atini hosil qilgan. Badiiy san'atlarning lafziy san'atlar guruhiga mansub mukarrar san'ati so'zning takrorlanishi yordamida hosil bo'lib, qo'shimcha ma'no yuklab, qo'llanilgan so'z mazmunini oshirib kelgan [4]

“Yo bor Xudo, jafu bersang, Navoiyning jafosin ber.

Vafu bersang Qurbonjonning

Turkiy qavmga vafosin ber”[5]

She'rdam undalmandan foydalanilsa, ya'ni biror kishi, narsa, hayvonlar, tabiat hodisalariga xitob qilinsa, demakki baytda nido san'ati mavjud. Sababi, aynan murojaat etilayotgan predmet yoki shaxs she'riy san'atlarning lafziy san'at turiga mansub nido san'atini hosil qiladi. Yuqorida keltirilgan parchada ham Xudoga qarata so'z borgan. Bu orqali **nido** san'atidan foydalanilgan.

Bunday san'atlarning leksik - morfologik xususiyatlarini shoir she'rlarida ko'plab tahlil qilish mumkin. Yuqorida ko'rib o'tilgan tahlil va ularning o'ziga xos metodlari shoir ijodidagi ma'nolar dengizidan bir tomchi xolos. Bunday metoddan foydalanish ya'ni ham adabiyot, ham leksik-morfologik jihatdan tahlil qilish she'rning ta'sir kuchini oshirib, uning ma'nosini yana ham ravshan etish uchun samarali yo'l hisoblanadi.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyati o'ziga xosligi bilan boshqa ijodkorlar she'rlaridan farq qiladi. Shoir ijodini varaqlar ekansiz undagi ma'nolar olami sizni befarq qoldirmaydi. Shoir she'rlaridagi lafziy san'atlar ham shu darajada mohirona qo'llangan, ularni tahlil qilish barobarida ko'plab yangi terminlarga duch kelamiz. Jumladan, shoiraning “Endi ket”, “Xotira”, “Jilg'a”, “Men sen bilan xayrlashgan tun”, “Bil olmamiz”, “Muhabbat”, “Yozi yondi”, “O'zing tik ket” kabi she'rlari misolida lafziy san'atlarning tahlilini ko'rib o'tamiz. Jumladan,

Bu jilg'acha yaxshi kunim meni o'ragan,

**O'rab, chopib** oyoqchasi qabargan jilg'a. (“Jilg'a”)[3]

Ushbu misrada lafziy san'at turiga mansub **ta'did** qo'llangan.

**Ta'did**-arabcha so'z bo'lib, u “hisob”, “sanoq”, “miqdor” degan ma'nolarni ifodalaydi. Bu san'atning xususiyati shuki, matndan ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hollarning zanjirli birin-ketin bir necha bor kelishini belgilashdir. Uyushgan so'zlar, birikmalar va gaplar ham intonatsiya jihatidan alohida ohang kasb etadi. Uch, to'rt yoki undan ortiq so'z, birikma yoki gaplar uyushuvi badiiylikni oshiradi, kitobxonni lazzatlantiradi va ta'kid tufayli qiyosiy ta'kid yuzaga keladi.

Tazod-zidlantirish, o'zaro zid ma'noli so'zlarning she'rdam qo'llanishi orqali hosil qilinadi. Bu bir-biriga qarama qarshi so'zlar antonimlar deb yuritiladi tilshunoslikda. Shoir

ijodida ta'sirchanlikni oshirish maqsadida bunday so'zlar ko'p qo'llangan: [6.]

Ajdodim hayot deb, ishq deb, ochgan so'z

Avlodim ham undan o'ylarga cho'msin.

Shu dard oqibati men ochganman ko'z,

So'ng dam tag'in shu dard ko'zimni yumsin. (“Muhabbat”)[3]

Bundan tashqari mukarrar san'ati ham uchraydi.

Mukarrar-“qayta-qayta”, “ust-ustiga” degan

ma'nolarni anglatadi. Shu nom bilan ataluvchi lafziy san'at esa bir misrada ikki juft so'zlarning ishlatilishini nazarda tutadi. Ushbu misrada mukarrar san'ati orqali shaxsning emotsional -ekspressiv holati namoyon etiladi:

Yozi yondi. Sarg'aydi kuzi.

Intiq-intiq kutdi. Kelmading.

Senga gulob tayyorlab o'zi

Talx zardob yutdi. Kelmading. (“Yozi yondi”)[3].

Ko'rinib turibdiki, “intiq-intiq” takrori orqali ta'sir darajasi ortgan. Bu ham shoiraning mahoratidan namunadir.

Keyingi she'rdam shoir shoir qaytariq san'atidan foydalanagan. Qaytariq-shoir bir so'zni bir misraning boshi va oxirida qo'llasa ushbu san'at paydo bo'ladi.

Endi ket,

Kutdirding, yomon kutdirding

Hijron azobini shavqla yutdirding. (“Endi ket”)[3].

Bunda “kutdirding” so'zini qator boshi va oxirida qo'llab shoir ta'kidni yana ham kuchaytirgan.

Tarse'-arabcha so'zdan olingan bo'lib, “injuni ipga tizish” degan ma'noni anglatadi. U mumtoz adabiyotimizda ko'p qo'llaniladigan san'atlardan biri bo'lib, o'z asl lug'aviy ma'nosida injulardagi hajmi rangin tovlanishlar uyg'unligini bildirsa-da, she'riyatda misralardagi parallel so'zlarning jarangdoshligi va ohangdoshligini ko'rsatuvchidir. Bu san'atning o'ziga xos xususiyati shundaki, tarse'ni yaratuvchi so'zlar qatorida nechta komponent bo'lsa, shuncha qofiyadosh-u radifdosh-u hijodosh so'zlar ishtirok etadi.

Qaro kundan dilim tongan, nurdur, tozadir bu ishq,

Ko'zlarimda o'tday yongan yerdir, fazodir bu ishq[3].

Ushbu misrada “nurdur”, “tozadir”, “yerdir”, “fazodir” so'zlari tarse' san'atini vujudga keltirgan. Bular gapda uyushiq bo'lak vazifasida kelgan.

Saj-ichki qofiya. Bunda so'zlar misra ichida o'zaro bir shaklda qofiyalanadi hamda ohangdoshlikni yuzaga chiqaradi.

Bilmam Alloh gul berganmi, xas bergan,

Ne bo'lsa ham dilin sarxush, mast bergan.

Nodiraga kaniz bo'lib sas bergan,

Halimasi, biyronidir O'zbekning[3].

Ko'rinib turibdiki, “xas”, “mast”, “sas” so'zlari o'zaro qofiyalanib kelgan va ohangdoshlikni yuzaga chiqargan. Bu yerda singlarizm hoidisani uchratamiz va u she'rning ta'sir etish kuchini orttirgan.

Iltifot-arabchadan “lutf” demakdir. Bu san'atda shoir bayon-u tasvir vaqtida gap shaxsini o'zgartirib boradi. Bu nutqqa xilma-xillik bag'ishlab, uni zerikarli bo'lishidan saqlaydi, kitobxon e'borini qattiq jalb qilib, uning zavqini kuchaytiradi.

Qo'shig'imiz tinayotgan u qalblarni etar rom,

Esga tushar oydin kecha, oq yuzli qiz, sarxush jom. (“Bil olmamiz”)[3]

Ushbu misrada uchinchi shaxs o'z o'rnini keyingi misrada birinchi shaxsga o'zgartirib beradi. Shaxslarning o'rnini o'zgarishi bir qarashda sezilmaydi, ammo e'tibor berib tahlil qilinsa shaxs o'zgarishini uchratish mumkin. Bu teran jumla orqali shoir she'rning ta'sir qudratini oshirib, kontekstning ma'nolarini ham daf'atan o'zgartirib kuchli ma'no hosil qilgan.

Tasbe-birinchi misraning oxirida keltirilgan so'zni yoki so'z birikmasini ikkinchi misraning boshida keltirish tasbe san'atini yuzaga keltiradi. Bu qaytariqlarga asoslangan

san'at bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati shundaki, tasbe so'zlarining o'rni qat'iy o'zgarishligi bilan ko'zga tashlanadi. Binobarin, tasbe ko'rsatkichlarining har biri yuqori va quyidagi misra gaplari bilan uzviy bog'liq bo'ladi: tasbening ikki gapga mansubligi ularning sintaktik va orfoepik talaffuz qilish andozalarini belgilaydi. Buni takrordek o'qib ketib bo'lmaydi. Birinchi tasbe ko'rsatkichidan so'ng pauza bo'lishi qonuniy bo'lib, bunda misra va baytlar zanjir hosil qiladi.

Siz dunyoda rost deb tutganim, Tutolmagan yotgan tushimmas. "Xotira" Bu yerda "tutganim" va "tutolmagan" so'zlari tasbe san'atini vujudga keltirgan. Bu ham shoiraning mahoratidan darak beradi.

Nido-ijodkorning biror bir inson, hayvon, qush va boshqa narsalarga qilgan xitobi orqali paydo bo'ladigan san'at turi. Asosan, undalma vazifazida keladi bunday so'zlar.

Majnunol, ey, egib shox

Sen kimlarga sir aytding.

Baridan bo'ldim ogoh,

O'n aytdingmi, bir aytding. ("Majnunol") [3]

Bunda shoira "majnunol"ga murojaat qilyapti. "Ey" so'zi orqali esa ta'sir kuchini yana ham oshirib, kitob qalbiga "majnunol"ning xitobini yetkazmoq istaydi.

Demak, o'zbek xalqining otashqalb, o'ziga xos uslub va ovozga ega bo'lgan shoirasi Halima Xudoyberdiyeva she'riyati lingvopoetik xususiyatlarining tadqiqot ob'ekti sifatida maxsus tahlilga tortilishi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Qisman bo'lsada yuqoridagi tahlillar asosida muammoning yechimiga bir yo'l ochildi.

**Xulosa.** Halima Xudoyberdiyeva juda mohirona usulda yozgan she'rlari bilan xalqimiz qalbiga yo'l topdi. Uning ko'plab she'rlari adabiyotshunoslarimiz tomonidan endilikda jiddiy o'rganilmoqda. Bundan tashqari yosh tilshunoslar tomonidan shoira ijodidan qilingan tadqiqotlar uchrab turibdi. To'g'ri, bular bir tomchi singaridir, ammo tomchilar yig'ilib dengizni hosil qiladi. Buning uchun esa, albatta, vaqt kerak bo'ladi. Shoira ijodi hali to'liq o'rganilmagan, shoira she'riyatining lingvistik tahliliga oid kitoblar yoki qo'llanmalar hali qilinmagan. Agar shoira she'riyati chuqur, sinchiklab tahlil qilinsa ham adabiyot, ham tilshunoslik sohasi uchun ulkan xazina kabi topilma topiladi. Shoira she'rlarining lingvopoetik xususiyatlari ustida hali ko'p izlanish zarur. Bu tilshunoslikdagi katta muammolardan biridir. Kelgusida bu muammolar o'z yechimi topilib, shoira ijodi to'laqonli tadqiq etiladi degan umiddamiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyati tilini o'rganish zarurati doi: 10.53885/edinres.2021.38.15.070 Dildora Yunus qizi Yusupova, -B 290
2. Yusupova D., Yuldasheva D. Halima Xudoyberdiyeva she'riyati lingvopoetikasi monografiya 2020. -B 114
3. Xudoyberdiyeva H. Tanlangan asarlar -T.: Sharq, 2020. -B 225.
4. Mingboyeva Z. Halima Xudoyberdiyeva poetikasida she'riy san'atlarning qo'llanishi Международный научный журнал №3 часть Научный импульс Октябрь, 2022- В 483
5. Xudoyberdiyeva H. Yo'ldadirman. - Toshkent., Sharq nashriyoti. 2006. - B 414
6. <https://fayllar.org/lafziy-sanat-turi.html>
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/halima-xudoyberdiyeva-she'rlar.html>
8. Yuldasheva D.N. Silence-is a nonverbal unit of speech communication. Impact Factor (SJIF 20 20= 6.156) American Journal of Research, 2020, 11-12issue of the Journal.-Pag.87-95.
9. Юлдашева Д. Особенности некоторых профессиональных фразеологизмов узбекского и английского языков. Сўз сан'ати халқаро журнали (ISSN: 2181-9297 DOI: 10.26739/2181-9297 www.tadqiqot.uz) -2021, 1-сон, 4-жилд. - В.:119-127. <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/446>
10. Yusupova D. Shoir so'z aytgani kelar dunyoga...(Shoira Halima Xudoyberdiyevaning hayot va ijod yo'liga chizgilar). Сўз сан'ати халқаро журнали (ISSN:2181-9297 DOI: 10.26739/2181-9297 www.tadqiqot.uz) -2021, 1-сон, 4-жилд. -B 21